

90^{yil}
T D I U

**SH.T. ERGASHEVA,
D.M. MAVLYANOVA,
F.T. TEMIROV**

BUXGALTERIYA HISOBI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**SH.T. ERGASHEVA, D.M. MAVLYANOVA,
F.T. TEMIROV**

BUXGALTERIYA HISOBI

TOSHKENT – 2021

UO‘K 657.02

KBK 65.052

E 56

**E 56 Sh.T.Ergasheva, F.T.Temirov, D.M. Mavlyanova.
Buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. – T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»,
2021 – 290 b.**

ISBN 978-9943-7423-3-8

O‘quv qo‘llanma bakalavr va magistrnlarni tayyorlash bo‘yicha Davlat standartlari talablari asosida tayyorlangan. Qo‘llanmada buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishning qonuniy, me‘yoriy-huquqiy va nizomlarga mos nazariy, uslubiy va amaliy masalalari to‘liq yoritilgan. O‘quv qo‘llanma talabalar, magistrlar, iqtisodiy mutaxassislik o‘qituvchilari, malakali buxgalterlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv-uslubiy markazlar tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K 657.02

KBK 65.052

Mas’ul muharrir: Axmedov X. D – i.f.n., dots.

**Taqrizchilar: D.E.Norbekov – Toshkent moliya instituti
«Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti;
A.T.Mahkamboyev – Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti “Buxgalteriya hisobi”
kafedrasi dotsenti.**

ISBN 978-9943-7423-3-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021,
© Sh.T. Ergasheva, D.M. Mavlyanova, F.T. Temirov, 2021.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	4
1-MAVZU.	BUXGALTERIYA HISOBINING PREDMETI VA USULLARI.....	6
2-MAVZU.	PUL MABLAGʻLARI VA HISOB KITOBLAR HISOBI.....	31
3-MAVZU.	ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI.....	68
4-MAVZU.	INVESTITSIYALAR HISOBI.....	107
5-MAVZU.	MATERIALLAR HISOBI.....	119
6-MAVZU.	MEHNAT VA UNGA HAQ TOʻLASH HISOBI.....	136
7-MAVZU.	XARAJATLAR HISOBI.....	147
8-MAVZU.	MAHSULOT, TOVAR (ISH, XIZMAT) LAR VA ULARNI SOTISH HISOBI.....	163
9-MAVZU.	KAPITAL, FONDLAR VA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI.....	176
10-MAVZU.	SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TOʻLOVLAR HISOBI.....	195
11-MAVZU.	MOLIYAVIY HISOBOT.....	224
12-MAVZU.	BOSHQARUV HISOBINING NAZARIY ASOSLARI.....	242
13-MAVZU.	BUDJETLASHTIRISH VA XARAJATLARNI NAZORAT QILISH.....	251
	ILOVALAR.....	236
	GLOSSARIY.....	259
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI	285

KIRISH

Respublikamiz oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitilayotgan iqtisodiy fanlar ichida "Buxgalteriya hisobi" fani ham muhim o'rinlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Buxgalteriya hisobi" fani muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tubdan yangilash, oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida korxonalar faoliyatini to'liq aks ettiruvchi ishonchli va barqaror axborot manbayiga bo'lgan ehtiyojning yanada ortishi "Buxgalteriya hisobi" fanini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotning barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun bu fan tayanch kurs sifatida o'qitiladi. E'tiboringizga havola etilayotgan o'quv qo'llanma ushbu fanning o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan bo'lib, unda uning jamiyatda tutgan o'rni, metodologiyasi, tashkil etish bo'yicha nazariy va amaliy masalalar yoritilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish kerak.

Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarning aksariyati moliyaviy barqaror bo'lmagani uchun davlatga og'ir yuk bo'lib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, kelgusi yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "O'zbekneftgaz", "O'zbekgidroenergo", "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tan olish kerak, mutaxassislarning bilim va malakasi, yirik korxonalarning texnik imkoniyatlari, ularni mustaqil transformatsiya qilish uchun yetarli emas. Shuning uchun elektr energetikasi, neft-gaz va kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yirik korxonalar hamda tijorat banklarini isloh qilishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot

banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda “MakKinzi”, “Boston konsalting Grupp”, “Rotshild” kabi xalqaro tan olingan kompaniyalar jalb etildi.

2021-yilda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan 32 ta yirik korxona va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi”¹, – deb ta’kidlashi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini puxta o‘zlashtirishlari, mavjud resurslardan samarali foydalanishlari hamda ularga ijodiy yondashishlarini ta’minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

“Buxgalteriya hisobi” fanining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini, iqtisodiyotni boshqarish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda buxgalteriya hisobi tizimining o‘rni, ahamiyati borasidagi g‘oyalarni talabalar ongida shakllantirishdan iborat.

Shularni hisobga olganda o‘quv qo‘llanmada joy olgan har bir mavzu nazariy yoritilgan, hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun testlar berilgan, amaliy masalalar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz va shahlo-t@mail.ru elektron manziliga yuborishingizni so‘raymiz.

Mualliflar

¹ Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa murojaatnomasi. <https://sputniknews-uz.com/society/20201229/15695638/Shavkat-Mirzievning-Oliy-mazhlisiga-va-khala-navbatdagi-murozhaatnomasi.html>

1-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBINING PREDMETI VA USULLARI

Ijtimoiy taraqqiyotning ishonchli zaminini yaratish ijtimoiy munosabatni demokratiyalashni, kishilarning tashabbusi va amaliy faoliyatiga chinakam erkinlik berishni, yuksak unum bilan mehnat qilish omillarini ishga solishni talab qiladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ishlab chiqarishni har tomonlama jadallashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish borasidagi belgilangan chora-tadbirlar qatorida xalq xo'jaligini boshqarishni yanada takomillashtirish xo'jalik mexanizmini bozor iqtisodiyotiga moslash imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkonini beruvchi samarali va ixcham boshqarish tizimini yaratish alohida ahamiyatga egadir.

Buxgalteriya hisobidagi atamalarga binoan iqtisodiy resurslarga aktiv sifatida, kreditorlik qarzlariga esa passiv sifatida qaraladi. Lekin bizning mamlakatimizda passiv deganda ham o'z mablag'larining manbalari hamda jalb qilingan mablag'larning manbalari (birgalikda) tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan boshqa mamlakatlarda esa passiv deganda faqat kreditorlik qarz tushuniladi. Shuning uchun ushbu mamlakatlarda bu tenglik quyidagicha:

$$\text{aktivlar} = \text{majburiyat} + \text{kapital}$$

ifodalansa, bizda: $\text{aktivlar} = \text{majburiyatlar} + \text{kapital}$ tengligi bilan ifodalanadi, ya'ni barcha aktivlar barcha passivlarga teng bo'ladi. Shu keltirilgan tenglama butun dunyoda balansli tenglama sifatida ma'lumdir.

Aktivlar subyektda ilgari amalga oshirilgan muomalalar yoki o'tgan davrda sodir bo'lgan hodisalar vositasida va mazkur yuridik shaxs tomonidan sotib olingan yoki nazorat qilinadigan mablag'larning holatini aks ettiradi.

Aktivlar balansda pulda ifodalangan qiymatlik, ya'ni pul mablag'lari va qarzdorlik majburiyatlar (debitorlar), material qiymatliklar, jumladan, tovar zaxiralari, er uchastkalari, imoratlar,

asbob-uskunalar, mualliflik huquqlari va savdo belgilari sifatida keltiriladi.

Majburiyatlar mazkur yuridik shaxs tomonidan boshqa yuridik shaxslardan olingan aktivlar yoki ularning xizmatidan foydalanib, ilgari amalga oshirilgan muomalalar yoki ilgari bo‘lib o‘tgan hodisalar natijasida daromadlarning taxmin qilingan potensial kamayishini anglatadi. Majburiyatlar kompaniyaning qarzlar, kreditorlarga kreditga sotib olingan tovar va xizmatlar uchun qarzlar, topshirilgan vasikalar uchun qarzga olingan pul mablag‘lari, ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi bo‘yicha qarzlar hamda davlatga soliqlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha qarzlardan iborat. Agar firma o‘z qarzlarini to‘lash qobiliyatiga ega bo‘lmasa, unda qarzlarini to‘lash uchun firmaning aktivlarini majburiy sotirish qonun bilan belgilangan. Bunda kreditorlar mulk egalariga qaraganda ko‘proq huquqqa ega bo‘lib, o‘zlariga tegishli summalarni to‘la-to‘kis undirib olish huquqiga egadirlar.

Kapital yuridik shaxsning mavjud aktivlaridan majburiyat summalarining ayirib tashlanganidan keyin qolgan qismi (summasi)dan iborat bo‘lib, shu yuridik shaxsning manfaatini anglatadi. Biznesda mulk egasining manfaati o‘z kapitali yoki oddiy qilib aytganda, kapital deb nomlanadi. Kapital mulk egasining kompaniya aktivlariga qilingan talabnoma (zayavka)sini anglatadi. Uning summasi qoldiq kapital deb ataladi. Chunki, agar mulk egasi hamma majburiyatlarini to‘lasa, qolgan summa kapital hisoblanadi. Shunday qilib, balans tenglamasidan foydalanib, kapitalni quyidagicha aniqlash mumkin:

kapital = aktivlar – majburiyatlar.

Kapital aktivlar bilan majburiyatlar o‘rtasidagi farqqa teng bo‘lganligi sababli ba’zida kapitalning qoldig‘i aktivga teng deyishadi.

Buxgalteriya hisobini yuritishda hisob siyosatining o‘rni va ahamiyati. Buxgalteriya hisobini yuritishning eng asosiy – balanslashtirish prinsipidan tashqari, 1996-yilning 30-avgustida qabul

qilingan O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun"ga ko'ra quyidagi asosiy prinsiplar kiritilgan:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usuli bilan yuritish;
- uzluksizlik;
- xo'jalik muomalalarini, aktiv va passivlarni pulda baholash;
- ishonchlilik;
- hisoblash ;
- uzoqni ko'rish (ehtiyotkorlik);
- mazmunning shakldan ustuvorligi;
- ko'rsatkichlarning solishtiruvchanligi;
- moliyaviy hisobotning xolisligi (neytralligi);
- hisobot davridagi daromad va xarajatlarning bir-biriga to'g'ri kelishi;
- aktiv va majburiyatlarni baholashning haqiqiyliigi.

Yuqorida keltirilgan prinsiplarning ko'pchiligi ilgari ma'muriy iqtisodiyot sharoitida ishlagan buxgalterlar uchun yangilikdir. Lekin ularning ba'zilari, birinchi qarashda tanish ko'rinsa ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida butunlay boshqa ma'noga ega.

Buxgalteriya hisobining ikkiyoqlama yozuv usuli bilan yuritish prinsipi yoki hisobning ikkilamchilik konsepsiyasi, buxgalteriya hisobining nazariyasi kursidan bizga ma'lum bo'lgan ikkiyoqlama yozuv atamasi hisobning ikkilamchilik konsepsiyasining amaliy gavdalanishi yoki qo'llanilishi usulidir. Ma'lumki, subyektning iqtisodiy resurslari aktivlar deb ataladi.

Passivlar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi: majburiyatlar, ya'ni kreditorlar (firma egalaridan tashqari, har qanday yuridik va jismoniy shaxslar)ning talablari va mulk egalarining kapitali, ya'ni subyekt egalarining talablari. Aksiyadorlik subyektlari egalarining kapitali, odatda, aksiyadorlik kapitali deb nomlanadi. Subyektning hamma aktivlari yoki uning egalari yoki kreditorlar tomonidan talab qilib olinishi mumkinligi va bu da'volarning umumiy summasi talab qilinayotgan aktivlar summasidan oshmasligi sababli aktivlar va passivlar teng bo'ladi. Mana shu asosiy buxgalteriya tenglamasi shakli hisobning ikkilamchiligi konsepsiyasini ifodalaydi. Buxgalteriya

hisobining barcha tadbirlari asosan shu tenglamadan kelib chiqib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$\underline{Aktivlar = majburiyatlar + kapital.}$$

Shuningdek, ma'lumki, subyektning hisob registrlarida aks ettiriladigan hodisalar xo'jalik muomalalari deb baholanib, har bir xo'jalik muomalasi hisob registrlariga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Chunki buxgalteriya hisobining tizimi shunday tashkil qilinganki, xo'jalik muomalasining har ikkala ta'siri ham hisob registrlarida aks ettirilishi shart. Shuning uchun buxgalteriya hisobi ikkiyoqlama yozuv tizimi deb nomlangan.

Buxgalteriya hisobining ikkilamchi konsepsiyasini tushuntirish quyidagi voqeaga murojaat qilamiz. Fuqaro Ahmedov yangi subyekt ochayapti, deb faraz qilamiz. Buning uchun u, birinchi navbatda, bankda schyotini ochib, o'zining shaxsiy pullaridan 100 ming so'm topshirdi deylik. Bu xo'jalik muomalasining ikkilamchi ta'siri shundaki, endi subyekt 100 ming so'mlik pul mablag'lari, ya'ni aktivga ega bo'ldi, fuqaro Ahmedov, mulk egasi esa bu aktivlarga nisbatan 100 ming so'mlik talabga ega bo'ldi. Boshqacha aytganda, buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Aktivlar (pul mablag'lari), 100 ming so'm Passivlar egasining kapitali, 100 ming so'm.

Navbatdagi xo'jalik muomalasi 30 ming so'mlik bank kreditini olishdan iborat bo'lgan. Bunda hisob registrlari ikki yo'nalishda o'zgartirilgan:

1) ularning pul mablag'lari 30 ming so'mga ko'payib, 130 ming so'mni tashkil qilganligini ko'rsatadi; 2) ularning aktivlariga yangi talab, ya'ni bankning 30 ming so'mlik talabining paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Uzluksizlik. Ma'lumki, buxgalteriya hisobi subyektning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining harakatini ko'rsatadi. Buning uchun u xo'jalik jarayonidagi barcha muomalalarning ustidan yoppasiga va uzluksiz kuzatuv olib borib, natijada olingan ma'lumotlarni o'lchash va hujjatlarda aks ettirish yo'li bilan ularni yagona pul o'lchovida umumlashtirgan holda ko'rsatib beradi. Shuning uchun buxgalteriya hisobi ayrim subyektlarda sodir bo'layotgan jarayon va xo'jalik muomalalarini uzluksiz kuzatish va

ketma-ket qayd qilishni amalga oshirish va xo‘jalik faoliyatini har tomonlama nazorat qilish usuli hisoblanadi.

Xo‘jalik muomalalarining aktiv va passivlarini pulda baholash.

Bu prinsip universal o‘lchagich sifatida pul o‘lchagichidan foydalanishni anglatadi.

Ishonchlilik. Moliyaviy hisobot faqat pulda ifodalangan axborot sifatida qayd qilinadi. Bunday hisobning afzalligi shundaki, unda pul umumqabul qilingan o‘lchagich hisoblanib, uning vositasida sodir bo‘lgan turli-tuman hodisalari umumlashtirish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkich, ya’ni pulda ifodalash mumkin.

Buxgalteriya hisobining usullari (usul elementlari)ga quyidagilar kiradi:

- hujjatlashtirish va inventarizatsiya;
- baholash va kalkulyatsiya;
- buxgalteriya hisobi schyotlari va ikkiyoqlama yozuv;
- buxgalteriya balansi va hisobot.

Hujjatlashtirish buxgalteriya hisobining obyektlari ustidan yoppasiga va uzluksiz kuzatishni amalga oshirish imkonini beradigan dastlabki aks ettirish usulidir. Buning uchun har bir alohida operatsiya uchun yoki ularning bir turdagi guruhi uchun dastlabki hisob axborotini muayyan moddiy tashuvchisi tuziladi. Unda amalga oshirilgan operatsiyaning mazmuni qayd etiladi.

– Hujjatlashtirish yordamida sodir bo‘layotgan xo‘jalik operatsiyalari haqida mukammal ma’lumotlar olinadi. Bu ma’lumotlar ularni keyinchalik iqtisodiy jihatdan guruhlash va umumlashtirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Huquqiy talablarga rioya qilingan holda hujjatlardan foydalanish buxgalteriya hisobining ma’lumotlariga isbotlovchi kuch bag‘ishlaydi. Lekin xo‘jalik jarayonida bo‘lib o‘tayotgan barcha hodisalarni ham hujjatlashtirish yordamida qayd qilib bo‘lavermaydi. Jumladan, tabiiy yo‘qolish, mablag‘larni qabul qilish va topshirish paytidagi noaniqliklar, hisobdagi xatolar va qolaversa, o‘g‘riliklar tegishli qiymatliklarning haqiqiy miqdorini dastlabki axborotni tashuvchilar hamda hisobda aks ettirilganlaridan chetga og‘ishishiga olib keladi. Bunday hodisalarni rasmiylashtirish, ular sodir bo‘layotganda emas, balki ma’lum bo‘lgandagina mumkin bo‘ladi.

Dastlabki axborot tashuvchilar tomonidan qayd qilinmay qolgan hodisalar, hujjatlashtirishga zaruriy qo'shimchalar, ya'ni qayta ro'yxatga olish yordamida aniqlanadi. Uning ma'lumotlari yuqorida keltirilgan u yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z vaqtida hisobga olinmay qolgan hisob ko'rsatkichlarini haqiqatdagiga muvofiqlashtirish uchun xizmat qiladi. Hujjatlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

- o'z vaqtida tuzish;
- to'liq va ishonchli bo'lishi;
- xo'jalik faoliyati ustidan dastlabki va joriy nazoratni olib borish.

Buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan hujjatlar bir nechta belgilari bo'yicha tavsiflanadi:

- tuzilgan joyi bo'yicha;
- aks ettirilgan xo'jalik muomalalarning hajmiga ko'ra;
- qamrab olish usuliga ko'ra;
- maqsadiga ko'ra.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: xo'jalik yurituvchi subyektlarda xo'jalik mablag'larining turi, joylashishi va ularning tashkil etish manbalari hamda maqsadiga qarab guruhlash tartibini o'rganishdir.

1-masala. Masalani bajarish uchun quyidagi ma'lumotlar asosida "Oqsoy" AJ xo'jalik mablag'larini 2020-yil 1-oktabr holatiga turi, tarkibi va joylashuvi bo'yicha guruhlashtirilsin.

2020-yil 1-oktabr holatiga "Oqsoy" AJning xo'jalik mablag'larining tarkibi.

№	Xo'jalik mablag'larining nomi	Qiymati, so'm.
1.	Ma'muriyat binosi	11 120 400
2.	Kompyuter texnikasi	736 000
3.	Ehtiyot qismlari	236 000
4.	Po'lat tasma	168 000
5.	Bank hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari	9 600 000
6.	Sexlardagi turli dastgohlar	9 042 010
7.	Avtomobil	17 900 000

8.	Qurilish xomashyosi va materiallari	390 000
9.	Inshoot (tashkilotning chegarasi)	3 360 000
10.	Yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish xarajatlari	831 000
11.	Tashkilotning boshqa mulklari	181 000
12.	Ombordagi turli xomashyo va materiallar	3 400 000
13.	Ombor binosi	13 590 000
14.	Yoqilg'i	760 000
15.	Xo'jalik inventari	430 000
16.	Obuna xarajatlari	120 100
17.	Metall javonlar (shkaf)	116 1500
18.	Payvandlash dastgohi	30 000 000
19.	Mexanik sex binosi	2 10 450 000
20.	G'aznaxona (kassa)dagi naqd pul mablag'lari	5 600
21.	Mualliflik huquqi, kashfiyotga patent	2 200 000
22.	Radiotelefon	450 000
23.	Umumiy xo'jalik binosi	172 000 000
24.	Ombordagi tayyor mahsulot	36 700 000
25.	Frezer dastgohi	285 000
26.	Mebel va jihozlar	75 000
27.	Idish va idishbop materiallar	36 800

“Oqsoy” AJning xo'jalik vositalarini 1-jadvalda guruhlashtirish.

1-jadval

Xo'jalik mablag'larini tarkibi va joylashuvi bo'yicha guruhlashtirish

№	Xo'jalik mablag'larining nomi	Qiymati, so'm
	<i>1. Asosiy vositalar</i>	
1.1.	Bino	
1.2.	Inshoot	
1.3.	Ishlab chiqarish dastgohi	
1.4.	Transport vositalari	

1.5.	Hisoblash texnikasi	
1.6.	Xo‘jalik inventari	
	1-guruh bo‘yicha jami	
	2. Nomoddiy aktivlar	
2.1.	Mualliflik huquqi, kashfiyotga patent	
	1-guruh bo‘yicha jami	
	<i>1.Aylanma mablag‘lar</i>	
3.1.	Ishlab chiqarish zaxiralari	
3.2.	Tayyor mahsulot	
3.3.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari	
3.4.	Kelgusi davr xarajatlari	
3.5.	Pul mablag‘lari:	
	g‘azna (kassa)da	
	hisob-kitob schyotida	
	3-guruh bo‘yicha jami	
	Jami	

2-masala. Masalani bajarish ma’lumotlari asosida tikuv fabrikasi “Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘larini tarkibi va joylashuvi bo‘yicha guruhlashtirish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar: “Oqsoy” AJ tikuv fabrikasining xo‘jalik mablag‘larining 2020-yil 1-aprel holati.

№	Xo‘jalik mablag‘larining nomi	O‘l-chov birligi	Soni	Narxi, so‘m	Qiymati, so‘m
1.	Jun gazlamalar	m	3000	2300	
2.	Bichish dastgohlari	dona	500	200000	
3.	Kiyim-kechaklar	-	250	30000	
4.	Tosh ko‘mir	t	600	220	
5.	Shaxsiy kompyuter	dona	1	2518500	
6.	Yuk avtomobillari	-	2	14100000	
7.	Mashina moylari	kg	2010	400	
8.	Qurilish xomashyo va materiallari	dona	2	35000	

9.	Asosiy sex binosi	s o'm	-	-	
10.	Paxta gazlama	m	1000	50	
11.	Xomashyo va materiallar ombori binosi	so'm	-	-	
12.	Erkaklarning jun kamzuli	dona	15	180000	
13.	Bolalar kamzuli	-	120	40000	
14.	Yengil avtomobil	-	1	11700000	
15.	Universal tikuv mashinasi	-	20	2502010	
16.	Hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari	so'm			
17.	Ofis mebellari	-	1	880000	
18.	Kassadagi naqd pul	so'm			
19.	Qozonxona binosi	-			
20.	Vetosh	kg	5,2	2000	
21.	Ofis binosi	so'm			
22.	Erkaklar kamzulini bichish	-	100	5000	
23.	Anvarovga beriladigan bo'nak	so'm			
24.	Maxsus tikuv mashinalari	-	25	200000	
25.	Komilovga berilgan bo'nak	so'm			
26.	Ofis uchun stollar	-	5	150000	
27.	Garaj binosi	so'm			
28.	Yuklangan tovarlar	so'm			
29.	Andoza uchun stollar	-	30	50000	
30.	Ipak gazlamalar	m	2000	1500	
31.	Bolalar kostyumi bichimi	-	35	4000	
32.	Kiyim-kechaklar	-	43	176000	
33.	Drap matolar	m	500	3200	
34.	Turli jihozlar	so'm			
35.	Yordamchi jihozlar	so'm			

“Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘larini guruhlashni 2-jadvalda amalga oshirish.

Xo‘jalik mablag‘larining turlari va joylashishi	Summa
I. Uzoq muddatli aktivlar	
1.	
2.	
3. va h.k.	

I bo‘lim bo‘yicha jami	
II. Joriy aktivlar	
1.	
2.	
3. va h.k.	
II bo‘lim bo‘yicha jami	

3-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida “Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘larini shakllantirish manbalari va maqsadi bo‘yicha guruhlashtirish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar: “Oqsoy” AJ tikuv fabrikasi xo‘jalik mablag‘larining hosil bo‘lish manbalari 2020-yil 1-aprel holati

No	Manbalar nomi	Umumiy qiymati, m.s
1.	Qo‘shimcha kapital	80 000
2.	“Oqsoy” AJning gazlama uchun qarzdorligi	45 000
3.	Ustav kapitali	50 368 110
4.	Banklarning bir yilgacha muddatli kreditlari	186 000
5.	Zaxira kapital	60 000
6.	Banklarning uzoq muddatli kreditlari	36 000
7.	Foyda	774 000
8.	Mehnat haqi bo‘yicha ishchilarga qarzdorlik	20 000
9.	Ijtimoiy sug‘urta va ta’minot bo‘yicha qarzdorlik	12 000
10.	Soliqlar bo‘yicha qarzdorlik	6 000
11.	Turli kreditorlarga qarzdorlik	85600
12.	Kelgusi davr daromadlari	48 000
13.	Hisobdor shaxslarning qarzdorligi	1300
14.	Ta’tillarga haq to‘lash zaxiralari	197 500

“Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘lari hosil bo‘lishi manbalarini guruhlashni jadvalda quyidagi shaklda amalga oshirish:

2-jadval

№	Xo‘jalik vositalarini shakllantirish manbalari va maqsadli yo‘naltirilishi	Umumiy qiymati, so‘m
	1. Shaxsiy mablag‘lar manbalari	
1.1	Ustav kapitali	
1.2	Qo‘shimcha kapital	
1.3	Zaxira kapital	
1.4	Foyda	
	1-guruh bo‘yicha jami	
2.1	Uzoq muddatli majburiyatlar	
	uzoq muddatli kreditlar	
	uzoq muddatli qarzlar	
2.2	Qisqa muddatli majburiyatlar	
	qisqa muddatli kreditlar	
	qisqa muddatli qarzlar	
2.3	Kreditorlik qarzi, shu jumladan	
	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga	
	mehnat haqi bo‘yicha	
	ijtimoiy sug‘urta va ta‘minot bo‘yicha	
	solliqlar va yig‘imlar bo‘yicha budjet oldida	
	boshqa kreditorlar	
	Kelgusi davr daromadlari	
	Kelgusi davr xarajatlar zaxiralari	
	2-guruh bo‘yicha jami	
	Jami	

4-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida “Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘larini shakllantirish manbalari va maqsadli yo‘nalishlari bo‘yicha 2-jadvaldan foydalangan holda guruhlashtirish. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar: “Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘larini shakllantirish manbalari va maqsadli yo‘nalishlari tarkibining 2020-yil 1-oktabr holati

№	Xo‘jalik mablag‘lari manbalari nomi	Umumiy qiymati
1.	Ishchilar ta‘tiliga haq to‘lash zaxirasi	206 650
2.	Ustav kapitali	3 132 800
3.	Qo‘shimcha kapital	122 300
4.	Ta‘minotchilarning xomashyo va materiallar uchun qarzidorligi	562000
5.	Bankka uch yil muddatga kredit bo‘yicha qarzidorlik	2 571 000
6.	Taqsimlanmagan foyda	194 000
7.	Zaxira kapital	22 000
8.	Foyda solig‘i foyda solig‘i bo‘yicha budgetga to‘lovlar	19 400
9.	Boshqa kreditorlik bo‘yicha qarzidorlik	916 700
10.	Tashkilot ishchilariga ish haqi bo‘yicha qarzidorlik	500 500
11.	Boshqa yuridik shaxslardan olingan qarzlar	520 000
12.	Bankka bir yil muddatga kredit bo‘yicha qarzidorlik	235 000
13.	Ijtimoiy sug‘urta fondlari oldidagi qarzidorlik	15 000

5-masala. Ma‘lumotlar asosida masalani bajarish uchun 1- va 2-jadvaldan foydalangan holda xo‘jalik mablag‘larining tarkibi va qiymati, shakllantirish manbalari va maqsadga yo‘naltirilishi bo‘yicha guruhlashtirish.

Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar:

“Don” AJ xo‘jalik mablag‘lari tarkibining 2020-yil 1-yanvar holati

№	Xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari nomi	Qiymati, m.s
1.	Ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi to‘lash bo‘yicha qarzidorlik	318 000
2.	Ombordagi asosiy xomashyo va materiallar	21 500
3.	Chilangar girasi	42010
4.	Budjetga qarzidorlik	56 000

5.	Tugallanmagan ishlab chiqarish	6300
6.	Xo‘jalik jihozlari	9000
7.	Hisob-kitob raqamidagi pul mablag‘lari	128 000
8.	Qo‘shimcha kapital	171 000
9.	Ijtimoiy sug‘urta va ta’minot bo‘yicha qarzdorlik	32 000
10.	Taqsimlanmagan foyda	223 000
11.	Ombor binosi	1 059 000
12.	Bankka kredit bo‘yicha to‘rt yil muddatga qarzdorlik	198 000
13.	Ombordagi tayyor mahsulot	38 2010
14.	Ishchilarga ta’til pulini to‘lash bo‘yicha zaxira	220 000
15.	Telefaks	6000
16.	Boshqa kreditorlarga qarzdorlik	390 000
17.	Yoqilg‘i	15 400
18.	Mixlar	11 000
19.	Ustav kapitali	2 612 000
20.	Ishlab chiqarish binolari	1 206 000
21.	Kassadagi naqd pullar	20100
22.	Randalar	52010
23.	Hisobot qiymati bo‘yicha A.L. Ismoilovning qarzdorligi	110
24.	Bankka qisqa muddatli kredit bo‘yicha qarzdorlik	145 000
25.	Uskunalar	62010
26.	Mashina va ishlab chiqarish dastgohlari	1 306 000
27.	Mashina moyi	32010
28.	Lak	2190
29.	Hisoblash texnikasi	152 900
30.	Yengil avtomobil	150 700
31.	Gazeta va jurnallarga obuna bo‘yicha xarajatlar	1500
32.	Yuk avtomobili	205 600
33.	Bo‘yoqlar	2800
34.	Zaxira kapitali	104 000
35.	Yangi mahsulot turlari sotib olish xarajatlari	126 000

6-masala. “Oqsoy” AJning xo‘jalik mablag‘lari va ularning hosil bo‘lish manbalarini guruhlashtirish.

Xo'jalik mablag'larining tarkibi va joylashuvi bo'yicha guruhlanishini 1-jadval bo'yicha guruhlashtirish; shakllantirish manbalari va maqsadli yo'nalishi bo'yicha guruhlanishini 2-jadvalda amalga oshirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar: "Oqsoy" AJ xo'jalik mablag'lari tarkibining 2020-yil 1-yanvar holati.

№	Xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari nomi	Qiymati, m.s
1.	Umumiy xo'jalik binosi	1 590 000
2.	Mashina va jihozlar	546 000
3.	Ishlab chiqaruvchi sex binosi	1 805 000
4.	Ofis binosi	1 180 000
5.	Qo'shimcha kapital	316 000
6.	Ombordagi xomashyo va materiallar turi	63 000
7.	Yengil avtomobil	187 000
8.	Davlat nobudjet jamg'armalariga qarzdorlik	83 000
9.	Xaridorlardan olingan bo'naklar	267 000
10.	Ustav kapitali	3 700 000
11.	Kashfiyotlarga patentlar	22 000
12.	Boshqa debitorlarning qarzlar	8000
13.	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarzdorlik	170 000
14.	Yoqilg'i	4000
15.	Dividendlar olish maqsadida sotib olingan aksiyalar	16 000
16.	Hisoblash texnikasi	45 000
17.	Zaxira kapital	260 000
18.	Berilgan bo'naklar	13 500
19.	Ombordagi tayyor mahsulot	42 500
20.	Soliqlar yig'imlar bo'yicha budjetga qarzdorlik	90 000
21.	Hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari	93 000
22.	Yarim tayyor mahsulot	6000
23.	Jihozlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlari	110 000
24.	Ishchilarga ish haqi bo'yicha qarzdorlik	255 000
25.	EHM uchun dasturlarga mualliflik huquqi	32 000
26.	Ta'minotchilarga xomashyo va materiallar uchun qarzdorlik	190 000

27.	Xo'jalik ehtiyojlariga kassadan olingan qiymatlar bo'yicha tashkilot ishchilarining qarzi	20100
28.	Xo'jalik jihozlari turi	5400
29.	Tashkilot ixtiyoridagi yer maydoni	111 000
30.	Taqsimlanmagan foyda	330 000
31.	Kassadagi pul mablag'lari	4600
32.	Boshqa kreditorlarga qarzдорlik	70 000
33.	Yuk avtomobili	220 000
34.	Valuta hisobidagi pul mablag'lari	25 000

7-masala. “Orzu” MCHJning xo'jalik mablag'lari va ularning hosil bo'lish manbalarini guruhlashtirish.

Xo'jalik mablag'larini tarkibi va joylashuvi bo'yicha guruhlanishini 1-jadval bo'yicha guruhlashtirish; shakllantirish manbalari va maqsadli yo'nalishi bo'yicha guruhlanishini 2-jadvalda amalga oshirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar: Xo'jalik mablag'larining tarkibi va joylashuvi bo'yicha guruhlanishini 1-jadval bo'yicha guruhlashtirish; shakllantirish manbalari va maqsadli yo'nalishi bo'yicha guruhlanishini 2-jadvalda amalga oshirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar: “Orzu” MCHJ xo'jalik vositalarining 2020-yil 1-yanvar holatidagi tarkibi.

№	Xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari nomi	Qiymati, m.s
1.	Kassadagi pul mablag'lari	2500
2.	Zaxira kapital	102 000
3.	Soliq va yig'imlar bo'yicha budjetga qarzдорlik	62 000
4.	Hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari	96 700
5.	Taqsimlanmagan foyda	992 000
6.	Ombordagi xomashyo va materiallar	38 300
7.	Ustav kapitali	1 670 000
8.	Kompyuterlar	64 000
9.	Ombordagi tayyor mahsulot	71 2010
10.	Ofis binosi	1 397 000
11.	Qo'shimcha kapital	524 000
12.	Ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi bo'yicha qarzдорlik	519 000

13.	Yengil avtomobil	189 000
14.	Boshqa kreditorlarga qarzdorlik	54 000
15.	Yig'ish sexining binosi	1 154 000
16.	Kashfiyotlarga patent	79 300
17.	Qisqa muddatli kredit bo'yicha bankka qarzdorlik	300 000
18.	Tugallanmagan ishlab chiqarish	6000
19.	Ta'minotchilarga xomashyo va materiallar uchun qarzdorlik	98 2010
20.	O.A. Panjiyevning hisobot qiymati bo'yicha qarzi	600
21.	Boshqa debitorlarning qarzi	10 400
22.	Olingan bo'naklar	224 600
23.	Ta'sischilarning ustav kapitaliga badallari bo'yicha qarzdorligi	21 000
24.	Berilgan bo'naklar	44 000
25.	Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzdorlik	53 000
26.	Yuk avtomobili	220 000
27.	Xo'jalik jihozlari turlicha	13 2010
28.	Mashina va jihozlar	843 2010
29.	Inshootlar (tashkilotni o'rab turgan)	715 000
30.	Uzoq muddatli kredit bo'yicha bankka qarzdorlik	580 000
31.	Yoqilg'i	35 600
32.	Ombor binosi	1 072 000
33.	Yangi mahsulot turlarini sotib olish xarajatlari	216 000
34.	Kelgusi davr xarajatlari	301 2010
35.	Boshqa yuridik shaxslardan ikki yillik muddatga olingan qarzlari	269 000
36.	Dividendlar to'lash bo'yicha aksionerlarga qarzdorlik	540 000

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: xo'jalik muomalalarining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarini ochish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida bir oylik xo'jalik muomalalarini ikkilamchi yozuv usuli bilan aks ettirish;
- bir oylik aylanmalarni hisoblab chiqish va yakuniy qoldiqlar;

– hisobvaraqalardagi qoldiqlar ma’lumotlariga ko‘ra “Angren” AJning 2020-yil 1-fevral holatidagi buxgalteriya balansini tuzish.
Masalani bajarish uchun ma’lumotlar:

“Angren” AJning 2020-yil 1-yanvar holatidagi buxgalteriya balansini

Aktiv		Passiv	
Moddalar nomi	Umumiy qiymati, ming so‘m	Moddalar nomi	Umumiy qiymati, ming so‘m
I. Uzoq muddatli aktivlar		I. Kapital va zaxiralar	
Asosiy vositalar	930 000	Ustav kapitalari	870 000
I bo‘lim bo‘yicha jami		III bo‘lim bo‘yicha jami	
II. Joriy aktivlar		V. Qisqa muddatli majburiyatlar	
Xomashyo va materiallar	32 000	Mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblar	102 000
Kassa	1000	Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	140 000
Hisobraqamlari	149 000		
II bo‘lim bo‘yicha jami			
Balans	1 112 000	Balans	1 112 000

“Angren” AJ xo‘jalik muomalalarining 2020-yil yanvar holati

Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Umumiy qiymati, so‘m
Ishlab chiqarishga ombordan chiqarilgan xomashyo va materiallar	22 000

Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarga hisoblangan ish haqi	36 000
Hisob-kitob raqamidan ish haqini to'lash uchun kassaga tushgan pul mablag'lari	102 000
Tashkilot ishchilariga ish haqi tarqatilgan	102 000
Bankning qisqa muddatli hisob-kitob raqamiga o'tkazilgan	130 000
Material ta'minotchilaridan tushgan	46 000
Hisob-kitob raqamidan ta'minotchilarga xomashyo va materiallar uchun qarzni qoplashga o'tkazilgan	174 000
Ishlab chiqarishdan chiqarilgan tayyor mahsulot	50 00

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqaqlarini ochish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqaqlarida bir oylik xo'jalik muomalalarini ikkiyoqlama yozuv usuli bilan aks ettirish;
- bir oylik aylanmalarni hisoblab chiqish va yakuniy qoldiqlar;
- hisobvaraqaqlar ma'lumotlariga ko'ra "Oqsoy" AJning 2020-yil - noyabr holati buxgalteriya balansini tuzish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

"Oqsoy" AJ ning 2020-yil 1-oktabr holatidagi buxgalteriya balans

Aktiv		Passiv	
Moddalar nomi	Umumiy qiymati, ming so'm	Moddalar nomi	Umumiy qiymati, ming so'm
I. Uzoq muddatli aktivlar		III. Kapital va zaxiralar	
Asosiy vositalar	724 000	Ustav kapitalari	747 000
I bo'lim bo'yicha jami	724 000	III bo'lim bo'yicha jami	747 0
I. Joriy aktivlar		V. Qisqa muddatli majburiyatlar	

Xomashyo va materiallar	45 000	Qisqa muddatli kredit	250 000
Tugallanmagan ishlab chiqarish	11 2010	Soliq va yig'imglar bo'yicha hisob-kitoblar	42 000
Debitorlik qarzi	15 800		
Kassa	3000		
Hisob-kitob raqami	240 000		
II bo'lim bo'yicha jami	315 000	V bo'lim bo'yicha jami	
Balans	1 039 000	Balans	1 039 000

**“Oqsoy”AJ xo‘jalik muomalalarining 2020-yil
1-oktabr holati**

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Umumiy qiymati, ming so‘m
1	Hisob-kitob raqamiga qo‘shilgan debitorlik qarzi	15 800
2	Ta‘minotchining hisobvaraqlari kelib tushgan xomashyo va materiallar uchun akseptlangan	16 000
3	Asosiy ishlab chiqaruvchilarga ish haqi hisoblab chiqarilgan	35 000
4	Ombordan ishlab chiqarishga chiqarilgan mahsulotlar	49 000
5	Hisob-kitob raqamidan ta‘minotchilarga xomashyo va materiallar uchun qarzlarni qoplashga o‘tkazilgan	16 000
	Xo‘jalik xarajatlari uchun hisobot asosida kassadan mablag‘ berildi	1500
7	Hisob-kitob raqamidan budjetga o‘tkazilgan soliqlar	42 000
8	Kredit bo‘yicha qarzдорlikni qoplashga hisob-kitob raqamidan o‘tkazilgan	140 000
9	Ishlab chiqarish maqsadlarida hisobdor shaxslar tomonidan sarflangan	1350
10	Hisobdor shaxs tomonidan foydalanilmagan pul mablag‘i kassaga qaytarilgan	?

3-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarini ochish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida bir oylik xo'jalik muomalalarini ikkilamchi yozuv usuli bilan aks ettirish;
- bir oylik aylanmalarni hisoblab chiqish va yakuniy qoldiqlar;
- hisobvaraqlardagi qoldiqlar ma'lumotiga ko'ra "Ziyo mebel" korxonasining 2020-yil 1-dekabr holatidagi buxgalteriya balansini tuzish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar:

**"Ziyo mebel" korxonasining 2020-yil 1-noyabr holatidagi
buxgalteriya balans**

Aktiv		Passiv	
Moddalar nomi	Umumiy qiymati, ming so'm	Moddalar nomi	Umumiy qiymati, ming so'm
I. Uzoq muddatli aktivlar		III. Kapital va zaxiralar	
Asosiy vositalar	641 000	Ustav kapitalari	950420
I bo'lim bo'yicha jami	641 000	III bo'lim bo'yicha jami	950420
I. Joriy aktivlar		IV. Qisqa muddatli majburiyatlar	
xomashyo va materiallar	96 000	Mol yetkazib beruvchilar va pud-ratchilar oldidagi majburiyatlar	424200
Tugallanmagan ishlab chiqarish	19 400	Soliq va yig'imlar bo'yicha majburiyatlar	42 000
Tayyor mahsulot	51 2010	Mehnat haqi majburiyatlar	105 700
Debitorlik qarzi	64 900		
Kassa	52010		
Hisob-kitob raqami	137 000		

II bo‘lim bo‘yicha jami	881320	IV bo‘lim bo‘yicha jami	571900
Balans	1 522 320	Balans	1 522 320

**“Ziyo mebel” korxonasi xo‘jalik muomalalarining 2020-yil
noyabr holati**

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Umumiy qiymati, ming so‘m
1	Bankning qisqa muddatli krediti olindi	102 500
2	Hisob-kitob raqamidan kassaga ish haqi tarqatish uchun pul olib kelindi	105 700
3	Tashkilot ishchilariga ish haqi tarqatildi	94 600
4	Kassadan hisob-kitob raqamiga deponentlangan ish haqi qaytarildi	11 100
5	Ta‘minotchilarga qarzdorlikni qoplashga hisob-kitob raqamidan o‘tkazilgan	70 000
6	Ombordan ishlab chiqarishga jo‘natilgan xomashyo va materiallar	36 000
7	Ustav kapitaliga badal hisobiga ta‘sischilardan hisob-kitob raqamiga o‘tkazilgan pul mablag‘lari	18 000
8	Soliqlar bo‘yicha budjetga qarzdorlikni qoplashga hisob-kitob raqamidan o‘tkazilgan	42 600
9	Ishlab chiqarishdan chiqarilgan tayyor mahsulot	63 00

3-amaliy mashg‘ulot

Darsning maqsadi – talabalarga xo‘jalik muomalalarining mazmunini hisobvaraqlarning o‘tkazmalari ma’lumotlari bo‘yicha aniqlashni o‘rgatish.

1-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida xo'jalik muomalalarining mazmunini ifodalang.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar:

№	O'tkazmalanuvchi hisobvaraqlar nomi		Umumiy qiymati, so'm
	debit	kredit	
1	Hisob-kitob raqami	Bankning qisqa muddatli krediti	64 000
2	Kassa	Hisob-kitob raqami	20 000
3	Soliq va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar	Hisob-kitob raqami	12 000
4	Xomashyo va materiallar	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	16 000
5	Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar	Kassa	22010
6	Xomashyo va materiallar	Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar	20100
7	Kassa	Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar	2010
8	Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	Soliq va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar	8600
9	Asosiy ishlab chiqarish	Xomashyo va materiallar	13 000

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida xo'jalik muomalalarining mazmunini ifodalang.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar:

№	O'tkazmalanuvchi hisobvaraqlar nomi		Umumiy qiymati, m.s.
	debit	kredit	
1	Asosiy ishlab chiqarish	Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	56 000
2	Yoqilg'i	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	6000
3	Ehtiyot qism	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	8000
4	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	Hisob-kitob raqami	14 000
5	Asosiy ishlab chiqarish	Xomashyo va materiallar	20 936
6	Kassa	Hisob-kitob raqami	48 000
7	Tayyor mahsulot	Asosiy ishlab chiqarish	84 000
8	Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	Kassa	36 000
9	Kassa	Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	3100
10	Asosiy ishlab chiqarish	Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar	300

3-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida xo'jalik muomalalarining mazmunini ifodalang.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

№	O'tkazmalanuvchi hisobvaraqlar nomi		Umumiy qiymati, m.s
	debit	kredit	
1	Soliq va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar	Hisob-kitob raqami	24 000
2	Hisob-kitob raqami	Kassa	96000
3	Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha hisob-kitoblar	Hisob-kitob raqami	20 000
4	Xomashyo va materiallar	Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sischilar bilan hisob-kitoblar	49 000
5	Asosiy ishlab chiqarish	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	1900
6	Hisob-kitob raqami	Kassa	1000
7	Ishlab chiqarishdagi brak	Xomashyo va materiallar	4000
8	Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	Ishlab chiqarishdagi brak	2300
9	Yordamchi ishlab chiqarish	Yoqilg'i	2900
10	Savdo	Foyda va zararlar	80 000

TEST SAVOLLARI

1. Yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan.

a) 2016-yilda; b) 1996-yilda; c) 1999-yilda; d) 2000-yilda

2. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?

a) Aktiv – Kapital = Majburiyat;

b) Majburiyat + Kapital = Aktiv;

v) Majburiyat + Aktiv = Kapital;

g) Aktiv – Majburiyat = Kapital.

3. O‘z mablag‘lari manbaiga nima kiradi?

- a) debitor qarzi;
- b) tayyor mahsulot;
- c) bankning uzoq muddatli krediti;
- d) ustav kapitali.

4. Buxgalteriya hisobi usullari

- a) hujjatlashtirish, inventarizatsiya, schyotlar, ikki yoqlama yozuv;
- b) hujjatlashtirish, inventarizatsiya, schyotlar, ikki yoqlama yozuv, baholash, kalkulyatsiya, balans, hisobot;
- c) inventarizatsiya, schyotlar, ikki yoqlama yozuv, kalkulyatsiya, balans, hisobot;
- d) hujjatlashtirish, ikki yoqlama yozuv, baholash, kalkulyatsiya, balans, hisobot.

5. Ikki yoqlama yozuvning asoschisi kim?

- a) Gyugli i Sherr;
- b) Luka Pacholi;
- c) Benedikt Kotruli;
- d) Sovet iqtisodchilari.

6. Subyektda buxgalteriya hisobini yuritish uchun kim javobgar?

- a) buxgalter;
- b) rahbar;
- c) buxgalter va rahbar;
- d) buxgalteriya xodimlari.

Tayanch iboralar: predmet, aktiv, passiv, o‘z mablag‘lari, o‘z mablag‘lari manbalari, schyotlar rejasi, asosiy ishlab chiqarish, joriy aktivlar, xo‘jalik muomalalari.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Buxgalteriya hisobining funksiyalari nimalardan iborat?
2. Buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan usullarni tavsiflang.
3. Buxgalteriya hisobi qanday vazifalarni bajaradi?
4. Buxgalteriya hisobi ma‘lumotlaridan foydalanuvchilar kimlar?
5. Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
6. Hisob siyosati to‘g‘risida tushuncha bering.

2-MAVZU. PUL MABLAG‘LARI VA HISOB-KITOBLAR HISOB

Korxona, firma va tashkilotlar faoliyatida xo‘jalik aloqalari muhim o‘rin tutadi, chunki bu aloqalar orqali ta‘minot, ishlab chiqarish, mahsulotlarni jo‘natish va sotish jarayonlari amalga oshiriladi. Xo‘jalik aloqalari shartnomalarga asoslanib amalga oshiriladi. Natijada bitta xo‘jalik yurituvchi subyekt tovar-material zaxiralarini yetkazib beruvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlarni ko‘rsatuvchi, ikkinchi xo‘jalik yurituvchi subyekt esa sotib oluvchi, iste‘molchi sifatida maydonga chiqadi, natijada ushbu qiymatliklar, ish va xizmatlar qiymatliklarini to‘lash bo‘yicha huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

Bu aloqalar natijasida hosil bo‘lgan hisoblashishlarni aniq tashkil etish, ayniqsa bozor sharoitida aylanma mablag‘larning tezkorlik bilan aylanishiga va pul mablag‘larining o‘z vaqtida kelib tushishiga sharoit yaratib beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar yuqoridagi muomalalaridan tashqari ishlab chiqarish topshiriqlarini bajaruvchi xodimlar bilan ham o‘zaro hisoblashishlar – ishchi va xizmatchilar, ijtimoiy muhofaza, budjet bilan bo‘ladigan hisoblashishlarni ham amalga oshiradi. Ko‘p hollarda korxona, tashkilot va muassasalar bilan hisoblashishlar naqd pulsiz amalga oshiriladi. Bu hisoblashishlar jarayonida bank xizmatlaridan foydalaniladi, chunki hisoblashishlar amalga oshiriladigan schyotlar tegishli banklarda ochiladi. Banklar yuridik shaxs hisoblanib, korxona va tashkilotlar mablag‘larini qaytarib berish, foizlarni to‘lash va muddatli shartlar to‘lash bilan jalb qiladilar. O‘zbekiston Respublikasida Markaziy Bank, tijorat banklari (tarmoqqa xizmat qiluvchi – paxta, g‘alla, meva, sabzavot, qurilish va h.k.) va xususiy banklar mavjud.

Bank va mijoz (klient)ning munosabatlari shartnomaga asosan amalga oshiriladi. Banklar orqali amalga oshiriladigan muomalalar hisoblashish va kredit muomalalariga bo‘linadi. Hisoblashish muomalalarida bank mol yetkazib beruvchi va oluvchi o‘rtasidagi hisoblashishlarni amalga oshirsa va nazorat qilib tursa, kredit muomalasida bank qarz beruvchi va berilgan qarzning o‘z vaqtida qaytarib olinishini nazorat qiladi.

Banklarda hisoblashish schyotlaridan tashqari joriy va maxsus schyotlar (xususiylashtirish jamg'armasi, akkreditiv, chek daftarlari) ham ochiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari va ekvivalentlari muomalalarining hisobini yuritishning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- pul mablag'larining harakati va hisoblashish muomalalarini to'g'ri va vaqtida hujjatlashtirish;

- korxona, tashkilot va muassasa kassasidagi naqd pullar, qimmatbaho qog'ozlar mavjudligining tezkor va kundalik nazoratini tashkil qilish;

- pul mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilish;

- budjet, bank, shaxslar bilan hisoblashishni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirishni nazorat qilish;

- mol yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan amalga oshiriladigan hisoblashish turlarining tuzilgan shartnomadagi hisoblashish turlari va vaqtiga to'g'ri kelishini nazorat qilish;

- debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlarni tekshirib borish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar – korxona, firma va tashkilotlarning joriy aktivlari, pul mablag'lari, ularning ekvivalentlari va olinadigan schyotlari muomaladagi muddatiga qarab ushbu aktivlar quyidagilarga bo'linadi:

- uzoq muddatli (bir yildan ortiq) aktivlar;

- qisqa muddatli yoki joriy (bir yilgacha) aktivlar.

Joriy aktivlar likvidlikning pasayishi tartibida quyidagilardan tashkil topgan:

- pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari;

- qisqa muddatli investitsiyalar;

- olinadigan schyotlar;

- tovar-moddiy zaxiralari;

- oldindan to'langan sarflar (berilgan bo'naklar).

Pul mablag'lari majburiyatlarni zudlik bilan to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turdagi mablag'larni o'z ichiga oladi. Pul mablag'lari moliyaviy muassasalardagi joriy schyotdagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valutarlar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, subyektning kassasidagi aniq o'tkazib

beriladigan pul hujjatlaridir (depozit schyotlar ham pul mablag‘lari sifatida ko‘riladi. Oddiy omonat schyotlar bo‘yicha bank muomaladan chiqarish haqida dastlabki xabarnomani talab qilish huquqiga ega, ammo bu vakolatni kam qo‘llaydi. Shuning uchun omonat schyotlari odatda pul mablag‘lariga kiritiladi). Bu o‘tkaziladigan pul hujjatlariga oddiy cheklar, kassaning orderlari, mijozning cheklari, pul o‘tkazmalari va boshqa hisoblashish vositalari kiradi. Balansning «Pul mablag‘lari» moddasidagi qoldiq pul mablag‘lari schyotlariga kiradigan barcha turdagi mablag‘larni aks ettiradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag‘lari quyidagi schyotlarda hisobga olinadi.

1. Kassa operatsiyalari hisobi

1-amaliy mashg‘ulot

Darsning maqsadi: birlamchi kassa hujjatlarini to‘ldirish qoidalarini va kassa bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish qoidalarini o‘zlashtirish.

1-masala. 2020-yil uchun kassa bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiyalar asosida kirim va chiqim kassa orderlarini to‘ldiring, har bir operatsiya bo‘yicha korrespondensiyalovchi schyotlarni qo‘yib chiqing.

2020-yil sentabrda xo‘jalik operatsiyalari (ming so‘m)

№	Sana	Xo‘jalik operatsiyalar hujjati va mazmuni	Summa	Schyotlar korrespondensiyasi	
				Debit	Kredit
		10.10.2020-yildagi qoldiqlar			
1	02.10	381-sonli, Kassa chiqim orderi Muhandis P. Ismoilovga bo‘nak hisoboti bo‘yicha xarajat qiymati berilgan	60		
2	02.10	75-sonli Kassa kirim orderi			

		093615-sonli chek bo'yicha bankdan olingan -maosh to'lash uchun; -ish safari uchun	2600 1200		
3	02.10	76-sonli Kassa kirim orderi Agent I.O. Maqsudov tomonidan hisobot qiymatlari qoldig'i kassaga topshirilgan	500		
4	03.10	382-sonli Kassa chiqim orderi 71-78 sonli to'lov qaydnomalari bo'yicha ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'langan	2100		
5	05.10	383-sonli Kassa chiqim orderi Muhandis M.I. Vahidovga xizmat safari uchun bo'nak to'langan	650		
6	05.10	77-sonli Kirim kassa orderi Muhandis M.I. Vahidov tomonidan 15-oktabrdagi 48-sonli bo'nak hisobotiga ko'ra foydalanilmagan hisobot qiymatlari qoldig'i kassaga topshirilgan	980		
7	10.10	78-sonli Kassa kirim orderi 083616- sonli chek bo'yicha bankda olingan -maoshni tarqatish uchun -deponentlar berish uchun -xo'jalik xarajatlariga	1100 580 620		
8	10.10	384-sonli Kassa chiqim orderi Kotiba V.S. Po'latovanning xo'jalik ehtiyojlariga bo'nak	250		

		berilgan			
9	10.10	85-sonli Kassa chiqim orderi ekspeditor I.P. Maqsudovning xo'jalik ehtiyojlariga bo'nak berilgan	450		
10	11.10	386-sonli Kassa chiqim orderi To'lov qaydnomalari bo'yicha ishchi va xizmatchilarga to'lov qaydnomalari bo'yicha ish haqi to'langan	850		
11	11.10	387-sonli Kassa chiqim orderi Deponentlar bo'yicha ish haqi berilgan	450		
12	11.10	388-sonli Kassa chiqim orderi ekspeditor I.P. Maqsudovning xo'jalik xarajatlariga bo'nak to'langan	210		

2-masala. Kassa bo'yicha keltirilgan operatsiyalar asosida kassa kitobiga yozuvlar kiriting, har bir operatsiya bo'yicha korrespondensiyalovchi schyotlarni qo'yib chiqing.

2020-yil sentabrda xo'jalik operatsiyalari

T/r	Sana	Hujjat va xo'jalik muomalalar mazmuni	Umumiy qiymati, so'm
		01.02.2020-yil holatiga qoldiq	6000
1	01.02	1-sonli Kassa kirim orderi Hisobraqamidan kassaga pullar kelib tushgan: -maoshni to'lashga; -xo'jalik va ish safari xarajatlariga	49 000 12 000
2	01.02	2-sonli Kassa kirim orderi Naqd hisob-kitoblar asosida chiqarilgan mahsulot uchun kassaga pullar kelib tushdi	700
3	01.02	3-sonli Kassa kirim orderi	

		P.V. Pirmatovdan moddiy zararni qoplashga kassaga pullar kelib tushdi	20100
4	01.02	1-sonli Kassa chiqim orderi Kassadan ish haqi berilgan	40 000
5	02.02	2-sonli Kassa chiqim orderi Hisobot qiymati bo'yicha xarajatlarni qoplashga K.V. Komilovga kassadan berilgan	2010
6	02.02	4-sonli Kirim kassa orderi Sotilgan asosiy vositalar uchun O.V. Oripov tomonidan kassaga kiritilgan	6000
7	02.02	3-sonli Kassa chiqim orderi Kassadan ish haqi berilgan	4000
8	05.02	4-sonli Badallarga naqd to'lovlarni e'lon qilish, kassa chiqim orderi Vaqtida olinmagan ish haqi deponentlashtirilgan	3000
9	05.02	5-sonli Kassa chiqim orderi Deponentlarga ish haqi berildi	20100
10	05.02	5-sonli Kassa kirim orderi Sotilgan mahsulot uchun kassaga kirim qilingan	15 000
11	07.02	6-sonli Kirim kassa orderi Z.V. Ziyayev tomonidan hisobotosti summasi qaytarilgan	35
12	07.02	6-sonli. Badallarga naqd to'lovlarni e'lon qilish, Kassa chiqim orderi Sotilgan mahsulot uchun hisob raqamiga tushum qilingan	15 000
13	07.02	7-sonli Kassa xarajat orderi Qaydnoma bo'yicha ishchilarga kassadan mukofot berilgan	5000
		1-mart holatidagi qoldiq	

3-masala. Kassirning aprel oyi uchun hisobotlari asosida 1-sonli qaydnoma va 1-sonli order-jurnalni tuzing.

Sana	Kassa orderi raqami	Kimdan olingan yoki kimga berilgan	Kirim, so'm	Xarajat, so'm
		1-aprel holati uchun qoldiq	2310	
03.04	180	31540-sonli. Chek bo'yicha	41 000	
03.04	270	Meylieva A.O. – hisobot asosida		900
03.04	271	Salimov E.M. – deponentlangan ish haqi		1600
		Jami:	41 000	2500
09.04	272	To'lov qaydnomasi bo'yicha ish haqi		40 500
09.04	181	Naqdsiz hisob-kitob evaziga sotilgan materiallar uchun	280	
09.04	273	Badalni naqd to'lash e'lon qilingan hisobraqamiga		250
		Jami:	280	40 500
18.04	183	A.O. Meyliyevdan hisobot asosida qoldiq qiymati	50	
18.04	274	E.M Salimovdan - aliment		480
18.04	184	315841-sonli chek bo'yicha	12010	
		Jami:	2500	480
22.04	275	E.I. Salimov – hisobot ostida		500
22.04	185	Naqd hisob-kitob evaziga sotilgan qurilish materiallari uchun	2500	
22.04	276	Badalni naqd to'lash e'lon qilingan hisobraqamiga		950
		Jami:		1450
29.04	186	Ish haqiga 315842-sonli chek bo'yicha	57 2010	
29.04	271	To'lov qaydnomasi bo'yicha ish haqi berilgan		57 000

29.04	278	E.I. Salimovga – bo‘nak hisoboti bo‘yicha ortiqcha xarajat		40
29.04	279	I.N. Ergashevga – deponentlangan ish haqini berildi		1650
		Jami:	57 2010	58 690
		1-may holatidagi qoldiq	670	

1-sonli jurnal-order
5010-sonli “Kassa” schyoti krediti bo‘yicha
_____2020-yil

Sana	Schyotlar debitiga								Jami
	5110	6710	4210	va	h.	k.			
Jami									

2-sonli jurnal-order
5010-sonli “Kassa” schyoti debiti bo‘yicha
_____2010-yil
Oy boshiga saldo

Sana	Schyotlar debitiga								Jami
	5110	6710	4210	va	h.	k.			
Jami									
oy oxiriga saldo									

4-masala. «DUNYO» AJ kassirining 2020-yil sentabr oyi uchun hisobot ma’lumotlari bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari hisobi jurnalini tuzish.

1-sonli jurnal-order va 1-sonli qaydnoma.

2020-yil sentabr oyi uchun kassirning hisobotlaridan ko'chirma

Hujjat №	Kimdan olingan va kimga berilgan (operatsiyalarning mazmuni)	Ko‘chirma bo‘yicha qiymati	
		kirim	chi-qim
2020-yil 6-oktabr uchun kassa 34 varaq			
	Kun boshidagi qoldiq	24500	
231	116421 sonli chek bo‘yicha (avgust uchun ish haqi berish uchun – 135450 so‘m, xo‘jalik xarajatlari uchun – 30000 so‘m, xizmat safari xarajatlari uchun – 17000 so‘m)	182 450	-
232	P. Axmedovadan hisobot osti qiymatlari qoldig‘i	360	-
471	L.V. Lutfullayevga hisobot ostida xo‘jalik xarajatlari	-	30000
472	K.V. Karimovga hisobot ostida ish safari xarajatlariga	-	17000
473	V.N. Baxromovga 17-sonli bo‘nak hisoboti bo‘yicha ortiqcha xarajat uchun berildi	-	290
233	S.V. Safiyevdan materiallar yetishmasligi bo‘yicha qarzdorlikni qoplashga olindi	197	-
234	O.V. Oripovdan asboblarning ishdan chiqqanligi uchun qarzlarni qoplashga olindi	118	-
474	226-227-sonli to‘lov qaydnomalari bo‘yicha avgust oyi uchun ish haqi		73180
475	213146-sonli kvitansiya bo‘yicha kelib tushgan debitorlik qarzning hisobraqamiga to‘lovi amalga oshirildi		3000
	Bur kun uchun jami	?	
	Kun oxiriga qoldiq	?	
2020-yil 9-sentabr uchun kassa 35 varaq			
	Kun boshidagi qoldiq	?	
235	116422 -sonli chek bo‘yicha olingan: xo‘jalik xarajatlari uchun – 20100 so‘m		

	ish safari xarajatlari – 65000 so‘m	85100	
236	L.V. Lutfullayevdan hisobotosti qiymati qoldig‘i	12000	
237	F.V. Farmonovdan materiallar yetishmasligi bo‘yicha qarzdorlikni qoplash	47000	
476	S.V. Saydaliyevga hisobot ostida ish safari xarajatlari uchun		65000
477	S.O. Sulaymonovga hisobot ostida xo‘jalik xarajatlariga		20100
478	228-231-sonli to‘lov qaydnomalari bo‘yicha avgust oyi uchun ish haqi		58000
479	213710-sonli kvitansiya bo‘yicha berilmagan ish haqining hisobraqamiga to‘lov		1250
	Kun uchun qoldiq	?	
	Kun oxiridagi qoldiq	?	
2020-yil 21-sentabr uchun kassa 36 varaq			
	Kun boshidagi qoldiq	?	
238	116423-sonli chek bo‘yicha (ish haqi berish uchun)	11 20100	
239	T. Toshpo‘latovdan yetishmovchilik bo‘yicha qarzni qoplashga	350	
480	232-239-sonli qaydnoma bo‘yicha sentabr oyi uchun ish haqi schyotiga rejali bo‘nak		101 5000
481	9214230-sonli kvitansiya bo‘yicha berilmagan ish haqining hisobraqamiga to‘lov		9500
482	S.O. Sulaymonovga bo‘nak hisoboti bo‘yicha ortiqcha xarajat		450
	Kun uchun qoldiq	?	
	Kun oxiridagi qoldiq	?	?

5-masala. 1-sonli jurnal-order va 1-sonli qaydnomani ochish hamda ularda quyidagi operatsiyalarni aks ettirish:

Hujjat	Kimdan olingan va kimga berilgan (operatsiyaning mazmuni)	Ko'chirma bo'yicha umumiy qiymati, so'm	
		kirim	chiqim
	Kassirning 4-oktabr uchun hisoboti Kun boshidagi qoldiq	148100	
308	Tajriba laboratoriyasidan (sotilgan buyumlar namunasi uchun)	8570	
309	93716-sonli chek bo'yicha: ish haqini berish uchun – 231 480 so'm, xo'jalik xarajatlari – 2500 so'm, ish safari xarajatlari – 5500 so'm	239 480	
310	I.V. Ibrohimovdan hisobotosti qiymati qoldig'i	42	
311	S.V. Salimovdan materiallar yetishmovchiligi bo'yicha qarzдорlikni qoplashga	86	
525	E.V. Ergashev hisobot ostida xo'jalik xarajatlariga		25000
526	Ya.N. YAxshiboevga hisobot ostida xo'jalik harjatlari uchun		5500
527	81-84-sonli qaydnoma bo'yicha sentyabr oyi uchun oylik maoshi		184 000
528	106071-sonli kvitansiya bo'yicha hisobraqamiga to'lov		9800
	Bir kun uchun jami Kun oxiridagi qoldiq	? ?	
	Kassirning 7 sentabr uchun hisoboti Kun boshiga qoldiq	?	
312	93717-sonli chek bo'yicha xo'jalik va ish safari xarajatlariga	12010	
313	P.N. Primovdan ishdan bo'shagandan so'ng turli hisob-kitoblar bo'yicha		

	qolgan qarzni qoplashga (maxsus kiyim bosh uchun)	1420	
314	Buyumlar namunasini sotishdan tushum	11250	
529	85-90-sonli qaydnomalar bo'yicha sentabr oyi uchun oylik maoshi		73 080
530	K.V. Komolovga hisobot ostida xo'jalik xarajatlari uchun	-	4000
531	N.V. No'monovga hisobot ostida ish safari harajatlariga	-	8000
532	106815-sonli kvitansiya bo'yicha hisobraqamiga to'lov	-	2500
	Bir kun uchun jami	?	
	Kun oxiridagi qoldiq	?	?
	Kassirning 19-oktabr uchun hisoboti		
	Kun boshiga qoldiq	?	
315	K.V. Komolovdan hisobotosti qiymat qoldig'i	3700	
316	M.V. Mardonovdan brak mahsulotlar uchun pul chiqimlarini qoplashga	10000	
317	93718-sonli chek bo'yicha: Maosh berish uchun va xo'jalik xarajatlariga	510000	
533	Ya.N. Yashinga bo'nak hisoboti bo'yicha ortiqcha xarajat		30000
534	U.V. Qaromatovga hisobot ostida xo'jalik xarajatlariga		35000
535	S.V. Salimovga ish safari xarajatlariga		22000
536	91-95-sonli qaydnoma bo'yicha oktyabr oyi uchun rejali bo'nak		78 400
537	106815-sonli kvitansiya bo'yicha tarqatilmagan maosh hisobraqamiga to'lov	-	201000
	Bir kun uchun jami	?	
	Kun oxiriga qoldiq	?	

2. Hisob-kitob schyoti bo'yicha operatsiyalar hisobi

3-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: hisobraqamidan bankka ko'chirmani qayta ishlash jarayonini o'zlashtirish.

1-masala. Bank ko'chirmasini qayta ishlang. Tegishli qiymatlarga nisbatan korrespondensiyalanuvchi schyotlarni qo'ying.

2-sonli jurnal-order va 2-sonli qaydnomani ko'chirma asosida yozib boring.

2020-yil oktabr holatidagi operatsiyalar

Sana	Xo'jalik muomalalar mazmuni	Qiymati	
		Debit	Kredit
01.10	2020-yil 1-oktabr holatidagi qoldiq Hisobdan chiqarilgan: 183615-sonli chek bo'yicha To'lov topshiriqnomasi bo'yicha ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga ajratmalar	22 6400 201000	25 0000
02.10	Qo'shilgan: bankning qisqa muddatli kredit xaridordan mahsulot uchun		30 000 25 000
10.10	Qo'shilgan: kvitansiya bo'yicha kassadan naqd to'lovlar		10 000
10.10	Hisobdan chiqarilgan: "Agromash" AJ materiallar uchun "Oqsoy" AJ butlovchi buyumlar uchun "Avtolizing" transport firmasi materiallarni tashiganligi uchun	41 800 16 2010 42010	
16.10	Qo'shilgan: Bankning qisqa muddatli kredit Xaridorlardan materiallar uchun		20 000 40 000
16.10	Hisobdan chiqarilgan: To'lov topshiriqnomalari bo'yicha: Pensiya jamg'armasiga Jismoniy shaxslar	4000 3000 20100	

	daromadlariga soliq Tibbiy sug'urta jamg'armasiga		
27.10	Hisobdan chiqarilgan: Bank qisqa muddatli kreditlarini qoplash Qo'shimcha qiymat solig'i Kommunal to'lovlar	30 000 108 000 500	
	2013-yil 1-noyabr holatidagi qoldiq		?

2-masala. “Diyor-baraka” AJning quyida keltirilgan operatsiyalari bo'yicha xo'jalik operatsiyalari hisobi jurnali, 2-sonli jurnal-order va 2-sonli qaydnoma tuzish.

“Diyor-baraka” AJ operatsiyalari bo'yicha hujjatlardan ko'chirma 2020-yil yanvar holati

№	Operatsiyalarning mazmuni	Qiymati	
		xususiy	umumiy
	1–8-yanvar holati uchun hisobraqamidan ko'chirma 1 yanvar holatidagi qoldiq	53 300	
1	Hisobraqamiga qo'shilgan: xaridorlardan ortilgan mahsulot uchun ijarachidan qarzni qoplashga bankning qisqa muddatli krediti		
2	Hisobraqamidan chiqarish: materiallar uchun ta'minotchilarning schyotlari bo'yicha dekabrda maosh berish uchun chek bo'yicha telefon uchun qarzni qoplashga to'lov topshiriqnomalari bo'yicha		
3	9–18-yanvardagi hisobraqamidan ko'chirma Hisobraqamiga kiritilgan: dekabr oyi uchun berilmagan oylik maoshi to'lovlari xona ijarasi uchun qarzni qoplashga turli debitorlardan xaridorlardan yuklangan mahsulot uchun qisqa muddatli kredit	2700 1500 72 800 25 000	102 000
4	Hisobraqamidan chiqarilgan: telefon uchun qarzdorlikni qoplashga to'lov	900 300	

	topshiriqnomalari bo'yicha xo'jalik xarajatlariga chek bo'yicha materiallar uchun ta'minotchilarning schyotlari bo'yicha qisqa muddatli kreditni qoplashga	7010 39 000	47 210
5	19–31-yanvar uchun hisobraqamidan ko'chirma Hisobraqamiga qo'shilgan: xaridorlardan ortilgan mahsulot uchun xizmatlar uchun qarzlarni qoplashga turli debitorlardan ijaraga olingan turli vositalar uchun kassadan naqd to'lovlar	61 2010 2400 20100	65 600
6	Hisobraqamidan chiqarilgan: Bankning qisqa muddatli krediti bo'yicha qarzni qoplashga materiallar uchun ta'minotchilarning schyotlari bo'yicha bank xizmati uchun qarzni qoplashga to'lov topshiriqnomalari bo'yicha	2600 4770 500	7870
	1-fevral holatidagi jami qoldiq	?	

3-masala. 2-sonli jurnal-orderga va 2-sonli qaydnomaga “Asaka” bankining kundalik hisobraqami bo'yicha ko'chirmasidan ma'lumotlarni kiritish.

Sana	Xo'jalik muomalalar mazmuni		
		debit	kredit
03.04	1-aprel holatiga qoldiq “Metallsoz” omborining 787-sonli schyotiga materiallar uchun o'tkazilgan	25 400	8700
03.04	Bankning qisqa muddatli krediti qo'shilgan	30 000	
03.04	“Oniks” AJning 5110-schyotiga materiallar uchun o'tkazilgan		15 2010
15.04	Kassaga to'lov uchun chek bo'yicha olingan ishchi va xizmatchilarga maosh xizmat safarlariga		21 000 500

15.04	Xaridorlardan 760-sonli schyot bo'yicha tushum: mahsulot, shu jumladan QQS uchun temir yo'l tarifi	72 100 1800	
150.04	Bankka qisqa muddatli kredit qaytarilgan		20 000
22.04	10-sonli ATPning avtoxizmatlari uchun 2710-schyoti to'landi		7200
22.04	1020-sonli schyot bo'yicha xaridorga kelib tushgan: mahsulot, shu jumladan QQS ga temiryo'l tarifi	102 100 4500	
22.04	"Ko'mirkon" omborining 1040-sonli schyotiga yoqilg'i uchun to'langan		82010
30.04	Kassadan kelib tushgan naqd pullar	400	
30.04	Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan		20100
30.04	Ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga to'lovlar o'tkazilgan		1500
	Saldo	?	

4-masala. "Metallsoz" AJ operatsiyalarini xo'jalik operatsiyalari hisobi jurnaliga yozish va 2-sonli jurnal-order va 2-sonli qaydnoma tuzish.

**2020-yil fevral holatidagi operatsiyalar bo'yicha
hujjatlardan ko'chirma**

Sana	Operatsiyalar (hujjat) mazmuni	Ko'chirma bo'yicha qiymati, so'm	
		debit	kredit
	1. 1–5-fevral uchun hisobraqamidan ko'chirma, 1-fevral holatidagi qoldiq		181 900
01.02	145-sonli schyot bo'yicha sotilgan mahsulot uchun		76 000
02.02	106741-sonli chek bo'yicha maosh berish uchun	59000	

02.02	“Marjon”AJ 189-sonli to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha yuklangan materiallar uchun	1752	
03.02	Xizmatlar uchun turli schyotlar bo‘yicha qarzni qoplashga debitorlardan naqd to‘lovlar		860
05.02	73521-sonli kvitansiya bo‘yicha kassadan naqd to‘lov		4400
05.02	58-sonli to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha qisqa muddatli kredit bo‘yicha bankka qarzdorlikni qoplash	32010	
05.02	59-sonli to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha qarzni qoplash uchun 12-sonli aloqa bo‘limiga	580	
	Ko‘chirma bo‘yicha jami:	?	?
	2. 6–11-fevral uchun hisobraqamidan ko‘chirma		
08.02	160-sonli to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha qarzni qoplash uchun debitorlardan		270
09.02	146-sonli schyot bo‘yicha xaridordan yuklangan mahsulot uchun – 5180 so‘m, QQS qiymati		?
09.02	332-sonli to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha 2-sonli ulgurji omborga ortilgan materiallar uchun	6290	
09.02	Bankning qisqa muddatli krediti kiritilgan		40 000
10.02	60-sonli to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha shaharlararo telefon qo‘ng‘iroqlari to‘loviga bo‘nak	12010	
	Bo‘yicha jami: Ko‘chirma		
	3. 12–28-fevral uchun hisobraqamidan ko‘chirma		

12.02	147-sonli schyot bo'yicha "Elektropribor" AJdan ortilgan mahsulot uchun	40 850	
12.02	413-sonli to'lov topshiriqnomasi bo'yicha metall omboriga yuklangan materiallar uchun	11 240	
25.02	Bankning qisqa muddatli krediti kiritilgan		27 000
26.02	61-sonli to'lov topshiriqnomasi bo'yicha internet xizmatlari uchun kreditorlik qarzlari qoplashga	5600	
	Ko'chirma bo'yicha jami	?	?
	1-mart holatidagi qoldiq		?

2020-yil uchun 2-sonli jurnal-order

5110-sonli "Hisob-kitob raqami" schyoti krediti bo'yicha – schyotlar debitiga

№	sana	5010	6010	6810				№	№	№	№	Jami
1												
2												
3												
4												
5												
6												
7												
8												
9												
10												
11	Jami:											

2020-yil uchun 2-sonli qaydnoma
5110-sonli “Hisob-kitob raqami” schyoti debiti bo‘yicha –
schyotlar kreditidan

№	Sana	№			5010	6710	№	№	№		№	Jami
1												
2												
3												
4												
5												
6												
7												
8												
9												
10												
11	Jami:											

Oy oxiridagi saldo _____

Jurnal-order va qaydnoma “_____” _____ 201 _y.

Bosh kitobda aylanmalarning umumiy qiymati “_____” _____ 201 _y.

Ijrochilar _____ Bosh hisobchi _____

5-masala. Bankdagi hisobraqamida pul mablag‘larining
harakati hisobi bo‘yicha operatsiyalar schyotida aks ettirish

№	Operatsiyalarning mazmuni	Umumiy qiymati, so‘m
1	Sotilgan mahsulot uchun hisobraqamiga tushum kiritilgan	180 000
2	Buyurtmachilardan xizmatlar uchun kelib tushgan	140 000
3	Sotilganlar uchun hisob raqmiga kelib tushgan:	
	-asosiy vositalar	95 000
	-nomoddiy aktivlar	44 000
4	Bank xizmatlari hisobraqamidan to‘langan	1000

5	Ta'minotchilarning materiallar uchun schyotlari to'langan	2010 000
6	Qarzni qoplashda debitorlardan olingan	5000
7	Xaridordan bo'nak olingan	160 000
8	Internet-aloqa xizmatlari uchun hisobraqamidan to'langan	2600
9	Hisobraqamiga xato kiritilgan	12 000
10	To'lovlar o'tkazilgan:	
	- jamg'arib boriladigan pensiyaga	10 000
	- kasaba uyushmasiga	11 100
	- pensiya jamg'armasiga to'lovlar	42 000
11	Maoshni berish uchun kassaga olingan	330 000
12	Budjetga o'tkazilgan:	
	daromad solig'i	17 000
	jismoniy shaxslarning daromad solig'i	48 000
13	Berilmagan maosh hisobraqamiga kiritilgan	8000
14	Kiritilgan qiymat hisobdan xato chiqarilgan	12 000
15	Korxona mablag'lari hisobiga akkreditiv ochilgan	100 000
16	Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha to'lovlar o'tkazilgan:	
	mulk	41 000
	ishchilarga	66 000
17	Foydalanilmagan akkreditivlar qoldig'i hisobraqamiga qaytarilgan	7000
18	Bankning qisqa muddatli krediti kiritilgan	2010 000

3. Valuta schyotidagi operatsiyalar hisobi

3-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: schyotlarda valuta schyotidagi mablag'lar harakati hisobi bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida korxona valuta schyotida mablag'lar harakati bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish. 5210 – “Valuta schyoti” bo'yicha aylanmalarni hisoblab chiqish va yakuniy qoldiqni chiqarish.

5210- “Valuta schyoti” bo‘yicha 2020-yil 01.02. holatidagi qoldiq 30 000 AQSH dollari yoki 280 650 000 so‘mni tashkil etgan.

Dollar kursi – 01.02. 2020-yil–9550 so‘m.

Dollar kursi – 01.03. 2020-yil– 9650 so‘m.

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati	
		valuta (AQSH doll.	so‘m
1	Xorijiy hamkorga mahsulot sotishdan 05.05. 2020-y. dagi tushum	6000	?
2	Valuta tushumining bir qismi sotish uchun MMVBga jo‘natildi (O‘zR MB kursi – 9680 so‘m)	3000	
3	Valutalarning birjada sotilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kelib tushdi (1 dollar kursi 9680 so‘m)	3000	?
4	Valuta savdosidan hisobraqamiga mablag‘lar kiritildi		?
5	Kursdagi farqlar chiqariladi		?
6	17.02 2020-yilda valuta schyotidan kassaga tushgan AQSH dollari	100	?
7	Xorijiy hamkorga keltirgan materiallari uchun 18.02 2020-yil da AQSH dollari o‘tkazilgan	3000	?
8	Xorijlik buyurtmachidan 2020.19.02 da bo‘nak kelib tushdi	25000	?
9	2020-yil 20.02 O‘zlashtirilgan nomoddiy aktivlar to‘langan	500	?
10	Valuta birjasida 9630 so‘m kursi bo‘yicha xorijiy valuta sotib olingan: -valuta xaridi uchun so‘m ekvivalentidagi umumiy qiymat o‘tkazilgan -sotib olingan valuta qiymati aks ettiriladi	1000	?
11	Valuta xaridi bo‘yicha bank xizmatlari to‘langan		100
12	2020-y. 01.03 holatiga ko‘ra valuta schyotidagi mablag‘larni qayta baholashda bo‘yicha kursdagi farqlar aks ettiriladi		?

2-masala. Valuta savdosi bo‘yicha valuta schyotida operatsiyalarni aks ettirish. Korxonaning tranzit valuta schyotiga 200 000 dollar

miqdorida eksport valuta tushumi va 100 000 miqdorida xorijiy hamkorlardan qarz kiritilgan. Mablag'lar kelib tushgan vaqtda valuta kursi 10510 AQSH dollarini tashkil etgan.

Korxona belgilangan tartibda 200 000 dollarlik savdoni amalga oshirgan. Valuta olish sanasida valuta kursi – 1 dollarga 10530 so'mni tashkil etgan.

Savdo kursi – 1 kurs 10520 so'mni tashkil etgan.

Sotilgan mahsulot uchun tushum qiymati hisobraqamiga kiritilgan. Bank komissiyasi 100 AQSH dollarini tashkil etgan.

3-masala. Buxgalteriya schyotlarida valuta xaridi bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish. Valuta xaridi natijasini belgilash.

Korxona vakolatli bankka 255 000 000 so'm qiymatida valuta sotib olish vakolatini berdi. O'zR MB xarid kunidagi kursi – 1 AQSH dollarining kursi 10530 so'mni tashkil etgan.

4-masala. Kursdagi farqni aniqlash va buxgalteriya schyotida operatsiyalarni aks ettirish. Korxona xorijiy hamkorlari oldida 1500 AQSH dollari qiymatida qarzдорlikka ega. Bir oy davomida quyidagi operatsiyalar yuz berdi:

– ushbu ta'minotchidan 4900 dollar qiymatida tovar kelib tushgan (tovarni kirim qilish sanasida – 1 dollar 10520 so'mni tashkil etgan);

– xorijlik ta'minotchiga 6000 AQSH dollari qiymatida qarz o'tkazilgan (pul o'tkazish sanasida 1 AQSH dollarining qiymati – 10522 so'mni tashkil etgan).

4. Bankdagi maxsus schyotlardagi hisob

Darsning maqsadi: bankdagi maxsus schyotlar bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida akkredit schyotlarda pul mablag'lari harakati bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish, 5510 – “Bankdagi maxsus schyotlar” schyoti bo'yicha aylanma qaydnomani tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

“ADHAM” MCHJ va “GRANIT” AJ o'rtasida 16.03.2020-yilda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasida donasi 72010 so'mdan umumiy qiymati 860 000 so'mdan iborat 50 dona “ROISON” muzlatkichini yetkazib berish ko'zda tutilgan.

To'lov shartlari – xaridor tomonidan ta'minotchi va yuk tashuvchiga- temir yo'lga akkreditiv.

20.03.2020-yilda shartnoma shartlarini bajargan holda xaridor akkreditiv taqdim etgan:

– ta'minotchiga – 860 000 so'm;

– temiryo'lga – 250 700 so'm.

Akkreditivlar schyotga kiritilgan:

– hisobraqamida shaxsiy mablag'lar – 250 700 so'm;

– bankning qisqa muddatli krediti – 860 000 so'm.

26.03.2020-yilda yuk ortilgandan so'ng, to'lov amalga oshirilgan:

– yetkazib berganlik uchun temiryo'lga- 250 700 so'm;

– tovar uchun yetkazib beruvchiga – 43000000 so'm.

30.03.2020 yilda akkreditivning foydalanilmagan qiymati (?) so'm. avval olingan qisqa muddatli kreditni qoplashga yo'naltirilgan.

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida schyotlarda akkreditivli mablag'lar bilan mahsulot uchun hisob-kitoblar hisobi bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish. Aylanmalarni hisoblab chiqish va qoldiqlarni chiqarish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

1. Schyotlarda qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar

Schyot raqami	Schyot nomi	Umumiy qiymati, so'm
Xaridorda		
5110	Hisobraqami	280 000
Ta'minotchida		
2810	Tayyor mahsulot	130 000
5110	Hisob-kitob raqami	2010 000

2. Xo‘jalik operatsiyalari

No	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, so‘m
	Xaridorda	
1	Akkreditivni ochishga mablag‘lar quyidagilar hisobiga diponentlanadi: -xaridorning shaxsiy mablag‘lari -qisqa muddatli bank kreditlari	80 000 100 000
2	Qo‘yilgan akkreditiv mablag‘lari hisobiga materiallar to‘langan	140 000
3	Foydalanilmagan akkreditiv qoldig‘i bank oldidagi qarzni kamaytirishga yo‘naltirilgan	40 000
4	Akkreditivdan to‘langan materiallar kelib tushdi	140 000
	Ta‘minotchida	
5	Akkreditivdan to‘langan mahsulot xaridorga yuklangan	120 000
6	Ortilgan mahsulotni to‘lashga mablag‘lar hisobraqamiga qo‘shilgan	140 000

3-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida schyotlarda mahsulot uchun hisob-kitoblar hisobi bo‘yicha operatsiyalarni aks ettirish. Aylanmalarni hisoblab chiqarish va qoldiqlarni chiqarish. To‘lov cheklar yordamida amalga oshirilgan.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar

1. Schyotlar bo‘yicha qoldiqlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma

Schyot raqami	Schyot nomi	Umumiy qiymati, so‘m
	Xaridorda	
1010	Materiallar	20 000
5110	Hisob-kitob raqami	1 500 000
	Ta‘minotchida	
5110	Hisob-kitob raqami	1 000 000
2810	Tayyor mahsulot	200 0

2. Xo‘jalik operatsiyalari

No	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, so‘m
	Xaridorda	
1	Chek daftarchasini sotib olishga mablag‘lar dominatsiyalangan	150 000
2	Ekspeditor S.I. Ilxomovga hisobot ostida berilgan	150 000
3	Chek bilan to‘langan materiallar kelib tushdi	140 000
4	Ekspeditor S.I. Ilxomovning materiallarni sotib olish to‘g‘risidagi hisoboti tasdiqlangan. Foydalanilmagan chek daftarchasining qoldiqlari buxgalteriyaga topshirilgan	
5	O‘zlashtirilgan materiallarga to‘lov uchun chek olindi	140 000
6	Foydalanilmagan mablag‘lar qoldig‘i hisobraqamiga kiritilgan	110 000
	Ta‘minotchida	
7	Xaridordan berilgan materiallar uchun chek qabul qilingan	140 000
8	Sotilgan mahsulotning tannarxi hisobdan chiqariladi	132 000
9	Xaridordan olingan chek bo‘yicha pul olingan	140 000

5. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobi

4-amaliy mashg‘ulot

Darsning maqsadi: hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobini schyotlarda aks ettirish tartibini o‘zlashtirish.

1-masala. M.V. Mirkomolovning 03.01.2020-yil holati 1-sonli bo‘nak hisobotini tuzish va qayta ishlash

Dastlabki ma‘lumotlar

M.V. Mirkomolovning bo‘nak hisobotiga ilova qilingan:

- 1) ish safari guvohnomasi;
- 2) Samarqand-Toshkent, Toshkent-Samarqandga har biri 200000 so‘mdan aviachiptalar (shu jumladan QQS);

3) 2020-yilning 27 dan 30-dekabrigacha mehmonxonada yashaganlik uchun sutkasiga 9900 so‘mlik hisob (hisobda alohida qatorda QQS qiymati ajratilgan), schyot-faktura mavjud. M.T. Mirkomolovga 24-dekabrda 130 000 so‘m bo‘nak berildi.

2-masala. Keltirilgan ma’lumotlar bo’yicha 2–3-sonli bo‘nak hisobotini tuzish va qayta ishlash.

Dastlabki ma’lumotlar

1.2020-yil 15-yanvardagi 2-sonli bo‘nak hisobotiga muhandis Oripovning quyidagi hujjatlari ilova qilingan:

a) Farg‘ona shahriga ish safari to‘g‘risida ish safari hujjati, bunda quyidagilar ko‘rsatilgan:

2020-yil 8-yanvarda Toshkentdan ketish;

2020-yil 9-yanvarda Qarshiga kelish;

2020-yil 12-yanvarda Qarshidan ketish;

2020-yil 12-yanvarda Toshkentga kelish;

b) Toshkent – Qarshi temiryo‘l chiptasi qiymati – 60000 so‘m, yotoq anjomlari – 5000 so‘m;

d) Qarshi– Toshkent aviachiptasining qiymati – 183000 so‘m;

c) mehmonxonada 2020-yil 9 dan 12-yanvargacha mehmonxonada yashaganlik uchun kvitansiya va schyot-faktura sutkasiga 100500 so‘m (shu jumladan, QQS), xizmat telefon qo‘ng‘iroqlari uchun schyot-292 so‘m.

6-yanvarda 100000 so‘m miqdorida ish safari uchun bo‘nak berilgan.

Xo‘jalik mudiri T.V. Temirovning 2020 yil 20 yanvardan 3-sonli bo‘nak hisobotiga quyidagi hujjatlar ilova qilingan:

a) tovar cheki va nazorat kassa mashinasining cheki (NKM);

12-sonli do‘konning 45000 so‘mlik xo‘jalik tovarlari;

b) tovar cheki va 17-do‘konning 4600 so‘mlik bo‘yoq uchun NKM cheki;

d) 700 so‘mlik buxgalteriya hujjati to‘plami uchun tovar cheki va NKM cheki;

2020-yil 16-yanvarda xo‘jalik xarajatlariga 9000 so‘m miqdorida bo‘nak berilgan.

3-masala. “Don” AJ hisobdor shaxslarining bo‘nak hisobotlarini tuzing va schyotlar korrespondensiyasini ko‘rsating.

1. Ma'muriy-xo'jalik bo'limi boshlig'i (MXB) B.N. Botirov, avvalgi bo'nakdan 11000 so'm qoldiqqa ega bo'lgan holda 12 fevralda xo'jalik xarajatlari uchun hisobot asosida 160000 so'm oldi.

Qilingan xarajatlar

Sana	Harakati	Umumiy qiymati, so'm
12-fevral	157-sonli do'konning tovar cheklari bo'yicha mayda devonxona tovarlarini sotib olish	11630
15-fevral	10-12 kvitansiya bo'yicha telegramma uchun	1580
15-fevral	korxonada ma'lumot nashrlar bilan posilkalarni yetkazish	13000
16 fevral	18-do'konning tovar cheklari bo'yicha 1-sonli sexlar uchun texnika xavfsizligi bo'yicha plakatlar uchun	18300
	Jami	44510

2. MXB muhandisi A.O. Vosilxonov 25-yanvarda Termiz shahriga ish safariga jo'nadi, 27-yanvar kuni belgilangan joyga yetib kelgan, 9-fevralda ortga qaytgan va 10-fevral kuni Toshkentga qaytib keldi. 22-yanvarda hisobot ostida 26 000 so'm miqdorida bo'nak berildi.

No	Xo'jalik operatsiyalari	Umumiy qiymati, so'm
1	Borish-kelish temiryo'l chiptalari	12 220 so'm
2	Borish-kelish uchun yotoq anjomlari	160 so'm
3	14 sutkaga mehmonxona schyoti bo'yicha	14 240 so'm
4	Shaharlararo suhbatlar uchun kvitansiya bo'yicha	122 so'm
5	Telegramma uchun 18/31-sonli kvitansiya bo'yicha	76 so'm
6	Ish safari vaqtida sutkaliklar	?
	Jami	

3. Ekspeditor Z.N. Zayniddinov 2-fevralda Bekobod shahriga ish safariga jo‘nadi, 3-fevralda belgilangan joyga etib keldi, 4-fevralda ortga qaytdi va 5-fevralda Toshkentga qaytib keldi.

Jo‘nash vaqtida hisobot ostida 8500 0 so‘m bo‘nak berildi.

Hisobotga bir tomonga qiymati 12790 so‘mlik 2 ta temiryo‘l chiptasi ilova qilingan.

4.1-sex boshqaruvchisi A.A. Lutfullaev 15-martda tajriba almashish bo‘yicha Xorazmga ish safariga jo‘nadi, 17-martda Xorazmga yetib keldi, 24-martda ortga qaytdi va 26-martda Toshkentga qaytib keldi. Jo‘nash vaqtida hisobot ostida 320000 so‘m bo‘nak berildi.

Bo‘nak hisobotiga 2 ta borish kelishga 29450 so‘m qiymatida 2 ta temiryo‘l chiptasi va mehmonxonada 7 sutka yashashga 179800 so‘mlik schyot ilova qilingan.

4-masala. “Dastgohqurilish” AJning quyida keltirilgan operatsiyalari bo‘yicha 2020-yil aprel holatidagi operatsiyalar jurnalini tuzing.

№	Operatsiyalarning mazmuni	Umumiy qiymati (so‘m, tiyin)	
		xususiy	umumiy
1	2-aprelda hisobotosti kassa chiqim orderlari bo‘yicha berilgan: Ekspeditor B.N. Boboyevga № 113 Muh andis G.N. Gadoyevga № 115 1-sex boshlig‘i D.V. Dehqonovga №16	300,000 150,000 220100	670000
2	Kanselyariya boshlig‘i O.A. Valijonovdan 70-sonli kirim kassa orderi bo‘yicha 5-aprelda hisobotosti qiymati qoldig‘i qabul qilingan		1500
3	Xarajat kassa orderlari bo‘yicha 9-aprelda hisobot ostida berilgan: Ekspeditor E.V. Ergashevga №131 devonxona boshlig‘i O.A. Valijonovga №133	25000 10000	35000
4	9-aprelda tasdiqlangan bo‘nak hisoboti bo‘yicha hisobdan chiqarilgan:		

	Sex xonasini ta'minlash bo'yicha 1-sex boshlig'i D.S. Dehqonovning xarajatlariga; Asosiy materiallarni omborga yetkazish bo'yicha ekspeditor B.N. Boboyevning xarajatlariga	2212,00 278,00	2490.00
5	15-aprelda tasdiqlangan avans hisobotlari bo'yicha hisobdan chiqariladi: Firma ishlari bo'yicha ish safari bo'yicha muhandis S.M. Vasilxonovning xarajatlariga – № 20 Muhandis O.A. Valijonovga ham shunday – № 21. Kanselyariya boshlig'i R.A. Valijonovning devonxona xarajatlariga – №22 Ekspeditor E.R. Ergashevning xarajatlariga: - omborga materiallarni yetkazish; -1-sonli sex xonasini ta'minlash bo'yicha	1855,00 1469,50 196,00 158,00 280,00	3958.50
6	Kassa chiqim orderi bo'yicha hisobot ostida 16-aprelda berilgan: - D.M. Dexqonovga – 18-sonli hisobot bo'yicha ortiqcha xarajat – №145 - Q.F. Vosilxonovga 20-sonli hisobot bo'yicha aynan shu - MXB muhandisi L.P. Lutfullayevga ish safari xarajatlari	12,00 55,00 1700,00	1767.00
7	17-aprelda kirim kassa orderlari bo'yicha hisobotosti qoldiqlari qabul qilingan: B.N. Boboyevdan – №81 bo'nak hisoboti bo'yicha № 19 №82 G.N. Gadoyevdan №21 bo'nak hisoboti bo'yicha	13,00 30,50	43.50
8	MXB muhandisi L.T. Lutfullayevning ish safari xarajatlariga 27-aprelda tasdiqlangan 24-sonli hisobot bo'yicha hisobdan chiqariladi		680.00

5-masala. 7-sonli jurnal-orderni ochish va unda 1-aprelda “Dastgohqurilish” AJning hisobdor shaxslaridan tugallanmagan hisob-kitoblar bo‘yicha qoldiqlarni aks ettirish.

Operatsiyalar 2-masala shartlarida ifodalangan.

F.I.SH.	Lavozimi	Yozuv-ning tartib raqami	Qarzdorlik yuzaga kelgan sana	Umumiy qiymati, so‘m	
				debit	kredit
S. Vosilxonov	Muhandis	10	28 mart	1800	
B.N. Boboyev	Ekspeditor	11			9
R. Valijonov	Devonxona boshlig‘i	12	30 mart	15	
Jami				1815	9

4210– “Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar” schyoti krediti bo‘yicha 2010-yil uchun 7-sonli jurnal-order

№	Sana	Bo‘nak hisoboti	Hisobdor shaxs F.I.SH.	O‘tgan oy uchun jurnal-order bo‘yicha tartib raqami	Oy boshiga qoldiq			Hisobot ostida berilgan		
					yuzaga kelish sanasi	umumiy qiymati, so‘m		sana	korr. schyot	qiymati, so‘m
						debit	kredit			

7-sonli jurnal-orderning davomi

№	Ortiqcha xarajatni qoplashga berilgan			Foydalanilmagan qiymatni qaytarish			Hisosobot osti qiymatlaridan sarflangan				Oy oxiriga qoldiq		
	sana	kor. schyot	qiymati, so‘m	sana	kor. schyot	qiymati, so‘m	tasdiqlangan hisobot bo‘yicha	jumladan debit schyotlari				d-t	k-t
12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25

7-masala. Aprel oyida hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha 7-sonli jurnal-orderni tuzing.

F.I.SH.	Lavozimi	Qarz yuzaga kelgan sana	Umumiy qiymati, so'm	
			debit	kredit
A.N.Sobirov	Agent	29-mart	400	
E.N.Pulatov	Ekspeditor	30-mart		60
O.A.Jalolov	Menejer	30-mart	30	
Jami:			430	60

Aprel oyi uchun operatsiyalar

Sana	Hujjat nomi va uning mazmuni	Umumiy qiymati, so'm
02.04	15-sonli Kassa chiqim orderi E.N. Pulatovning hisobotosti qiymatining ortiqcha xarajatlarga berilgan	600
02.04	16-sonli Kassa chiqim orderi Bosh hisobchi A.Yu. Kalandarovga ish safari uchun bo'nak berilgan	65000

05.04	A.I. Sobirovning 20-sonli bo‘nak hisoboti Yoqilg‘i yetkazib berish to‘loviga sarflangan	4800
05.04	17-sonli Kassa chiqim orderi Menejer O.A. Jalolovga kanselyariya tovarlarini sotib olishga berilgan	10000
07.04	18-sonli Kassa chiqim orderi A.I. Sobirovning hisobotosti qiymatining ortiqcha xarajatlariga berilgan	?
10.04	21-sonli bo‘nak hisoboti Bosh buxgalter A.Yu. Kalandarovning hisoboti topshirilgan	60000
13.04	10-sonli Kirim kassa orderi A.S. Kalandarovning hisobotosti qiymati qoldiqlari qabul qilingan	?
15.04	22-sonli Bo‘nak hisoboti Jalolov O.A. sotib olgan kanselyariya tovarlari uchun bo‘nak hisoboti berilgan	Xizmatlari 12010
16.04	19, 20-sonli Xarajat kassa orderlari - O.A. Jalolov pochta aloqasi xizmatlarini to‘loviga - M.N. Pulatovga xo‘jalik-operatsion xarajatlariga	5000 8000

Darsning maqsadi: “Pul mablag‘lari va hisob-kitoblar hisobi” mavzusi bo‘yicha materiallarni o‘zlashtirishni nazorat qilish.

1-masala. Keltirilgan operatsiyalar asosida schyotlar korrespondensiyasini tuzish.

2. 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar” va 4210 “Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar” schyotlarga tahliliy schyotlar o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha ochilgan bo‘lishi mumkin.

3. Schyotlarni ochish va ularga 2020-yil 1-may holatida quyidagi ma’lumotlar asosida ularga qoldiqlarni yozish.

Schyot raqami	Schyotning nomi	Umumiy qiymati, so'm
0110	Asosiy vositalar	350 000
0210	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	30 000
1010	Materiallar	25 000
2010	Asosiy ishlab chiqarish	33 240
5010	Kassa	560
5110	Hisobraqamlari	30 900
6010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	43 000
6410	Soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar	41 000
6510	Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha hisob-kitoblar	11 000
6710	Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	123 000
4210	Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar	300
8300	Ustav kapitali	192 000

4. 1-iyun holatiga aylanma qaydnoma va balans tuzish.
2020-yil may holatida xo'jalik operatsiyalari jurnali

№	Hujjat va operatsiyaning mazmuni	Umumiy qiymati, so'm	
		1-variant	2-variant
1	501-sonli chek, 1-sonli kirim kassa orderi Kassaga hisobraqamidan olingan: - maosh berish uchun; - xo'jalik ehtiyojlariga	25 000 600	30 000 1000
2	Hisobraqamidan ko'chirma: - Ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazilgan - mahsulot uchun "Nur" MCHJdan tushgan - Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan	1000 61 000 7000 900	12000 72 000 8400 1080

	- Tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazilgan		
3	1-sonli Kassa chiqim orderi To'lov qaydnomalari bo'yicha maosh kassadan berilgan	23 000	20 000
4	2-sonli Kassa chiqim orderi S.V. Sobirovga hisobot ostida berilgan	2500	3500
5	3-sonli Kassa chiqim orderi P.S. Po'latovga hisobot ostida berilgan	300	2010
6	1-sonli Bo'nak hisoboti S.V. Sobirov tomonidan yoqilg'i-moylash materiallarini sotib olish uchun sarflangan	2300	32000
7	2-sonli Kirim kassa orderi S.V. Sobirov tomonidan hisobot osti qiymati qoldig'i topshirilgan	2010	300
8	Hisobraqamidan ko'chirma Bankning qisqa muddatli krediti kiritilgan Ta'minotchilarga o'tkazilgan: - "Forte" MCHJ - "Instrument" AJ	20 000 11 000 9000	25 000 15 000 10 000
9	4-sonli Kassa chiqim orderi O'z vaqtida olinmagan oylik maoshi hisobraqamiga qaytarilgan	20100	20100
10	Hisobraqamidan ko'chirma: To'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisobdan chiqarilgan: - "O'znetftgaz" MCHJ yoqilg'i uchun - "Interqurilish" AJ materiallar uchun Ta'minotchilar bilan hisob-kitoblar uchun akkreditiv ochilgan Xaridorlardan mahsulot uchun kiritilgan, shu jumladan QQS	11 2010 10 000 20 000 162 000	12 500 11 000 25 000 165 000
11	2010502-sonli chek, 3-sonli kirim kassa orderi	90 000	100 000

	Oylik maoshi berish uchun kassaga kelib tushgan		
12	5-sonli Kassa chiqim orderi To'lov qaydnomalari bo'yicha oylik maoshi to'langan	90 000	100 000
13	Hisobraqamidan ko'chirma To'lov topshiriqnomasi bo'yicha o'tkazilgan: - jismoniy shaxslarning daromad solig'i - QQS akkreditivning qoldig'i qaytarilgan	11 700 27 000 3000	13 000 27 500 4000

5-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: turli debitorlar, kreditorlar, boshqa operatsiyalar bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Tashkilot shaxsiy mahsulotini savdo firmasiga sotadi. Shartnoma shartlariga ko'ra mahsulot xaridor tomonidan u olingandan 14 kun mobaynida to'lanishi lozim. Muddati tugagandan keyingi har bir kun uchun ta'minotchi-tashkilot bilim bahosidan 1 % ustama belgilaydi. Sotilgan mahsulotning qiymati – 168 000 so'm. To'lov xaridor tomonidan muddatidan kechikmagan holda 10 kun mobaynida amalga oshirilgan. Operatsiyalarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirish.

2-masala. Tashkilot binoni bir yilga sug'urta qildi. Shartnoma tuzishda sug'urta badali to'langan – 50 000 so'm. Shu yili bino yong'in tufayli yo'q qilingan. Sug'urta qoplamasi qiymati 1 000 000 so'mni tashkil etgan. Hisob ma'lumotlariga ko'ra binoning qiymati – 1 500 000 so'm. Hisoblab chiqarilgan amortizatsiya qiymati – 2010 000 so'm. Sug'urta va zararni qoplash bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

3-masala. “Bunyodkor” MCHJ “ISTIQLOL” MCHJdan 15 % stavka bo'yicha QQSga tortilgan tovarlarni kelgusi yetkazib berish hisobiga 118 000 so'm bo'nak olgan.

Mahsulot ortilgan va sotilgan. “Bunyodkor” MCHJning operatsiyalarini schyotlarda aks ettirish.

4-masala. “Lider-savdo” MCHJ “Firdavs-V” MCHJ bilan materiallarni yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzdi. Jami 118 000

so‘m qiymatidagi materiallar yetkazib berildi. Materiallarga bo‘nak to‘langan. Materiallarning shartnomada belgilangan sifati qondirilmaganligi aniqlandi. Tashkilot “Firdavs-V” MCHJ ga 11 000 so‘mlik norozilikni namoyon etdi. Biroq ta‘minotchi norozilikni tan olib, faqatgina 9000 so‘m to‘ladi, chunki 20100 so‘mlik material xaridor – “Lider-savdo” MCHJning aybi bilan o‘z sifatini yo‘qotgan. Buxgalteriya schyotlarida noroziliklar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi bo‘yicha operatsiyalarni aks ettirish.

Test savollari

1. Xorij firmalari bilan hisoblashish uchun valuta schyotidan chek daftarchalari olindi.

a.	b.	c.	d.
Debit			
5510	5520	5530	5530
Kredit			
5210	5210	5210	5110

2. Bankdagi maxsus schyotdan kassaga naqd pul olindi.

a.	b.	c.	d.
Debit			
5010	5010	5010	5010
Kredit			
5530	5110	5210	5720

3. Chet el firmalaridan mol yetkazib berish bo‘yicha bo‘nak olindi.

a.	b.	c.	d.
Debit			
5210	5220	5210	5210
Kredit			
6810	6310	6320	6310

4. Eksportdan valuta tushumi kirim qilindi.

a.	b.	c.	d.
Debit			
5220	5210	5210	5110
Kredit			
4010	4020	4010	4010

5. Hisob-kitob schyotiga sotilgan mahsulot tushumi kelib tushdi:

a .	b.	c.	d.
D-t			
5110	5110	5110	4610
K-t			
8530	4610	4010	5110

Tayanch iboralar: kassa, hisob-kitob schyoti, bo‘nak hisoboti, valuta schyoti, jurnal order, qaydnoma, hisobdor shaxslar, debitor, kreditor, xaridor va buyurtmachilar to‘lov topshiriqnomasi.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Kassa muomalalarini hujjatlashtirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

2. Kassa daftari va uning yuritish tartibini tushuntirib bering.

3. 1-Jurnal order va 1-Qaydnoma (vedemost)ni izohlab bering.

4. Naqd pullarni korxona kassasiga kirim va chiqim qilish tartibini tushuntiring.

5. Hisoblashish schyoti va uni ochish tartibi qanday amalga oshiriladi?

6. 2-Jurnal order va 2-Qaydnoma (vedemost)ni izohlab bering.

3-MAVZU. ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI

Asosiy vositalarni hisobga olish. Asosiy vositalarni hisobga olish 5-sonli BHMSga (AV tomonidan 20.01.2004-y.da 1299–son bilan ro‘yxatga olingan) asosan amalga oshiriladi. 5-son BHMSning 3-bandiga muvofiq, asosiy vositalar deb, korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar tushuniladi.

5-sonli BHMSga muvofiq aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishning *asosiy mezonlari* quyidagilar hisoblanadi:

1. Asosiy vositalardan mahsulot ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)da, boshqaruvda uzoq muddat, ya‘ni bir yildan ortiq mudatda foydalanish lozim.

Unumli foydalanish muddatini quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

- korxona aktivdan foydalanadigan vaqt davri;
- korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori;

Masalan, avtomobildan unumli foydalanish muddatini ushbu avtomobilning ko‘zda tutilayotgan masofa bosib o‘tishidan aniqlash mumkin; texnologik uskunalardan unumli foydalanish muddatini ushbu uskunalardan foydalanish natijasida olish mo‘ljallanayotgan ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi bo‘yicha aniqlash mumkin.

2. Asosiy vositalar bir-birligi (to‘plami)ning xarid paytidagi qiymati O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lishi lozim.

Biroq korxona rahbari buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqli (ushbu chegara korxonaning hisob siyosatida tasdiqlanishi lozim).

Amaliyotda hamma vaqt ham asosiy vosita obyekti daromad olish maqsadida olinganini isbotlash oson emas. Masalan, umumiy foydalanish uchun suv tozalagich qanday qilib qo‘shimcha daromad olishga imkon beradi? To‘g‘ri hisob-kitoblar orqali buni isbotlash qiyin, lekin bilvosita hisob-kitoblar ko‘rsatishi mumkinki, ikki hafta davomida

tozalangan suv iste'mol qilinishi inson organizmida modda almashinuvi jarayonini me'yorlashtiradi, jismoniy holatini yaxshilaydi va o'z-o'zidan mehnat unumdorligini oshirishga ko'maklashadi. Korxona faoliyatida ishlatiladigan har qanday asosiy vosita obyekti mohiyatiga ko'ra daromad olishga imkon beradi.

Aktiv qiymati aniq baholanishi, ya'ni pul ifodasida o'lchanishi mumkin. Baholash uchun asos sifatida aktivlarning boshlang'ich qiymati qabul qilinadi.

Asosiy vositalarni *hisobga olish birligi* bo'lib inventar obyekt hisoblanadi. Asosiy vositalarning inventar obyekti:

- obyekt barcha qurilma va jihozlari bilan;
- mustaqil funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan, alohida konstruktiv predmet;
- ma'lum bir ishlarni bajarishga mo'ljallangan, yagona bir butunlikdan iborat predmetlar majmui.

Asosiy vositalarni baholash:

«Asosiy vositalar»ning 5-sonli BHMS asosiy vositalarni baholashni quyidagi turlarga ajratadi:

- boshlang'ich qiymati bo'yicha;
- joriy qiymati bo'yicha;
- qoldiq (balans) qiymati bo'yicha;
- tiklash qiymati bo'yicha;
- tugatish qiymati bo'yicha.

Boshlang'ich qiymat to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar)ni, asosiy vositalar obyektlarini yetkazib berish (barpo qilish) xatarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlarni, shuningdek, aktivni undan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha haqiqatda qilingan xarajatlar qiymatidir («Asosiy vositalar» 5-son BHMSning 11-bandi).

Joriy qiymat asosiy vositalarning ma'lum sanadagi bozor narxlari bo'yicha qiymatidir. Asosiy vositalar bilan bo'ladigan barcha operatsiyalar, shu jumladan, ularning xizmatlar yoki boshqa aktivlarga almashtirilishi joriy qiymat bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

Qoldiq (balans) qiymat – jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymati.

Tiklanish qiymati – asosiy vositalarning qayta baholash hisobga olingan holdagi qiymati.

2002-yil 1-yanvardan, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar har yili o‘z asosiy fondlarini 1 yanvar holatiga qayta baholashlari shart.

Tugatish qiymati – asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda, foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida aktivlarning faraz qilinayotgan summasi. Odatda, ushbu qiymatga ehtiyot qismlari, temir-tersaklar, chiqindilar va boshqalar qiymati kiritiladi. Agar tugatish qiymati katta bo‘lsa, bu qiymat asosiy vositani sotib olish yoki uni bundan oldingi baholash sanasiga qarab aniqlanadi.

Asosiy vositalarning kelib tushishi.

Asosiy vositalar korxonaga:

- haq evaziga sotib olinganda;
- tekinga olinganda;
- ta‘sischilar tomonidan korxona ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilganda;
- garovga olinganda, agar garovga beruvchi qarz (ssuda)ni belgilangan va uzaytirilgan muddatda qaytarmasa;
- asosiy vositalarni inventarlash natijasida buxgalteriya hisobiga qabul qilinganda;
- pudrat yoki xo‘jalik usuli bilan barpo etilganda;
- ilgari boshqa tashkilot ustav kapitaliga hissa sifatida berilgan asosiy vositalar obyekti qaytarilganda kelib tushishi mumkin.

Asosiy vositalarni qayta baholash.

Mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, barcha korxonalar har yili 1-yanvardagi holatiga ko‘ra asosiy vositalar qiymatini qayta baholashni o‘tkazishlari shart. Qayta baholashni o‘tkazish tartibi 1-yanvar holati bo‘yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom (AV tomonidan 04.12.2002-y.da 1192-son bilan ro‘yxatga olingan) bilan tartibga solinadi. Qayta baholangandan keyingi qiymat tiklanish qiymati deb ataladi.

Hisobot yilining dastlabki sanasidagi holatga ko‘ra o‘tkazilgan asosiy vositalarni qayta baholash natijalari avvalgi hisobot yilidagi

moliyaviy hisobot ma'lumotlariga kiritilmaydi, hamda hisobot yili boshida moliyaviy hisobot ma'lumotlarini shakllantirishda qabul qilinadi. Bunda o'tgan yil yakuni va hisobot yili boshidagi ma'lumotlarning mos kelmasligi hisobot yilining dastlabki sanasidagi holatga ko'ra o'tkazilgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi sifatida tushuntiriladi hamda joriy davrdagi moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida bayon etiladi (AV tomonidan 20.01.2004-y.da 1299-son bilan ro'yxatga olingan 5-son BHMSning 28-bandi). Asosiy vositalarning joriy yil davomida kirim qilinganlari boshlang'ich qiymatidan, qayta baholangan asosiy vositalar obyektlari esa tiklanish qiymatidan qayta baholanadi.

Texnik holatidan qat'i nazar korxona mulkida, xo'jalik yuritishda, tezkor boshqaruvda va uzoq muddatli ijara (lizing)da bo'lgan, shuningdek, ishlab turgan va foydalanilmaydigan, konservatsiyada bo'lgan, hisobdan chiqarishga tayyorlangan, lekin belgilangan tartibda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan asosiy vositalarning obyektlari hamda tugallanmagan qurilish obyektlari va o'rnatish uchun mo'ljallangan uskunalar qayta baholanishi kerak. Yer maydonlari va tabiatdan foydalanishning boshqa obyektlari qayta baholanmaydi.

Asosiy vositalar qiymatini qayta baholashni ikki usul: bevosita qayta baholash usuli yoki indekslash usuli bilan o'tkazish mumkin. Korxona qayta baholash usuli va uni o'tkazish tartibi: yo o'z kuchi bilan, yoki baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan jalb qilingan mutaxassislar yordamida o'tkazishni mustaqil tanlaydi.

Bevosita qayta baholash usuli qayta baholashning nisbatan aniqroq usuli hisoblanadi, chunki u obyektlarning joriy qiymatlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlarga asoslanadi:

- tayyorlovchi tashkilotlar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xomashyo birjalari, ko'chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- qayta baholashni o'tkazish sanasiga va asosiy fondlarni xarid qilish sanasiga Markaziy bank kurslarining nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsiyentini qo'llagan holda xarid qilish sanasiga erkin konvertatsiyalanadigan valutada asosiy fondlarning

qiymati to'g'risidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganida) ma'lumotlar;

– tegishli davlat idoralarida mavjud bo'lgan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

– qayta baholashni o'tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

– asosiy fondlar obyektlari qiymati to'g'risida ekspert xulosalari.

Asosiy vositalarni bevosita usul bilan qayta baholash chog'ida eskirishning ilgari hisoblab chiqarilgan summasi qayta baholashdan keyingi tiklanish qiymatining qayga baholashgacha bo'lgan qiymatga nisbati bilan hisoblab chiqariladigan qayta hisoblash koeffitsiyenti bo'yicha indekslanishi kerak.

Asosiy fondlarni qayta baholashning *indeks usuli* O'zbekiston Respublika statistika idoralari tomonidan 31-dekabrga qadar tayyorlangan va rasmiy ravishda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan indekslarni qo'llashni nazarda tutadi. 2008-yil 1-yanvar holatiga ko'ra asosiy fondlar, o'rnatiladigan asbob-uskunalar va qurilishi tugallanmagan obyektlar qiymatini ularni sotib olish (tayyorlash, qurish) davrlari bo'yicha qayta baholash indekslari.

Nomoddiy aktivlar hisobi

Nomoddiy aktivlarni hisobga olish tartibi O'zR AV tomonidan 27.06.2005-y.da 1485-son bilan ro'yxata olingan 7-sonli BHMS bilan tartibga solinadi.

Nomoddiy aktivlar — korxona tomonidan ulardan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulkning identifikatsiyalanadigan obyektlari (7-sonli BHMSning 4-bandi). Nomoddiy aktivlarni ishlatish korxonaga kelajakda iqtisodiy foyda keltirishini ta'minlashi zarur.

Aktivlarni nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishning *asosiy shartlari (mezonlari)* bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– moddiy ashyoviy (fizik) tuzilish (shakl)ga ega bo'lmashligi;

– aktivdan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoxud korxonaning ma'muriy va boshqa

funksiyalari uchun uzoq muddat, ya'ni davomiyligi 12 oydan ortiq foydali xizmat muddati yoki agar u 12 oydan oshadigan bo'lsa, oddiy operatsion davr mobaynida foydalanish;

- korxona ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni mo'ljallamaydi;

- korxonada aktiv va unga bo'lgan mutlaq huquqning mavjudligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (patentlar, guvohnomalar, boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlar, patent, tovar belgisidan voz kechish (sotib olish) shartnomasi)ning mavjudligi;

- korxona tomonidan boshqa aktivlardan identifikatsiyalash (bo'lish, ajratish) imkoniyati.

7-son BHMSda aktivlarni identifikatsiyasi bo'yicha batafsil tushuntirish keltiriladi, bunga asosan agar:

- uni korxonadan ajratib bo'lsa hamda sotish, berib yuborish, ijaraga berish, alohida yoki u bilan bog'liq aktiv, kontrakt yoki majburiyat bilan birga ayirboshlash (gudvilddan tashqari) mumkin bo'lsa;

- ushbu huquqlar beriladigan yoki korxonadan yoxud boshqa huquq va majburiyatlardan ajraladigan bo'lishidan qat'i nazar, u shartnomaviy va boshqa yuridik huquqdardan paydo bo'lsa, identifikatsiyalanadigan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 103-moddasiga asosan quyidagilar intellektual mulk obyektlari jumlasiga kiradi:

Intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san'at asarlari;
- eshittirish tashkilotlarining ijrolari, fonogrammalari va eshittirishlari;

- elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: asosiy vositalarni turlari bo'yicha guruhlashtirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalarni turlari bo'yicha guruhlashtirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Mashinasozlik zavodining asosiy vositalari ro'yxati

№	Asosiy vositalar nomi	Umumiy qiymati, mln.so'm
1	Qozonxona qurilmalari	25
2	Parparaklar	2.2
3	Kontora javonlari	2.6
4	Ichki yonilg'i dvigatellari	4.5
5	Havo elektr uzatkichlari tizimi	3.2
6	Zavod boshqaruvi binosi	50
7	Bug' quvur agregatlari	10.2
8	Personal kompyuterlar	4.3
9	Sement quvuri	5.2
10	Energetika qurilmalari	7.2
11	Otboyli bolg'alar	2.8
12	Elektrqaralar	4.6
13	Kabelli aloqa tizimlari	2.3
14	Metall konteynerlar	8.6
15	Magistral yo'l	45
16	Yo'nalish-nazorati qurilmasi	12
17	Payvandchi dastgoh	2.4
18	Temir beton ko'priklari	22.5
19	Suv agregatlari	4.6
20	Relsbalkalik dastgoh	3.3
21	Avtodrezina	4.2
22	Yo'lovchi vagonlari	11.7
23	Nazorat-o'lchov apparaturasi	3.4
24	Avtoyuklovchilar	60.8
25	Haroratni aniqlash uchun asboblari	2.4
26	Bug' so'rgich	8.2
27	Otstoyniklar	12.3
28	Yig'ish korpusi binosi	80

29	Quvurlar tarmog‘i	96
30	Mexanik sex binosi	120
31	Temirni presslovchi avtomat	52
32	Vibratorlar	19
33	Universal metallni kesuvchi dastgoh	8.32
34	Temiryo‘l ko‘prigi	38.3
35	Tayyor mahsulot ombori binosi	78.2
36	Plotina	14.2
37	Turli asboblari	12.3
38	Mebel	24.1

Asosiy vositalar guruhlanishini quyidagi shaklda amalga oshirish (1-jadval).

1-jadval

Asosiy vositalarning turlari bo‘yicha guruhlanishi

No	Asosiy vositalar turi	Asosiy vositalar nomi	Umumiy qiymati, mln.s
1	Bino		
2	Inshootlar		
3	Uzatuvchi qurilmalar		
4	Mashina va jihozlar		
5	Transport vositalari		
6	Mebel va ofis jihozlari		
7	Ishchi qoramol		
8	Ko‘p yillik ekinlar		
9	Yerlarni yaxshilash bo‘yicha kapital xarajatlar		
10	Yer maydonlari qiymati		
11	Boshqalar		

2-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida 1-jadvaldan foydalangan holda asosiy vositalarni turlari bo‘yicha guruhlashtiring.

Dastlabki ma'lumotlar

“Oqsoy” AJ asosiy vositalari ro'yxati

№	Asosiy vositalar nomi	Umumiy qiymati, mln.so'm
1	Mexanikani yig'ish sexining binosi	102.2
2	Traktorlar	89.3
3	Yo'lovchi vagonlari	55.6
4	Kabelli aloqa tizimlari	19.6
5	Energetika qurilmalari	45.8
6	Ofis binosi	109.6
7	Chilangarlik dastgohi	25.3
8	Elektr parmalagichlar	4.8
9	Xo'jalik inventar	1.6
10	Yengil avtomobil	45.3
11	Havo uzatish tizimi	22.8
12	Bug' chiqaruvchi quvurlar	82.6
13	Ofis mebeli	26.35
14	Temiryo'l ko'prigi	42.3
15	Universal metall kesuvchi dastgoh	23.5
16	Metall konteynerlar	31
17	Maxsus asbob	11
18	Personal kompyuter	3.6
19	Muzlatuvchi qurilmalar	6.5
20	Quvurlar	11.36
21	Ko'p yillik ekinlar	12.69
22	Avtoqaralar	31.36
23	Turar joy binolari	45.3
24	Ish stollari	5.36
25	Kutubxona fondlari	14.23
26	Maydonlarni harsang toshlardan tozalashga xarajatlar	2.52
27	Sport inventari	6
28	O'lchov asboblari	14
29	Mevazorlar, uzumzorlar, bog'lar	31
30	Yuk transporti	78.3
31	Sug'oruvchi inshootlar	23

32	Yopiq tok	14
33	Pichan o'rgich	5.7
34	Achitqi uyumi	3.3

Darsning maqsadi: asosiy vositalar harakati rasmiylashtirilishini o'zlashtirish.

3-masala. 1. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida mexanik yig'ish sexining yangi binosini va qabul qilish-topshirish hujjatini tuzish (№ OS-1 namunaviy shakli).

2. № OS-6 namunaviy shaklining inventarli kartochkasini ochish.
Dastlabki ma'lumotlar

“Oqsoy” AJ direktorining 2020-yil 10-martdagi 12-sonli buyrug'i asosida 1-mexanika yig'ish korpusining boshlig'i O.I. Kosimov, OKS boshlig'i A.N. Naumov va korxonaning bosh hisobchisi L.P. Eshmirzayevlardan tashkil topgan komissiya, 1021/4-sonli loyiha bo'yicha zavod hududida qurilgan 1-mexanik yig'ish korpusining yangi binosini foydalanishga qabul qildilar. Binoning maydoni – 5468 kv.m, birlamchi qiymat – 3 084 000 so'm. Bino g'ishtdan, poydevori shlakablokdan, tomi temirdan, elektr toki o'tkazilgan. Normal foydalanish talablariga to'liq javob beradi. Binoni qabul qilish to'g'risida 2010-yil 12-martda 17-sonli akt tuzilgan. Obyektga 012-sonli inventar kartochkasida ro'yxatga olingan 10012 inventar raqami berilgan. Yaroqli foydalanish muddati – 40 yil.

4-masala. 1. Masalani bajarish ma'lumotlari asosida 20-sonli burama mix kesuvchi dastgoh qabul qilish – topshirish dalolatnomasi tuzilgan (OS-1 namunaviy shakli).

2. OS-6 shakldagi inventar qartochkani ochish.
Dastlabki ma'lumotlar

“Oqsoy” AJ direktorining 2018-yil 15-maydagi 45-sonli buyrug'i asosida 1-mexanika yig'ish korpusi boshlig'i O.I. Kosimov, katta muhandis N.I. Panjiyev va texnik V.I. Tolmasovlardan tashkil topgan komissiya metall asbob bilan ishlovchi chilangarlik – burama mix yasovchi dastgohni ko'zdan kechirdilar. Dastgohning massasi – 14,5 tonna. Dastgoh “Oksoy” AJdan to'lov asosida sotib olingan. Obyektning qabul qilinishi “Foton” AJ hududida amalga oshiriladi. Dastgohning chiqish muddati – 2020-yil 20-yanvar, 668-sonli texnik pasporti, obyektning dastlabki qiymati – 375 355 m.s. Obyektzni

hisobga olishda yaroqli foydalanish muddati 12 yil deb belgilangan. Obyekt texnik sharoitlarga mos keladi. Xulosa: obyekt foydalanishga qabul qilindi. Hujjatga texnik pasport va 162-sonli schyot ilova qilinadi. 567-sonli inventar kartochkada ro'yxatga olingan 40567 inventar raqami berilgan. Qabul qilish - topshirish hujjati "Orion" AJ direktori R.A. Voxidov tomonidan 2020-yil 18-mayda tasdiqlangan.

5-masala.

1. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalarni ro'yxatdan chiqarish dalolatnomasini tuzish (OS-3 sonli namunaviy shakl).

2. Hujjatda obyektning tugatilishi natijalari hisob-kitobini amalga oshirish.

Dastlabki ma'lumotlar

2020 yil 14 mayda "Bahor" AJ direktorining 2020-yil 11-maydagi 19-sonli buyrug'i bilan belgilangan, bosh muhandis I.B. Turdiev, muhandis A.T. Sirojiddinov va 1-sonli ombor mudiri T.M. Shodmonovlardan tashkil topgan komissiya 1-sonli ombor binosini ko'rib chiqdilar, uning inventar raqami 10015. Komissiya quyidagi sabablarga ko'ra obyektning tugatilishini zarur, deb hisoblaydi:

texnik holati avariya holatida;

1. 1989-yil 8-iyunda foydalanishga topshirilgan;

2. 231 119 m.s qiymatida 3 marta kapital ta'mirlandi.

Komissiya xulosasi: 1-sonli ombor binosi avariya holatida bo'lganligi va kelgusida ta'mirlash maqsadga nomuvofiqligi sababli korxona balansidan chiqarish. Obyektning qayta tiklanuvchi qiymati – 885 430 m.s. Yillik amortizatsiya me'yori – 3 %, amortizatsiya tizimli asosda o'tkaziladi (tugatilish kunidagi amortizatsiya qiymatini hisoblab chiqish). Qurilish-ta'mirlash boshqarmasi (QTB) "Bahor" AJga binoning qayta montaj qilinishi bo'yicha 5900 m.s miqdorida to'lovni, shu jumladan, 9000 m.s - QQSni namoyon etdi.

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: schyotlarda xo'jalik usuli bilan bajarilgan uzoq muddatli investitsiyalar tartibida asosiy vositalar tushumini aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. 1. Ishlab chiqarish korpusining qurilishi bo'yicha quruvchining xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida foydalanishga topshirilgan obyektning inventar qiymatini aniqlash.

2. Buxgalteriya hisobi schyotlarida amalga oshirilgan xarajatlar va operatsiyalar hisobini aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yilning fevral oyida "Oqsoy" AJ xo'jalik usulida ofis binosining qurilishini boshladi. Qurilgan bino 2020-yilning dekabr oyida foydalanishga topshirildi, aynan shu oyda davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlar topshirilgan. Bino amortizatsiyasiga tizimli usul yordamida 2020-yil yanvar oyidan o'tkazila boshlangan. "Oqsoy" AJda QQS bo'yicha soliq davri bir oyga teng.

Qurilish xarajatlari 65000 000 so'mni tashkil etgan, ulardan fevral oyidagi xarajatlar quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Ta'minotchidan materiallar 3000 000 so'mlik to'lov hisobiga o'zlashtirilgan.

QQS – 15 %.

2. Ta'minotchining schyoti to'langan –?

3. Sotib olingan materiallar bo'yicha QQS hisobga olingan –?

4. Ofis binosi qurilishiga materiallar chiqarilgan – 3000 000 so'm.

5. Qurilish maydoni ishchilarining maoshi hisoblangan – 4000 000 so'm.

6. Mehnat haqidan yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan –?

7. Qurilishda foydalanilgan jihozlarga amortizatsiya hisoblangan – 25000 so'm.

8. "Samavtotrans" avtotransport tashkilotining xizmatlari – 90000 so'm. QQS-?

9. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha QQS hisobga olingan –?

10. Yordamchi sexning xizmatlari hisobdan chiqarilgan – 150 000 so'm.

11. "Mul" transport tashkilotiga o'tkazilgan – ?

12. Fevralda bajarilgan qurilish ishlariga QQS hisoblangan – ?

13. Fevralda qurilish ishlariga hisoblangan budjetga QQS o'tkazilgan –?

14. Fevralda qurilish ishlari bo'yicha hisoblangan budjetdan QQS qoplangan – ?

15. 2020-yil dekabrda Qurilish ishlari yakunlangan.

Qurilgan obyekt foydalanishga topshirildi, dastlabki qiymat bo'yicha asosiy vositalar tarkibiga hisobga kiritilgan (qiymatini aniqlang) – ?

2-masala. Darsning maqsadi: buxgalteriya hisobi schyotlarida asosiy vositalar tushumini aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalar tushumi hisobi bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Oqsoy” AJ xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, so'm
1	3-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi OKSdan qurilishi yakunlangan sex binolari foydalanishga topshirilgan	5 237 000
2	4-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Yuqori tashkilot buyrug'iga ko'ra dastgoh bepul tartibda qabul qilingan: -uning joriy bozor qiymati -bepul keltirilgan dastgoh asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan	225 800 ?
3	5-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Sotib olishga haqiqiy xarajatlar hamda yetkazib berish, montaj va o'rnatish xarajatlari bo'yicha mashina va jihozlar asosiy vositalar tarkibiga qo'shiladi	800 000
4	6-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Qurilayotgan obyektida tashkilotning ustav kapitaliga kirim sifatida montaj qilishga mo'ljallangan jihozlar ta'sisshilar tomonidan keltirildi	195 000
5	Tayyorlovchi zavodning schyoti Montaj uchun tayyorlovchi zavoddan to'lov uchun tushgan: - xarid qiymati; - QQS	320 000 ?

6	Jihozlarni montajga topshirish dalolatnomasi Xarid qilingan jihozlar montaj qilish uchun ishlab chiqarish sexiga berilgan	?
7	7-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Ta'sischilar tomonidan ustav kapitali schyotiga kiritilgan montaj talab qilmaydigan jihozlar qiymati hisobida aks ettiriladi (kelishilgan qiymat bo'yicha) – ta'sischilar tomonidan ustav kapitaliga hissa hisobidan kiritilgan jihozlar hisobiga qabul qilinadi	
8	8-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Ishtirokchi tomonidan oddiy o'rtoqlik shartnomasi bo'yicha qo'shma faoliyat uchun jihozlar qiymati hisobida aks ettirilgan	
9	9-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Ishonch boshqarmasiga asosiy mablag'lar obyekti olingan	

3-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida buxgalteriya hisobi schyotlarida asosiy vositalar tushumini aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Buston” AJ ning xo‘jalik operatsiyalari

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Avtomobil zavodining schyoti Avtomobil zavodining sotib olingan avtomobil uchun to'lovga taqdim etilgan schyoti akseptlangan: - xarid qiymati, - amaldagi tariflar bo'yicha QQS, Jami:	170 000 ? ?
2	Hisobraqamidan ko'chirma va to'lov topshiriqnomasi	?

	Avtomobil zavodiga xizmat maqsadida foydalaniladigan avtomobil uchun o'tkazilgan	
3	11-sonli asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Asosiy vositalar tarkibiga sotib olingan avtomobil kirim qilingan	?
4	68-sonli Hisob-kitob raqamidan ko'chirma va to'lov topshiriqnomasi Frezer dastgoh uchun ta'minotchiga o'tkazilgan: - shartnoma qiymati; - amaldagi stavkalar bo'yicha QQS	
5	13-sonli Kirim orderi Ta'minotchidan montaj talab qilmaydigan frezer dastgoh keltirildi: - xarid bahosi - QQS	160 000 ?
6	Transport tashkilotining schyoti Transport tashkilotining frezer dastgohni tashish uchun to'lovga taqdim etilgan schyoti akseptlandi: - xizmatning chiqarish bahosi - amaldagi stavkalar bo'yicha QQS Jami:	800 ? ?
7	12-sonli asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Montaj talab qilmaydigan frezer dastgoh dastlabki qiymati bo'yicha foydalanishga topshirildi	?
8	13-sonli asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Boshqa tashkilotdan bepul olingan yangi asosiy vositalar obyekti qabul qilindi: - bozor qiymati - bepul olingan asosiy vositalar obyekti dastlabki qiymati bo'yicha hisobga qabul qilindi	128 500 ?
9	Buxgalteriya hisob-kitobi	?

	Sotib olingan asosiy vositalar obyekti va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha "kirish" QQS chegirmaga taqdim etilgan	
10	Ta'minotchining schyoti SHaxsiy kompyuter uchun sotib olingan printerga ta'minotchining schyoti akseptlangan: - xarid qiymati; - QQS	13 000 ?
11	Solib olingan printer foydalanishga topshirilgan	?
12	To'lov topshiriqnomasi Ta'minotchining printer uchun schyoti to'langan	?
13	Buxgalteriya hisob-kitobi Printer uchun to'langan QQS chegirishga qabul qilingan	?

4-masala.

1. Dastlabki ma'lumotlar asosida xarid qilish orqali asosiy vositalar tushumi operatsiyalarini hisobda aks ettirish.

2. Foydalanishga kiritilgan asosiy vositalarning dastlabki qiymatini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar

"TUHFA" AJ tomonidan 236 000 m.s.ga montaj talab yangi jihoz xarid qilingan, shu jumladan QQS – 15 % To'lov hisobraqamidan amalga oshirilgan.

Kassadan transport korxonasiga transport xarajatlari to'langan – 1180m.s, shu jumladan QQS -15 %

- Jihoz montajga topshirilgan – ?
- Montaj bo'yicha xarajatlar quyidagini tashkil etgan:
- yordamchi ishlab chiqarishlar xizmati 2700 m.s.
- jihozlar montajini amalga oshiruvchi ishchilarning ish haqi5000 m.s.
- mehnat haqidan YAIT hisoblab chiqarilgan ?
- dastlabki qiymati bo'yicha xarid qilingan jihozlar foydalanishga topshirildi ?

- xarid qilingan jihozlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha “kirish” QQS budjetdan qoplangan?

5-masala. 1) Mulkni bepul berish to‘g‘risidagi shartnoma asosida bepul olingan asosiy vositalarning dastlabki qiymatini aniqlash.

2) Buxgalteriya o‘tkazmalari (provodka)ni tuzish.

Dastlabki ma’lumotlar

“Iskandar” AJ “MIG” MCHJdan bepul asosda montaj talab qilmaydigan jihoz olgan. Jihozning keltirilgan kunidagi bozor qiymati 140 000 m.s.ni tashkil etgan. “Mig” MCHJda ushbu jihoz 3 yil foydalanilgan, obyektini hisobga kiritishda yaroqlilik muddati undan “Mig” MCHJda foydalanilganligini hisobga olgan holda – 5 yil deb belgilandi, “Iskandar” AJ amortizatsiyani hisoblashning to‘g‘ri usulidan foydalanadi.

“Iskandar” AJ jihozni yetkazib berish xarajatlarini transport tashkilotiga hisobraqamidan 3540 m.s., shu jumladan QQS 15 % miqdorida to‘ladi.

“Iskandar” AJning jihozlarni sozlash bo‘yicha xarajatlari quyidagilarni tashkil etgan:

- materiallar chiqarilgan 20100 m.s.
- jihozlarni sozlash uchun ishchilarga ish haqi hisoblab chiqarilgan 5000 m.s
- mehnat haqidan YAIT hisoblab chiqarilgan?
- yordamchi ishlab chiqarish xizmatlari.....3100 m.s.

Dastlabki qiymati bo‘yicha jihozlarni foydalanishga topshirish hisobda aks ettirilgan.

Beminnat olingan jihoz bo‘yicha har oylik amortizatsiya qiymatini hisoblab chiqish. Kelgusi davr daromadlarining bir qismini hisobdan chiqarish.

6-masala. Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish jurnaliga hamda avval foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha operatsiyalarni buxgalteriya hisobi schyotiga yozish.

Dastlabki ma’lumotlar

“Iskandar” AJ “Don” AJdan 3 yil (36 oy) foydalanishda bo‘lgan jihozlarni xarid qildi. Jihozning xarid qiymati – 236 000 m.s., shu jumladan QQS – 15 %ni tashkil etgan.

Jihozni hisobga qabul qilishda “Iskandar” AJda jihozlarni hisobga qabul qilishda ushbu jihazdan “Kano” AJda foydalanilganligini hisobga olgan holda yaroqlilik muddati belgilangan. “Iskandar” AJ amortizatsiyani hisoblashning to‘g‘ri usulidan foydalanadi.

Jihozni yetkazib berish bo‘yicha xarajatlarni “Iskandar” AJ transport tashkilotiga hisob raqamidan – 2360 m.s. miqdorida, shu jumladan QQS ni – 15 % miqdorida to‘ladi.

“Iskandar” AJ jihozlarning sozlash bo‘yicha xarajatlari quyidagilardan iborat:

- chiqarilgan materiallar qiymati 20100 m.s.
- jihozlarni sozlashga xodimlarga ish haqi hisoblangan. 5600 m.s
- ish haqidan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblangan ?
- yordamchi ishlab chiqarish xizmatlari..... 4800 m.s.

Dastlabki qiymati bo‘yicha jihozlarni foydalanishga topshirish hisobda rasmiylashtirilgan va aks ettirilgan.

7-masala. Dastlabki ma’lumotlar asosida asosiy vositalar keltirilishi va foydalanishga topshirilishini aks ettirish, buxgalteriya o‘tkazmalari (provodkalari)ni tuzish.

Dastlabki ma’lumotlar

“Iskandar” ishlab chiqarish-tijorat korxonasi avtosalonidan qiymati 200 600 m.s.li yengil avtomobil, shu jumlanadan QQS – 30 600 m.s hamda qiymati 236 000 m.s.lik yuk avtomobilini xarid qildi, jumladan QQS – 15 %. Transport vositalarini xarid qilish manbayi – bank krediti. To‘lov hisobraqamidan o‘tkazilgan.

Foydalanishga topshirish asosiy vositalar obyektni qabul qilish-topshirish to‘g‘risidagi akt bilan rasmiylashtirilgan.

2-amaliy mashg‘ulot

Darsning maqsadi: asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblash va amortizatsiyalar hisobi bo‘yicha operatsiyalarni hisoblarda aks ettirish tartibini o‘zlashtirish.

1-masala. Asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobi bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

№	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, m.s.
1	Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan: a) asosiy ishlab chiqarish sexlari b) yordamchi ishlab chiqarish sexlari v) umumxo'jalik ishlab chiqarishi g) xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar	15 420 7110 8320 3225
2	Bepul berilgan asosiy vositalar obyekti bo'yicha amortizatsiya qiymati hisobdan chiqarilgan	3100
3	Mulkchilik huquqlarida korxonaga tegishli sotilgan asosiy vositalar obyektlari bo'yicha amortizatsiya qiymati hisobdan chiqarilgan	1500
4	Inventarizatsiya qilishda aniqlangan etishmagan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya qiymati hisobdan chiqarilgan	2350
5	Ishlab chiqariladigan asosiy vositalarni to'liq baholashda indeksatsiyalangan amortizatsiya qiymati hisobda aks ettiriladi	15 000
6	Ishlab chiqarilgan asosiy vositalarning narxi pasaytirilganda indeksatsiyalangan amortizatsiya qiymati hisobda aks ettiriladi	12 500
7	Yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	7000
8	Zaxiralashtirilgan mablag'lar hisobiga asosiy vositalarni ta'mirlashda foydalanilgan obyektlar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	72010
9	Asosiy vositalarining ijaraga olingan obyektni ijarachining mulkiga o'tkazishda amortizatsiya qiymati hisobda aks ettiriladi	2100
10	Savdo jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi asosiy vositalar obyektlari bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	18 500

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalar obyekti amortizatsiyasini hisoblash, amortizatsiyani hisoblashning har bir usuli bilan:

- to'g'ri chiziqli;
- bajargan ish hajmiga nisbatan;
- kamayib boruvchi qoldiq;
- yillar yig'indisi usuli bo'yicha.

Dastlabki ma'lumotlar

“Sharm” AJ 236 000 ming so'mga tikuv jihozlarini xarid qildi, shu jumladan QQS – 15 %. To'lov hisobraqamidan amalga oshirilgan. Hisobga qo'yishda yaroqlilik muddati 5 yil qilib belgilangan.

3-masala. Mahsulot (ish) hajmiga mutanosib ravishda qiymatni hisobdan chiqarish usuli bilan asosiy vositalar obyekti amortizatsiyasini hisoblash.

Dastlabki ma'lumotlar

Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy vositalar obyekti dastlabki qiymati – 450 000 ming so'm, yaroqlilik muddati – 5 yil deb belgilangan. Mahsulot ishlab chiqarishning ko'zda tutilgan hajmi obyektidan foydalanishning butun davri uchun – 100 000 ming so'm birlik.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagidan iborat:

- Birinchi yil – 10 000 birlik;
- Ikkinchi yil – 15 000 birlik;
- Uchinchi yil – 20 500 birlik;
- To'rtinchi yil – 30 000 birlik;
- Beshinchi yil – 24 500 birlik.

4-masala. 1. Mulkni bepul berish to'g'risidagi shartnoma asosida bepul olingan asosiy vosita obyekti dastlabki qiymatini aniqlash.

2. Buxgalteriya o'tkazma (provodka)larini tuzish. Olingan jihozga hisoblangan amortizatsiya qiymatini hisob-kitob qilish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Alfa” AJ mart oyida bepul shaklda “Fayoz” MCHJdan jihoz olgan. Jihozning keltirilgan kundagi bozor qiymati – 80 000 ming so'mni tashkil etdi.

“Fayoz” MCHJda ushbu jihoz 2 yil davomida foydalanishda bo'lgan, obyektni hisobga kiritishda jihozni “Nur” MCHJda

foydalanishni hisobga olgan holda uning yaroqlilik muddati – 6 yil deb belgilangan. Amortizatsiya tizimli hisoblab chiqiladi. Jihozni yetkazib berish xarajatlarini “Iskandar” AJ transport tashkilotiga hisobraqamidan 1180 ming so‘m qiymatida, QQS – 15 % to‘ladi. Jihozning sozlanishi “Iskandar” AJ ta’mirlash sexi ishchilari tomonidan amalga oshirildi.

1. Mart oyidagi xo‘jalik operatsiyalari

Bepul keltirilgan jihozning bozor qiymati – 80 000 ming so‘m.

2. Transport tashkilotining schyoti

Transport tashkilotining olingan jihozni yetkazish bo‘yicha xizmatlar uchun schyoti akseptlangan – 1000 ming so‘m.

QQS ?

3. To‘lov topshiriqnomasi

Transport tashkilotining jihozni yetkazib berganlik uchun schyoti to‘langan – ?

4. Buxgalter hisob-kitobi

Ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha “kirish” QQS to‘lovga qabul qilindi –?

5. Ish haqini taqsimlash qaydnomasi

Olingan mahsulotni sozlash uchun ishchilarga ish haqi hisoblangan – 1500 ming so‘m.

Mehnat haqidan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblangan – ?

6. 1-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi

Bepul shaklda keltirilgan jihozga amortizatsiya hisoblangan –?

7. Kelgusi davr daromadlarining bir qismi hisobdan chiqarilgan–?

Darsning maqsadi: buxgalteriya hisobi schyotlarida asosiy vositalar obyektlarini ta’mirlash, rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash bo‘yicha xarajatlarni aks ettirish tartibini o‘zlashtirish.

1-masala. Ro‘yxatga olish jurnalida asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari hisobi bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini yozish va schyotlar korrespondensiyasini ko‘rsatish.

Tashkilotda binolar ta’miri bo‘yicha xarajatlarni ta’mirlashni amalga oshirish bo‘yicha mahsulot tannarxiga kiritish. Ta’mirlashga xarajatlar zaxirasi asosiy vositalar obyektlari ta’miri bo‘yicha yaratiladi.

Dastlabki ma'lumotlar

1. 1-fevralda schyotlar bo'yicha qoldiqlar to'g'risida ma'lumotnoma:

1000 "Materiallar" – 25 000 ming so'm.

2000 "Asosiy ishlab chiqarish" – 15 500 ming so'm.

8900 "Kelgusi xarajatlar zaxiralari" – 40 500 ming so'm.

2020-yil fevral oyi uchun xo'jalik operatsiyalari

№	Hujjatlar va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, ming so'm
1	11-19-sonli talabnoma Zavodning ma'muriy korpusi binosini ta'mirlash uchun ta'mirlash sexiga ombordan materiallar chiqarilgan	12 380
2	Ish haqini taqsimlash qaydnomasi Ta'mirlash sexi ishchilariga zavodning ma'muriy korpusi binosini ta'mirlashga ish haqi hisoblangan	11 250
3	Ish haqini taqsimlash qaydnomasi va YAITni hisoblash Ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov hisoblab chiqarilgan	?
4	Ta'mirlashga xarajatlar zaxirasidan ajratmalar hisob-kitobi Fevral oyi uchun asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari zaxirasiga ajratmalar amalga oshirilgan: - asosiy ishlab chiqarish sexlari - yordamchi ishlab chiqarish sexlari - umumxo'jalik xizmatlari	3280 1580 1900
5	Pudratchi tashkilotlar schyoti va ta'sirlangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi Asosiy ishlab chiqarish sexi jihozlarining kapital ta'mirlashga pudratchi tashkilotning schyoti akseptlangan: - ta'mirlash qiymati - QQS (amaldagi stavkalar bo'yicha)	? ?

	Yaratilgan ta'mirlash hisobiga jihozlar ta'miri xarajatlari hisobdan chiqariladi	
6	Hisobraqamidan ko'chirma va to'lov topshiriqnomasi Asosiy sex jihozlarining kapital ta'miriga pudratchi tashkilotning hisobraqamiga o'tkazilgan	?
7	Buxgalteriya hisob-kitobi Ta'mirlash ishlari bo'yicha QQS hisobdan chiqarishga qabul qilingan	?
8	15-sonli ta'mirlangan obyektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Yaratilgan zaxira hisobiga zavodning ma'muriy korpusi binosining yakunlangan ta'miri bo'yicha xarajatlari hisobdan chiqariladi	?
9	Buxgalteriya hisob-kitobi schyotlari yopiladi: -umumishlab chiqarish xarajatlari -umumxo'jalik xarajatlari	? ?
10	Jihozlarni va zavodning ma'muriy korpusini ta'mirlash qiymati ortishiga qo'shimcha yozuv amalga oshirilgan	?

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida buxgalteriya hisobi schyotlarida pudrat usuli bilan bajarilgan asosiy vositalarni kapital ta'mirlash bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish.

Korxonada umumishlab chiqarish va umumxo'jalikka mo'ljallangan asosiy vositalarni kapital ta'mirlash bo'yicha xarajatlarini qoplashga zaxiralar yaratilmoqda.

Dastlabki ma'lumotlar

1.1-aprelda schyotlar bo'yicha qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotnoma:

5110 –“Hisobraqamlari” – 50 000 ming so'm.

6010 – “Ta'minotchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar”– 5500 ming so'm.

9810 – “Kelgusi xarajatlar zaxiralari” – 55 500 ming so'm

2. Aprelda xo'jalik operatsiyalari

No	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, ming so'm
1	Asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha xarajatlarni qoplashga mablag'lar zaxiralashtiriladi: - umumishlab chiqariluvchi - umumxo'jalikka mo'ljallangan - ishlab chiqarish va xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi	25 000 24 860 10 780
2	Asosiy vositalar obyektlari ta'miri bo'yicha ishlar uchun pudratchining schyoti akseptlangan: - umumishlab chiqariluvchi - umumxo'jalikka mo'ljallangan - ishlab chiqarish va xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi - QQS (amaldagi stavkalar bo'yicha) JAMI: Asosiy vositalarning yakunlangan ta'miri bo'yicha haqiqiy xarajatlar yaratilgan zaxira hisobiga chiqariladi	52 640 39 300 20 280 ?
3	Ko'rsatilgan asosiy vositalar ta'miri bo'yicha bajarilgan ishlar uchun pudratchining schyoti to'langan	?
4	Pudratchilarga ta'mirlash bo'yicha bajargan ishlari uchun to'langan QQSni hisoblab chiqarish	?
5	Ta'mirlash ishlari yakunlanishi bo'yicha 96 schyot, "Ta'mirlash ishlarini bajarishga zaxiralar" subschyoti yopildi	?

3-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida yil oxirida amalga oshirilgan va xo'jalik usuli bilan bajarilgan asosiy vositalar ta'miri xarajatlari hisobi bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlab ma'lumotlar:

Xo‘jalik operatsiyalari

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, ming so‘m
1	Buxgalteriya hisob-kitobi Asosiy vositalar ta'miri bo'yicha xarajatlarini qoplashga mablag'lar zaxiralanadi: - sexning jihozlari - umumishlab chiqarishga mo'ljallangan	100 000 90 000
2	Ulgurji narxlar bo'yicha material xarajatini taqsimlash qaydnomasi: Kapital ta'mirlashga sarflangan materiallar: - jihozlar - asosiy ishlab chiqarish sexi binosi	57 700 54 500
3	Materiallar bo'yicha TTX hisob-kitobi Transport-tayyorlov xarajatlari hisob narxlari bo'yicha sarflangan materiallar qiymatining 10 % miqdorida hisobdan chiqariladi (qiymatini aniqlash)	?
4	Ish haqini taqsimlash qaydnomasi Ish haqi hisoblangan: - jihozlar ta'miriga - sex binosi ta'miriga	25 800 23 950
5	Yagona ijtimoiy to'lov hisob-kitobi Mehnat haqidan yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan	?
6	Ta'mirlangan obyektlarning qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Yakunlangan kapital ta'mirlash ishlari qabul qilingan: - jihozlar - sex binosi Yaratilgan zaxira hisobidan ta'mirlash bo'yicha haqiqiy xarajatlar hisobdan chiqarilgan	? ?
7	Buxgalterning ma'lumotnomasi Ta'mirlash ishlari yakunlanishi bo'yicha 96 schyot yopildi, "Ta'mirlash ishlarini bajarishga zaxiralar" subschyoti	?

4-masala.

1. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida schyotlarda ishlab chiqarish jihozlarini ta'mirlash xarajatlari hisobi bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish. Tashkilotda yaratilgan zaxira hisobiga

asosiy vositalar obyektlarini ta'minlashga xarajatlar hisobdan chiqariladi.

2. Moliyalashtirish manbalari hisobiga xarajatlarni aniqlash va hisobdan chiqarish.

Dastlabki ma'lumotlar

1. Schyotlar bo'yicha qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotnoma:

1010- Xomashyo va materiallar – 73 000 ming so'm

1050- Ehtiyot qismlari – 45 000 ming so'm

1090- Boshqa materiallar – 36 000 ming so'm.

9810- Kelgusi xarajatlar zaxirasi – 154 000 ming so'm.

Xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, ming so'm
1	Mashinalar, asosiy ishlab chiqarish sexining jihozlarini xo'jalik usuli bilan bajarilgan ta'mirlash bo'yicha xarajatlar quyidagilarni tashkil etgan: -sarflangan materiallarning haqiqiy tannarxi -sarflangan ehtiyot qismlarning haqiqiy tannarxi	24 750 13 480
2	Jihozlar ta'miri bo'yicha ishlar uchun ta'mirlash sexi ishchilarining ish haqi hisoblangan	32 000
3	Ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan	?
4	Yakunlangan ta'mirlashning haqiqiy tannarxi omborga qaytarilgan ehtiyot qismlar qiymatiga to'g'rilanadi	1800
5	Zavodning ma'muriy binosini xo'jalik usuli bilan o'tkazilgan ta'miri bo'yicha xarajatlari quyidagilarni tashkil etgan: - sarflangan asosiy materiallarning haqiqiy tannarxi - sarflangan boshqa materiallarning haqiqiy tannarxi - ta'mirlashni bajarayotgan ishchilarga ish haqi hisoblangan - mehnat haqidan Y AIS hisoblangan	32 000 22 000 30 000 ?
6	Yaratilgan zaxira hisobiga jihozlar va ma'muriyat binosi ta'miri bo'yicha xarajatlar hisobdan chiqariladi	?
7	Ta'mirlash ishlari yakunlanishi bo'yicha 9810-schyotni yopish, "Ta'mirlash ishlarini bajarishga zaxiralar" schyoti	?

5-masala. Dastgohning o‘z korxonasining ta‘mirlash ustaxonasi amalga oshirgan joriy ta‘miri bo‘yicha operatsiyalarni hisobda aks ettirish.

Ta‘mir xarajati quyidagilarni tashkil etgan:

- ishchilarning ish haqi – 12 500 m.s.
- ishchining ish haqidan hisoblangan yagona ijtimoiy soliq – ?
- xarid qilinadigan detallar qiymati – 35 400 m.s., shu jumladan QQS – 15 %

Detallar naqd to‘langan.

Xo‘jalik operatsiyalari:

1. Ishchilarga dastgohning amalga oshirilgan ta‘miri uchun ish haqi hisoblangan – 12 500 ming so‘m.
2. Mehnat haqidan YAIT hisoblangan – ?
3. Detallarga to‘lash uchun hisobot asosida kassadan pullar berilgan – 35 400 ming so‘m.
4. Dastgohni ta‘mirlash uchun xarid qilingan detallar kirim qilingan, xarid qiymati – 30 000 ming so‘m.
5. QQS hisoblash uchun qabul qilingan – ?
6. Ta‘mirlashda ishlatilgan foydalanilgan detallar hisobdan chiqarilgan – 30 000 ming so‘m.
7. Dastgohning yakunlangan ta‘miri bo‘yicha xarajatlar hisobdan chiqarilgan – ?

6-masala.

Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar asosida schyotlarda jihozlarni modernizatsiyalash xarajatlari hisobi bo‘yicha operatsiyalarni aks ettirish.

Dastlabki ma‘lumotlar

Xo‘jalik operatsiyalari

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, ming so‘m
1	Asosiy ishlab chiqarish sexlari jihozini modernizatsiyalash bo‘yicha ishlarga sarflangan haqiqiy tannarx hisobdan chiqariladi: - asosiy materiallar	140 000

	- xarid qilinadigan yarimtayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va detallar - ehtiyot qismlar	20 000 130 500
2	Jihozlarni modernizatsiyalash bo'yicha ishlar bajarish bilan band bo'lgan ishchilarning ish haqi hisoblangan	115 000
3	Belgilangan ish haqi miqdorida yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan	?
4	Modernizatsiyalashga xarajatlar qiymatiga asosiy vositalarning dastlabki qiymati to'lanadi	?

7-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida jihozlarni ta'mirlash hisobi bo'yicha operatsiyalarni hisoblarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

“FOTON” AJ kompyuterning texnik tavsiflarini yaxshilashga qaror qildi, protsessorlarni yanada kuchlisiga almashtirdi, OZU oshirdi, DVD-RW o'rnatdi. Ishlarning qiymati (yangi detallar qiymatini hisobga olgan holda) 14 160 so'mni tashkil etdi (shu jumladan QQS -1840 so'm).

Xo'jalik operatsiyalari:

1. Ishlarning qiymati to'langan – 14 160 ming so'm,
2. Modernizatsiyalashga xarajatlar – 12 000 ming so'm, QQS -1840 ming so'm.
3. Modernizatsiyalash xarajatlari kompyuterning dastlabki bahosiga kiritilgan – ?
4. QQS soliq hisobi amalga oshirilgan – 1840 ming so'm.

8-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish xonasining ta'miriga xarajatlar hisobi bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Hisobot oyida “FOTON” AJ ishlab chiqarish xonalarini ta'mirlaydi. Tashkilotda ta'mirlashga xarajatlar zaxirasini yaratish ko'zda tutilgan.

Ta'mirlash sexining ta'mirlashga haqiqiy xarajatlari quyidagilardan iborat:

1. Materiallar qiymati – 8000 ming so‘m.
2. Ta‘mirlashni bajargan ishchilarning ish haqi – 9000 ming so‘m.
3. Mehnat haqidan yagona ijtimoiy to‘lov ajratiladi –?
4. Asosiy vositalar amortizatsiyasi – 12000 ming so‘m.
5. Tashqi tashkilotning xizmatlari qiymati – 50 000 ming so‘m
QQS – 15 %.
6. Tashqi tashkilotning schyoti to‘langan –?
7. QQS hisobga qabul qilingan –?
8. Yaratilgan zaxira hisobiga ta‘mirlash sexining xarajatlari hisobdan chiqarilgan – ?

3-amaliy mashg‘ulotlar

Dars maqsadi: nomoddiy aktivlarni yaratish va ularning amortizatsiyasini chiqarish, xarid qilish bo‘yicha operatsiyalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibini o‘zlashtirish.

1-masala.

Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar asosida mulk huquqida korxonalarga tegishli nomoddiy aktivlar harakati va ular bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar

Xo‘jalik operatsiyalari

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, ming so‘m
1	Ta‘sischi tomonidan ustav kapitali schyotiga kelishilgan qiymat bo‘yicha kashfiyotlardan foydalanishga kiritilgan Dastlabki qiymati bo‘yicha kashfiyotlardan foydalanish huquqi kirim qilingan	164 500 ?
2	Boshqa tashkilotlarga to‘lov evaziga nomoddiy aktivlarni xarid qilish hisobda aks ettiriladi: - shartnoma qiymati - tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha QQS	124 600 ?

3	Boshqa tashkilotlardan xarid qilingan nomoddiy aktivlar kirim qilinadi	?
4	Xarid qilingan NMA bo'yicha majburiyatlar to'lovi amalga oshirilgan	?
5	“Erudit” AJdan bepul qat'iy huquq va uni NMA tarkibida hisobga qabul qilishni schyotlarda aks ettirish Har yillik amortizatsiya hisob-kitobdan uni 3 yillik foydalanish belgilanadi (qiymati tizimli usulda hisoblash)	? ?
6	Tashkilot davlatdan hukumat irodasining subsidiyalari sifatida olingan nomoddiy aktivlar kirim qilinadi	40 000
7	Bepul shaklda boshqa tashkilotga nomoddiy aktivlari beriladi: - dastlabki qiymati - foydalanish davrida hisoblangan amortizatsiya qiymati - qoldiq	57 980 48 460?
8	Bepul berilgan NMA bo'yicha QQS budgetga o'tkazilgan Bepul o'tkazilgan NMAdan moliyaviy natija hisobdan chiqariladi	? ?
9	Nomoddiy aktivlar obyektlari savdosi buxgalteriya hisobida aks ettiriladi: - dastlabki qiymati - savdo vaqtidagi amortizatsiya - qoldiq qiymat - savdodan tushum, shu jumladan QQS aks ettirilgan - tushumdan QQS hisoblangan - savdoning moliyaviy natijasi hisobdan chiqarilgan	125 000 56 900? 88 500? ?
10	Boshqa tashkilotning ustav kapitali schyotiga kelishilgan qiymat bo'yicha nomoddiy aktivlar berilgan	150 000
11	Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga o'tkazilgan nomoddiy aktivlar balansdan chiqariladi: - dastlabki qiymati - o'tkazilish vaqtidagi amortizatsiya - qoldiq qiymati	92 000 32 000 0
12	Boshqa tashkilotlarning ustav kapitaliga qo'yilgan NMAdan moliyaviy natija hisobdan chiqariladi	?
13	Ayirboshlash shaklida nomoddiy aktivlar hisobga qabul qilingan - shartlashilgan narxi - QQS	80 000 14 400
14	Ayirboshlash shaklida boshqa tashkilotga berilgan nomoddiy aktivlar qiymati hisobdan chiqariladi: - shartlashilgan narx, shu jumladan VVS	94 400

	- ayirboshlash shaklida berilgan NAMdan QQS hisoblangan - dastlabki qiymati - o'tkazilish vaqtidagi amortizatsiya - qoldiq qiymati	? 72 000 14 600 ?
15	NMA ayirboshlash shaklida berilishidan moliyaviy natija hisobdan chiqariladi	?
16	Ayirboshlash bo'yicha ikki tomonning hisoboti aks ettirilgan	?

2-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida nomoddiy aktivlarni xarid qilish, ularni foydalanishga topshirish, amortizatsiyani hisoblash va balansni chiqarish bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Oldi-sotdi shartnomasi asosida "Daromad plyus" AJ 16.12.2020-yilda "Qimmatbaho metallarni eritish texnologiyasini" 279 500 ming so'mga xarid qildi, shu jumladan QQS -29 500 ming so'm. Yaroqlilik muddati besh yil. Amortizatsiya to'g'ridan to'g'ri o'tkaziladi.

27.02.2020-yilda texnika xavfsizligi bo'yicha tarmoq talablari o'zgarishidan kelib chiqqan ushbu texnologiyadan kelgusida foydalanish nomuvofiqligini nazarda tutgan holda "Texnologiyani" hisobdan chiqarish qarori qabul qilingan. "Texnologiyani" hisobdan chiqarishdan moliyaviy natijani aniqlang.

3-masala. Ustav kapitaliga yerdan foydalanish huquqini vzos sifatida kiritish to'g'risidagi ta'sis hujjati ma'lumotlari asosida amortizatsiya hisob-kitoblarini bajarish, buxgalteriya o'tkazmalari operatsiyalarini aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar. "Daromad plyus" AJ ta'sisi hujjatida, ustav kapitaliga qo'yilma sifatida ta'sischilardan biri AJga 05.07.2007-yilda 10 yil muddatga kelishilgan qiymati – 950 000 ming so'm bo'yicha yerdan foydalanish huquqini berishi ko'zda tutilgan .

2007-yil uchun yillik hisobotni tuzishda yerdan foydalanish huquqi ustav kapitaliga qo'yilma sifatida kirim qilinishiga hisoblangan amortizatsiya qiymati – ? Amortizatsiya to'g'ridan to'g'ri o'tkaziladi.

4-masala.

1. Buxgalteriya hisobida firmani sotib olish bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish.

2. Firmaning ishbilarmonlik nufuzini aniqlash.

3. Ishbilarmonlik nufuzining dastlabki qiymati amortizatsiyasining har oylik qiymatini aniqlash.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

“Daromad plyus” AJ kimoshdi savdosida bankrotlikka uchragan “Nur” AJ firmasini xarid qildi. “Nur” AJ bozor qiymati – 2 200 000 ming so‘m.

“Nur” AJ soddalashtirilgan balansi quyidagi ko‘rinishga ega

Aktiv	Umumiy qiymati, ming so‘m	Passiv	Umumiy qiymati, ming so‘m
Asosiy vositalar	1 100 000	Ustav kapitali	1 300 000
Ishlab chiqarish zaxiralari	1 050 000	Kreditorlar	900 000
Hisobraqami	50 000		
Balans	2 200 000	Balans	2 200 000

“Daromad plyus” AJ “Nur” AJ uchun 3 000 000 ming so‘m to‘lagan. Firmaning ishbilarmonlik nufuzining dastlabki qiymatining har oylik amortizatsiyasini hisoblash muddati 20 yil deb belgilangan.

Xo‘jalik operatsiyalari

№	Operatsiyaning mazmuni	Umumiy qiymati, ming so‘m
1	Firma uchun shartnomaga ko‘ra to‘langan	3 000 000
2	“Nur” AJ balansidan tashkilot balansiga qabul qilingan: - asosiy vositalar - ishlab chiqarish zaxiralari - pul mablag‘lari	1 100 000 1 050 000 50 000
3	“Nur” AJning majburiyatlari tashkilot balansiga qabul qilingan	900 000
4	Firmaning ishbilarmonlik nufuzi nomoddiy aktivlar sifatida hisobga qabul qilingan	?
5	Firma ishbilarmonlik nufuzining dastlabki qiymatining har oylik amortizatsiya qiymati aks ettirilgan	?

5-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida:

Nomoddiy aktivni xarid qilish va sotishni hisobda aks ettirish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish.

NAM obyektidan foydalanganlik davrida hisoblangan amortizatsiya qiymatini hisoblash.

Dastlabki ma'lumotlar

“Daromad plyus” MCHJ, uning asosiy vazifasi tibbiyot asboblarining ulgurji savdosidan iborat, 2006-yil 13-yanvarda ishlab chiqaruvchi – jismoniy shaxsdan tibbiyot asboblari sotish hisobi bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturga qat'iy egalik huquqini oldi. Dasturning qiymati – 60 000 ming so'm. Hisobga qabul qilishda yaroqlilik muddati 10 yil deb belgilandi. Amortizatsiya to'g'ridan to'g'ri hisoblanadi. 2008-yilda “Luch” MCHJ boshqa mintaqalarda tibbiyot asboblarini sotuvchi bir nechta bo'limlarini ochdi. Mavjud hisob dasturi tashkilot talablariga javob bermay qo'ydi, chunki bir necha bo'limlarda hisob yuritish ta'minlanmadi.

01.07.2020-yilda “Nur” MCHJ dasturini 53 100 ming so'mga sotish to'g'risida qaror qabul qilindi (shu jumladan QQS -15 %).

6-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida:

– nomoddiy aktivlarni chiqarishni hisobda aks ettirish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish;

– amortizatsiya ajratmalarining har oylik qiymatini hisoblash.

Dastlabki ma'lumotlar.

a. “Oniks” MCHJning balansida “Ish haqi hisobi” kompyuterda o'qitish dasturiga qat'iy mualliflik huquqi kiritilgan. Dasturning dastlabki qiymati – 25 000 ming so'm, hisoblangan amortizatsiya qiymati – 21 950 ming so'm. Komissiyaning qaroriga ko'ra, dasturdan foydalanishni davom ettirish maqsadga muvofiq emas, deb belgilandi. Chunki u eskirgan. Komissiyaning xulosasi bayonnoma bilan rasmiylashtirildi;

b. “Nur” MCHJ balasida kitob nashr etishga qat'iy mualliflik huquqi mavjud. Uning dastlabki qiymati – 24 000 ming so'm. Bu huquqdan foydalanish muddati – 10 yil. Mazkur muddat 2008-yilning yanvar oyida yakunlanadi. Bu vaqtda ushbu NMA butunlay amortizatsiyalangan. NMAning hisobdan chiqarilishini aks ettirish;

c. “Nur” MCHJ balansida insonning intellektual imkoniyatlarini belgilovchi asboblarni kashf etish patenti mavjud. Patentning dastlabki qiymati – 45 000 ming so‘m. Ushbu aktivga hisoblangan amortizatsiya 14 200 ming so‘mni tashkil etadi. 2008 yilning mart oyida “Nur” MCHJ kashfiyotlarga patent “Mohir qo‘llar” ishlab chiqarish birlashmasiga o‘tkazilishi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. “Nur” MCHJ buning uchun 70 800 ming so‘m (shu jumladan QQS – 15 %) oldi. Patentni berish shartnomasini ro‘yxatga olish uchun 200 AQSH dollari ekvivalentida boj undiriladi. Bojni to‘lash kunida AQSH dollari kursi 10520 so‘m;

d. 2010-yilning yanvar oyida “Erkin” MCHJ 23 600 ming so‘m evaziga kompyuter dasturiga qat’iy huquqqa (shu jumladan, QQS –15 %) ega bo‘ldi. 2010-yil aprelda bu huquqlar boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo‘yilma hisobiga berilgan. Shartnomaga ko‘ra, ushbu hissa 30 000 ming so‘m miqdorida baholangan. “Erkin” MCHJning amortizatsiyasi to‘g‘ridan to‘g‘ri hisoblanadi. Kompyuter dasturi qat’iy huquqidan foydalanish muddati 10 yil deb belgilangan.

Xo‘jalik operatsiyalari:

1. Dasturga qat’iy huquqlarni xarid qilish xarajatlari aks ettirilgan – 23600 ming so‘m

2. Xarid qilingan NMA uchun sotuvchiga to‘lov – ?

3. Xarid qilingan NMA foydalanishga topshirilgan – ?

4. QQS budjetdan qoplangan – ?

5. Ta’sis hujjatida belgilangan bahoda boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo‘yilma hisobiga NMA berish aks ettirilgan – ?

6. Ustav kapitaliga qo‘yilma hisobiga berilgan NMA balansdan chiqarilishi aks ettirilgan – ?

7. Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo‘yilma hisobiga berilgan NMA bo‘yicha budjetdan qoplangan QQS qiymati stornatsiyalangan $(3600 - (3600 : 10 \text{ yil} : 12 \text{ oy} * 2 \text{ oy}))$ –?

8. Shaxsiy mablag‘lar hisobiga NMA berishda QQS qiymati hisobdan chiqarilgan – ?

9. Mazkur operatsiyadan moliyaviy natija aks ettirilgan – 7 ming so‘m

7-masala. 1. O‘z kuchi bilan yaratish va ularni chiqarish, amortizatsiyani hisoblashni operatsiyalar jurnali va NMAning kelib tushishi hisobi bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari schyotlariga yozish.

2. Hisobga qabul qilishda nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymatini aniqlash.

3. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisoblash bo'yicha zarur hisob-kitoblarni bajarish.

Dastlabki ma'lumotlar

0400 – “Nomoddiy aktivlar” schyotida oy boshidagi qoldiqlar 590 000 ming so'm, 0500 – “NMA amortizatsiyasi” schyotida – 343 000 ming so'm.

Nomoddiy aktivlarni kengaytirib yozish

Nomi	Dastlabki qiymati so'm.	Amortizatsiya ming so'm.
Qat'iy litsenziya bo'yicha kashfiyotlar qilish huquqi	115 000	115 000
Sanoat namunasi	250 000	116 000
Kashfiyotlardan foydalanish huquqi	225 000	112 000
Jami:	590 000	343 000

Xo'jalik operatsiyalari

№	Hujjat va operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, ming so'm
1	Qabul qilish dalolatnomasi Ta'sischi tomonidan kelishilgan narx bo'yicha tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma sifatida yer maydonidan foydalanish huquqi kiritildi. NMA tarkibiga yer maydonidan dastlabki qiymati bo'yicha foydalanish huquqi hisobga qabul qilindi	205 000 ?
2	Litsenziya shartnomasi Uch yil davomida mahsulot chiqarish huquqi xarid qilingan - xarid qiymati - QQS	435 000 ?
3	Xarajat kassa orderi	

	Mahsulot chiqarish huquqini xarid qilish bo'yicha maslahatchining xizmatlariga naqt hisob-kitob qilingan	850
4	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Mahsulot chiqarish huquqini xarid qilish to'loviga o'tkazilgan	?
5	Buxgalteriyani ma'lumotnomasi Xarid qilingan huquq dastlabki qiymati bo'yicha nomoddiy aktivlar tarkibida balansga qabul qilingan	?
6	Buxgalteriyani ma'lumotnomasi Xarid qilingan huquq bo'yicha QQS qiymati budjetdan qoplanishga berilgan	?
7	NMA amortizatsiyani hisoblash qaydnomasi Mahsulot chiqarishga xarid qilingan huquqqa amortizatsiya hisoblangan (amortizatsiya to'g'ridan to'g'ri hisoblanadi)	?
8	Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi Qat'iy litsenziya bo'yicha xarid qilingan kashfiyotlarga huquq qiymati hisobdan chiqariladi: - dastlabki qiymat - hisobdan chiqarish vaqtida hisoblangan amortizatsiya qiymati - qoldiq qiymat	? ? ?
9	Ta'sis shartnomasi Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma sifatida buyumning sanoat namunasi berilgan: - dastlabki qiymat - hisobdan chiqarish vaqtida hisoblangan amortizatsiya qiymati - qoldiq qiymat	250 000 116 000 ?
10	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma sifatida sanoat namunasini berish bo'yicha maslahat xizmatlari haqi to'langan	1550
11	Buxgalteriya ma'lumotnomasi va shartnoma Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma sifatida berilgan sanoat namunasining shartnoma qiymati aks ettirilgan	200 000
12	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	

	Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma sifatida berilgan sanoat namunasini berishdan moliyaviy natija aniqlangan va hisobdan chiqarilgan	?
13	Talabnoma-nakladnoy Chiqarilishi ko'zda tutilgan buyum modelini tayyorlashga materiallar chiqarilgan	26 900
14	Ish haqini taqsimlash qaydnomasi Chiqarilishi ko'zda tutilgan buyum modelini tayyorlashga ish haqi hisoblangan	20 160
15	YAIT hisob-kitobi Buyumning foydali modelini tayyorlovchi ishchining ish haqidan yagona ijtimoiy soliq hisoblangan	?
16	Bo'nak hisoboti Buyumning foydali modelini aprobatsiya qilish bo'yicha ish safari xarajatlari hisobdan chiqarilgan	36 400
17	Buxgalteriya hisob-kitobi Foydali modelni yaratish bo'yicha bajarilgan ishlar qiymatiga QQS hisoblangan	?
18	To'lov topshiriqnomasi Yaratilgan dasturiy model bo'yicha budjetga hisoblangan QQS qiymati o'tkazilgan	?
19	Qabul qilish dalolatnomasi Tashkilotning nomoddiy aktivlari tarkibiga buyumning tayyorlangan foydali modeli kiritilgan	?
20	Buxgalteriya hisob-kitobi Yaratilgan foydali model bo'yicha QQS chiqarishga qabul qilingan	?
21	Schyot-faktura Tashkilot firma belgisidan foydalanish huquqi hisobiga xaridorga ikki yil davomida taqdim etilgan: - dastlabki qiymati - to'lovning shartnoma qiymati - QQS Schyot bo'yicha jami:	124 000 250 000 ? ?
22	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Firma belgisi huquqidan foydalanganlik uchun xaridordan mablag'lar kelib tushdi	?
23	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	

	Firma belgisi huquqidan foydalanish huquqini berishdan moliyaviy natija aniqlangan va belgilangan joydan chiqarilgan	?
24	Schyot-faktura - xaridorga kashfiyotlardan foydalanish huquqini berish schyoti taqdim etilgan - dastlabki qiymati - berish vaqtida hisoblangan amortizatsiya qiymati - qoldiq qiymat - shartnoma qiymati (QQSdan)	? ? ? ?
25	Buxgalteriya hisob-kitobi Kashfiyotlardan foydalanish huquqini berishga QQS hisoblangan	?
26	Kashfiyotlardan foydalanish huquqini berishdan moliyaviy natija hisobdan chiqariladi	?
27	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma kashfiyotlardan foydalanish huquqi sotilishi uchun to'lov kelib tushgan	?

Test savollari

1. Asosiy vositalar qanday baholanadi?

- a) dastlabki, tiklash, qoldiq, joriy, tugatish qiymati
- b) dastlabki, joriy, tugatish qiymati
- c) tiklash, qoldiq, joriy, tugatish qiymati
- d) dastlabki, tiklash, qoldiq qiymati

2. Arendadagi asosiy vositalarni o'z asosiy vositalariga o'tkazganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
D-t	0100	0100	0820	1000
K-t	0310	8530	1000	

6010

3. Asosiy vositalarga eskirishni hisoblash usullarini aniqlang.

- a) kumulyativ, to'g'ri chiziqli, ishlab chiqarish usullari
- b) kumulyativ, to'g'ri chiziqli, ishlab chiqarish, ikki marta ko'paygan norma, kamayib boruvchi qoldiq usullari
- c) to'g'ri chiziqli, ishlab chiqarish, ikki marta ko'paygan norma, kamayib boruvchi qoldiq usullari
- d) kumulyativ, to'g'ri chiziqli, ishlab chiqarish usullari

4. Asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foydaning aks ettirilishiga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Dt	9210	9430	0200	9210
Kt	9310	9210	9210	6710

5. Quyidagi yozuv nimani anglatadi?

D-t 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari"

K-t 0220 "Binining eskirishi"

- a) Vositaga eskirish hisoblash
- b) Asosiy vositalar bahosini kamaytirish
- c) Chiqib ketayotgan asosiy vositalarga eskirishni hisoblash
- d) Umumishlab chiqarish binolariga eskirishni hisoblash

6. Asosiy vositalarga kapital qo'yilma qilayotgan ishchilarga ish haqi hisoblanganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi:

	a	b	c	d
D-t	0810	9210	9430	2010
K-t	6710	6710	6710	6710

Tayanch iboralar: asosiy vositalar, boshlang'ich qiymat, qoldiq qiymati, tugatish qiymati, amortizatsiya, nomoddiy aktivlar, gudvil, nou-xau, mualliflik huquqi, ta'mirlash xarajatlari

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning hisobi qanday hujjatlarga asosan yuritiladi?
2. Asosiy vositalarni qayta baholash zaruratini isbotlang.
3. Eskirishni hisoblash tartibini yoritng.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qanday tartibda va hujjatlarga asosan ta'mirlanadi?
5. Asosiy vositalarning chiqimi va moliyaviy natijasini aniqlash tartibini yoritng.
6. Nomoddiy aktivlar qanday baholanadi?
7. Nomoddiy aktivlar kirimini hisobga olish tartibini yoritng.

4-MAVZU. INVESTITSİYALAR HISOBİ

Qimmatli qogʻozlar hisobi. Qimmatli qogʻozlar hujjatlar boʻlib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi oʻrtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad toʻlashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga oʻtkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qogʻozlarning qiymati Oʻzbekiston Respublikasi milliy valutasida ifodalanadi.

Qimmatli qogʻozlarga (OʻRQ-163-son qonunga koʻra) aksiyalar, obligatsiyalar, gʻazna majburiyatlari, depozit sertifikatleri, qimmatli qogʻozlar hosilalari va veksellar kiradi.

Aksiya – oʻz egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga boʻlgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qogʻoz.

Obligatsiya — obligatsiya saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymati yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga boʻlgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissaviy qimmatli qogʻoz.

Oʻzbekiston Respublikasining gʻazna majburiyatlari — emissiyaviy qimmatli qogʻozlar egalari Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablagʻlari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qogʻozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qatʼiy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qogʻozlar. Oʻzbekiston Respublikasining gʻazna majburiyatlari va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari davlat qimmatli qogʻozlari hisoblanadi.

Depozit sertifikati — bankka qoʻyilgan omonat summasi va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu

bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari — o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlari yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsionlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

Veksel — veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilish shakliga ko'ra blankalar tarzida hujjatli va depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo'lishi mumkin.

Aksiyalar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Emissiyaviy va noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar turlari mavjud. *Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar* — bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar. *Noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar* — emissiyaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasiga oid bo'lmagan qimmatli qog'ozlar.

Egasining nomi yozilgan va taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'oz turlari mavjud. *Egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar* mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o'z egasining ro'yxatdan o'tkazilishini talab etadi. *Taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'ozlarni* taqdim etishning o'zi mulkiy huquqlarni realizatsiya qilish uchun kifoya qiladi.

Qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirish va ularning muomalasiga, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida;

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga kiritish kvotalari va tartibini belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni depozitariylar amalga oshiradi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Depozitariylar o'z deponentlarining hisobvaraqlarida ularning qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidagi vakillik hisobvaraqlarida jamlab hisobga olib boriladigan hujjatsiz qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi, shuningdek, hujjatli qimmatli qog'ozlarni saqlaydi va ularga bo'lgan huquqlarini hisobga oladi.

Hujjatsiz qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Egasining nomi yozilgan hujjatli qimmatli qog'ozga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga qimmatli qog'oz blankasiga belgilangan tartibda tegishli yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi.

Taqdim etuvchiga tegishli hujjatli qimmatli qog'ozga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga qimmatli qog'oz blankasi berilgan paytda, qimmatli qog'oz blankasini saqlash va unga bo'lgan huquqlarini hisobga olish depozitariyda amalga oshirilgan holda esa oluvchining depo hisobvarag'i bo'yicha kirim yozuvi amalga oshirilgan paytda o'tadi.

Buxgalteriya hisobida moliyaviy investitsiyalar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

0610 "Qimmatli qog'ozlar";

0620 "Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";

0630 "Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";

0640 "Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar";

0690 "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar".

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: Investitsiyalar hisobi bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida zarur hisob-kitoblarni amalga oshirish va qarz beruvchidan qisqa muddatli qarz taqdim etilishi,

qarz oluvchida tushum va qaytarish holatlarini buxgalteriya o'tkazmalari bilan aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Nur” MCHJ va “Daromad plyus” AJ korxonalari o'rtasida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridan foydalanish to'g'risida shartnoma tuzilgan.

Shartnomaga ko'ra “Nur” MCHJ 01.03.2020-yildan 500 000 so'm miqdorida 9 oy muddatga “Daromad plyus” AJ ga yillik 20 % hisobida qarz berdi. Qarz va foizlarni qoplash muddati – bir vaqtda qarz beruvchining hisobraqamiga pul o'tkazib berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qarz shartnomasiga ko'ra majburiyatlar o'z muddatida bajarilgan.

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni olish va qoplash bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiyaning mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Boshqa tashkilotdan 6 oy muddatga yillik 20 % hisobida qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar olingan	7500
2	Qimmatli qog'ozlar sotilgan: - chiqish qiymati - balans qiymati	4000 2900
3	Qimmatli qog'ozlar savdosidan moliyaviy natija chiqariladi	?
4	Sotuvchi korxonaga asosiy vositalarni berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish	7500
5	Qimmatli qog'ozlar uzoq muddatli investitsiyalar sifatida tekinga olinganda	2500
6	Qisqa muddatli investitsiyalar tarkibi o'zgartirilganda (restrukturizatsiya)	1800
7	Ta'sischilarning korxona ustav kapitaliga ularning ulushi sifatida berilgan qimmatli qog'ozlarning qiymati	8000

3-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida qimmatli qog'ozlarni xarid qilish hisobi bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiyaning mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Boshqa korxonalarning aksiyalari xarid qilingan: - aksiyalarning nominal qiymati - aksiyalarning xarid qiymati	3600 45000
2	Hisobraqamiga aksiyalar bo'yicha dividendlar qo'shilgan	1200
3	Obligatsiyalar xarid qilingan: - nominal qiymati - xarid qiymati (Obligatsiyalarni qoplash muddati –3 yil. Daromad – yillik 30 %)	10000 9500
4	Bir yil muddat tugaganda obligatsiyalar bo'yicha daromad hisoblangan (2- va 3-yillarda qilingan yozuv)	? ?
5	Birinchi yil tugashi bo'yicha chegirmalar amortizatsiyasi aks ettiriladi (2- va 3-yillarda qilingan yozuv)	? ?
6	Birinchi yil uchun obligatsiyalar bo'yicha daromad hisobraqamiga qo'shilgan	?

2-amaliy mashg'ulot

1-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida qimmatli qog'ozlarni xarid qilish, daromadlar tushumi va ularni sotish bo'yicha buxgalteriya hisob-kitobi va o'tkazmalarini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Sharm” AJ mart oyida fond birjasida “Daromad plyus” AJning bir donasiga 7500 so'mdan 1000 aksiya xarid qilindi, ularning nominal qiymati 7000 so'm.

To'lov hisobraqamidan 7000 ming so'm qisman o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilgan, 5000 ming so'mi "Sharm" AJ kassasidan hisobot ostida belgilangan qiymatni olgan hisobdor shaxs naqd shaklda to'lagan.

Iyulda "Sharm" AJ hisobraqamiga 9000 ming so'm kelib tushgan – 2 chorak uchun "Daromad plyus" AJ aksiyalari bo'yicha hisoblangan foizlar.

Oktyabr oyida "Sharm" AJ hisobraqamiga 3-chorak uchun "Daromad plyus" AJ aksiyalari bo'yicha 12000 ming so'm foizlar kelib tushdi.

Dekabr oyida "Sharm" AJ fond bozorida "Daromad plyus" AJga 1000 ta aksiyani 7300 so'mdan sotgan, umumiy qiymati – 7300 ming so'm hisobraqamiga kelib tushgan.

Buxgalteriya tomonidan moliyaviy operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natija belgilangan, uning qiymati -----? so'm

2-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida ro'yxatga olish jurnaliga xo'jalik operatsiyalarini va sintetik schyotlarda qimmatli qog'ozlarga moliyaviy qo'yilmalar hisobi bo'yicha operatsiyalarni yozish.

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil iyul oyi uchun xo'jalik operatsiyalari

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, so'm
1	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Investitsiya kompaniyasiga "NUR" AJning 3000 dona aksiyalarini nominal qiymatda bittasi uchun 1000 so'm o'tkazilgan	3000 000
2	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma "Dunyo" AJ aksiyalarini xarid qilganlik uchun bitim qiymatidan 2 % qiymatida mukofot o'tkazilgan	?
3	Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Ta'sis shartnomasiga ko'ra ustav kapitaliga qo'yilma sifatida boshqa tashkilotga asosiy vositalar sifatida berilgan: - dastlabki qiymati - berish kunida hisoblangan amortizatsiya qiymati - qoldiq qiymati - berilgan obyektning shartnoma qiymati	2200 000 500 5000 ? 2450 000

4	Buxgalteriya hisob-kitobi Asosiy vositalar obyektini qo'yilma sifatida boshqa tashkilotning ustav kapitaliga berishdan moliyaviy natija aniqlangan va hisobdan chiqarilgan	?
5	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Qisqa muddatli davlat majburiyatlari uchun "Nur" kompaniyasi vositachisi (diler)ga birligi 1000 so'm nominal qiymatli 10 dona obligatsiya uchun o'tkazilgan	1000 000
6	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma "Azart" kompaniyasi dileridan obligatsiyalarni berishdan tushum qo'shilgan	1800 000
7	Buxgalteriya ma'lumotnomasi Berilgan GKOlarining haqiqiy tannarxi hisobdan chiqariladi	1350 000
8	Buxgalteriya ma'lumotnomasi GKO savdosidan moliyaviy natija aniqlanadi va chiqariladi	?
9	Emissiyalar ro'yxati Nominal qiymati birligi uchun 500 so'm 2000 dona obligatsiyalar chiqarilgan	1 000 000
10	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Hisobraqamidan 2 yil muddatga birinchi emissiya obligatsiya ostida qarz qiymati qo'shilgan: - obligatsiyalarning nominal qiymati - sotilish qiymati bir donasi 650 so'm	1 000 000 1 300 000
11	Buxgalteriya ma'lumotnomasi Hisobot yiliga tegishli obligatsiyalarning birinchi emissiyasidan foyda ulushi hisobdan chiqariladi	?
12	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma Birinchi emissiya obligatsiyalarini tayyorlash va joylashtirish uchun komission mukofotlar o'tkazilgan	1000 000
13	Buxgalteriya ma'lumotnomasi Davlat birinchi emissiya obligatsiyalari bo'yicha har oylik amortizatsiya qiymati hisobdan chiqariladi	?
14	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma "NUR" AJ aksiyalari savdosidan tushum kelib tushgan (1000 dona)	5000 000
15	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	

	“NUR” AJ bergan aksiyalarining haqiqiy tannarxi hisobdan chiqariladi	1200 000
1 6	Buxgalteriya ma’lumotnomasi “NUR” AJ aksiyalar savdosidan moliyaviy natija aniqlanadi va hisobdan chiqariladi (1000 dona)	?

3-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida aksiyalarni xarid qilish hisobi bo’yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma’lumotlar:

“Aktiv” AJ “Passiv” AJ aksiyalarini umumiy qiymati 3000 000 so‘mga xarid qildi.

900 000 so‘mlik aksiyalar tashkilotning hisobraqamidan pul mablag‘lari bilan to‘lanadi. Qolgan aksiyalarni to‘lash hisobiga (2100 000 so‘m qiymatida) “Aktiv” AJ asosiy vositalar obyektini bergan, uning dastlabki qiymati – 3500 000 so‘m. Obyektni berish vaqtida hisoblangan amortizatsiya qiymati – 1100 000 so‘m.

4-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida moliyaviy qo‘yilmalarni ta’minlash ostida zaxirani yaratish va foydalanish bo’yicha operatsiyalarni hisobda aks ettirish.

Dastlabki ma’lumotlar

2020-yilda tashkilot fond bozorida kotirovkalanadigan aksiyalarni 1500 000 so‘mga sotib oldi. 2020-yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra xarid qilingan aksiyalarning bozor qiymati – 1400 000 so‘m. 2020-yilda aksiyalarning bozor qiymati – 1550 000 so‘mni tashkil etgan.

2020-yilda tashkilot fond bozorida kotirovkalanadigan aksiyalarni 1500 000 so‘mga sotib oldi. 2020-yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra xarid qilingan aksiyalarning bozor qiymati – 1400 000 so‘m. 2020-yilda aksiyalar 1500 000 so‘mga sotilgan.

Xo‘jalik operatsiyalari 2020-yilda:

- aksiyalar xaridi aks ettirilgan – 1500 000 so‘m.
- moliyaviy qo‘yilmani ta’minlash asosida yaratilgan zaxira qiymatiga 100 000 so‘m.
- aksiyalarni sotishning shartnoma bahosi aks ettirilgan – 1500 000 so‘m.

- sotilgan aksiyalarning dastlabki qiymatini hisobdan chiqarish – 1500 000 so‘m.
- yaratilgan zaxira qiymati aks ettirilgan – 100 000 so‘m.
- sotilgan aksiyalar uchun hisobraqamiga pul mablag‘lari qo‘shilgan – 1500 000 so‘m.
- aksiyalar savdosidan moliyaviy natija aniqlangan va hisobdan chiqarilgan – ?

5-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida qarz qimmatli qog‘ozlar hisobi bo‘yicha operatsiyalar schyotlarda aks ettirilsin.

Dastlabki ma’lumotlar

“Don” AJ 4500 000 so‘mlik obligatsiyalarni xarid qilgan. Obligatsiyalarning nominal qiymati – 4000 000 so‘m, qoplanish muddati – 1 yil. Obligatsiyalar bo‘yicha foizlar yillik 24 % stavkasi bo‘yicha har chorakda hisoblanadi.

“Don” AJ hisob siyosatida xarid qilingan qarz qimmatli qog‘ozlar qiymati ularni qoplash muddati davomida nominal qiymatga yetkazish. “Don” AJ obligatsiyalarni qoplash muddati kelganda obligatsiyalarning nominal miqdorida pullik mablag‘lar olingan.

Xo‘jalik operatsiyalari.

Xarid qilingan obligatsiyalar aks ettirilgan – 4500 000 so‘m.

1. Obligatsiyalar bo‘yicha foizlarni to‘lash vaqtida har chorakda:
 - obligatsiyalarning nominal qiymati va xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farqning bir qismiga – 120 500 so‘m;
 - belgilanadigan foizlar qiymatiga ($4000\ 000 * 24\% : 4$) -?
 - olingan foizlar qiymatiga – 200 875 so‘m.
2. Obligatsiyalarni qoplash sanasida:
 - obligatsiyalarni qoplash bo‘yicha pul mablag‘larini olishga belgilangan qiymat aks ettirilgan – 4000 000 so‘m;
 - qoplangan obligatsiyalar qiymati aks ettirilgan – 4000 000 so‘m;
 - qoplangan obligatsiyalar bo‘yicha olingan pul mablag‘lari qiymati aks ettirilgan – 4000 000 so‘m.

3-amaliy mashg‘ulot

1-masala. Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida taqdim etilgan qarzlarni va ular bo‘yicha hisoblangan foizlar hisobi bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Bahor” AJ “NUR” AJga uch yillik muddatga yillik 20% foiz hisobida 10 000 000 so‘m qiymatida qarz bergan. Qarz shartnomasiga ko‘ra foizlar har oyning oxirida qarzdor tomonidan to‘lanadi.

2-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida oddiy o‘rtoqlik shartnomasiga ko‘ra qo‘yilmalar hisobi bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Oddiy o‘rtoqlik shartnomasiga ko‘ra tashkilot asosiy vositalar obyektni 10 000 000 so‘mga bergan.

Asosiy vositalar obyektining dastlabki qiymati – 15 000 000 so‘m, berish vaqtidagi hisoblangan amortizatsiya qiymati – 4 000 000 so‘m.

Mulk qo‘yilmasining pullik bahosi – 13 500 000 so‘m.

Oddiy o‘rtoqlik shartnomasini tugatishda ishtirokchi-tashkilot asosiy vositalar obyektni 11 000 000 so‘m qiymatida qaytardi. Undan tashqari, belgilangan ulush, – 4 000 000 so‘m miqdorida to‘landi.

Xo‘jalik operatsiyalari:

– oddiy o‘rtoqlik shartnomasiga ko‘ra qo‘yilma hisobiga pul mablag‘lari kiritilgan – 10 000 000 so‘m;

– berilgan asosiy vositalar obyektining qiymati balansdan chiqariladi – ?

– qo‘yilmani baholash va obyektning qoldiq qiymati o‘rtasidagi farq aks ettiriladi – ?

– qaytarilgan obyektning qiymati aks ettirilgan –?

– belgilangan foyda qiymati aks ettirilgan –?

– olingan foyda qiymati aks ettirilgan –?

3-masala. Topshiriqni bajarish uchun ma'lumotlar asosida xarid qilingan aksiyalar bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

Dastlabki ma'lumotlar

Tashkilot aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini umumiy qiymati 6000 000 so‘mga xarid qilgan.

Aksiyalar quyidagi tarzda to‘langan:

1500 000 so‘m – hisobraqamidan pul mablag‘lari o‘tkazilgan;

900 000 so‘m – tovarlar berilgan;

500 000 so‘m – materiallar berilgan;

600 000 so‘m – tayyor mahsulot berilgan;

2500 000 so‘m – asosiy vositalar obyekti berilgan (kelishilgan qiymati). Obyektning dastlabki qiymati – 2800 000 so‘m, hisoblangan amortizatsiya qiymati – 680 000 so‘m.

4-masala.

1. Qarz berish va qaytarish, foizlarni hisoblash va olishni aks ettiruvchi buxgalteriya o‘tkazmalarini tuzish.

2. Har chorakda to‘lanadigan foizlar qiymatini aniqlash.

Dastlabki ma’lumotlar

Tashkilot xodimi hisoblanmagan jismoniy shaxsga ikki yil muddatga yiliga 15 % hisobida 3000 000 so‘m qiymatida qarz taqdim etgan.

Qarz shartnomasiga ko‘ra foizlar har chorakning oxirida qarzdor tomonidan hisoblanadi va to‘lanadi.

Test savollari

1. Boshqa korxonaning uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlari sotib olinganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Debit	0610	0890	0610	5810
Kredit	5110	5210	5810	5210

2. Qimmatli qog‘ozlar hisobdan chiqarilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Debit	0610	9210	9220	5810
Kredit	9210	5210	0610	0610

3. Qimmatli qog‘ozlar tayyor mahsulotlarni berish yo‘li bilan xarid qilinganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Debit	0610	9210	9010	0610
Kredit	9010	0610	0610	9110

4. Moliyaviy investitsiyalar qaysi BXMSda yoritilib berilgan?

- a) 5-sonli BXMS
- b) 12-sonli BXMS
- c) 4-sonli BXMS
- d) 11-sonli BXMS

5. Quyidagilarning qaysi biri moliyaviy investitsiyalar tarkibiga kiradi.

- a) aksiya
- b) bino
- c) patentlar
- d) materiallar

Tayanch iboralar: Obligatsiya, qimmatli qog‘oz, veksel, emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar, foyda qiymati, g‘azna majburiyatlari, depozit sertifikatlar, obligatsiyalarni qoplash.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Investitsiyalarni hisobga olish tartibini tasniflang.
2. Uzoq muddatli investitsiyalar hisobini tashkil qilish tartibini tasniflang.
3. Aksiya va obligatsiyalarni sotib olish, ularning bozor va nominal qiymatini hisobga olish tartibini yoriting.
4. Aksiyalarni sotib olish va qayta sotish bilan bog‘liq xarajatlar hisobi va uni hujjatlashtirish nimalardan iborat?
5. Uzoq muddatli investitsiyalar tarkibi, qimmatli qog‘ozlar: aksiya, obligatsiya, zayom va boshqalarni guruhlang, tartibini yoriting.
6. Investitsiyalar bo‘yicha moliyaviy natijalar hisobini tavsiflang.

5-MAVZU. MATERIALLAR HISOBI

Kelib tushgan materiallar tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarxi bo'yicha kiritiladi.

Materiallarning tannarxi:

– shartnoma bo'yicha mol yetkazib beruvchiga to'lanadigan summalar;

– ularni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

– bojxona bojlari va yig'imlari;

– materiallarni xarid qilish bilan bog'liq qoplanmaydigan soliqlar va yig'imlar summolari;

– materiallar, ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;

– materiallarni sertifikatlash va ularni xarid qilish bilan bog'liq texnik shartlarga muvofiq sinov bo'yicha xarajatlar;

– materiallarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish xarajatlari, materiallarni barcha turdagi transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlar;

– materiallarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlar.

Materiallarning tannarxiga ham o'z kuchi bilan, ham chet tashkilotlar tomonidan bajarilgan moddiy zaxiralarga qo'shimcha ishlov berish va ularni foydalanishga yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq xarajatlar ham kiritiladi. Ushbu xarajatlar navlarga ajratish, o'rab joylash va ularni tovar ko'rinishiga keltirish bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Savdo diskontlari, siylovlari va shunga o'xshash boshqa chegirmalar tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish xarajatlarini belgilashda amalga oshiriladi.

4-son BHMSning (AV tomonidan 20.06.2020-y.da 1595-son bilan ro'yxatga olingan) 13 bandiga e'tiborni qaratish lozim. Unda belgilanishicha, muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta hajmda xarid qilish natijasida yoxud taraf kelishuvida nazarda tutilgan boshqa

shunga o'xshash sabablarga ko'ra, olingan pul chegirmalari xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini kamaytirmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Quyidagi xarajatlar materiallar tannarxiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinadi:

- akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, materiallarni xorijiy valutaga xarid qilish chog'ida valutani konvertatsiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari;
- materiallarni xarid qilish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar;
- materiallarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar.

Moddiy zaxiralar butkul yoki qisman qarz mablag'lari hisobiga xarid qilinganda (tayyorlanganda) kreditdan foydalanganlik uchun foizlar materiallar tannarxiga kiritilmaydi.

Xarid qilinadigan materiallar uchun to'lov kechiktirilganda yoki bo'lib-bo'lib to'langanda materiallar buxgalteriya hisobiga to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiymat bo'yicha qabul qilinadi. Materiallarning to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiymati bilan sotib olinayotgan materiallar bo'yicha umumiy to'lov summasi o'rtasidagi farq to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davri mobaynida joriy to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha to'lovlarning umumiy summasidagi solishtirma og'irligiga bog'liq holda moliyaviy xarajatlar (foizlar bo'yicha xarajatlar) sifatida tan olinadi.

Moddiy zaxiralarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar birlamchi hujjatlar (hisobvaraqqfaktura, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, inventarlash dalolatnomasi va boshqalar) asosida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmi katta bo'lmagan hamda materiallarning nomlari uncha ko'p bo'lmagan korxonalarda materiallar hisobini haqiqiy tannarxi bo'yicha yuritish maqsadga muvofiq.

Materiallarning asosiy, yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlariga, umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik ehtiyojlariga, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish munosabati bilan hisobdan chiqarilishi	
Debit	Kredit
2010 «Asosiy ishlab chiqarish»; 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»; 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari»; 9410 «Sotish xarajatlari»; 9420 «Ma'muriy xarajatlari» va boshq.	1000 «Materiallar»; 1600 «Materiallar qiymatidagi farqlar» (1510 va 1610 schyotlardan foydalanilganda)

Materiallar og‘irlik, hajm, maydon bo‘yicha yoki texnologik jarayon me‘yorlari va talablariga qat’iy muvofiqlikdagi hisob-kitob hujjatlar asosida ishlab chiqarishga beriladi.

Korxonaning ishlab chiqarish ehtiyojlari (sotish xarajatlari va boshqalar)ga materiallarning chiqimi buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlari (sotish xarajatlari)ni hisobga oluvchi tegishli schyotlar debiti bilan korrespondensiyada 1000 «Materiallar» guruhi schyotlari kreditida aks ettiriladi. Bir vaqtning o‘zida sarflangan materiallarga tegishli farq summasi 1000 «Materiallar» guruhi schyotlaridan materiallar chiqimi hisobga olingan ushbu schyotlarning debitiga hisobdan chiqariladi (agar korxona tomonidan farqlarni hisobdan chiqarishning shunday tartibi qabul qilingan bo‘lsa).

Materiallarni ishlab chiqarishga berish yoki boshqacha chiqib ketishi quyidagi usullardan biri ortiqcha hisoblangan bahoda amalga oshiriladi:

- har bir-birlik tannarxi bo‘yicha;
- o‘rtacha tortilgan qiymat (AUESO) bo‘yicha;
- FIFO usuli bo‘yicha (materiallarni sotib olish vaqtiga ko‘ra birinchisining tannarxi bo‘yicha).

Materiallarni hisobdan chiqarish tartibi korxonaning hisob siyosatida belgilanishi lozim. Bunda materiallarning har bir turi bo'yicha hisobdan chiqarishning turli xil usuli qo'llanishi mumkin.

Har bir-birlik tannarxi usuli bo'yicha alohida tartibda ishlatiladigan materiallar (qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va sh.k.) baholanadi. Bunday materiallarning birligi, odatda, yagona bo'ladi, ya'ni yagona namunada bo'ladi.

O'rtacha tortilgan qiymat (AUESO) usuliga muvofiq, har bir-birlikning qiymati davr boshiga o'xshash birliklarning o'rtacha tortilgan qiymatidan hamda hisobot davrida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan o'xshash birliklar qiymatidan aniqlanadi. Materiallarning o'rtacha qiymati davriylik asosida (davriy hisob) yoki har bir qo'shimcha yetkazish jarayonida (uzluksiz hisob) hisoblanishi mumkin.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: dastlabki hujjatlar bilan materiallarning omborga kelib tushishi va ularning ombordan chiqarishini rasmiylashtirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. 1. Ta'minotchilarning schyotlari asosida omborga kelib tushgan materiallarni 5-kirim orderi bilan rasmiylashtirish (namunaviy shakli M-4).

2. 3-sonli materiallarni qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtirish (M-7 namunaviy shakl) 134-sonli temir yo'l nakladnoyi bo'yicha qabul qilingan materiallar (ta'minotchining schyotisiz).

3. Dastgohni tayyorlash uchun materiallarni chiqarishni 42/1 limit/zabor qartasini rasmiylashtirish (M-8 namunaviy shakli).

4. Ofis binosining joriy ta'miriga materiallar chiqarishni 63-sonli materiallarni chiqarish talabnoma-nakladnoyini rasmiylashtirish (M-11namunaviy shakli).

Dastlabki ma'lumotlar

1. "Metallurg" AJ dan 127-sonli schyotga ko'ra omborga materiallar kelib tushgan:

10-sonli to'sin (101006 nomenklatura raqami, bahosi – 15290,5 so'm) -54 t; doiraviy po'lat80 mm (nomenklatura raqami 1011102, bahosi 28300 so'm) – 37 t.

2.423-sonli temir yo‘l nakladnoyi bo‘yicha “Nur” AJdan alip keltirilgan (1 kg ga 520 so‘mdan 101 nomenklatura raqami). Nakladnoy bo‘yicha salmog‘i – 3150 kg. Ta‘minotchidan schyot olinmagan.

3. 1-sonli tayyorlov sexiga T-102 dastgoh detallarini tayyorlashga (204 buyurtma) 2 mm li yupqa plastinkali po‘lat bo‘yicha limit belgilangan (101 nomenklatura raqami, bahosi – 29000 so‘m) 24,5 dona. Ombordan chiqarilgan:

02.02.2020-y. – 5 t; 07.02.2020-y. -4,5 t; 20.02.2020-y. – 8 t; 12.03.2020-y. -2,5 t; 15.04.2020-y. – 4 t.

20.04.2020-yilda 3 tonnasi omborga qaytarilgan.

Ombordan materiallarni P.S. Alimov chiqarib yuborgan, A.N. Naumov qabul qilgan.

4. Ofis binosining ta‘miriga talab qilingan va chiqarilgan: aliplar (105005 nomenklatura raqami, bahosi –5200 so‘m) – 18,7 kg; ohak (105001 nomenklatura raqami, bahosi – 7500 so‘m) – 24,3 kg; yashil bo‘yoqlar (105002 nomenklatura raqami, bahosi –7000 so‘m) – 8,5 kg. T.A. Alimov materialni chiqarib yuborgan, R.S. Malikov qabul qilgan.

2-masala. Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar asosida hisobot oyi va oy oxiridagi qoldiq uchun material xarajatlar qiymatini hisoblash:

- FIFO usuli bo‘yicha;
- o‘rtacha tannarxi bo‘yicha.

Dastlabki ma‘lumotlar

Ko‘rsatkichlar	Birliklar soni	Birlik narxi, so‘m	Umumiy qiymati, so‘m
1 aprelda materiallar qoldig‘i	25	100	
Materiallar keltirilgan:			
12.04da birinchi partiya	45	100	?
21.04da ikkinchi partiya	20	135	?
28.04da uchinchi partiya	67	125	?
Bir oyda jami kelib tushgan	132		?
Bir oy uchun ishlab chiqarishga materiallar chiqarilgan:			
- FIFO usuli bo‘yicha	135		?
- o‘rtacha tannarxi bo‘yicha	135		?

30 apreldagi material qoldiqlari:			
- FIFO usuli bo'yicha	?	?	?
- o'rtacha tannarxi bo'yicha	?	?	?

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: material xarajatlarni baholash tartibini o'zlashtirish.

1-masala. 1. Yanvar oyi uchun xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobi schyotlari va operatsiyalar jurnaliga yozilsin.

2. Ishlab chiqarishga chiqarilgan materiallar qiymati va 1-fevral qoldig'ini chiqarish:

- FIFO usuli bo'yicha;
- o'rtacha tannarxi bo'yicha

Dastlabki ma'lumotlar: Yanvar holatidagi asosiy materiallar qoldig'i: 2400 so'mdan 50 kg, umumiy qiymati 120 000 so'm.

Yanvar uchun xo'jalik operatsiyalar

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, so'm
1.	“Nur” AJ 123-sonli schyot-fakturasi (birinchi partiya) Keltirilgan materiallar uchun ta'minotchining schyoti akseptlangan: - xarid bahosi bo'yicha (440 so'm - 30 kg) - QQS Schyot bo'yicha jami	132 000 ? ?
2.	“nur” AJ 169-sonli schyot-faktura (ikkinchi partiya) Materiallar uchun ta'minotchining schyoti akseptlangan: - xarid bahosi bo'yicha (5000 so'mdan 55 kg) - QQS	302 500 ? ?

	Schyot bo'yicha jami:	
3.	“OMON” AJ 75-sonli schyot-fakturasi (uchinchi partiya) Ta'minotchining materiallar uchun schyoti akseptlangan: - xarid bahosi bo'yicha (4000 so'mdan 80 kg) - QQS Schyot bo'yicha jami:	320 000 ? ?
4	Bankdagi hisobraqamidan ko'chirma 6010 schyot bo'yicha materiallar uchun pul o'tkazilgan	?
5	Buxgalteriya hisob-kitobi To'langan QQS qoplanish uchun taqdim etilgan	?
6	Limitli-kartalari Mahsulot ishlab chiqarishga materiallar chiqarilgan, 180 kg	?

3-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: materiallar kelib tushishi, xarid qilingan materiallar tannarxini aniqlash va turli maqsadlarga material xarajatlar hisobi tartibini o'zlashtirish.

1-masala. 1. Hisobot oyida materiallar xaridi bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini operatsiyalar jurnali va buxgalteriya hisobi schyotlariga yozish.

Dastlabki ma'lumotlar

Xo'jalik operatsiyalari

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	“nur” AJ 112-sonli schyot-fakturasi, materiallarni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma Kelib tushgan materiallar uchun ta'minotchining schyoti akseptlangan: - ta'minotchining bahosi bo'yicha materiallar qiymati	55 500 6300

	- temir yo‘l tarifi - materiallar va tashuvlar uchun QQS - ta‘minotchiga talab Schyot bo‘yicha jami	? 4500 ?
2	Buxgalteriya ma‘lumotnomasi Oy boshida yo‘ldagi storno materiallar	
3	“daromad plyus” AJ 124-sonli schyot-fakturasiz, kirim orderi schyot bo‘yicha materiallar kelib tushgan va omborga kirim qilingan: - xarid qiymati - temiryo‘l tarifi - materiallar va tashuvlar uchun QQS Schyot bo‘yicha jami:	38 940 3500 ? ?
4	Materiallarni qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnoma “Don” AJdan schyot-fakturasiz materiallar kelib tushgan va hisob bahosi bo‘yicha omborga kirim qilingan	25 450
5	Bankdagi hisobraqamidan ko‘chirma Ta‘minotchilarga materiallar uchun o‘tkazilgan: - “Oniks” AJ - “Alfa”AJ	? ?
6	Omborga lom va chiqindilarni topshirish nakladnoyi: - asosiy ishlab chiqarishdan - asosiy vositalarning tugatishdan	2150 3420

2-masala. Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar asosida ro‘yxatga olish jurnalida keltirilgan materiallarni xarid qilish bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish va buxgalteriya o‘tkazmalari (provodka) tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

Hisobot davri uchun xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	“Nur” AJga keltirilgan materiallar uchun schyoti akseptlangan: - xarid qiymati - temiryo'l tarifi - QQS Schyot bo'yicha jami:	56 340 4160 ? ?
2	“Don” AJdan materiallar omborga keltirildi Qabul qilishda ma'lum bo'ldi: - materiallarning haqiqatda mavjudligi - temir yo'lining aybi bilan materiallar yetishmasligi (tijorat dalolatnomasi)	26 480 9520
3	“Erkin” AJ hisobraqamidan bo'yoq uchun o'tkazilgan: (shu jumladan QQS -7200 so'm)	47 200
4	“Erkin”AJ dan bo'yoq keltirilgan, Yuk korxona ekspeditori tomonidan yetkazib keltirilgan Yukni omborga qabul qilishda ma'lum bo'ldi: - materiallarning haqiqatda mavjudligi - kuzatuvchining aybi bilan yuklar yetishmasligi - QQS	35 800 3200 ?
5	“Elektron” AJdan schyot-fakturasiz shartli narx bo'yicha butlovchi buyumlar qabul qilingan	92 400
6	“Elektron” AJdan dastlab shartli bahosi bo'yicha qabul qilingan butlovchi buyumlar uchun schyot-faktura olingan (6-operatsiya): - xarid qiymati - QQS	140 000 ?
7	“Elektron” AJdan butlovchi buyumlarning fakturalanmagan yetkazilishi qiymati stornatsiyalanadi	92 400

8	Butlovchi buyumlar shaxsiy transportda amalga oshirilgan	1300
9	Hisobdor shaxs tomonidan do'kondan ohaq xarid qilingan va omborga topshirilgan	9600
10	Transport tashkilotining asosiy va yordamchi materiallarni tashish uchun schyoti akseptlangan: - xizmatlar qiymati - QQS Schyot bo'yicha jami:	1000 ? ?
11	Bankdagi hisobraqamidan transport tashkilotining materiallarni yetkazib berish bo'yicha schyoti to'langan	?
12	Materiallar omborga keltirilganda ularni ortish tushirish ishlarini bajargan ishchilarning ish haqi hisoblangan	500
13	Yuk tashuvchining ish haqidan yagona ijtimoiy soliq hisoblangan	?
14	"Daromad plyus" AJ yuklangan yarimtayyor mahsulotlari uchun schyoti akseptlangan va to'langan, lekin ular hali omborga yetib kelmagan: - xarid qiymati; - QQS Schyot bo'yicha jami:	60 450 ? ?
15	Mashinasozlik zavodidan butlovchi bumlar bepul olingan	40 750
16	Hisobot oyida ishlab chiqarishga bepul olingan butlovchi buyumlar berilgan	25 000
17	Kelgusi davr daromadlarining bir qismi hisobdan chiqariladi	?
18	Shaxsiy yordamchi ishlab chiqarishlarda tayyorlangan vositalar kirim qilinadi	47 130

3-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida xarid qilingan materiallar qiymati, ta'minotchiga qilingan da'vo qiymatini aniqlash, buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

Tuzilgan shartnomaga ko‘ra, hisobraqamidan dastlabki to‘langan schyotlar kelib turdi, unga ko‘ra og‘irligi 3 kg netto bo‘lgan 1000 dona oq emal bo‘yog‘ining partiyasi uchun bir bankasiga 1530,4 so‘m to‘langan bo‘lib, uning umumiy qiymati – 1534000 so‘m, shu jumladan QQS – 15 %.

Yetkazib berish avtotransportda amalga oshirilgan, buning uchun hisobraqamidan 590 ming so‘m to‘langan, shu jumladan QQS – 15%.

Yuk tashuvchilarga bo‘yoqni omborga tushirish uchun omborga 250000 so‘m miqdorida ish haqi hisoblangan.

Yuk tashuvchilarning ish haqidan yagona ijtimoiy soliq hisoblangan –?

Omborga yuklashda bo‘yoqning yetishmasligi 25 bankadan deb belgilangan. Xarid narxlari bo‘yicha bo‘yoqning yetishmagan qismi qiymatidan va transport xizmatlarini qoplashga hamda tushirish ishlariga tegishli qismidan kelib chiqqan yetishmovchilik qiymatiga ta‘minotchiga da‘vo qilingan.

4-masala. Ro‘yxatga olish jurnalida xarid qilingan materiallar hisobi bo‘yicha keltirilgan xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish.

Buxgalteriya o‘tkazmalarini tuzish. Tashkilot 1500 schyot “Materiallarni tayyorlash va xarid qilish” va 1600 schyot “Materiallar qiymatidagi farq” schyotidan foydalanib tayyorlash hisobini yuritadi.

Dastlabki ma’lumotlar

№	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Avtotransport tashkilotining asosiy materiallarni xaridorning omboriga yetkazib berganlik uchun schyoti akseptlangan: - chiqish qiymati - QQS Materiallarni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar hisobraqamidan to‘langan	1200 ? ?
2	Do‘kondan xarid qilingan asosiy materiallar qiymati naqd shaklda to‘langan Ularni yetkazib berish bo‘yicha xarajatlar	45 000 725
3	Do‘kondan komplektlovchi buyumlar xarid qilingan, qiymati	68 200 1315

	Ularini yetkazib berish xarajatlari Materiallar qiymati va ularni yetkazib berish xarajatlari chek bilan to'langan	?
4	Xarid qilingan ehtiyot qismlari uchun ta'minotchining schyot-fakturasi akseptlangan QQS Ularini yetkazib berish xarajatlari naqd to'langan	120 000 ? 1400
5	Keltirilgan ehtiyot qismlarini omborga tushirish bilan band bo'lgan ishchilarning hisoblangan ish haqi schyotlarda aks ettiriladi	850
6	Moddiy qimmatliklarni tushirish bilan band bo'lgan ishchilarning ish haqida yagona ijtimoiy soliq hisoblangan	?
7	Asosiy materiallarni tayyorlash bo'yicha xizmatlar uchun turli tashkilotlarga qarzdorlik aks ettiriladi	7900
8	Qoplanmagan da'volar qiymati moddiy qimmatliklarni tayyorlash tannarxiga qo'shiladi	3150
9	Tabiiy zararlar me'yori doirasida yo'lda materiallar yetishmovchiligi qiymati tayyorlash tannarxiga qo'shiladi	1645
10	Hisobdor shaxslar tomonidan materiallarni tayyorlash bo'yicha turli xarajatlar to'langan	1110
11	Materiallarni jo'natish, ortish va tushirish ishlari bilan band bo'lgan ishchilarning ta'tillari to'loviga hisoblangan ish haqi qiymatining 5 %i zaxiralanadi (qiymatini aniqlash)	?
12	Hisob baholari bo'yicha omborga keltirilgan moddiy qimmatliklar kirim qilingan	223 200
13	Keltirilgan materiallarning haqiqiy tannarxining chekinishlari hisob narxlar bo'yicha ularning qiymatidan chiqariladi	?

5-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida xarid qilingan materiallarning haqiqiy tannarxini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar.

“Nur” AJda joriy yilda qabul qilingan hisob siyosatida 1500 schyot “Materiallarni tayyorlash va xarid qilish” va 1600 schyot “Materiallar qiymatidagi farq” schyotlaridan foydalanmay materiallarni tayyorlashning buxgalteriya hisobi ko‘zda tutilgan.

Pianino partiyasini ishlab chiqarishga maxsus buyurtmani tayyorlash uchun qimmatbaho yog‘och turini yetkazib berishga shartnoma tuzilgan.

Keltirilgan materiallar uchun ta‘minotchining schyoti akseptlangan:

– qimmatbaho yog‘och turi20m³
 bahosi 2500 so‘mdan, umumiy qiymati?
 – QQS?
 – temiryo‘l tarifi.....10 000
 so‘m

– QQS?
 Jami?

Avtotransport korxonasining yog‘och materiallarini temir yo‘l stansiyasidan “Nur” AJning omboriga tashish bo‘yicha schyoti akseptlangan:

– Transport xizmatlari1700
 so‘m

– QQS?
 Jami?

Yuklash-tushirish ishlari uchun ish haqi hisoblangan2800
 so‘m

Pensiya jamg‘armasiga yagona ijtimoiy soliq va sug‘urta badallari hisoblangan?

1 m³ yog‘och materialining haqiqiy tannarxi? so‘m

Yog‘och materiallari to‘liq hajmda ishlab chiqarishga safarbar etilgan.

6-masala. Materiallar hisobi bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlardan kelgusida foydalanish uchun ularni tayyorlash tannarxini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar

“Nur” AJ joriy yilga qabul qilgan hisob siyosatida xarid qilishning haqiqiy tannarxi bo'yicha materialarni tayyorlash hisobi ko'zda tutilgan.

“G'isht zavodi” AJ bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra “Nur” AJga 1000 donasi uchun 3200 so'mdan 5000 dona bezak beruvchi qizil g'isht va 1000 donasi uchun 28000 so'mdan oq silikat g'isht yetkazib berilgan, umumiy qiymati – 28 792, shu jumladan QQS – 15 %.

Yetkazib berish, ortish-tushirish ishlari uchun transport tashkilotiga 1770 so'm, shu jumladan QQS to'langan.

G'ishtlar “Nur” AJning omboriga kirim qilingan.

Ushbu hisobot davrida ombordan quyidagilar chiqarilgan:

– omborxonalarni ta'mirlash uchun 3000 dona silikatli oq g'isht, umumiy qiymati ?

– ishlab chiqarish sexi qurilishiga, xo'jalik usuli bilan amalga oshiriluvchi – 5000 dona bezakli qizil g'isht, umumiy qiymati ?

7-masala. 7- ro'yxatga olish jurnalida materiallar tushumi va xarajati hisobi bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish, buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar **Hisobot davri uchun xo'jalik operatsiyalari**

№	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, m. s
1	Kirim orderi Ta'sischi tomonidan qo'yilma schyotiga kiritilgan materiallar qiymati aks ettirilgan	25 000
2	Kirim orderi Bozor qiymati bo'yicha bepul olingan materiallar kirim qilingan	31 500
3	Talabnoma-nakladnoy Bepul olingan materiallar ishlab chiqarishga chiqarilgan Kelgusi davr xarajatlarning bir qismi hisobdan chiqariladi	16 100 ?

4	Schyot-faktura Omborga quyidagi tartibda olingan materiallar topshirilgan: - asosiy vositalarning chiqarilishidan - brakdan - qayta ishlanuvchi chiqindilar	6000 1460 2980
5	Bo‘nakli hisobot Hisobdor shaxs tomonidan materiallar xaridi bilan bog‘liq xarajatlar to‘langan	1950
6	Yuk xati Asbob sexi tayyorlagan asboblarni kirim qilingan	14 300
7	Schyot-faktura Ta‘minotchidan maxsus kiyim-bosh xarid qilingan: – xarid qiymati – QQS Schyot bo‘yicha jami	150 000 ? ?
8	Talabnoma - nakladnoylar Ombordan ishchilarga maxsus kiyim bosh berilgan	80 500
9	Talabnoma-yuk xati Sarflangan xarajatlar hisobraqamidan chiqariladi: - asosiy ishlab chiqarish sexiga mahsulot ishlab chiqarishga - asbob sexiga ishlab chiqarishga - xo‘jalik usuli bilan bajarilgan ofis binosi qurilishiga - sex uskunalari ta‘miriga - ombor binosi ta‘miriga - brakni tuzatishga - yangi mahsulot turini o‘zlashtirishga	55 000 21 600 198 000 65000 7900 1200 2100
10	Buxgalterning hisob-kitobi Sarflangan materiallarga transport-tayyorlash xarajatlari qo‘shiladi (TTX 10 %, umumiy qiymatini aniqlash): - asosiy ishlab chiqarish sexiga mahsulot ishlab chiqarishga - asbob sexiga ishlab chiqarishga - xo‘jalik usuli bilan bajarilgan ofis binosi qurilishiga	? ? ? ? ?

	- sex uskunalari ta'miriga - ombor binosi ta'miriga - brakni tuzatishga - yangi mahsulot turini o'zlashtirishga	? ?
11	Chetga olib chiqishga nakladnoy, schyot-faktura Xaridorga materiallar sotilgan: - kelishilgan bahosi (shu jumladan QQS) - budjetga QQS hisoblangan - materiallarning haqiqiy tannarxi - naqd to'langan materiallar savdosi bilan bog'liq xarajatlar - materiallar savdosidan moliyaviy natija	118 000 ? ? 4900 ?
12	Bank ko'chirmasi Xaridorlardan materiallar uchun hisob-kitoblarga pul mablag'lari kiritilgan	?
13	Talabnoma-nakladnoy Xizmat ko'rsatuvchilar ehtiyojiga materiallar hisobdan chiqarilgan	?
14	Talabnoma-nakladnoy Sotilgan mahsulotni qadoqlash uchun foydalanilgan materiallar hisobdan chiqarilgan	2150
15	Nakladnoy Bepul berilgan materiallar qiymati hisobdan chiqarilgan	10 000
16	Qiyoslash qaydnomasi Inventarizatsiya davomida aniqlangan materiallar yetishmoqchiligi hisobdan chiqarilgan	4500

TEST SAVOLLARI

1. Sotilgan materiallarning haqiqiy tannarxi hisobdan chiqarilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi:

a	b	c	d
D-t			
9220	6010	2012	2310
K-t			
1000	5110	1000	1000

2. Ombordan yordamchi ishlab chiqarishga material berilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi:

a	b	c	d
D-t			
2310	9220	6010	2012
K-t			
1000	1000	1000	1000

3. Materialning asosiy ishlab chiqarishdan omborga qaytarilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi:

	a	b	c	d
D-t	1010	1010	1010	1010
K-t	2010	2310	4220	4230

4. Ombordan asosiy ishlab chiqarishga material berilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi:

	a	b	c	d
D-t		2010	2310	9220
K-t		1010	1010	1010
				1110

5. Material omborga qabul qilib olinayotganda kamomad aniqlanganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi:

	a	b	c	d
D-t	4860	1000	1000	1000
K-t	6010	2012	2310	4230

Tayanch iboralar: xomashyo va materiallar, tannarx, AVEGO, FIFO, LIFO, inventarizatsiya, transport-tayyorlov xarajatlari, asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Materiallar hisobini tashkil etish va yuritish qanday olib boriladi?
2. Materiallar tannarxini hisoblash va ularni baholash tartibi qanday qilinadi?
3. Materiallar harakati hisobi qanday hujjatlashtiriladi?
4. Materiallarning sintetik hisobi qanday yuritiladi?
5. Materiallar kirimi qanday hisobga olinadi?

6-MEHNAT VA UNGA HAQ TO‘LASH HISOBI

Mehnatga haq to‘lash hisobi 21-sonli BHMSda korxona xodimlariga ish haqining barcha turlari: mukofotlar, yordam pullari, ishlayotgan nafaqaxo‘rlarga nafaqalar va boshqa shunga o‘xshash to‘lovlar bo‘yicha joriy qarzдорliklar hisobini yuritish uchun 6710 – “Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar” va 6720 – “Deponentlashtirilgan ish haqi” hisobvaraqlar mo‘ljallangan.

6710 "Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar" hisobvarag‘ining kreditida hisoblangan mehnat haqi, davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha yordam pullari va boshqa shunga o‘xshash summalar, hisobvaraqlarning debitida – hisoblangan ish haqidan ushlanmalar aks ettiriladi.

6720 – “Deponentlashtirilgan ish haqi” hisobvarag‘ida olinmagan ish haqlari bo‘yicha ishchilarga qarzlari aks ettiriladi.

Deponentlar bilan hisoblashishlar hisobi, berilmagan ish haqi reestri ma‘lumotlari asosida to‘ldiriladigan deponentlashtirilgan ish haqi kitobida yuritiladi.

6710 – “Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar” va – 6720 “Deponentlashtirilgan ish haqi” hisobvaraqlari tahliliy hisobi, korxonaning har bir ishchisi bo‘yicha ishchi va xizmatchilar shaxsiy hisobvaraqlardan (T-54 va T-54a shakllar) foydalangan holda yuritiladi.

Eski hisobvaraqlar rejasi va 21-sonli BHMSining, xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash va boshqa muomalar yuzasidan hisoblashishlar hisobvaraqlari va provodkalari o‘rtasidagi ahamiyatli farqlar quyidagilar:

- xodimlarga mehnat haqini to‘lash bo‘yicha berilgan bo‘naklarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan 4210 – “Mehnatga haq to‘lash uchun berilgan bo‘naklar” aktiv hisobvarag‘i, shuningdek, boshqa bo‘naklarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan 4220 – “Xizmat safarlari uchun berilgan bo‘naklar”, 4230 – “Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar” va 4290 – “Xodimlarga berilgan boshqa bo‘naklar” aktiv hisobvaraqlari alohida ajratib chiqarilgan;

- xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan aktiv hisobvaraqlar alohida ajratib chiqarilgan, jumladan: 4710 – “Xodimlarning qarzga berilgan tovarlar bo‘yicha qarzlari” hisobvarag‘i, 4720 – “Xodimlarga berilgan zayomlar

(qarzlari) bo'yicha qarzlari" hisobvarag'i, 4730 – "Xodimlarning moddiy zararni qoplash bo'yicha qarzlari" hisobvarag'i, 4790 – "Xodimlarning boshqa qarzlari" hisobvarag'i;

– o'z vaqtida berilmagan va deponentlashtirilgan ish haqini hisobga olish maqsadida 6720 – "Deponentlashtirilgan ish haqi" passiv hisobvarag'i alohida ajratib chiqarilgan;

– shuningdek, ta'sischilarning ustav kapitaliga qarzlarni hisobga olish 4610 – "Muassislarning ustav kapitaliga badallar bo'yicha qarzlari" hisobvarag'i va ta'sischilar oldida qarzlarni hisobga olish 6610 – "To'lovga dividendlar" va 6620 – "Chiqib ketgan muassislarga ularning ulushlari bo'yicha qarzlari" hisobvaraqlari ajratib chiqarilgan.

Har yilgi va qo'shimcha ta'tillarga hisoblangan summalar hisobot oyining ish haqi fondiga faqatgina hisobot oyiga to'g'ri keladigan ta'til kunlari bo'yicha summalar miqdorida kiritiladi. Ta'tilning bir qismi kelgusi oyga o'tgan taqdirda, ushbu kunlar uchun to'langan ta'til summasi hisobot oyida berilgan bo'nak tariqasida hisobga olinadi va 4290 – "Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar" hisobvarag'ining debitida va 5010 – "Milliy valutadagi pul mablag'lari" hisobvarag'ining kreditida aks ettiriladi. Kelgusi oyda ushbu summa mehnatga haq to'lashning fondiga kiritiladi va 4290 – "Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar" hisobvarag'i bilan korrespondentlangan holda 6710 – "Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar" hisobvarag'ining kreditida aks ettiriladi.

Hisoblangan ish haqi xodimga ushlanlanmalar ayrilgan holda to'lanadi. Mehnatga haq to'lashdan ushlanmalarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- majburiy;
- ish beruvchining tashabbusiga ko'ra;
- xodimning tashabbusiga ko'ra.

Jismoniy shaxslarning daromadidan quyidagi ushlanmalar hisoblanadi.

- daromad solig'i;
- pensiya fondiga ajratmalar.

Moliyaviy yilda soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar 12 % bo'yicha jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq to'lovchilari hisoblanadi.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: ishbay tartibida (T-40 namunaviy shakl) yakka va jamoaviy naryad asosida ishbay haqqini hisoblash tartibini o'zlashtirish.

1-masala. 14-sonli ishbayga B.S. Turdiyevning 2020-yil 24-yanvar holatidagi naryadi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

Raqami			Ishlarni yoritish	Ish razryadi	o'lchov birligi	berilgan (soni)	Qabul qilish		Me'yor 1 dona	
buyurtma	buyum	operatsiya					yaroqli	brak	narxi (so'm)	vaqt (soat)
0705	37	13	Frezer-lash	5	dona	100	100		180	0,25
0507	29	18		5	dona	80	80		150	0,75

Naryad bo'yicha ish haqi va bajarilgan ishlar uchun me'yorlashtirilgan vaqt bo'yicha ishbay haqqini hisoblash.

2-masala.

Mexanika sexi ishchilarining ishbay ishiga jamoaviy naryadi, joriy ta'mirni bajarishga qurilgan ko'priqli kran asosida bajarilgan ish uchun ishbay ish haqqini hisoblash – 18 870 so'm. Jamoa tarkibi quyidagicha:

Tabel raqami	Familiya, ismi, sharifi	Razryad	Tarifli soat stavkasi (so'm)	Ishlangan soatlar
87	Brigadir Jumaev C.A.	6	76	80
94	Chilangan Salimov I.T.	4	59	70
95	Chilangar Shokirov A.R.	5	67	75
101	Chilangar Usmonov S.T.	3	54	70
	Jami:			295

Ishlangan vaqt va malakani hisobga olgan holda jamoa a'zolari o'rtasida ishbay ish haqi qiymatini taqsimlash.

3-masala.

Aprel oyi uchun "TTZ" zavodining 4-sonli frezerlovchi jamoaning 40-sonli naryadni tuzish va qayta ishlash ishbay – mukofot tizimi bo'yicha quyidagi ishlarga haq to'lash:

1080-sonli buyum, 11 detal, 1-operatsiya – 60 dona,

08 detal, 2-operatsiya – 80 dona,

06 detal, 3-operatsiya – 50 dona.

Detalning raqami	Narxi, so'm	Vaqt me'yori, soat
11-sonli	2000	2,0
08-sonli	4100	4,0
06-sonli	5800	6,0

Ishbay ishining 25 %i miqdorida ishlab chiqish me'yorlari ortig'i bilan bajarilganda mukofotlar hisoblanadi.

Jamoaning tarkibi va haqiqatda ishlangan vaqt

Tabel raqami	Familiya, ismi, sharifi	Razryad	Ishlangan soatlar	Tarifli soat stavkasi (so'm)
421	I.T.Salimov	V	178	9200
422	S.N.Ilyosov	V	144	9220
423	N.B. Turdiev	IV	170	8130
424	O.A.Qarimov	III	170	7250

Ish haqi, mukofotlar va yagona ijtimoiy soliqlarni hisoblashga buxgalteriya yozuvini tuzish.

4-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida vaqtbay-ishchining ish haqi summasini hisoblab chiqish.

3-razryad ishchisi A.B. Keldiyev mart oyida 17 ish kunida ishlagan. Oylik tarif stavkasi – 800000 so'm, bir oyda ish kunlari soni – 22.

5-masala.

"Rasar" MCHJ ishchilariga 2020-yil iyul holatida ishlangan vaqtlarga muvofiq vaqtbay ish haqini hisoblash.

Iyul oyida ish kuni soni – 23

Tabel raqami	F.I.SH.	Lavozimi	Maoshi	Ishlangan kunlar
21	S.D. Umarov	rahbar	452000	20
22	S.T. Rixsiyeva	buxgalter (hisobchi)	236000	23
23	O.A. Jumayev	kat. menejer	258000	10
24	I.V. Tkachenko	menejer	312000	2

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: mahsulot braki va ish haqiga qo'shimcha to'lov tartibini o'zlashtirish.

1-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida ishchining ish haqi qiymatini hisoblab chiqish. Yechimini jadval ko'rinishida rasmiylashtiring.

Beshinchi razryadli chilangar N.I. Turdiyev OTKga 40 dona detalni taqdim etdi, tekshiruvdan so'ng OTK, detallarning 200 donasi yaroqli, 80 donasi ishchining aybiga ko'ra butunlay brak, 20 donasi ta'minotchining aybiga ko'ra qisman brak, 100 donasi sex rahbarining aybiga ko'ra butunlay brakligi aniqlandi. Yaroqli detallar bo'yicha qayta ishlash vaqti belgilandi – 30 daqiqa, narxi – 1000 so'm, qisman brakka chiqarilgan detallarning narxi 40 %gacha qisqartirilgan. 5-razryadli vaqtbay ishchining tarif stavkasi –700 so'm.

Mahsulot braki to'lovi hisob-kitobi

F.I.SH.	Razryad	Tarif stavka-lari		Qabul qilingan, dona			Yaroqli detallarga me'yorlar		Oylik maoshi			
		ishbay	vaqtbay	yaroqli detallar	brak		vaqt	narx	yaroqli detallar uchun	qisman brakka	to'liq brakka	jami
					qisman	to'liq to'langan						

2-masala. 2020-yil 8-yanvar holatida M-12 naryadiga qo'shimcha to'lov varag'i asosida ishning me'yoriy sharoitlarini chegirish uchun qo'shimcha to'lovni hisoblash. Tayyorlangan barcha detallarga ishbay narxining 25 %i miqdorida qo'shimcha to'lov belgilangan. Qo'shimcha to'lovning sababi – maxsus vositaning yo'qligidir (ta'minot bo'limining aybi bilan).

Ishchi F.M. Salimov 100 ta detal tayyorladi. 1 detalning narxi – 1800 so'm.

3-masala. Ishchilar F.M. Salimov, D.S. Olimovga kechki vaqtda muddatdan tashqari ishlash uchun qo'shimcha to'lovni hisoblash, agar oy davomida ular kechki vaqtda tegishli ravishda 12 va 16 soat ishlagan bo'lsa. Vaqtbay –ishchi F.M. Salimov ning (5 – razrayadli) tarif stavkasi – 4000 so'm, D.S. Olimov (4-razrayad) – 6100 so'm.

4-masala. “Nur” AJ ishchisi F.M. Salimov 10 detal brakiga yo'l qo'ydi. Brak tuzatilmagan deb belgilangan. Brakni tuzatish uchun chilangar F.M. Salimovga naryad berilgan. Bir detalni tayyorlash narxi – 6500 so'm, tayyorlashga normativning – 70 %i brakni tuzatishga. S.M. Saotov to'lov qiymatini brakni tuzatish uchun hisoblash, aybdordan brak uchun 6000 so'm ushlab qolish va brakni tuzatish uchun ish haqi qiymatidan yagona ijtimoiy soliq hisoblash.

5-masala. 200 000 so'm maoshga ishlaydigan ishchiga kechki vaqtlarda ishlagani uchun qo'shimcha to'lov qiymatini hisoblash. Jamoa shartnomasida kechki soatlar: 22.00 dan 6.00 gacha ishlaganlik uchun 30 % qo'shimcha to'lov belgilangan. Ish vaqti hisobi tabeliga ko'ra, ishchi iyul oyida 8 ta kechki navbatchilikda ishlagan.

3-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: ishlanmagan soatlar uchun to'lov tartibini o'zlashtirish.

Ta'til uchun ish haqini hisoblash.

1-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida turib qolishlar uchun to'lov qiymatini hisoblab chiqish. Echimini jadval ko'rinishida rasmiylashtirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

1. Ishchilarning turib qolish davomiyligi va sabablari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Tabel raqa- mi	F.I.SH.	Tarif stavkasi, so'm		Ish- chini raz- raya di	Turib qolish vaqti		Turib sababi qolish
		Ish- bay ish- chi	vaqtb ay ishchi		bo- shi	Oxi- ri	
1	2	3	4	5	6	7	8
1230	I.F. Turdiyev	100	90	VI	9.30	11.50	Materiallar yetkazilmaganligi
1231	S.I. Ilxomov	100	90	VI	9.20	12.40	Elektr energiyasini uzatishdagi uzilish
1232	N.R. Muminov	90	80	V	9.20	12.40	Bu yerda ham
1233	S.B. Olimov	80	70	IV	10.00	14.30	Maxsus moslamalar mavjud emasligi
1234	N.I. Raimov	60	50	II	10.30	12.30	Ishchining aybi bilant dastgoh buzilishi

2. To'lovni hisoblash uchun jadval

Tabel raqami	Familiya, I.SH.	Ishchining razryadi	Turib qolish soati uchun to'lov	Turib qolish davomiyligi	To'lov qiymati

2-masala. S.D. Yodgorova "Farma" MCHJ dorixonasida provizor bo'lib ishlaydi.

2020-yil 1-iyun uchun to'lov qiymatini aniqlash. Asosiy ta'tilning 28 kalendar kunidan tashqari Yodgorovaga qo'shimcha 12 ish kuni miqdorida ta'til berilishi lozim (16 kalendar kunlar).

Hisob davri to'liq ishlangan. 12 oy uchun ish haqi 2320 ming so'mni tashkil etdi.

3-masala. 2020-yilning 5-maydan S.N. Tolipovga 28 kalendar kuniga ta'til berilgan. Hisob-kitob davrida – apreldan maygacha bo'lgan davrda ishchi 10-dan 17-martgacha betob bo'lgan, 14, 15 va 16-

aprelda esa ish safarida bo'lgan. Jami ishlangan davrda 980000 so'mga teng. Xodim S.N. Tolipovga mehnat ta'tili pulini hisoblash.

4-masala. 3-razryadli quyuvchiga 28 kalendar kuni tashkil topgan, ya'ni 2020-yil 1-oktabrrdan navbatdagi ta'til uchun ish haqi hisoblab chiqing. Ta'tildan keyin ishga qaytish sanasini ko'rsating.

Avvalgi 12 oy uchun hisoblangan:

- asosiy ishbay narxlari bo'yicha – 410 300 so'm;
- asosiy ko'rsatkichlari uchun ishchiga mukofotlash fondidan mukofot ajratilgan – 127500 so'm;
- vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi bo'yicha – 15000 so'm;
- kechki soatlarda ishlaganlik uchun qo'shimcha to'lov – 110600 so'm;
- ishlab chiqarish me'yorini bajarganligi uchun mukofot – 120900 so'm.

5-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi varag'i bo'yicha ish haqini hisoblash, har yillik ta'til to'lovini hisoblab chiqish, jismoniy shaxslar daromad solig'ini ushlab qolish, buxgalteriya o'tkazma (provodka)larini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Nur” AJ ishchisi B.A. Sharipovga 2020-yil uchun ishbay mehnat haqi shartida quyidagilar hisoblangan:

- | | |
|-----------------------|------------------------|
| yanvar – 256000 so'm; | iyul – 6700000 so'm |
| fevral – 640000 so'm; | avgust – 6600000 so'm; |
| mart – 266000 so'm; | sentabr – 6200000 |
| so'm; | |
| aprel – 368000 so'm; | oktabr – 3060000 so'm; |
| may – 463000 so'm; | noyabr – 2240000 |
| so'm; | |
| iyun – 265000 so'm; | dekabr – 6070000 so'm. |

O'tgan 12 oy uchun ishlangan kunlar soni – 242.

2020-yil 3 dan 16-yanvargacha bo'lgan davrda ishchi betob bo'lgan.

Ish staji – 3 yil.

18 yanvardan B.A. Sharipovga buyruqqa ko'ra, 28 kalendar kunidan iborat har yillik mehnat ta'tili belgilangan.

6-masala. Mehnat ta'tili davrida xodim R.O. Salimovga ish haqini hisoblang.

Hisob-kitob davri – 12 oy: 01.04.2020-yildan – 01.04.2020-yilgacha to'liq ishlangan.

№	Hisob-kitob davrining oyi	Ish kuni soni	Hisoblab ajratilgan, so'm
1	Aprel 2020-y.	20	2012 000
2	May 2020-yil	21	3012 000
3	Iyun 2020-y.	21	4012 000
4	Iyul 2020-y.	21	2012 000
5	Avgust 2020-y.	23	4012 000
6	Sentabr 2020-y.	21	2011 800
7	Oktabr 2020-y.	22	4011 800
8	Noyabr 2020-y.	21	3011 800
9	Dekabr 2020-y.	21	5011 800
10	Yanvar 2020-y.	17	2011 800
11	Fevral 2020-y.	19	3011 800
12	Mart 2020-y.	21	4011 800

7-masala. Ish haqidan ushlanmalarni hisoblang, xodimning qo'liga tegadigan ish haqini aniqlang hamda tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

Test savollari

1. Ishchilarga kassadan ish haqi berildi muomalasi balansning qaysi xil o'zgarishiga tegishli? (4 xil o'zgarishidan)

- a) 1 xil
- b) 2 xil
- c) 3 xil
- d) 4 xil

2. Mehnatga haq to'lash yuzasidan bo'nak berildi.

	a.	b.	c.	d.
Debit	4220	4230	4290	4210
Kredit	5010	5010	5010	5010

3. Ish haqidan daromad solig'i ushlanganda qanday buxgalteriya yozuvi qilinadi?

	a	b	c	d
D-t	2510	2310	6710	6710
K-t	6710	6710	2510	6410

4. Ishchilarga ish haqi hisoblanganda qadav buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

	a	b	c	d
D-t	2010	0810	9210	9430
K-t	6710	6710	6710	6710

5. Ishchilarga mehnat ta'tili uchun zaxira tashkil etilganda qanday buxgalteriya yozuvi qilinadi?

	a	b	c	d
D-t	8910	2310	2010	2510
K-t	2310	8910	8910	1030

6. Berilmagan ish haqi deponentga o'tkazilganda qanday buxgalteriya o'tkazmasi beriladi?

	a	b	c	d
D-t	6710	6710	6710	6710
K-t	6720	4710	6410	6520

7. Kreditga sotilgan tovarlar uchun ish haqidan ushlab qolinganda qadav buxgalteriya o'tkazmasi beriladi?

	a	b	c	d
D-t	6710	6710	6710	6710
K-t	6720	4710	6410	6520

Tayanch iboralar: Mehnatga haq to'lash, mukofotlar, yordam pullari, ishlayotgan nafaqaxo'rlarga nafaqalar, xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar, deponentlashtirilgan ish haqi xizmat safarlari uchun berilgan bo'naklar, ishbay ish haqi, ta'til uchun ish haqi

O'z o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Bajargan ishlarni hisobga olishni hujjatlashtirish tartibini tasniflang.

2. Vaqtbay va ishbay shaklida mehnat haqini hisoblash tartibini tasniflang.

3. Qo'shimcha va ustama mehnat haqlarini hisoblash tartibini yoritng.

4. Bekor turish va mehnatga layoqatsiz vaqtiga haq hisoblash va uni hujjatlashtirish nimalardan iborat?

5. Hisoblangan mehnat haqidan har xil ushlama va chegirmalarni tavsiflang.

6. Xodimlar bilan mehnat haqi yuzasidan hisoblashishni tashkil qilish tartibini yoriting.

7. Mehnat haqi jamg'armasining tarkibi va ijtimoiy xususiyatdagi to'lovlar nimalardan iborat?

8. Mehnat va unga haq to'lashning sintetik hisobi va xodimlar bilan hisoblashish tartibini yoriting.

7-MAVZU. XARAJATLAR HISOBI

7.1. Ishlab chiqarish xarajatlari va ularni hisobga olish vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o‘rin tutadi. Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Xarajat – bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo‘lib, daromadlar va xarajatlar konsepsiyasiga ko‘ra, shu davrning o‘zida daromad keltirishi kerak.

Xarajatlarga milliy standartlarda quyidagicha ta’rif beriladi: «xarajatlar – aktivlarni qisqarishi yoki sarflanishi natijasida iqtisodiy resurslarni kamayishi, shuningdek, daromadlarni olishga oid xo‘jalik subyektni odatiy faoliyati natijasida majburiyatlarni paydo bo‘lishidir».²

Xarajatlar hisobini tashkil qilishning huquqiy-me’yoriy asoslari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– O‘zbekiston respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. 1996-y. (Yangi tahriri. 2016-yil 13-aprel. № O‘RQ-404) ;

– «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom (05.02.1999-yil, O‘zR VM 54-sonli qaror);

– O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to‘plami (2012-yil).

Xarajatlarni hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– iqtisodiy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun subyekt ma’muriyatini zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash;

– chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o‘rnatish, ularni me’yoriy va rejadagi

² 1-son BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot. O‘zR AV tomonidan 14.08.1998 yilda 474-son bilan ro‘yxatga olingan (05.10.2012 yilda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 474-1)

hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish;

- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini hisoblash;

- subyektning tarkibiy bo‘linmalarining ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baholash;

- uzoq muddatli xususiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish texnologiyalarining qoplanishi, bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo‘yicha rentabellik darajasi, ularga qo‘yilgan kapitallarning samaradorligi va faoliyati bo‘yicha boshqaruv hisobi ma’lumotlarini bir tizimga keltirish.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z vaqtida, to‘laligicha va haqqoniy aniqlash, shu bilan birga ayrim mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash hamda korxona resurslari va pul mablag‘lari ishlatilishi ustidan nazoratni o‘rnatishdir.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi foydalanuvchilarni korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy holati, xususan, mulkiy holati hamda to‘lov qobiliyati haqidagi axborot bilan ta’minlashdir. Demak, bu jihatdan, xarajatlar hisobi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- korxona faoliyati bilan bog‘liq barcha xarajatlarni o‘z vaqtida to‘laligicha hisobga olish;

- xarajatlar haqidagi ma’lumotlarni alohida hisob varaqalarida hamda hisobot shakllarida to‘g‘ri aks ettirish va soliqlarni hisoblash uchun yetarli darajadagi ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun xarajatlarni moliyaviy hisob tamoyillari, xususan, ikki yoqlama yozuv asosida hisobga olish yetarlidir. Boshqaruv hisobining eng asosiy xususiyati esa uning ma'lumotlari boshqaruv uchun foydaliligidir. Jumladan, boshqaruv hisobi xarajatlar haqida shunday batafsil ma'lumotlarni berishi kerakki, toki uning asosida eng to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishning imkoniyati paydo bo'lsin. Bu sohadagi xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda xarajatlar hisobi haqidagi ma'lumotlarni korxona quyidagi holatda shakllantirishi kerak:

- xarajatlarni ularni paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobga olish;
- xarajatlar hisobini javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha tashkil qilish;
- xarajatlarni ularni paydo qilgan obyektlari yoki ularni tashuvchilari, ya'ni alohida mahsulot turlari bo'yicha jamlab berish.

Bu vazifalar boshqaruv hisobining asosiy vazifasini bajarishga imkon beradi. Masalan, xarajatlarni ularning paydo bo'lish joylari va javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha hisobga olish eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi.

Demak, xarajatlarni hisobga olishning quyidagi vazifalarini ham sanab o'tishimiz kerak ekan:

- alohida ishlab chiqarish jarayonlari yoki bo'linmalari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil qilish va ular ustidan nazoratni ta'minlash;
- alohida mahsulot turlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ma'lumotni shakllantirib berish;
- korxonaning ishlab chiqarishdan tashqari barcha boshqaruv xarajatlarning tahliliy ma'lumotlarini yig'ib berish va ularning talqinini amalga oshirish.

7.2. Xarajatlarning guruhlanishi

Xarajatlar hisobi buxgalteriya hisobi vazifalaridan kelib chiqib quyidagi elementlar bo'yicha guruhlanadi:


Guruhlanish turi	Xarajat turlari
Ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy o'rniga qarab	-asosiy -doimiy
Tarkiblanishiga qarab	-kompleksk -bir elementli
Tannarxga kiritish usuliga qarab	-to'g'ri -egri
Ishlab chiqarish hajmiga qarab	-o'zgaruvchan -o'zgarmas
Yuzaga kelishiga qarab	-doimiy -bir vaqtli
Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishiga qarab	-ishlab chiqarishdagi -tijorat faoliyatida
Samaradorlikka qarab	-samarali -samarasiz

O'zbekiston Respublikasida «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da belgilab qo'yilgan. Ushbu Nizomga muvofiq xarajatlar ikki guruhga bo'linib hisobga olinishi belgilangan:

1. *Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.*
2. *Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.*

Bundan tashqari, moliyaviy faoliyat bo'yicha hamda favqulodda xarajatlar alohida hisobga olinadi.

Xarajatlar tarkibi O'zbekiston Respublikasida «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da belgilab qo'yilgan (2-rasm).



2-rasm. Xarajatlarning guruhlanishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1. *Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:*

- a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- d) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Bevosita (to'g'ri) xarajatlar deb, mahsulotning ayrim turlari tannarxiga to'g'ridan to'g'ri, ya'ni bevosita o'tkaziladigan xarajatlarga aytiladi.

Bilvosita (egri xarajatlar) deb, hisobot oyi davomida yig'ib-taqsimlovchi hisobvaraqlarda hisobga olinib, tannarxni kalkulyatsiya qilishda, mahsulotning ayrim turlari tannarxiga biron-bir ko'rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlash yo'li bilan qo'shiladigan xarajatlarga aytiladi.

2. *Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:*

- a) sotish xarajatlari;
- b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);
- v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. *Xo'jalik yurituvchi subyektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari:*

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- d) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- e) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. *Favqulodda zararlar, u foydadan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.*

Mahsulot (ish va xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Yuqoridagi xarajatlar iqtisodiy mazmunga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

7.3. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va uni hisobdan chiqarish hisobi

Xo‘jalik subyektlarining ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘ladigan har bir muomalaning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi schyotlar guruhidan foydalaniladi:

- 2010–«Asosiy ishlab chiqarish»;
- 2310–«Yordamchi ishlab chiqarish»;
- 2510–«Umumishlab chiqarish»;
- 2610–«Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 3110–«Oldindan to‘langan ijara haqi»;
- 3120–«Oldindan to‘langan xizmat haqi»;
- 3190–«Boshqa bo‘nak xarajatlari»;
- 8910–«Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi».

Korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulot (ish, xizmat)lar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotida amalga oshiriladi.

Oldindan (ijara, abonent to‘lovi va h.k.) yoki keyingi davrlardagi (hisobdor summasining ortiqcha xarajatlari uchun to‘lovlar va boshqalar) - korxona xarajatlari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga ularning to‘langan muddatidan qat’i nazar qaysi davrga taalluqli bo‘lsa o‘sha hisobot davrida kiritiladi.

2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debiti bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri xarajatlar, shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo‘qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri xarajatlar 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga haq to‘lash

bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga 2310 – “Yordamchi ishlab chiqarish” schyotining kreditidan hisobdan chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga 2510 – “Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari” schyotidan hisobdan chiqariladi.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga 2610 – “Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar” schyotidan hisobdan chiqariladi.

2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarishning haqiqiy tannarx summolari aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotidan 2810 – “Ombordagi tayyor mahsulotlar”, 9110 – “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”, 9130 – “Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi” schyotlarining debitiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi, shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o'zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi hamda kalkulyasion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo'linmalari bo'yicha yuritiladi.

1-masala

“Nestle” kompaniyasi 3 xil mahsulot ishlab chiqaradi. A mahsulotdan 100 dona bir donasi 1200 so‘mdan, B mahsulotdan 50 dona bir donasi 5400 so‘mdan, D mahsulotdan 280 dona bir donasi 890 so‘mdan ishlab chiqarishni rejalantirgan. Haqiqatda esa 850 ming so‘m xarajat qilingan. Haqiqatda bir birlik mahsulot tannarxini aniqlang.

Mahsulot turi	Mahsulot miqdori	1 dana mahsulot reja tannarxi	Reja bo‘yicha umumiy xarajalar	Salmoq‘i	Haqiqatda xarajalar	Haqiqatda bir birlik mahsulot tannarxi

2-masala

“Nestle” kompaniyasida tugallanmagan ishlab chiqarish 25 000 0000 so‘mni tashkil qiladi. Kompaniya hisobot davrida quyidagi xarajatlarni amalga oshirgan.

1. Sut mahsulotlari sarflandi. 20100 ming so‘m.
2. Ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi 12500 ming so‘m.
3. Ish haqi fondidan ijtimoiy sug‘urtaga ajratma hisoblandi 25 %
4. Mahsulotni sotish uchun reklama xarajatlari qilindi 2400 ming so‘m.
5. Kampaniya ma‘muriy binosiga amortizatsiya hisoblandi. 5900 ming so‘m.
6. Bank kreditiga foiz hisoblandi. 4800 ming so‘m.
7. Korxona buxgalteriga ish haqi hisoblandi. 1500 ming so‘m
8. Ishlab chiqarish sexiga amortizatsiya hisoblandi. 2450 ming so‘m.
9. Mahsulot ishlab chiqarish uchun elektr energiya sarflandi 1800 ming so‘m.
10. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun qog‘oz xom ashyosi sarflandi 3560 ming so‘m.

11. Ishchi qo‘shimcha ishlaganligi uchun ish haqi hisoblandi. 1540 ming so‘m.

12. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun boshqa korxona xizmatidan foydalanildi 2600 ming so‘m.

13. Mahsulotni qadoqlash uchun materiallar sarflandi 1260 ming so‘m.

14. Yaraqsiz mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflandi 2500 ming so‘m.

Kompaniya ushbu xarajatlarni amalga oshirib 5800 dona mahsulot ishlab chiqargan.

Tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering

Bir birlik mahsulot tannarxini aniqlang.

3-masala

“Nestle” kompaniyasida tugallanmagan ishlab chiqarish 25 000 0000 so‘mni tashkil qiladi.

“Nestle” kompaniyasi 3 mahsulot ishlab chiqaradi. A mahsulot 120 dona, B mahsulot 580 dona, D mahsulot 180 dona mahsulot tugallanmagan.

Operatsiyalar	A mahsulotga	B mahsulotga	V mahsulotga	Umumiy summasi
1. Xom ashyo sarfdlandi				25600 000
2. Sut mahsulotlari sarflandi				40500000
3. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblandi				14600000
4. Yaraqsiz mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflandi				6800000
5. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun boshqa korxona xizmatidan foydalanildi				3600000
6. Qog‘oz xom ashyosi sarflandi				4900000

7. Materiallar qiymatidagi farq asosiy ishlab chiqarishga hisobdan chiqarildi.				890000
8. Ilgari kelgusi darv xarajatlariga aks ettirilgan xarajatlar mahsulot tannarxiga olib borildi				3650000
9. Mahsulot ishlab chiqarish uchun elektr energiya sarflandi				1450000
10. Ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi				18500000
11. Ish haqi fondidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma hisoblandi				25 %

Umumishlab chiqarish xarajatlari

Amortizatsiya xarajatlari – 4580 ming so'm.

Yoqilg'i moylash materiallari – 1200 ming so'm

Umumishlab chiqarishga band bo'lgan ishchilarning ish haqi xarajatlari – 3650 ming so'm.

Ijara xarajatlari – 1500 ming so'm.

Sug'urta xarajatlari – 450 ming so'm.

Kompaniya umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashda ish haqi xarajatlari usulidan foydalaniladi.

Aniqlang.

1. Tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

2. Xarajatlarni mahsulot o'rtasida taqsimlang.

3. Bir birlik mahsulot tannarxini aniqlang.

4-masala

«Nestle» kompaniyasi sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Barcha materiallarni mol yetkazib beruvchilardan sotib oladi. 2020-yilning 4 choragida quyidagi ma'lumotlar mavjud.

№	Ko'rsatkichlar	1-oktabr qoldiq	31-dekabr qoldiq
1	Materiallar		
	Sut mahsulotlari	25 600 000	21 500 000
	Plastmassa xom ashyosi	12 480 000	14 650 000
	Qog'oz mahsulotlari	8 600 000	10 400 000
	Kley xom ashyosi	2 690 000	2 050 000
3	Tugallanmagan ishlab chiqarish	20 400 000	17 500 000
4	Tayyor mahsulot	15 800 000	13 690 000

4 chorak davomida 16 900 000 so'mlik sut mahsulotlari, 8560 000 so'mlik plastmassa xom ashyosi, 6700 000 so'mlik qog'oz mahsulotlari, 3500 000 so'mlik kley mahsulotlari sotib olindi.

To'g'ri ish haqi xarajatlari – 2.500 000 so'm

Umumishlab chiqarish xarajatlari:

– Sugurta xarajatlari – 2500 000 so'm

– Ijara xarajatlari – 1400 000 so'm

– Amortizatsiya xarajatlari – 3600 000 so'm

Sotishdan sof tushum – 81 400 000 so'm

Sotish xarajatlari – 2500 000 so'm

Ma'muriy xarajatlar – 3600 000 so'm

Foiz ko'rinishidagi xarajatlar – 1950 000 so'm

Valuta kursidan ijobiy farq 4260 000 so'm

Foyda solig'i 12 %

Topshiriq

4 chorak bo'yicha sarflangan materiallar qiymatini aniqlang.

4 chorak bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisobotini tuzing.

4 chorak bo'yicha moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzing.

1- topshiriq javobi

№	Ko'rsatkichlar	1- oktabr qoldik	Sotib olindi	31- dekabr qoldiq	sarflandi
1	Materiallar:				
	Sut mahsulotlari				
	Plastmassa xom ashyosi				
	Qog'oz mahsulotlari				
	Kley xom ashyosi				
2	Jami				

2-topshiriq javobi

№	Ko'rsatkichlar	summa
1	Sarflangan materiallar	
2	To'g'ri ish haqi xarajatlari	
4	Jami umumishlab chiqarish xarajatlari	
5	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	
6	1-oktabrda tugallanmagan ishlab chiqarish	
7	31 dekabrda tugallanmagan ishlab chiqarish	
8	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxi	

3-tapshiriq javobi

Ko'rsatkichlar	Daromad	Xarajat
Sotishdan sof tushum		
Sotilgan mahsulot tannarxi		
Yalpi foyda		
Davr xarajatlari		
Asosiy faoliyatdan foyda		
Foiz xarajatlari		
Foiz daromadlari		
Kurs farqlaridan foyda		
Soliq to'langunga qadar foyda		
Daromad solig'i		
Sof foyda		

**2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti bo‘yicha
16-jo‘rnal order**

Hujjat	2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti kreditidan								Kt bo‘yicha jami
	Schyotlarning debitiga								
Jami									

**2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti bo‘yicha
10-qaydnoma**

Hujjat	2010-Asosiy ishlab chiqarish” schyoti debitiga								Dt bo‘yicha jami
	Schyotlarning kreditidan								
	Yil boshiga qoldiq								
Jami									

Test savollari

- 1. Qaysi xarajatlar doimiy xarajatlar tarkibiga kiradi?**
 - a) moddiy xarajatlar
 - b) ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi xarajatlari
 - c) ishlab chiqarish binosining ijara xarajatlari
 - d) ishlab chiqarish uskunalariga sarflanayotgan elektr-energiya xarajatlari
- 2. Qaysi xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlar tarkibiga kiradi?**
 - a) moddiy xarajatlar
 - b) boshqaruv xodimlarining ish haqi xarajatlari
 - c) ishlab chiqarish binosining ijara xarajatlari
 - d) bank kreditlari bo'yicha foiz xarajatlari
- 3. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning qaysi usuli alohida yoki kichik hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi?**
 - a) buyurtmali usul
 - b) me'yoriy usul
 - c) jarayonli usul
 - d) aralash usul
- 4. Asosiy xarajatlar:**
 - a) barcha bevosita xarajatlar
 - b) mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar
 - c) materiallar xarajati
 - d) mahsulotni ishlab chiqqan sexning barcha xarajatlari
- 5. To'g'ri xarajatlar:**
 - a) bevosita nazorat qilinadigan xarajatlar yig'indisi
 - b) mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan bevosita xarajatlar
 - c) mahsulotni ishlab chiqarish xajmiga to'g'ri proporsional xarajatlar
 - d) barcha o'zgaruvchan xarajatlar
- 6. Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi hisoblandi:**
 - a) Dt 2010 Kt 6710
 - b) Dt 2110 Kt 6610
 - c) Dt 1010 Kt 6710

d) Dt 2310 Kt 6910

7. Yordamchi ishlab chiqarishlarga material qiymatliklarining sarflanishi:

- a) Dt 2010 Kt 1010
- b) Dt 2310 Kt 1010
- c) Dt 1010 Kt 6710
- d) Dt 2310 Kt 6910

Tayanch iboralar: asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, umumishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, kalkulyatsiya.

O‘z o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Xarajatlarning turli xil belgilariga qarab qanday turkumlanadi?
2. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy ishlab chiqarishlar bo‘yicha hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
3. Ishlab chiqarish xarajatlarini yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil etish?
4. Qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish qanday hisobga olinadi.

8-MAVZU. MAHSULOT, TOVAR (ISH, XIZMAT)LAR VA ULARNI SOTISH HISOBI

Tayyor mahsulotlarni baholash va hisobga olish

Tayyor mahsulotlar quyidagi ikki usuldan biri bilan hisobga olinishi mumkin:

- haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha;
- hisob bahosi (normativ (reja) tannarxi, sotish narxi) bo'yicha.

Tayyor mahsulotlarni hisobga olishning tanlangan usuli korxona hisob siyosatida qayd etib qo'yilishi kerak.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari to'g'ri va egri, doimiy va o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarini o'z ichiga oladi.

To'g'ri xarajatlar – u mahsulot birligini ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlar. Bularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;
- asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnatiga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Bu xarajatlarning miqdori ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lganligi uchun ular o'zgaruvchan xarajatlar hisoblanadi.

Egri xarajatlar ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlab chiqarish ahamiyatidagi xarajatlar bo'lib, ularga yordamchi ishlab chiqarish ishchilarining ishbay ish haqlari; ishlab chiqarish asosiy vositalarining eskirishi; ishlab chiqarishga oid asosiy vositalarni saqlash, joriy va kapital ta'mirlash va ishlab chiqarish hajmining o'zgarishidan qat'i nazar nisbatan doimiy bo'lib qoladigan boshqa xarajatlar tegishli.

Tayyor mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha kirim qilinishi	
debit	kredit
2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar»	2010 «Asosiy ishlab chiqarish»; 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»; 2710 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar»

Sotish uchun ishlab chiqarilgan (olingan) tayyor mahsulotlar, shuningdek, qisman korxonaning o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyotining debitida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan korrespondensiyada kirim qilinadi.

Tayyor mahsulotlarni sotish

Quyidagi shartlar bajarilganda asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad aks ettiriladi:

- korxona tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini xaridorga topshirganda;
- daromad miqdori ishonchli darajada baholanganda;
- kelgusida iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo'lganda;
- bitim bilan bog'liq qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar ishonchli darajada aniqlanadigan bo'lganda (2-sonli BHMS «Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar», AV tomonidan 26.08.1998-yilda 483-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

Tayyor mahsulotni realizatsiya qilish deganda uni sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), shuningdek, garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish (Soliq kodeksining 22-moddasi). Soliq solish maqsadida ustav kapitaliga qo'shilgan hissa o'rnida mol-mulkni, natura shaklidagi zayomlarni berish ham realizatsiya sifatida tan olinadi. Soliq kodeksi tayyor mahsulotni realizatsiya qilishdan daromadlarni hisobda aks ettirish paytini belgilash uchun huquq konsepsiyasini qo'llaydi, unga ko'ra realizatsiya qilish aylanmasi tovarga mulk huquqini o'tkazishda e'tirof etiladi (Soliq kodeksining 199-moddasi).

Hisobvaraqa-fakturalar, tovarlar jo'natilganligi (topshirilganligi) ni tasdiqlovchi kvitansiya, chek va boshqa hujjatlar tayyor mahsulotni realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir.

Soliq solish maqsadida tovarlarni realizatsiya qilish joyi va sanasini belgilash muhim hisoblanadi.

Quyidagi shartlar yoxud ulardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi (Soliq kodeksining 202-moddasi):

– tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa va bitim natijasida O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo‘lsa (yuklab jo‘natilmaydigan va tashilmaydigan bo‘lsa);

– jo‘natish yoki tashish boshlangan paytda tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa.

Tovarlar jo‘natilgan (berilgan) kun tovarlarni realizatsiya qilish aylanmasi amalga oshirgan sanadir (Soliq kodeksining 203-moddasi). Agar tovarlarni jo‘natish amalga oshirilmasa, tovarga bo‘lgan mulk huquqi oluvchiga o‘tkazilgan kun realizatsiya qilish aylanmasi amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo‘yilgan mol-mulk (tovar) garovga oluvchi tomonidan topshirilganda garov narsasiga bo‘lgan mulk huquqi o‘tkazilgan sana garovga qo‘yuvchi uchun realizatsiya qilish aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Tayyor mahsulotlarni yuklab jo‘natish (sotish) chog‘ida xaridor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar belgilanadi, hisob-kitob hujjati rasmiylashtiriladi va unta to‘lashi uchun taqdim etiladi.

4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotida hisobga olingan xaridorlar tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– shartnoma (sotish) bahosi bo‘yicha yuklab jo‘natilgan mahsulotlar qiymati;

– idishlar qiymati, idishlar uchun to‘lov mahsulotlarning shartnoma bahosiga kiritilmagan taqdirda;

– tayyor mahsulotlarning shartnoma bahosiga kiritilmagan xaridor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan mahsulotlarni shartnomada kelishilgan joygacha transportda tashish hamda ularni transport vositalariga yuklash xarajatlari (mol yetkazib beruvchining o‘z kuchi va transporti bilan yoki maxsus avtotransport tashkilotlari, temiryo‘l transporti, aviatsiya, daryo va dengiz transporti va boshqa tashkilotlar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi mumkin);

– qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan boshqa soliqlar.

4010 – «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 9010 – «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyotining krediti bilan bog‘lanadi. 4010 – «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotining debitida,

shuningdek, mahsulotlar xaridorlari tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi 6410 – «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi 2800 guruh schyotlari kreditidan 9110 – «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyotining debitiga hisobdan chiqariladi.

Hisobot davri oxirida 9010 va 9110 schyotlar 9910 – «Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga yopiladi.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi – tayyor mahsulotni omborga topshirish va uni yuklash dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Omborga topshirilgan tayyor mahsulotga qabul qilish-topshirish nakladnoyini quyidagi ma'lumotlar asosida tuzish:

17-aprelda "Stanok" zavodining yig'uv sexi ustasi B.A. Nosirov 3-sonli ombor omborchisi K.N. Tursunovga SSU-1 markasidagi 5 ta parmalib teshuvchi dastgohlarni 440 000 so'm qiymatida topshirdi. Dastgohlar sex boshlig'i O.V. Komilov qabul qilgan va OTK nazoratchisi SH.K. Maxmudov tomonidan qabul qilingan.

2-masala. Xaridorga yuklangan mahsulotga nakladnoy va schyot-fakturani quyidagi ma'lumotlar asosida tuzish.

19-aprelda 1-sonli ombor omborchisi R.A. Mardiyev Marketing bo'limi boshlig'i S.A. Shodiyevning buyrug'iga ko'ra ekspeditor S.R. Omonovga shartnomaga ko'ra 30-martdan SSU-1 markali parmalab teshuvchi dastgohni 5100 000 so'm qiymati bo'yicha chiqardi. Bir dastgohning hisob bahosi – 4400 000 so'm. Yuk xati buxgalteriyada 148-son bilan ro'yxatga olingan va bosh buxgalter S.N. Mahkamov tomonidan imzolangan.

3-masala. "Omon" AJning 2020-yil iyun oyi uchun operatsiyalarni yozish va buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish:

2020-yil iyun oyi uchun operatsiyalar bo'yicha hujjatlardan ko'chirma

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, m.s	
1	Haqiqiy tannarxi bo'yicha mahsulot yuklangan	62 000	
2	Chek kitobchalari schyotiga hisobraqamidan o'tkazilgan	3500	
3	Ekspeditorning hisobotiga ko'ra chek kitobchasidan chek bilan to'langan: xaridorlarga yuklangan mahsulotni tashish uchun yuk tarifi bo'yicha to'lov	2800	
4	Xaridordan hisob raqamiga qo'shilgan: yuklangan mahsulot uchun schyotlar bo'yicha yuk tarifi QQS	80 000 2800 ?	
5	Mahsulot savdosidan moliyaviy natijani aniqlash	?	

4-masala. NUR" AJning 2020-yil aprel oyi uchun operatsiyalarini operatsiyalar jurnaliga yozish va buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish.

2020 yil aprel uchun operatsiyalar bo'yicha hujjatlardan ko'chirma

№	Operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, m.s	
		xususiy	umumiy
1	Ishlab chiqarilgan va omborga topshirilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aks ettirilgan	-	35 000
2	Yuklangan mahsulotning haqiqiy tannarxi aks ettirilgan		35 000
3	Ekspeditorning hisobotiga ko'ra hisobot qiymatidan to'langan: - xaridorlarga yuklangan mahsulot uchun temir yo'l tarifi	900 600	 1400

	- ombordan tovar stansiyasiga tayyor mahsulotni tashish uchun transport firmasiga		
4	Hisobraqamiga xaridordan o'tkazilgan: - ulgurji bahosi bo'yicha sotilgan tayyor mahsulot uchun - QQS - xaridorlar hisobiga temiryo'l tarifi	49 200 ? 900	?
5	Hisobraqamidan bankning qisqa muddatli kreditini qoplashga o'tkazilgan		8000
6	Hisobot davrida savdo xarajatlari hisobdan chiqariladi		?
7	Savdo natijasini aniqlash		?

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: yuklangan va sotilgan mahsulot hisobi registrilarini yuritish tartibini o'zlashtirish

1-masala. 1. "NUR" AJning 16-sonli qaydnomasini ochish va unga boshlang'ich qoldiqlarni yozish.

2020-yil 1-martda omborga tayyor buyumlar qoldiqlari ko'chirmasi

To'lov hujjatlari		Xaridor-ning nomi	Asboblar soni				Hujjat bo'yicha umumiy qiymati, so'm			
Sa-na	Raq-am		A	B	V	G	Mah.uc hun	T/y tarif	Q QS	Jami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
20.02	74	"OMON" AJ	9	-	36	18	12 600	120	?	?
26.02	75	"E'TIQOD" AJ	6	18	-	24	9900	80	?	?
		Jami:	15	18	36	42	22 500	210	?	?
Haqiqiy tannarxi bo'yicha							18 870	210		

2. 16-sonli qaydnomaga ishlab chiqarishdan omborga keltirilgan tayyor mahsulotning hisob va haqiqiy tannarxini yozing va qoldikli kirimning haqiqiy tannarxini ularning hisob (rejali) narxlari bo'yicha qiymatiga foizli nisbatini hisoblash.

2020-yilning mart oyi uchun tayyor mahsulotni chiqarish qaydnomasidan ko‘chirma.

Chiqarilgan mahsulotning rejali tannarxi – 848 900 m.s.

Chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxi – 875 200 m.s

2.16-sonli qaydnomaga ortib bo‘lingan mahsulotga to‘lov hujjatlari ma’lumotlarini yozish, oy uchun natijalarni hisoblash, hisob narxlari bo‘yicha yuklab bo‘lingan mahsulotning qiymatini hisoblash va uning haqiqiy tannarxini belgilash.

Oy oxirida ombordagi tayyor mahsulot qoldig‘ini hisoblab chiqarish.

**2020-yil mart oyi holatidagi operatsiyalar bo‘yicha
hujjatlardan ko‘chirma**

№	Hujjat nomi va operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, so‘m
1	1 martdagi nakladnoy, 76-sonli schyot-faktura	
	“NUR” AJ modellar asboblari ortilgan: B – 140 dona, D – 70 dona, C – 90 dona. Transport xarajati – 200 so‘m	?
2	2 martdagi nakladnoy, 77-sonli schyot-faktura	
	“OMON” AJ modellar asboblari ortilgan: A – 5 dona, B – 8 dona, D – 12 dona.	?
3	15-martdagi 78-sonli schyot-faktura	
	“E’TIQOD” MCHJ modellar asboblari ortilgan: B – 30 dona, D – 10 dona. Transport xarajati – 282 so‘m	?
4	15-martdagi 79-sonli schyot-faktura	
	“SAMO” AJ modellar asboblari ortilgan: A – 50 dona, B – 5 dona, D – 21 dona.	

Narxlar preyskurantidan ko'chirma		
Mahsulot nomi	Shartnoma narxi, so'm	Hisob narxi, so'm
A model	30000	25000
B model	25000	20000
D model	20000	15000
E model	15000	12000

**2020 _y._____ uchun mahsulotni ortish va sotish hisobi
16-sonli qaydnomasi**

T/r	Nakladnoy buyruq №	-sonli schyot-faktura	Xaridor, to'lovchi	Mahsulot ortib yuklangan								Bir oy uchun natija (foйда, zarar)	To'lov bo'yicha bahosi		Savdo narxi bo'yicha oy oxiridagi saldo
				nomi	soni	haqiqiy tannarxi bo'yicha	Mahsulot uchun	Tara	Savdo xarajatlari	QQS	Jami		sana	umumiy qiymati	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	3	4	5	16

3.16-sonli qaydnomada to'lov hujjatlari to'lovini aks ettirish, oxirida to'lanmagan tovarlar qoldig'i va korrespondensiyalanuvchi schyotlar bo'yicha to'lovga kelib tushgan qiymatlarni hisoblash.

Hisobraqami operatsiyalari bo'yicha hujjatlardan ko'chirma.

To'lov hujjatlari bo'yicha ortib yuklangan mahsulot to'lovi kiritilgan (m.s):

77-sonli 9-mart – “NUR” AJ ?

74-sonli 10-mart – “OMON” AJ ?

76-sonli 12-mart – “FAZO” AJ ?

75-sonli 15-mart – “QIZIL QUM” AJ ?

79 sonli 31-mart – “E’TIQOD” AJ ?

3-amaliy mashg‘ulot

1-masala. Korxona uch turdagi aksizli mahsulot ishlab chiqaradi. Barcha turdagi mahsulotlar uchun aksiz solig‘i stavkasi 10 %dan iborat. Tovarlarining aksiz va QQSsiz narxlari quyidagichadir:

1-tovar – 140000, 2-tovar – 145000 so‘m, 3–tovar – 250000 so‘m. Realizatsiya qilingan: 1-tovar 4 dona, 2-tovar 6 dona, 3-tovar 2 dona. QQS hisobga olgan holda tovar turlari bo‘yicha yetkazib berish qiymati: 1-780000 so‘m, 1250000 so‘m, 680000 so‘mni tashkil etadi.

QQS va aksiz solig‘i qo‘shilgan etkazib berish qiymati bo‘yicha hisoblab chiqariladi

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Summa	Debit	Kredit
1	Mahsulot uchun olingan oldindan to‘lov aks ettirildi			
2	Mahsulotni sotishdan olingan daromad aks ettirildi			
3	QQS hisoblandi			
4	Aksiz solig‘i hisoblandi			
5	Bo‘nakning hisobga olinishi aks ettirildi			

2-masala. Quyidagi xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya yozuvlarini tuzish

T/r	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Haqiqiy tannarxi bo‘yicha ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot omborga topshirilgan	56 000
2	Xaridorlarga haqiqiy tannarxi bo‘yicha tayyor mahsulot ortib yuklangan	35 000
3	Shartnoma narxi bo‘yicha sotishdan tushum hisobraqamiga kelib tushgan	60 000
4	15% QQS hisoblangan (qiymatini aniqlash)	?
5	Tayyor mahsulotni sotishdan natijani aniqlash	?

3-masala. Maqsad – mahsulotlarni sotish hisobini o‘rganish.
Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

Korxona mahsulot yetkazib berish shartnomasiga binoan xaridorga 2 800 000 so‘mlik mahsulotni yuklab jo‘natdi, QQS 15 %ni tashkil etadi. Mahsulotlarning haqiqiy tannarxi 2 100 000 so‘mni tashkil qilgan. Xaridor tomonidan 100 foizli to‘lov amalga oshirilgan.

Korxona – umumbelgilangan soliqlar to‘lovchisi:

Yo‘l jamg‘armasiga – 1,5 foiz;

Pensiya jamg‘armasiga – 0,7 foiz;

Maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga – 1 foiz.

Topshiriq:

1. Belgilangan soliq miqdorlarini aniqlang.
2. Quyidagi amallarni aks ettiring:

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Summasi, ming so‘m	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
			debit	kredit
1	Mahsulot uchun oldindan to‘lov aks ettirildi			
2	Sotilgan mahsulotning haqiqiy tannarxi hisobdan chiqarildi			
3	Mahsulot sotishdan olingan daromad aks ettirildi			
4	QQS hisoblandi			
5	Yo‘l jamg‘armasiga ajratma qilindi			
6	Pensiya jamg‘armasiga ajratma qilindi			
7	Maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga ajratma qilindi			
8	Bo‘nakni hisobga olish aks ettirildi			
9	Sotish bo‘yicha moliyaviy natija aks ettirildi			

4-masala. Korxona mahsulot etkazib berish shartnomasiga binoan xaridorga 4510 ming so‘mlik, shu jumladan QQS-15 %, o‘z mahsulotlarini yuklab jo‘natdi. Mahsulotning haqiqiy tannarxi 1700 ming so‘mni tashkil qiladi. Xaridor tomonidan 100 foizli oldindan to‘lov amalga oshirilgan.

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Summa	Debit	Kredit
1	Mahsulot uchun olingan oldindan to‘lov aks ettirildi			
2	Sotilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini hisobdan chiqarish aks ettirildi			
3	Mahsulot sotishdan olingan daromad aks ettirildi			
4	QQS hisoblandi			
5	Bo‘nakni hisobga olish aks ettirildi			
6	Sotish bo‘yicha moliyaviy natija aks ettirildi			

5-masala. Korxona uch turdagi aksizli mahsulot ishlab chiqaradi. Barcha turdagi mahsulot uchun aksiz solig‘i stavkasi 10 %dan iborat. Tovarlarning aksiz va QQSsiz narxlari quyidagichadir:

1-tovar – 140000, 2-tovar – 145000 so‘m, 3-tovar – 250000 so‘m. Realizatsiya qilingan: 1-tovar 4 dona, 2-tovar 6 dona, 3-tovar 2 dona. QQS hisobga olgan holda tovar turlari bo‘yicha yetkazib berish qiymati: 1-780000 so‘m, 1250000 so‘m, 680000 so‘mni tashkil etadi. QQS va aksiz solig‘i qo‘shilgan etkazib berish qiymati bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Summa	Debit	Kredit
1	Mahsulot uchun olingan oldindan to‘lov aks ettirildi			
2	Mahsulotni sotishdan olingan daromad aks ettirildi			
3	QQS hisoblandi			
4	Aksiz solig‘i hisoblandi			
5	Bo‘nakning hisobga olinishi aks ettirildi			

6-masala. Maqsad – mahsulotlarni xorijiy valutilarga sotish hisobini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

Korxona sotilgan mahsulotlar qiymatini AQSH dollarida belgilaydi, biroq hisob-kitoblarni to‘lov sanasidagi MB kursi bo‘yicha

soʻmda amalga oshiradi. Korxona tomonidan sotilgan mahsulot qiymati 3 ming dollarni, shu jumladan QQS 500 dollarni tashkil qiladi. Sotilgan mahsulotlar tannarxi – 3 700 ming soʻm. Boʻnakning kelib tushishi va mahsulotlarning yuklab joʻnatilishi bir oyda amalga oshirilgan.

Dollar kursi: 100 % miqdorda boʻnak kelib tushgan sanada – 1745 soʻm, mahsulotni yuklab joʻnatilgan sanada – 1755 soʻm.

Topshiriq:

Quyidagi amallarni aks ettiring:

№	Xoʻjalik operatsiyalari mazmuni	Summ asi, ming soʻm	21-son BHMS boʻyicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
			debit	kredit
1	Xaridordan boʻnak olindi			
2	Mahsulotlarni sotish aks ettirildi			
3	QQS hisoblandi			
4	Qarzni qayta baholashdagi kurs farqi aks ettirildi			
5	Boʻnakning hisobdan chiqarilishi aks ettirildi			
6	Sotilgan mahsulotlarning tannarxi hisobdan chiqarildi			

Test savollari

1. Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar olinganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Debit	2010	1010	2810	2810
Kredit	2810	2810	2010	2540

2. Tayyor mahsulotlar xaridorlarga sotilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi.

	a	b	c	d
Debit	4010	9010	4010	9110
Kredit	9010	2810	2810	2810

3. Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Debit	2010	9110	2810	2810
Kredit	2810	2810	5810	9110

4. Ko'rgazmadan omborga tayyor mahsulotlar kirim qilinganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a	b	c	d
Debit	2010	1010	2810	2810
Kredit	2810	2810	2010	2540

5. Ta'sisshilar qarzini tayyor mahsulot bilan to'laganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi.

	a	b	c	d
Debit	4610	2810	2810	2810
Kredit	2810	4610	4810	4620

Tayanch iboralar: tayyor mahsulot, xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar, nakladnoy va schyot-faktura, xaridor, QQS va aksiz solig'i, sotilgan tayyor mahsulot.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Tayyor mahsulotlarni baholash va ularning nomenklaturasini tasniflang.
2. Tayyor mahsulotlar harakati – jo'natish va sotish jarayonini hujjatlashtirish nimalardan iborat?
3. Tayyor mahsulotni qabul qilishda omborxona hisobini yuritish tartibini yoritng.
4. Tayyor mahsulotlarni jo'natish, sotish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishning tahliliy hisobi qanday yuritiladi?

9-MAVZU: KAPITAL, FONDLAR VA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI

Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish asosiy manbayi bo'lib, uning mulkdorlari tomonidan korxonaga qo'yilgan mablag'lar majmui bo'lgan ustav kapitali hisoblanadi. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi qonunchilik va ta'sis hujjatlari bilan amalga oshiriladi. Chunonchi, davlat korxonalarining ustav fondi korxona foydalanishga topshirilgan vaqtida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'larni aks ettiradi.

Aksioner jamiyati deb maxsus nom bilan ta'sis etiladigan, ma'lum miqdorda teng qismlarga bo'lingan (aksiyalar) asosiy (ustav) kapitaliga ega bo'lgan va majburiyatlari bo'yicha faqat o'zining mulki bilan javob beradigan yuridik shaxslar tushuniladi. Bu ta'sischilarning tenglik prinsipiga asoslangan ixtiyoriy birlashmadir. Asosiy sharti – faoliyatiga o'z kapitalini qo'yish, ya'ni aksioner jamiyati – bu kapitalning birlashishi demakdir. Aksioner jamiyatining faoliyati ustav bilan belgilanadi. Aksioner jamiyatining majburiyatlari bo'yicha aksionerlar mulklari bilan to'la mas'uliyatli emas, ularning mas'uliyatlari faqat ustav kapitaliga qo'yilma bilan cheklanadi.

Aksioner jamiyatining ustav kapitalini hajmi uning ustavida ko'rsatiladi va uning o'zgarishi ustavini o'zgarishi uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ustav kapitali miqdorini o'zgartirish to'g'risidagi qaror, agar korxonaning ustav kapitalini yangi miqdori ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, umumiy majlis qabul qilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

Jamiyat ta'sis etilgan paytdagi ustav kapitali bir xilda nominal qiymatga ega bo'lgan oldindan belgilangan miqdordagi bir qancha oddiy aksiyalardan iborat bo'lishi kerak. Aksioner jamiyatlari faqat nomi ko'rsatilgan aksiyalar chiqaradi va ular albatta tegishli reestrlarda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Aksiyalarni to'lash mulklar, inshootlar, nomoddiy aktivlar va boshqa moddiy qimmatliklarni, so'mdagi va xorijiy valutadagi pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan bo'lishi mumkin.

Ustav (fondi) kapitalining hisobi 8300 – «Ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar» schyotida yuritiladi. Bu schyot passiv bo'lib quyidagi:

8310 – «Oddiy aksiyalar»;

8320 – «Imtiyozli aksiyalar»»

8330 – «Pay va ulushlar» schyotlarga bo‘linadi.

Yuqorida keltirilgan schyotlar davlat korxonalari, birlashmalari va tashkilotlarining ustav fondini va aksioner jamiyatlari va shirkatlarning ustav kapitalini hisobga olish uchun tayinlagan. Bu schyotlarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan miqdor doirasidagi haqiqiy ustav kapitali yoki to‘langan aksiyalarni nominal qiymati aks ettiriladi. Ustav kapitalining miqdori ustavda ro‘yxatdan o‘tkazilgan summadan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Ta’sischilarga qaytarilgan ulushi ustav kapitalni kamaytirmaydi, balki aksioner jamiyati tomonidan o‘z aksiyalarini sotib olingandek rasmiylashtirilib 8610 – «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» va 8620 – «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyotlarning debitida aks ettiriladi.

Bu schyotlarning debit aylanmasi ustav kapitalini kamayishini, kredit oboroti esa qonunchilikka binoan turli sabablarga ko‘ra ustav kapitali ko‘payishini ko‘rsatadi. 8310, 8320 va 8330 – schyotlarda aks ettiriladigan muomalalarning hisobi 12 – jurnal – orderda yuritiladi.

Aksioner jamiyat ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng ro‘yxatdan o‘tkazilgan ustav kapitali summasiga jamiyat oldida aksionerlarning qarzi vujudga keladi. Ta’sischilar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning hisobi 4610 – «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotida olib boriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazilgan ustav kapitali summasiga 4610 schyoti debitlanib, 8310 – «Oddiy aksiyalar», 8320 – «Imtiyozli aksiyalar» va 8330 – «Pay va ulushlar» schyotlari kreditlanadi.

4610-schyoti aktiv bo‘lib, debit saldosi oy boshiga qolgan ta’sischilarning qarzlarini ko‘rsatadi. Debit oboroti hisobot oyida vujudga kelgan ta’sischilarning qarzlarini aks ettirsa, kredit obroti debitor qarzlarni kamayishini, ya’ni ta’sischilar tomonidan o‘tkazib berilgan pul mablag‘lari, moddiy qimmatliklar va mulklar qiymatini ko‘rsatadi.

Akstioner jamiyatlarida qo‘shilgan kapitalning buxgalteriya hisobi 8400 – «Qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar» ning quyidagi: 8410 – «Emissiya daromadi» va 8420 – «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyotlarida hisobga olinadi.

Ushbu schyotlar oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha nominal qiymatidan ortiq olingan, shuningdek, ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqlarning mavjud summalarini va ularning harakatini umumlashtirish uchun tayinlangan.

8410–«Emissiya daromadi» schyotida aksiyalarni ta'sischi birlamchi sotishda nominal qiymatidan ortiqcha tushgan summa hisobga olinadi. Bu vaqtda 5010, 5110, 5210–schyotlar debitlanib, 8410–«Emissiya daromadi» schyoti kreditlanadi. Bu schyotning debitida o'z aksiyalarini sotib olishi va bekor qilishda tashkil bo'lgan salbiy farq summalarini qoplanishi aks ettiriladi. Bu vaqtda 8410 «Emissiya daromadi» schyoti debitlanib, 8610–«Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» va 8620–«Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyotlari kreditlanadi.

8410–«Emissiya daromadi» schyoti bo'yicha analitik hisob oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha alohida yuritiladi.

8420–«Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyoti ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kursdagi farqlarni hisobga olish uchun tayinlangan.

Ustav kapitalining shakllanishida valuta va valuta qimmatliklari ustav kapitaliga badal qo'yilgan vaqtdagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha baholanadi. Valuta va valuta qiymatliklari va boshqa mulklarning bahosi ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish paytidagi bahosidan farqlanishi mumkin. Bu vaqtda vujudga keladigan kursdagi farqi 8420–«Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyotida hisobga olinadi.

Xo'jalik yurituvchi subektlar o'zlarining sof foydasidan ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorda zaxira kapitali tashkil etishi mumkin. Zaxira kapitaliga har yili ustavda belgilangan miqdorgacha ajratiladi. Basharti amaldagi qonunchilik va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, boshqa tijorat tashkilotlari ham zaxira kapitalini tashkil etishlari mumkin.

Zaxira kapitalining tayinlanishi – sodir bo'ladigan korxonaning balans zarari va boshqa to'lovlarini qoplashdir.

Zaxira fondi harakatining hisobi 8500–«Zaxira kapitalini hisobga oluvchi schyotlar»ning quyidagi: 8510–«Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»; 8520–«Zaxira kapitali» va 8530–«Tekinga olingan mulk» schyotlarda hisobga olinadi

8510–schyotida mulklarni qaytadan baholash natijasida ularning qiymati ortishi hisobga olinadi. Bu schyot passiv bo‘lib mulklarni qayta baholash natijasida zaxira kapitalining tashkil etilishi va to‘ldirilishi 8510–«Mulknı qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotining kreditida aks ettirilib, tegishli qiymati ko‘paytirilgan mulklarni hisobga oladigan schyotlar debitlanadi.

Basharti qaytadan baholash natijasida mulklarning qiymati kamaytirilsa, xuddi shu mulk turi bo‘yicha qaytadan baholash natijasida ortgan qiymati tugaguncha 8510 – «Mulknı qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti debitlanib tegishli aktivlarni hisobga oladigan schyotlar kreditlanadi. Undan ortig‘iga 9430–«Boshqa operastion xarajatlar» schyoti debitlanib tegishli aktivlarni hisobga oladigan schyotlar kreditlanadi. 8510-schyotning qoldig‘i balansda – «Zaxira kapitali» moddasi bo‘yicha ko‘rsatiladi.

8510–«Mulknı qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotining debitiga quyidagi hollarda yoziladi: qaytadan baholash natijasida mulklar qiymatini kamayishi; Qaytadan baholash natijasida uzoq muddatli investitsiya qiymatini kamayishini qoplash; korxonaning tugatilishida ta’sischilar orasida taqsimlanadigan summa. Bunda 8510-schyot debitlanib 6620–«Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushi bo‘yicha qarz» schyoti kreditlanadi.

8520–«Zaxira kapitali» schyotida xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘zlarining ta’sis xujjatlarida belgilangan miqdorda zaxira kapitali tashkil etilganda yoki to‘ldirilganda aks ettiriladi. Bu vaqtda 8710–«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi schyoti debitlanib, 8520–«Zaxira kapitali» schyoti kreditlanadi.

Zaxira kapitalidan foydalanilishi 8520–«Zaxira kapitali» schyotining debitida aks ettiriladi. Masalan, aksioner jamiyatining dividend to‘lash uchun foydasi yo‘q bo‘lsa, yoki yetmasa zaxira kapitali hisobidan dividendlar hisoblash bo‘yicha quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 8520–«Zaxira kapitali»,

Kt 6610–«To‘lanadigan dividendlar» schyoti.

8530–«Tekinga olingan mulk» schyoti qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mol-mulklarni hisobga olish uchun tayinlangan.

Mol-mulk bepul olinganda, olingan mol-mulklarni hisobga oladigan schyotlar debitlanib, 8530 – «Teking olingan mulk» schyoti

kreditlanadi. Bepul olingan mol-mulklar qiymati foyda (daromad)dan ajratma solig'iga tortiladi. Bepul olingan mol-mulkni soliqqa tortish tartibi O'zR Soliq Kodeksi bilan belgilanadi.

Qaytarilmaydigan ma'lum bir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun tayinlangan maqsadli tushumlar, mablag'lar holati va harakati, shuningdek, a'zolik badallari hamda boshqa mablag'larning kirimi ularning sarflanishi to'g'risidagi axborot quyidagi: 8810–«Grantlar», 8820–«Subsidiyalar», 8830–«A'zolik badallari», 8840–«Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari», 8890–«Boshqa maqsadli tushumlar» schyotlarda umumlashtiriladi

Yuqorida ko'rsatilgan tushumlarni xususiy kapital sifatida aks ettirishning quyidagi shartlari mavjud: a) maqsadli tayinlanishi bo'yicha foydalanish; b) mablag'larni jalb etish bilan bog'liq xarajatlarning sodir bo'lmasigi; d) ma'lum shartlar bajarilganda qaytarilmasligi lozim.

Grant bu iqtisodiyotni rivojlantirishga qiziqtirish, ilmiy-texnika va innovatsiya dasturlarini bajarish uchun ijtimoiy ahamiyatli maqsadlar bo'yicha korxonaga qaytarib olmaslik sharti bilan davlat, shuningdek, nodavlat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va fondlar tomonidan ko'rsatiladigan gumanitar pul yoki moddiy-texnika yordamidir. Grant mablag'lari qat'iy maqsadli tayinlanishi bo'yicha foydalaniladi.

Grant ajratilgan hollarda tegishli grant ajratuvchi tashkilot va fondlar tomonidan korxonaga xabarnoma yuboriladi. Ushbu xabarnomada ko'rsatilgan summaga korxona quyidagicha rasmiylashtiriladi: Dt 4890–«Boshqa debitorlarning qarzlari», Kt 8810–«Grantlar» schyoti.

Grant bo'yicha moliyalanadigan maqsadli loyiha budjetida nazarda tutilgan pul mablag'lari yoki mulklar olinganda quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt Pul mablag'larini hisobga oladigan (5110-5530), kapital qo'yilmalar (0800), O'rnatiladigan uskunalar (0700), TMZ va boshqa schyotlar,

Kt 4890 – «Boshqa debitorlarning qarzlari» schyoti.

Chet el valutalarida olingan grantlar summasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan xo'jalik muomalalarini sodir bo'lish kuniga belgilangan kurs bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valutasiga aylantiriladi.

8820-«Subsidiyalar» schyoti mavjud ajratilgan subsidiyalar, ya'ni iqtisodiyotni rivojlantirishga qiziqtirish maqsadida ma'lum shartlar bilan davlat tomonidan ko'rsatiladigan pul yoki natura yordami harakati to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi, eng avvalo, buxgalteriya hisobida xarajatlarni to'g'ri va to'liq aks ettirishga, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar)ni aniqlashga yo'naltirilgandir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

– mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$YAF = SST - IT$,

bunda,

YAF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

– asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$AFF = YAF - DX + BD - BZ$,

Bunda:

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

– xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$UF = AFF + MD - MX$,

bunda:

UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

– soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF=UF+FP-FZ,$$

bunda:

STF – soliq to‘langungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

– yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF=STF-DS-BS,$$

bunda,

SF – sof foyda;

DS – foydadan to‘lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Moliyaviy natijalarni hisobga olishda quyidagi schyotlardan foydalaniladi.

9000–asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar

9100–sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar

9200–asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar

9300–asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar

9400–davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar

9500–moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar

9600–moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar

9700–favquloddagi foyda (zarar)larni hisobga oluvchi schyotlar

9800–soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: ustav kapitali hisobini o'rganish.

1-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

AJ ustavida 2500 so'm nominal qiymatga ega bo'lgan 5 000 dona oddiy aksiya chiqarishga ruxsat etilgan.

Topshiriq:

E'lon qilingan aksiyalarga buxgalteriya o'tkazmasini bering.

AJ nominal qiymati bo'yicha 50 % aksiyani a'zolariga naqd pul evaziga sotilishini buxgalteriya hisobida aks ettiring.

Qolgan qismini 2 600 so'mdan investorga sotdi. Ushbu muomalani buxgalteriya hisobida aks ettiring.

2-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tuzilgan AJ buxgalteriya balansi quyidagi aktiv va majburiyatlarni o'z ichiga oladi:

Nomoddiy aktivlar – 2100 ming so'm.

Asosiy vositalar – 83000 ming so'm.

Taqsimlanmagan foyda – 25000 ming so'm.

Kreditlik qarzi – 26000 ming so'm.

Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar – 4000 ming so'm.

Zaxiralar – 52000 ming so'm.

Oddiy aksiyalar – 32500 ming so'm.

Debitorlik qarzi – 27000 ming so'm.

Zaxira kapitali – 15000 ming so'm.

Beg'araz yordam – 7500 ming so'm.

Kreditlar va qarzlar bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar – 52000 ming so'm.

Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar – 29000 ming so'm.

Pul mablag'lari – 12000 ming so'm.

Boshqa maqsadli tushumlar – 37100 ming so'm.

Boshqa joriy aktivlar – 30000 ming so'm.

Kreditlar va qarzlar bo'yicha qisqa muddatli majburiyatlar – 9000 ming so'm.

Boshqa joriy majburiyatlar – 35000 ming so'm.

Topshiriq:

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, AJning xususiy kapital miqdorining aniqlang;

2020-yil 1-yanvar holatiga buxgalteriya balansini tuzing.

3-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

Ta'sischilardan biri AJga aksiya qiymati evaziga avval foydalanishda bo'lgan transport vositasini kiritdi. Ta'sischilar o'zaro kelishgan holda aksiyadorga ushbu transport vositasi uchun 1 000 dona oddiy aksiya berishga qaror qildilar. Aksiyaning nominal qiymati 2 000 so'm, bozor qiymati esa 2500 so'mni tashkil qiladi.

Topshiriq:

Transport vositasining bozor qiymatini aniqlang.

Ushbu muomalaga buxgalteriya provodkasini bering.

4-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

Ta'sis shartnomasiga muvofiq qo'shma korxonaning ustav kapitalida chet ellik muassisning ulushi 20 ming AQSH dollaridan iborat. Hujjatlarni ro'yxatga olish paytida 1 AQSH dollari 1740 so'mni tashkil qilgan edi. Biroq pul mablag'lari bilan badalni to'lash paytida 1 AQSH dollari 1750 so'mga teng bo'lgan.

Topshiriq:

Kurs farqidan olingan daromadni hisoblang;

Ushbu muomalaga buxgalteriya provodkasini bering.

5-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

AJda mavjud bo'lgan transport vositasining boshlang'ich qiymati 5 000 000 so'mga, eskirish qiymati 800 000 so'mga teng. Transport vositasini 3 koeffitsiyent bilan qayta baholash o'tkazildi.

Topshiriq:

Transport vositasini qayta baholash natijasidagi boshlang'ich va eskirish summasini aniqlang.

Qayta baholash natijasidagi farqni aniqlang.

Ushbu muomalaga buxgalteriya provodkasini bering.

6-masala.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

2020-yil yakuni bo'yicha AJ 12 000 ming so'm foyda oldi. Hisobot davrida foydadan budjetga to'lovlar 1 200 ming so'mni tashkil

qiladi. Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasini taqsimlash masalasi bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida foydaning qolgan qismini quyidagicha yo'naltirish to'g'risida qaror qabul qilindi: sof foydaning 60 %i dividend tariqasida, shundan $\frac{3}{4}$ qismi yuridik shaxslarga, qolgan qismi jamiyatning xodimlariga berilishi, sof foydaning qolgan qismi zaxira fondini shakllantirishga yo'naltirilishi belgilab qo'yildi.

Topshiriq:

AJning 2020 yildagi sof foydasini aniqlang.

To'lanadigan dividend miqdorini aniqlang (yuridik shaxs hamda jismoniy shaxslar uchun).

To'lanadigan dividenddan 10 % daromad solig'i hisoblansin.

Zaxira fondiga o'tkaziladigan miqdorni hisoblang.

Quyidagi amallarni aks ettiring:

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summa m.s		
			debit	kredit
1	Aksiyadorlar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga dividend hisoblandi			
2	Dividendlar summasidan daromad solig'i hisoblandi			
3	Dividendlardan ushlab qolingan soliq summasi budjetga o'tkazildi			
4	Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash aks ettirildi			
5	Taqsimlanmagan foydaning qolgan qismi zaxira fondini shakllantirishga yo'naltirish aks ettirildi			

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobi bo'yicha operatsiyalar schyotlarda aks ettirilishi tartibini o'zlashtirish.

1-masala. Boshqa daromad va xarajatlar hisobi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish bo'yicha operatsiyalar schyotlarini aks ettirish.

Bir oy uchun xo‘jalik operatsiyalari

№	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Tovar mahsuloti savdosidan olingan foyda hisobdan chiqarilgan	150 000
2	Asosiy vositalar savdosidan olingan foyda chiqariladi	17 000
3	Nomoddiy aktivlar savdosidan foyda chiqariladi	20 000
4	Jarima, ustama, neustoykalar olingan	6000
5	Avval zararga chiqarilgan debitorlik qarzi olingan	15 000
6	Asosiy vositalar obyektini ijaraga berishdan mablag‘lar kirim qilingan	12 000
7	Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun neustoykalar to‘langan	8000
8	Qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizlar hisoblangan	11 000
9	Valuta bilan operatsiyalardan ijobiy kursdagi farqlar qiymati aks ettiriladi	5000
10	Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo‘yicha zararlar chiqariladi	8000
11	Tabiiy ofatlardan yo‘qotishlar chiqariladi: - materiallar - tayyor mahsulot - tabiiy ofatlar oqibatlarini tugatish bo‘yicha mehnat haqiga xarajatlar	9000 3000 2000
12	Boshqa korxonalarda ishbilarmonlik ishtiroklaridan olingan daromadlar aks ettiriladi	10 000
13	Yetishmovchilik va o‘g‘rilik bo‘yicha zararlar hisobdan chiqariladi	30 000
14	Salbiy turdagi farqlar aks ettiriladi	7000
15	Mulkni ijaraga topshirishdan daromadlar valuta schyotiga qabul qilingan	10 000
16	Foyda solig‘i hisoblangan	?
17	Boshqa daromad va xarajatlar hisobdan chiqariladi	?
18	Dekabr holatidagi yakuniy yozuvlar bilan moliyaviy natija hisobdan chiqariladi (balansni isloh qilishda)	?

2-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida buxgalteriya provodkalari bilan operatsiyalarni aks ettirish va moliyaviy natijani aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar

“Don” MCHJning 2020-yil mart holatidagi hisobida aks ettirish uchun buxgalter (hisobchi)ga quyidagi ma'lumotlar taqdim etildi:

1. “Nur” MCHJdan tara yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi uchun belgilangan 4500000 so'm miqdorida jarima sanksiyalari hisobraqamiga kelib tushgan.

2. Hisobraqamidan 2020-yilning birinchi choragida mahsulot yetkazib berilmaganligi uchun do'konga 250 000 so'm miqdorida jarima to'langan.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun soliq xizmati tomonidan akseptlanmagan tartibda inkassa topshiriqnomasiga ko'ra 57000 so'm miqdoridagi jarima undirilgan.

4. Savdodan foyda olingan – 1270 000 so'm.

5. 2020-yilning birinchi choragi uchun foyda solig'i 300 500 so'm miqdorida hisoblangan.

6. Do'kondan 2020-yilning 1-choragi uchun xona ijara to'lovi 160 000 so'm miqdorida kiritilgan.

3-masala. Tashkilot faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlash, buxgalteriya provodkalari (o'tkazma) qilish.

Tashkilot faoliyatining hisobot oyidagi natijalari quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

– mahsulot savdosidan 180 000 so'm miqdorida tushum olingan, shu jumladan QQS – 27 000 so'm;

– sotilgan mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar – 110 000 so'm, ulardan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari – 100 000 so'm.

– boshqaruv xarajatlari – 10 000 so'm;

Boshqa daromadlar olingan:

– oddiy o'rtoqlik shartnomasiga ko'ra – 15 000 so'm;

– xo'jalik shartnomalarini buzganlik uchun jarimalar – 5000 so'm;

Boshqa xarajatlar amalga oshirilgan:

– kredit uchun foizlar to'lash bo'yicha – 2500 so'm;

– bank xizmatlari – 1000 so'm;

– moliyaviy natijalar hisobiga to'langan soliqlar – 1500 so'm;

– yong‘inda yo‘q yilingan moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan zarar – 5000 so‘m;

Foyda solig‘i hisoblangan -?

4-masala. Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish jurnalida va buxgalteriya hisobi schyotlariga tashkilot faoliyatining boshqa turlaridan moliyaviy natijani shakllantirish bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini yozish. 2020-yil oktabr oyi holatidagi operatsiyalar

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, so‘m
1	To‘lov talabnomasi, schyot-faktura Taqqim etilgan to‘lov hujjatlari bo‘yicha xaridorlarga ortib berilgan mahsulotlar uchun qiymatlar boshqa daromadlar bilan tan olinadi: - asosiy vositalar - materiallar	65 000 51 920
2	Buxgalterning ma‘lumotnomasi Boshqa xarajatlar tarkibiga kiritilgan: - sotilgan materiallarning balans qiymati - sotilgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati	42 860 29 500
3	Schyot-faktura: Sotilganlar bo‘yicha QQS hisoblangan: - asosiy vositalar - materiallar	10 833 8653
4	Tahlil qilingan buyurtmani hisobdan chiqarish dalolatnomasi Tahlil qilingan buyurtmalar bo‘yicha boshqa xarajatlar sarfi tarkibiga kiritilgan	5200
5	Rahbar rezolyutsiyasi bilan buxgalter ma‘lumotnomasi Boshqa xarajatlar tarkibiga da‘vo qilingan muddat o‘tishi oqibatida undirilmaydigan debitorlik qarzlari tarkibiga kiritiladi va tan olinadi	700
6	Xarajatlarni guruhlashtirish qaydnomasi Boshqa xarajatlar tarkibiga konservatsiyalangan obyektlarni ta‘minlash bo‘yicha xarajatlar kiritiladi: - materiallar - ish haqi - yagona ijtimoiy soliq	1000 10 000 ?
7	Buxgalter ma‘lumotnomasi va rahbar qarori Boshqa xarajatlar tarkibiga materiallar yetishmasligi qiymati kiritiladi va tan olinadi, chunki aybdor topilmagan	12 000

8	Hisobraqamidan ko'chirma Daromadlar tarkibiga shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi uchun ta'minotchilardan jarima qiymati qo'shiladi, shu jumladan QQS	52 500
9	Hisobraqamidan ko'chirma Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga hissadan pul mablag'lari kirimi daromadlari bilan tan olingan	50 000
10	Amortizatsiyani hisoblash qaydnomasi Bepul olingan jihozlar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	3000
11	Buxgalterning hisob-kitobi Daromadlar tarkibiga bepul olingan jihozlar hisoblangan amortizatsiya qiymati kiritiladi	3000
12	Soliq deklaratsiyasi Tashkilot mulk solig'i hisoblangan	5200
13	Buxgalterning hisob-kitobi Oy oxirida boshqa daromad va xarajatlar hisobdan chiqariladi	

3-amaliy mashg'ulot

1-masala. Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida aksiyadorlik jamiyatining daromadlari bo'yicha ta'sischilar bilan hisob-kitoblarga ko'ra operatsiyalar schyotlarda aks ettiriladi.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

Xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiya mazmuni	Umumiy qiymati, ming so'm
1	Aksiyadorlik jamiyatining ta'sischilari qatoriga kiruvchi ishchilari daromadi hisoblangan	300 000
2	Aksiyadorlik jamiyatining ishchisi hisoblanmagan ta'sischilar daromadi hisoblangan	200 000
3	Ta'sis hujjatlariga ko'ra, ta'sischilarga tegishli daromadning bir qismi zaxira kapitali hisobiga o'tkazilgan	80 000
4	Hisobraqamidan kassadan ta'sischilarga hisoblangan daromadlar qiymati to'lash uchun naqd pul olingan	500 000
5	Ta'sischilarga hisoblangan daromadlar qiymatlari to'langan	500 00
6	Aksiyadorlik jamiyatining mahsuloti bilan daromadlar to'lanishi aks ettiriladi	100 000

2-masala. Dastlabki ma'lumotlar asosida buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish va foydani aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar

“nur” AJ bo'yicha bosh buxgalter tomonidan bir yil uchun yillik hisobot tuzishda moliyaviy natijalarni shakllantirishda quyidagi operatsiyalar aks ettirilgan:

1. 9000 schyoti bo'yicha kredit saldosi chiqarilgan – 1200000 so'm.

2. Hisobraqamiga o'tkazilgan qo'shma faoliyatda ishtirok etishdan daromad kirim qilingan – 2100 000 so'm.

3. Da'vo qilingan muddat tugagan kreditorlik qarzi hisobdan chiqarilgan – 120 000 so'm.

4. Inventarizatsiya davomida aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar kirim qilingan – 1180 000 so'm.

5. To'liq eskirgan asosiy vositalarni tugatishdan materiallar kirim qilingan 156000.

6. Shubhali qarzlar bo'yicha zaxira hisoblangan – 800 000 so'm.

7. Ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan – 160 000 so'm.

8. Belgilangan qonunchilik tartibida debitorlik qarzi hisobdan chiqarilgan – 1100 000 so'm.

9. Aybdor shaxslar topilmaganda tayyor mahsulotni o'g'irlashdan yo'qoishlar hisobdan chiqarilgan – 50 000 so'm.

10. Tovarlar inventarizatsiyasida aniqlangan qoldiqlar kirim qilingan – 200 000 so'm.

11. Inventarizatsiya natijalari bo'yicha tayyor mahsulot qoldig'i kirim qilingan – 170 000 so'm.

12. Mahsulot yetkazish bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun to'langan jarimalar aks ettirilgan – 30 000 so'm.

3-masala. Tashkilotning hisobot davrida tashkilot quyidagi daromadlarni olgan:

– nomoddiy aktivlar savdosidan tushum – 14 400 000 so'm (shu jumladan QQS);

– asosiy vositalar savdosidan tushum – 2400 000 so'm (shu jumladan QQS);

– aksiyadorlik jamiyatiga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar – 100 000 so'm;

– tashkilot ishchisiga taqdim etilgan qarz bo'yicha foizlar – 540 000 so'm.

Ushbu hisobot davrida tashkilot tomonidan quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

- da'vo qilingan muddat tugashi bilan ishonchsiz deb itorlik qarzi hisobdan chiqarilgan – 1600 000 so'm;
- tashkilot mulkiga soliq hisoblangan – 200 000so'm.

4-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: Tashkilotning boshqa faoliyat turlaridan moliyaviy natijani shakllantirish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish.

1-masala. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish jurnaliga va buxgalteriya hisobi schyotlarida boshqa faoliyat turlaridan moliyaviy natijani shakllantirish bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini yozish.

Dekabr oyi uchun operatsiyalar

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Buxgalterning hisob-kitobi Mablag'lar zaxiralarida: - moddiy qimmatliklar qiymatini qisqartirish ostida - qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar qadrsizlanishi ostida - shubhali qarzlari ostida	3000 5000 6000
2	Buxgalterning hisob-kitobi Daromadlar tarkibiga obligatsiyalar sotuv qiymati va ularning nominal qiymati o'rtasidagi farq	4000
3	Buxgalterning hisob-kitobi Ajratmalarni o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Pensiya jamg'armasiga ustama hisoblangan	1300
4	Xarajat kassa orderi Korxona ishchilariga moddiy yordam hisoblangan va berilgan	15 000
5	Hisobraqamidan ko'chirma Hisobraqamidan o'tkazilgan: - ishchilarning ovqatlanishiga xarajatlar qoplanishi - profilaktoriyaga tushgan yo'llanmalar uchun	44 000 12 00

6	Ishchilarga korxona mablag'lari hisobidan yo'llanmalar qiymati qoplangan	12 000
7	Buxgalterning hisob-kitobi, qarz va kredit shartnomalari Foizlar hisoblangan: A.N. Salimovdan qarz bo'yicha joriy faoliyatga bankning qisqa muddatli krediti bo'yicha materiallar xaridiga	8000 1500
8	Hisobraqamidan ko'chirma Shartnoma narxi bo'yicha hisobga olingan o'tkazma veksellar uchun pul mablag'lari kelib tushgan	36 000
9	Buxgalterning hisob-kitobi Obligatsiyalar emissiyasi prospektini ro'yxatga olishda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarga soliq hisoblangan	10 000
10	Schyot-faktura va hisobraqamidan ko'chirma Obligatsiyalar blanklarini tayyorlash bo'yicha ishlarga haq to'langan, shu jumladan QQS Obligatsiyalarni tarqatganlik uchun brokerlik firmasi xizmat haqi to'langan, shu jumladan QQS	11 800 6000
11	Buxgalterning hisob-kitobi Boshqa daromad va xarajatlari hisobdan chiqariladi	?

2-masala. Yil yakunlariga ko'ra tashkilot tomonidan 13000 000 so'm miqdorida (soliqqa tortilgandan so'ng) sof foyda olingan. Hisobot yilidan keyingi yilda aksionerlar yig'ilishining qaroriga ko'ra, foydaning 5 %i zaxira kapitalni hosil qilishga yo'naltirilgan, foydaning qolgan qismi korxona ishchilariga dividendlar to'lashga (60 %) va tashkilot ishchisi hisoblanmagan aksiyadorlarga (40 %).

Buxgalteriya o'tkazmalarini bering.

3-masala. Korxona imtiyozlardan foydalanish natijasida bo'shagan 1800 ming so'mlik mablag'ni joriy oyda xodimlarga mukofot to'lashga ishlatadi, mukofotlar bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov 320 ming so'mni tashkil qildi. Shuningdek, ishlab chiqarish maydonlarining qisqa muddatli ijarasi uchun haq to'lanadi, ijara haqi summasi – 700 ming so'm.

Buxgalteriya o'tkazmalarini bering.

4-masala.

Rahbar tomonidan tasdiqlangan ta'mirlash ishlarining smetasi va jadvallariga muvofiq korxona 720 ming so'm zaxira qilib qo'ydi.

Asosiy vositalarni ta'mirlash ishlab chiqarish jarayonida to'xtovsiz bosqichma-bosqich o'tkazildi. Ishning birinchi bosqichi pudratchi tomonidan II chorak oxirida 408 ming so'm summada bajarildi, shu jumladan QQS-15 %. Ikkinchi bosqich bo'yicha ishlar pudratchi tomonidan IV chorak oxirida 330 ming so'm summada topshirildi, shu jumladan QQS-15 %. 95 ming so'mlik yakuniy ishlar korxonaning yordamchi ishlab chiqarish tomonidan keyingi yilning boshida bajarildi.

Buxgalteriya o'tkazmalarini bering.

TEST SAVOLLARI

1. Korxona ustav kapitali shakllantirilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a.	b.	c.	d.
Debit	4610	5110	4610	4210
Kredit	8300	8300	5010	5010

2. Nominal qiymati 1000 so'mlik bo'lgan aksiya 1200 so'mdan sotilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a.	b.	c.	d.
Debit	4610	5110	4610	4210
Kredit	8300	4610	5110	8410
Kredit	8510	8410	8410	5110

3. Taqsimlanmagan foyda hisobidan zaxiraga ajratma ajratilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a.	b.	c.	d.
Debit	8510	8710	8520	5110
Kredit	8710	8520	8810	8520

4. YAlpi foyda qanday aniqlanadi.?

- a) $YAF = SST - IT$
- b) $YAF = SST - DX + MD$
- v) $YAF = DX + MX - MD$
- g) $YAF = STF + UF - FF$

5. Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromad yakuniy moliyaviy natijalarga o'tkazilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

	a.	b.	c.	d.
Debit	9910	9010	9010	9010
Kredit	9010	4010	9910	8510

Tayanch iboralar: ustav kapitali, qimmatli qog‘ozlar, aksiyalarning nominal qiymati, qo‘shilgan va zaxira kapitallari, emissiya daromadi, mulkni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar, maqsadli tushumlar, grantlar, moliyaviy natijalar, yalpi foyda, asosiy faoliyatdan olingan foyda, sof foyda.

O‘z o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Ustav kapitali deb nimaga aytiladi?
2. Qo‘shilgan kapital qanday shakllantiriladi?
3. Taqsimlanmagan foyda qanday aniqlanadi?
4. Moliyaviy natijalar, ularning mohiyati, turkumlanishi va yo‘nalishini tasniflang.
2. Daromadlar va xarajatlarni tan olish va ularning tarkibini tushuntiring.
3. Sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatning tannarhini hisobga olishni tushuntiring.
4. Yalpi foyda tarkibini aniqlang.
5. Sof foyda hisobini tushuntirib bering.

10-MAVZU. SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBI

Soliqlarning mohiyati va ahamiyati

Soliqlar jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari hamda mulklaridan ma'lum (qonunda belgilangan) bir qismini davlatning moliyaviy imkoniyatini ta'minlash maqsadida majburiylik, qaytarmaslik, davlat majburiyatlar qo'llash asosida budjetga o'tkazishning birdan-bir qonuniy usulidir.

Soliqlar milliy daromadni davlat tasarrufiga olishning eng muhim vositasiga aylangani sababli, ular makroiqtisodiyotni tartibga solishda borgan sari muhimroq rol o'ynamoqdaki, YAMM umumiy hajmida soliq tushumlari salmog'ining ko'payishi buning ko'rsatkichi hisoblanadi.

Soliqlarni tasniflash soliqlarni muayyan harakterli belgilari, ya'ni ularni undirish usullari, qo'llaniladigan stavkalar turi, soliq imtiyozlari va hokazolar bo'yicha guruhlashdir. Soliqlarni turlari bo'yicha tasniflashga bir necha belgilar asos qilib olingan. Xalqaro amaliyotda ikkita asosiy tasnif guruhlari qabul qilingan: *bevosita* va *bilvosita* soliqlar. Ushbu guruhlar soliq solish obyektiga va to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq.

Bevosita soliqlar bevosita daromad va mol-mulkka belgilanadi (soliqqa tortishning bevosita shakli), ya'ni bevosita soliqlarning uzil-kesil to'lovchisi daromad oluvchi (mol-mulkka egalik qiluvchi va h.k.) xo'jalik subyekti hisoblanadi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va boshqalar) va mol-mulki (yerlar, uylar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar) qiymati bevosita soliqlar obyektidir.

Bilvosita soliqlar – narx yoki tarifga ustama ko'rinishida belgilanadigan, tovar va xizmatlardan olinadigan soliqlar. Bilvosita soliqlarga tovarni sotish narxida to'lanadigan yoki tarifga kiritilgan tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar kiradi, ya'ni bilvosita soliqlarning pirovard to'lovchisi bo'lib tovar iste'molchisi maydonga

chiqadi, uning zimmasiga soliq narxda ko'zda tutilgan ustamalar orqali yuklanadi. Mazkur holda korxonalar o'zlari ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni sotib, soliq summolari hisobga olingan pul summalarini oladilar, so'ngra olingan barcha soliq summalarini tegishli tartibda budjetga o'tkazadilar.

Bilvosita soliq solishda davlat amalda yangi qiymatni taqsimlash ishtirokchisiga aylanib, tovar yoki xizmatlarni sotish paytida ushbu qiymatning bir qismiga bo'lgan o'z huquqlarini e'lon qiladi.

Bevosita soliqlardan farq qilib, bilvosita soliqlar bevosita to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bog'lanmaydi. Odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek, aholiga sataroshxonalarda, kimyoviy tozalash shoxobchalarida, avtotransport korxonalari tomonidan va hokazo ko'rsatilgan xizmatlar soliq solish obyekti hisoblanadi. Bilvosita soliqlarga tortiladigan tovar va xizmatlar soni muntazam ravishda oshib boradi.

Bevosita soliqlar salmog'ining kamayishi korxonalarning moddiy-texnika bazasini kengaytirishga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga olib keladigan bo'lsa, bilvosita soliqlar salmog'ining ko'tarilishi korxonalarda investitsion faoliyatni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Soliqlar majburiy to'lov bo'lib, qonun asosida undiriladi. Demak, soliqlarda, moliyada bo'lgani singari doimiy qaytarilib turadigan moliyaviy voqeliklar, aniqrog'i pul munosabatlari bo'ladi. Ana shu pul munosabatlarining mazmunini ochish orqali soliqlar mohiyati ochiladi.

Umumdavlat va mahalliy budjetlarga to'lanadigan soliqlarning asosiy qismi yuridik shaxslar zimmasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga davlat maqsadli fondlariga to'lanadigan majburiy to'lovlarning ham kattagina qismini yuridik shaxslar to'laydi. Yuridik shaxslar tomonidan soliqlar va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi, avvalo, ularda soliq hisobining qay darajada yuritilishiga bog'liq. Soliq hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritishda hisobning

asosiy vazifalari belgilab olinadi. Soliq hisobining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- yuridik shaxslar tomonidan soliqlar hamda majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisoblash;
- hisoblangan soliq va majburiy to‘lovlarni davlat budjeti hamda davlatning maqsadli fondlariga o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash;
- soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha belgilangan imtiyozlardan keng foydalanish.

Daromad (foyda) solig‘iga tortiladigan bazani aniqlash

Respublikamizda mavjud soliq tizimi buxgalteriya tizimiga to‘la-to‘kis mos kelmaydi. Shu sababdan ham soliqqa tortiladigan bazani aniqlashga ehtiyoj tug‘iladi.

1999-yil 5-fevralda “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib tasdiqlandi. Ushbu Nizom buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishda xarajatlarni hisobga olishda paydo bo‘ladigan farqlarni ajratish maqsadida ishlab chiqilgan. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarni aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad xo‘jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo‘li bilan aniqlanadi.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomga binoan soliqqa tortiladigan baza quyidagicha aniqlanadi:

Soliqqa tortiladigan baza = Soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda / Doimiy tafovutlar (1-ilova) ± Vaqtinchalik tafovutlar (2-ilova).

Doimiy tafovutlar Nizomning 1-ilovasida keltirib o‘tilgan. 1-ilova bo‘yicha (davr xarajatlari bo‘yicha) soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar quyidagilardan iborat:

- reklama va marketing uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar;
- xizmat yengil transporti va xizmat mikroavtobusini saqlashda sarflanadigan xarajatlar, ularni yollash va ijaraga olish xarajatlari;
- shaharlararo va xalqaro telefon so‘zlashuvlar uchun belgilangan normativlardan ortiqcha to‘lov;

- yuqori organlar hamda yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqa xarajatlarga ajratmalar;
- boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlari;
- qonunchilikda belgilangan normativ va normalardan ortiqcha vakillik xarajatlari;
- umumiy ovqatlanish korxonalari uchun bepul binolar berish xarajatlari, ularga kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash va boshqalar;
- ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan, atrof muhitni ifloslantiruvchi moddalarni ortiqcha tashlanganlik uchun yo'l qo'yiladigan normalardan ortiqcha to'lovlar.

Soliq tortiladigan obyekt deb, yalpi daromad bilan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq ko'rsatilgan Nizomning ilovalarida belgilangan xarajatlarning summasiga o'zgartirilgan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqilgan daromad (foyda) hisoblanadi.

Jami daromad tarkibiga yuklab jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo'lgan (olingan) yoki u tekinga olgan pul yoki boshqa mablag'lar kiradi.

Bunday daromadlar quyidagilardir:

a) tovar (ish, xizmat)larni sotishdan olingan daromad; tovar (ish, xizmat)larni sotishdan olingan tushum deganda quyidagi summalar tushuniladi:

- ♦ yuklab jo'natilgan mahsulot uchun taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlarida ko'rsatilgan summalar;
- ♦ buyurtmachi tasdiqlagan bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ko'rsatilgan summalar;
- ♦ xizmatlar ko'rsatilishi haqidagi dalilni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan summalar.

Daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar hisoblanadigan xarid, tayyorlov va savdo tashkilotlari uchun soliqqa tortish maqsadlarida sotishdan olingan tushum deganda, sotilgan tovarlarning sotish narxi bilan xarid narxi o'rtasidagi farq tushuniladi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar (komission rag‘batlantirishlar, foizlar sifatidagi) oladigan korxonalar uchun tushum deganda, soliqqa tortiladigan davrda amalga oshirilgan barcha bitimlar bo‘yicha olingan komission rag‘batlantirish haq (foiz)lar summasi tushuniladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi

Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) tovarlarni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yangi hosil qilingan qiymatga asoslangan holda sof daromadning bir qismini budjet daromadiga olib qo‘yishning bir shaklidir.

Soliq to‘lovchilar mulkchilikning barcha shakllariga kiruvchi mustaqil balans va hisob-kitob schyotiga ega, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona, tashkilot va ularning mustaqil bo‘linmalaridir.

Tovar (ish, xizmat)larning sotilishiga doir aylanmalar, ya’ni yuklab jo‘natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan aylanma hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 % miqdorida belgilangan.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Sqks = Stob \times SS/100$$

bunda: Sqqs — iste’molchilardan undiriladigan soliq summasi;

STob — soliqqa tortiladigan aylanma; SS — qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi. Tovar (ish, xizmat)lar qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga olgan narxlar va tariflar bo‘yicha sotilganida — soliq quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Tq \times SS/(SSq100)$$

bunda: Tq — qo‘shilgan qiymat solig‘i ham hisobga olingan tovar (ish, xizmat)lar qiymati.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovar (ish, xizmat)larni sotadigan korxonalar erkin (shartnomaviy) narx va tarifga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qo‘shmaydilar.

Yagona soliq to‘lovchi kichik korxonalar, shuningdek, yalpi daromad solig‘ini to‘lovchi ulgurji savdo korxonalariga ham shunga o‘xshash tartib tegishli.

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i sotilgan tovar (bajarilgan ish, xizmat)lar uchun hisoblangan qo‘shilgan

qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga kiritiladigan tovar (ish, xizmat)lar uchun to'lanishi lozim (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

Misol: Korxona mol yetkazib beruvchilarga materiallar sotib olgani uchun qo'shilgan qiymat solig'ini 1700 ming so'm qiymatida to'ladi, bu avval 4410—"Soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" hisobvarag'ida aks ettiriladi, hisobot davri oxirida ushbu summa 6410—"Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik" hisobvarag'ining debitida ko'rsatiladi.

Bu qiymatga quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

□ material sotib olinganidagi QQS summasi – 1700 ming so'm:

Dt 4410 – "Soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" – 1700 ming so'm;

Kt 6010—"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" — 1700 ming so'm;

– hisobot davri oxirida QQS summasi 6410—hisobvaraq debitiga o'tkazildi — 1700 ming so'm:

Dt 6410 – "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik" – 1700 ming so'm;

Kt 4410 – "Soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" – 1700 ming so'm.

Bu materiallardan shu oyda tayyor mahsulot ishlab chiqarildi: Uning qiymati – 30000 ming so'm; SHu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i: $30000 \times 15\% : 100 = 4500$ ming so'm;

QQS bilan birga umumiy daromad 36000 so'mni tashkil etdi. Bunda quyidagi provodkalar beriladi:

Sotilgan mahsulot qiymatiga:

Dt 4010 – "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" — 30000 ming so'm.

Kt 9010—"Realizatsiya" hisobvarag'i — 30000 ming so'm;

Qo'shilgan qiymat solig'iga:

Dt 4010—"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" hisobvarag'i — 4500 ming so'm;

Kt 6410—"Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik" hisobvarag'i — 4500 ming so'm.

Shu oyda budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini aniqlash uchun xaridorlardan olingan qo'shilgan qiymat solig'i va mol

yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i, ya’ni 6410-hisobvaraqlarning krediti bilan debiti solishtirilib aniqlanadi.

Budjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i quyidagicha hisoblanadi: $4500 - 1700 = 2800$ ming so‘m.

Bu soliq budjetga o‘tkazilganda:

Dt 6410-“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik” hisobvarag‘i - 2800 ming so‘m;

Kt 5110-“Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘i — 2800 ming so‘m.

Qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan va tortilmaydigan sotuvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalar ushbu tovar (ish, xizmat)larni oladigan shaxsga hisobvaraqlar fakturani taqdim etish shart.

Bunda mazkur korxonalar schyot-fakturada qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ko‘rsatishmaydi va “qo‘shilgan qiymat solig‘isiz” degan belgili muhr qo‘yadi (yoki yozuvni yozadi).

Korxonalar qo‘shilgan solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarni tasdiqlangan shakl bo‘yicha o‘sib boruvchi yakun bilan soliq yuzasidan ro‘yxatdan o‘tgan joydagi davlat soliq xizmati idoralariga har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo‘yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida taqdim etadi.

Aksiz solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi

Aksiz solig‘i sof daromad narxida va qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, bilvosita soliq sifatida budjetga to‘lanadigan soliqdir.

Aksiz solig‘i olinadigan tovarlar ro‘yxati va soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tabaqalangan holda belgilanadi. Vazirlar Maxkamasi soliq stavkalari va aksiz solig‘i solinadigan tovarlar ro‘yxatini qaytadan ko‘rib chiqib, joriy etish huquqiga ega. Aksiz solig‘i solinadigan tovarning naturada haq to‘lash sifatida yoki bepul berilishi ham soliqqa tortiladigan obyekt hisoblanadi. Bunda soliq to‘lovchida tovarni berish paytida qaror topgan, lekin bunday aksiz solig‘i solinadigan tovarning ishlab chiqarilishiga doir amalda tarkib topgan xarajatlardan past bo‘lmagan narxlar darajasida hisoblab chiqilgan qiymat soliqqa tortish obyekti hisoblanadi.

Aksiz solig‘i summasi quyidagi formulaga binoan belgilanadi:

$(O \times A) / 100,$

bunda: O – aksiz solig‘i summasini o‘z ichiga oladigan, QQSiz shartnomaviy (erkin) narx; A – aksiz solig‘i stavkasi.

Aksiz markalari yopishtirilgan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i umumiy belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi. Bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig‘ini to‘lash hisobiga hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobi haqidagi qonunlarga muvofiq berilgan xomashyo mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan balansdan tashqarida hisobga olinadi.

Berilgan xomashyodan ishlab chiqariladigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘ini hisoblashda aksiz solig‘i solinadigan mahsulot sotilishiga doir aylanma bunday tovarlarni ishlab chiqarishga oid ishlar qiymati va berilgan xomashyo qiymati asosida belgilanadi.

Misol: Televizor ishlab chiqarish korxonasida ishlab chiqarilgan televizorlarning sotilish narxi 1000000 so‘m. Aksiz solig‘i stavkasi 15 %. Demak, soliq – 150000 so‘m ($1000000 \times 15\% : 100$). Televizorlarning sotilish narxi 1150000 so‘m = $(1000000 + 150000)$. Televizorlarning sotilish qiymatiga:

Dt 4010-“Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘i – 1000000 so‘m;

Kt 9010-“Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar” hisobvarag‘i – 1000000 so‘m.

Aksiz solig‘i qiymatiga:

Dt – 4010-“Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘i – 150000 so‘m

Kt 6410-“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik” hisobvarag‘i – 150000 so‘m.

Aksiz solig‘i budjetga o‘tkazilganda:

Dt 6410-“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik” hisobvarag‘i – 150000 so‘m.

Dt 5110-“Hisobkitob schyoti” hisobvarag‘i – 150000 so‘m.

1-amaliy mashg‘ulot

Darsning maqsadi: Byudjetga to‘lanadigan soliqlar hisobini o‘rganish.

1-masala. Umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi qurilish korxonasi qurilish materiallarini sotib oladi. Materiallarni yetkazib beruvchiga 60 000 ming so‘m to‘landi, shu jumladan QQS -10 000 ming so‘m. Qurilish materiallarini korxona bazasiga yetkazib berish bo‘yicha transport

tashkilotlarining xizmatlari 1200 ming so‘mni tashkil qildi, shu jumladan QQS-200 ming so‘m. Bundan tashqari, korxona o‘rmonni arralash bo‘yicha 600 ming so‘m summadagi xarajatlarni amalga oshirdi.

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Summa, m.s	Debit	Kredit
1	Qurilish matetiallarini xarid qilish aks ettirildi			
2	Materiallarning transport tashkiloti tomonidan yetkazib berilishi bo‘yicha xarajatlar aks ettirildi			
3	Arralash xarajatlari materiallar qiymatiga qo‘shildi			
4	QQS hisobga olindi			

2-masala

Korxonaning yalpi foydasi – 15900 ming so‘m, davr xarajatlari – 2650 ming so‘m, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari – 1500 ming so‘m, moliyaviy faoliyatdan daromadlar 3200 ming so‘m, moliyaviy faoliyatdan xarajatlar 1000 ming so‘m, favqulodda foyda – 250 ming so‘m, auditorlik tekshiruvidan o‘tkazganligi uchun xarajatlar – 520 ming so‘mni tashkil qilgan.

Korxona hisobot davrida 500 ming so‘m me‘yoridan ortiq elektr energiyasi, 560 ming so‘m ortiqcha reklama xarajati, asosiy vositalarning amortizatsiyasi bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli usul bo‘yicha 1200 ming so‘m, yillar yig‘indisi usuli bo‘yicha 1260 ming so‘m xarajat qilgan qilgan. Daromad solig‘i – 12 foiz.

Aniqlang.

1. Soliq to‘langunga qadar foydani.
2. Soliqqa tortiladigan bazani.
3. Sof foydani.

3-masala

2020-yil 1-chorak AJ «YULDUZ» korxonasi asosiy faoliyati bo‘yicha quyidagi moliyaviy-xo‘jalik muomalalarini amalga oshirgan:

№	Xo‘jalik muomalalari mazmuni	Summasi			De- bit	Kre- dit
		Yanvar	Fevral	Mart		
1	Mol yetkazib beruvchilardan xomashyo va materiallar olindi QQS summasi	6000,0	6000,0	4000,0		
		?	?	?		
2	Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xomashyo va materiallar hisobdan chiqarildi	2420,0	2220,0	2620,0		
3	Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga ish haqi hisoblandi	1880,0	1840,0	2200,0		
4	Asosiy ishlab chiqarishda foydalanayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi	1200,0	1200,0	1200,0		
5	Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot omborga kirim qilindi	11822,0	12200,0	14200,0		
6	Yordamchi ishlab chiqarishga ketgan materiallar hisobdan chiqarildi	1490,0	1480,0	1500,0		
7	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga ish haqi hisoblandi	8400,0	8600,0	8800,0		

8	Yordamchi ishlab chiqarishda foydalanayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi	860,0	860,0	860,0		
9	Ijara xarajatlari uchun pul mablagʻlari toʻlandi	2000,0	2000,0	2000,0		
	QQS summasi	?	?	?		
10	Tayyor mahsulotni (QQS, aksizlardan tashqari) sotishdan olingan daromad *	84800,0	74500,0	85500,0		
	QQS summasiga	?	?	?		
11	Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi	15286,0	18056,0	22000,0		
12	Asosiy vosita (presstanok) sotishdan tushgan tushum	-	-	5600,0		
	Asosiy vosita (presstanok) sotishda hisoblangan QQS	-	-	?	?	?
13	Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar	-	-	450,0		
14	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovarlar kirim qilindi	-	-	1000,0		
15	Tovarlarni joʻnatish boʻyicha transport xarajatlari	1238,0	1482,0	2420,0		
	QQS summasi	247,6	296,4	?	?	?
16	Savdo reklamasi xarajatlari toʻlandi	620,0	620,0	620,0		
	QQS summasi	124,0	124,0	?	?	?

17	Boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari	2500,0	2840,0	2886,0		
18	Shaxsiy Lacetti avtomobilidan foydalanganlik uchun kompensatsiyani to'landi	-	-	550,0		
19	O'z hisobidan bolalar bog'chasini ushlab turish xarajatlari	480,0	460,0	480,0		
20	Ma'muriy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vositalarning eskirish xarajatlari	354,0	354,0	352,0		
21	Xizmat yengil avtotransportiga ketgan xarajatlari	140,0	150,0	160,0		
22	Boshqaruv xodimlarining xizmat safari xarajatlari	290,0	-	300,0		
	Mehmonxona xarajati QQS summasi	40,0	-	?	?	?
23	Elektrenergiyasi xizmati haqi to'landi	200,0	260,0	280,0		
	QQS summasi	40,0	52,0	?	?	?
24	Vakillik xarajatlari	100,0	120,0	140,0		
25	Norma axborot xizmatiga haqi to'landi	120,0	120,0	120,0		
	QQS summasi	24,0	24,0	?	?	?

26	ATS xarajatlari to'landi QQS summasi	200,0	260,0	280,0		
		40,0	52,0	?	?	?
27	Soliq organlarining qaroriga asosan jarima to'lovi to'landi	240,0	120,0	180,0		
28	Bank xizmati uchun to'lovlar to'landi	400,0	280,0	250,0		
29	Viloyat bolalar sportiga homiylik puli to'landi	150,0	120,0	140,0		
30	«Iste'dod» jamg'armasiga homiylik yordam puli to'landi	100,0	80,0	120,0		
31	Moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar	-	-	77,0		
32	Korxona ishchilari pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'la to'lanadigan nafaqalar	450,0	850,0	940,0		
33	Bayram sanalari va muhim sanalar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar	80,0	72,0	86,0		

34	Atrof-muhitni ifloslantir-ganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlari	40,0	52,0	56,0		
35	Sanatoriya xarajatlari	750,0	840,0	480,0		
36	Obodonlashtirish ishlari bajarishga sarflangan xarajatlar	240,0	170,0	180,0		
37	Sud xarajatlari to'landi	150,0	140,0	80,0		
38	Aybdori aniqlanmagan kamomaddan ko'rilgan zarar	50,0	-	84,0		
39	Ishchilarning vaqtinchalik layoqatsizligi uchun to'lovlar	-	742,0	274,0		
40	Bola tug'ilishi bilan to'lanadigan nafaqa xarajatlari	-	-	250,0		
41	Yer solig'i hisoblandi va to'landi	-	-			
42	Mol-mulk solig'i hisoblandi va to'landi	1220,0	1220,0			
43	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblandi	-	-			

44	Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda	265,0	484,0	596,0		
45	Boshqa korxonalarda ulushli qatnashishdan olingan daromadlar	220,0	140,0	160,0		
46	Boshqa korxonalarning shartnoma shartlarini buzganligidan foizlar shaklidagi daromadlar	55,0	128,0	240,0		
47	Kelgusida chegiriladigan xarajatlari***	-	-	300,0		
48	Balansning valuta moddalarini qayta baholashdan salbiy kurs farqlari	215,0	65,0	68,0		
49	Shartnoma shartlarini buzganlik uchun jarima summasi	110,0	-	86,0		
50	Valuta kursi farqidan ko'rilgan zararlar	48,2	68,2	22,0		
51	Foyda solig'i hisoblandi	384,0	856,0			
52	Korxonaning sof foydasi					

*Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadning 25 foizi eksportdan olingan sof tushumni tashkil qiladi.

** Plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi – 50000.0 ming so'm.

***Mahalliy lashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum – 90000.0 ming so'm.

**** Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari.

Korxonaning mahsulotlar yangi turini o'zlashtirish bo'yicha xarajatlari hisobot davrida 300 ming so'mni, shu jumladan mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar va yagona ijtimoiy to'lov 120 ming so'mni, amortizatsiya xarajatlari 28 ming so'mni, elektr energiyasi va materiallar bo'yicha xarajatlar 152 ming so'mni tashkil etdi.

Topshiriq

1. Buxgalteriya o'tkazmalarini bering.
2. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlang.
3. Korxona sof foydasini aniqlang.

2-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsad: Foyda solig'i hisobini o'rganish.

1-masala. AJ «YULDUZ» korxonasining 2020-yil 1-chorak uchun taxmin qilinayotgan foydasi 2854,0 so'mni tashkil etadi.

Korxona foydasi hisobidan quyidagi dividendlar hisoblangan:

Jismoniy shaxslarga – 855,0 m. so'm,

Yuridik shaxslarga – 2265,0 m. so'm .

Korxonaning mahsulotlar yangi turini o'zlashtirish bo'yicha xarajatlari hisobot davrida 300 ming so'mni, shu jumladan mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar va yagona ijtimoiy to'lov 120 ming so'mni, amortizatsiya xarajatlari 28 ming so'mni, elektr energiyasi va materiallar bo'yicha xarajatlar 152 ming so'mni tashkil etdi. 2015-yilda qiymati 1 007 120 000 so'm bo'lgan yangi texnologik uskuna sotib olindi va foydalanila boshlandi. O'sha soliq davrida hisoblangan amortizatsiya summasi 136 493 978 so'mni, soliq solinadigan foyda esa 1 955 875 000 so'mni tashkil qildi.

Foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza uskunadan foydalana boshlangan paytdan boshlab 5 yil mobaynida kamaytiriladi. Texnologik uskuna 2015-yilda xarid qilingan va foydalana boshlanganligi uchun korxona ko'rsatilgan imtiyozlarni 2015-yildan boshlab qo'llanilgan.

Topshiriq

1. Taxmin qilinayotgan foydadan kelib chiqqan holda budgetga soliqning joriy to'lovlari to'g'risida ma'lumotnomani to'ldiring.

2. Jadval ma'lumotlaridan korxonaning 2020-yil 1-chorak uchun foyda solig'i hisob-kitobini hisoblang.

3. Hisoblangan soliq summasiga ikki yoqlama yozuvlarni (buxgalteriya o'tkazmalarini) bering.

4. Yuqoridagi ma'lumlardan foydalanib, jamiyatning 2020-yil 1-chorak bo'yicha yuridik shaxslarga dividendlar va foizlar solig'ini hisoblab chiqaring.

Hisoblangan soliq summasiga ikki yoqlama yozuvlarni (buxgalteriya o'tkazmalarini) bering.

№	Xo'jalik muomalalari mazmuni	Summa	Debit	Kredit
1	Foyda solig'i bo'naklangan to'lovlar summasi to'landi			
2	Dividendlar va foizlar solig'ining hisoblangan soliq summasiga			
3	To'langan foyda solig'i hisobga olindi			
4	Hisobot oyi uchun foyda solig'i hisoblandi			
5	Foyda solig'i budjetga to'landi			

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisobi

2-masala

Korxonaning 2020-yil yanvar-fevral oylaridagi to'lagan QQS solig'i 425,0 ming so'm tashkil etdi.

2020-yil 1-chorak AJ «YULDUZ» korxonasi asosiy faoliyati bo'yicha quyidagi moliyaviy-xo'jalik muomalalarini amalga oshirgan:

№	Ho‘jalik muomalalari mazmuni	Summasi			Debit	Kredit
		Yanvar	Fevral	Mart		
1	Mol yetkazib beruvchilardan xomashyo va materiallar olindi QQS summasi	6000,0	6000,0	4000,0		
		1200,0	1200,0	800,0		
2	Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xomashyo va materiallar hisobdan chiqarildi	2420,0	2220,0	2620,0		
3	Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga ish haqi hisoblandi	1880,0	1840,0	2200,0		
4	Asosiy ishlab chiqarishda foydalanayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi	1200,0	1200,0	1200,0		
5	Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot omborga kirim qilindi	11822,0	12200,0	14200,0		
6	Yordamchi ishlab chiqarishga ketgan materiallar hisobdan chiqarildi	1490,0	1480,0	1500,0		
7	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga ish haqi hisoblandi	8400,0	8600,0	8800,0		

8	Yordamchi ishlab chiqarishda foydalanayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi	860,0	860,0	860,0		
9	Ijara xarajatlari uchun pul mablagʻlari toʻlandi	2000,0	2000,0	2000,0		
	QQS summasi	400,0	400,0	400,0		
10	Tayyor mahsulotni (QQS, aksizlardan tashqari) sotishdan olingan daromad *	84800,0	74500,0	85500,0		
	QQS summasiga					
11	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi	15286,0	18056,0	22000,0		
12	Asosiy vosita (presstanok) sotishdan tushgan tushum	-	-	5600,0		
	Asosiy vosita (presstanok) sotishda hisoblangan QQS	-	-	1120,0		
13	Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar	-	-	450,0		
14	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovarlar kirim qilindi	-	-	1000,0		

15	Tovarlarni jo‘natish bo‘yicha transport xarajatlari	1238,0	1482,0	2420,0		
	QQS summasi	247,6	296,4	484,0		
16	Savdo reklamasi xarajatlari to‘landi	620,0	620,0	620,0		
	QQS summasi	124,0	124,0	124,0		
17	Boshqaruv xodimlariga tegishli bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari	2500,0	2840,0	2886,0		
18	Shaxsiy Lacetti avtomobilidan foydalanganlik uchun kompensatsiyani to‘landi	-	-	550,0		
19	O‘z hisobidan bolalar bog‘chasini ushlab turish xarajatlari	480,0	460,0	480,0		
20	Ma‘muriy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy vositalarning eskirish xarajatlari	354,0	354,0	352,0		
21	Xizmat yengil avtotransportiga ketgan xarajatlari	140,0	150,0	160,0		
22	Boshqaruv xodimlarining xizmat safari xarajatlari	290,0	-	300,0		
	Mehmonxona xarajati QQS summasi	40,0	-	50,0		

23	Elektr energiyasi xizmati haqi to'landi QQS summasi	200,0	260,0	280,0		
		40,0	52,0	56,0		
24	Vakillik xarajatlari	100,0	120,0	140,0		
25	Norma axborot xizmatiga haqi to'landi QQS summasi	120,0	120,0	120,0		
		24,0	24,0	24,0		
26	ATS xarajatlari to'landi QQS summasi	200,0	260,0	280,0		
		40,0	52,0	56,0		
27	Soliq organlarining qaroriga asosan jarima to'lovi to'landi	240,0	120,0	180,0		
28	Bank xizmati uchun to'lovlar to'landi	400,0	280,0	250,0		
29	Viloyat bolalar sportiga homiylik puli to'landi	150,0	120,0	140,0		
30	«Iste'dod» jamg'armasiga homiylik yordam puli to'landi	100,0	80,0	120,0		
31	Moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar	-	-	77,0		

32	Korxona ishchilari pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqalar	450,0	850,0	940,0		
33	Bayram sanalari va muhim sanalar munosabati bilan xodimlarni rag‘batlantirish hisoblanadigan bir yo‘la mukofotlar	80,0	72,0	86,0		
34	Atrof-muhitni ifloslantir-ganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun normalardan ortiqcha bo‘lganligi uchun kompensatsiya to‘lovlari	40,0	52,0	56,0		
35	Sanatoriya xarajatlari	750,0	840,0	480,0		
36	Obodonlashtirish ishlarini bajarishga sarflangan xarajatlar	240,0	170,0	180,0		
37	Sud xarajatlari to‘landi	150,0	140,0	80,0		
38	Aybdori aniqlanmagan kamomaddan ko‘rilgan zarar	50,0	-	84,0		

39	Ishchilarning vaqtinchalik layoqatsizligi uchun to'lovlar	-	742,0	274,0		
40	Bola tug'ilishi bilan to'lanadigan nafaqa xarajatlari	-	-	250,0		
41	Yer solig'i hisoblandi va to'landi	-	-			
42	Mol-mulk solig'i hisoblandi va to'landi	1220,0	1220,0			
43	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblandi	-	-			
44	Davlat yo'l fondiga to'lov hisoblandi va to'landi	82,0	80,0			
45	Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi jamg'armasiga to'lov hisoblandi	46,0	48,0			
46	Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda	265,0	484,0	596,0		

47	Boshqa korxonalarda ulushli qatnashishdan olingan daromadlar	220,0	140,0	160,0		
48	Boshqa korxonalarining shartnoma shartlarini buzganligidan foizlar shaklidagi daromadlar	55,0	128,0	240,0		
49	Kelgusida chegiriladigan xarajatlari***	-	-	300,0		
50	Balansning valuta moddalarini qayta baholashdan salbiy kurs farqlari	215,0	65,0	68,0		
51	Shartnoma shartlarini buzganlik uchun jarima summasi	110,0	-	86,0		
52	Valuta kursi farqidan ko'rilgan zararlar	48,2	68,2	22,0		
53	Foyda solig'i hisoblandi	384,0	856,0			
54	Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisoblandi	284,2	186,0			
55	Korxonaning sof foydasi					

***Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadning 25 foizi eksportdan olingan sof tushumni tashkil qiladi.**

**** Plastik kartochkalar qo‘llanilib to‘langan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi – 50000.0 ming so‘m.**

*****Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum – 90000.0 ming so‘m.**

****** Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari.**

Korxonaning mahsulotlar yangi turini o‘zlashtirish bo‘yicha xarajatlari hisobot davrida 300 ming so‘mni, shu jumladan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar va yagona ijtimoiy to‘lov 120 ming so‘mni, amortizatsiya xarajatlari 28 ming so‘mni, elektr energiyasi va materiallar bo‘yicha xarajatlar 152 ming so‘mni tashkil etdi.

Topshiriq

1. AJ «YULDUZ» korxonasining yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan foydalanib qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan aylanmani va eksport qilinadigan mahsulotlarni aniqlang.

2. Korxonaning 2020 yil yanvar-mart oylari uchun QQS solig‘i hisoblab chiqaring.

3. QQS solig‘i bo‘yicha amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarga ikki yoqlama yozuvlarni (buxgalteriya o‘tkazmalarini) bering.

Hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Har bir aylanmaning realizatsiya bo‘yicha jami aylanmadagi salmog‘i*	Realizatsiya bo‘yicha aylanma summasi	QQS
1	2	3	4	5
Tovar, ish va xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmalar, jami (4-ilovanning 010-satri - 0105-satr - 0106-satr)	010	X		X
Salmog‘ini hisoblash uchun qabul qilingan tovar, ish va xizmatlarni sotish bo‘yicha aylanma (010-satr - (4-ilovanning 01023-satri))	0101			X

shu jumladan:				X
20 foizli stavka qo'llaniladigan 4-ilovadan (0101 q 01024 q 01025 q 0103 q 0104 q 0107 q 0108-satrlar)	0102			X
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari)	0103			X
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlar eksporti:	0104	X	X	X
chet el valutasida**	01041	X		X
jo'natish amalga oshirilgan oyning oxirgi kuniga O'zR Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valutadagi ekvivalentda	01042			X
jo'natilgan tovar uchun valuta tushumi kelib tushishi**	01043	X		X
kelib tushgan chet el valutasining salmog'i (01043- satr / 01041-satr x 100)	01044		X	X
soliq solinmaydigan tushum (4-ilovaning 01021-satri 01082- satri)	0105			X
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS summasi (1-ilovaning 050-satri)	020	X	X	
Olingan va realizatsiya bo'yicha aylanmalar uchun foydalaniladigan tovar (ish va xizmat)lar bo'yicha QQS summasi (alohida-alohida usul qo'llanilganda) (0301-satr q 0302-satr 0303-satr 0304-satr)	030	X	X	0
shu jumladan:		X	X	
20 foizli stavka qo'llaniladigan	0301	X	X	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari)	0302	X	X	

0 foizli stavka qoʻllaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun	0303	X	X	
qoʻshilgan qiymat soligʻi solinmaydigan aylanma uchun	0304	X	X	
Olingan va realizatsiya boʻyicha aylanmalar uchun ishlatiladigan tovar (ish va xizmat)lar boʻyicha QQS summasi (mutanosib usul qoʻllanilganda) (020-satr - 030-satr)	040	X	X	

3-masala

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlari hisobi va hisoboti

«YULDUZ» korxonasi oʻzining ishlab chiqarish va texnika ehtiyoji uchun suv resurslaridan 25000 kub m. foydalangan. Ushbu foydalanilgan suv resurslaridan 25 foizi er osti manbalari va 85 foizi yer usti manbalari suvlarini tashkil etadi.

1-topshiriq. Korxonaning suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobini hisoblab chiqaring.

Hisoblangan soliq summasiga buxgalteriya provodkasini bering.

[illegible]

Hujjat turi				Hisobot davri			Oy/chorak	Hisobot yili				
				(kerakligini tagiga chizilsin)								

Hujjat turi: 1 – hisob-kitob, 2 – qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami).

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazadan kamaytiriladigan suv hajmlari.

Solliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan	Satr kodi	Suv hajmi kub. m		
		jami	shu jumladan	
			yer usti manba- lari	yer osti manba- lari
Soliq solinadigan bazani kamaytirish (020-satr 030-satr)	010			
O'zbekiston Respublikasi Soliqlik kodeksiga muvofig, jami:	020			
Sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, savdo tarmog'ida sotish uchun foydalaniladigan suv hajmi bundan mustasno	0201			
Dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga	0202			
Atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishning oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmi, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladigan suv hajmlari bundan mustasno	0203			
Shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamli bosimni saqlab turish uchun yer qatriga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmi, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladigan suv hajmlari bundan mustasno	0204			
Gidroelektr stansiyalarining gidravlik turbinalari harakati uchun foydalaniladigan suv hajmi	0205			
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish maqsadida foydalaniladigan suv hajmlari	0206			
Normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliq solinadigan bazani kamaytirish, jami:	030			
shu jumladan:				
	0301			

Izoh: Qo‘shimcha imtiyozlar (030-satrdan boshlab) normativ-huquqiy hujjatning nomi, sanasi, raqami va bandlari ko‘rsatilgan holda to‘ldiriladi.

№	Xo‘jalik muomalalari mazmuni	Summa	Debit	Kredit
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblandi			
2	Soliq summasi o‘tkazildi			

Test savollari

1. Mol yetkazib beruvchilardan materiallar sotib olindi – 1200 ming so‘m, QQS – 15 %. QQSga buxgalteriya yozuvini bering.

	a.	b.	c.	d.
Debit	6410	4010	4410	6010
Kredit	4010	4410	6010	4010

2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida qanday formula bilan aniqlanadi:

- a) $S_{qqqs} = S_{to6} \times SS/100$
- b) $S_{qqqs} = DX + MD/100$
- c) $S_{qqqs} = Ctob \times YAF/100$
- d) $S_{qqqs} = AFF + MD/100$

Tayanch iboralar:

solliqlar, solliqlarni tasniflash, bevosita va bilvosita solliqlar, umumdavlat va mahalliy budjetlarga to‘lanadigan solliqlar, solliqqa tortiladigan baza, doimiy tafovutlar, solliq tortiladigan obyekt, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i.

O‘z o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

- Solliqlar qanday turlarga bo‘linadi?
- Bevosita va bilvosita solliqlar deb nimaga aytiladi?
- Solliqqa tortiladigan baza qanday aniqlanadi?
- Doimiy farqlar deganda nimani tushunasiz?
- Daromad solig‘i qanday aniqlanadi?
- QQS qanday aniqlanadi?

11-MAVZU. MOLIYAVIY HISOBOT

Moliyaviy hisobot – xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulot (ish va xizmat)lar sotish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmui bo‘lib, u subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining holatini ma‘lum davr (chorak, yillik) ga qiymat ko‘rinishida aks etishidir. Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lar, ishlab chiqarish xarajatlari, xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish hamda dividendlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Hisobot ma‘lumotlari bo‘yicha korxona rahbari mulkdorlar, ta‘sischilar, boshqaruv va nazorat tizimi, yuqori tashkilotlar oldida hisobot beradilar.

Korxonaning yillik buxgalteriya hisoboti tegishli tashkilotlarga topshirilishidan oldin ta‘sis hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Qonunga muvofiq yillik hisobotning quyidagi shakllarini tuzish nazarda tutilgan:

- 1- «Korxona balansi»;
- 2- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»;
- 3- «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot»;
- 4- «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot».

Moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida tuzishni ta‘minlash uchun buxgalteriyaning barcha bo‘limlari ishlarini bajarish muddatlarini ko‘rsatib yig‘ma ish grafigi tuziladi. Buxgalteriya hisobi qo‘lda yuritilsa, grafik bilan belgilangan muddatlarda jurnal-orderlarning jami chiqariladi, zarur bo‘lsa bir registrdagi summa boshqa registrlarga o‘tkaziladi va har bir schyot aylanmasi muqobil tekshiriladi. Jurnal-order shaklida hisob yuritilganda oy oxiriga qolgan summalarini o‘tkazish va hisob registrlarini yakunlash bo‘yicha hisob ishlarining ketma-ketligi quyidagicha:

– ma‘lumotnoma - varaqalaridan debit va kredit aylanmalari jurnal-orderlar va qaydnomalarga o‘tkaziladi, bunda rasshifrovka – varaqalari va jurnal orderlarda tegishli belgilar qo‘yiladi;

– 5010-schyotining debiti bo‘yicha 1-qaydnoma va 5110-schyotining debiti bo‘yicha 2-qaydnomalarning yig‘indisi 3, 10/1, 13-jurnal orderlariga o‘tkaziladi;

- 7, 12, 14, 15, 16, 17 va boshqa qaydnomalarning analitik hisob yig‘indisi hisoblab chiqariladi, shundan keyin jami ma’lumotlari tegishli jurnal-orderlarda aks ettiriladi;
- jurnal orderlarning kredit aylanmalari jami hisoblab chiqiladi.

Buxgalteriya balans tuzilishi va uning tarkibi

Moliyaviy hisobot tizimida balans muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yillik hisobot tarkibidagi unda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, chunki xalqaro andozalar talabiga yaqinlashdi va bozor munosabatlariga qaratildi. Balansning aktiv va passiv moddalarining mazmuni ichki hamda tashqi foydalanuvchilarga undan foydalanish imkoniyatini berdi. Ichki va tashqi qiziquvchilar uchun korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy barqarorligi, kreditor qarzlarning hajmi, bank kreditlari bo‘yicha qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar zarur.

Balans ikki qismdan iborat bo‘lib, bir tomoni aktiv, ikkinchi tomoni passiv deb yuritiladi: aktiv va passiv.

Balans ikkala qismining jami summolari teng bo‘lishi shart. Bu tenglik aktivda xo‘jalik mablag‘lari, passivda esa shu mablag‘larning manbalari aks ettirilishi bilan izohlanadi.

Dastlabki balans, hisobot balans, tugatish balans kabi turlari esa uning korxona faoliyatining qay holatida tuzilayotganligini bildiradi.

Aktiv tomoni ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, I bo‘lim «Uzoq muddatli aktivlar» deb nomlanib, unga quyidagilar kiradi: asosiy vositalar, lizingga olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo‘yilmalar, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, kapital qo‘yilmalar, uzoq muddatli debitorlik summolari.

II bo‘lim «Joriy aktivlar» deb nomlanib, unga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, pul mablag‘lari, debitorlik summolari va boshqalar.

Balansning passiv tomoni ham ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, I bo‘lim «O‘z mablag‘larining manbalari» deb nomlanib, unga

quyidagilar kiradi: ustav kapitali, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, kelgusi davr daromadlari va hokazolar.

II bo‘lim «Majburiyatlar» deb nomlanib, unga quyidagilar kiradi: bankdan olingan kreditlar, bankdan tashqari korxonalardan olingan qarzlilar, olingan avanslar va kreditorlik majburiyatlari.

Dastlabki balans korxonaning tashkil topayotgan vaqtida tuziladi.

Hisobot balansi esa korxona faoliyati davomida tuziladi.

Tugatish balansi esa korxona, tashkilot, muassasaning tugatilayotgan muddatdagi xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari qay holatda ekanligi haqida ma‘lumot beradi. Balansdagi ma‘lumot quyidagicha yig‘ilgan bo‘ladi. Har bir jarayon ro‘y berishi natijasida xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari miqdoriy va tarkibiy jihatdan o‘zgarib boradi.

Bu holat dastlabki hujjatlarda aks ettirilib, so‘ngra buxgalteriyada sintetik hisob yuritiladi va schyotlarda ikki yoqlama yozuv orqali aks ettiriladi. Oy oxirida esa har bir schyotlar bo‘yicha qoldiq summalar aniqlanadi. Ba‘zi schyotlar esa bekitiladi. Bu haqda kelgusi mavzularda kengroq to‘xtalib o‘tamiz. Schyotlardagi oxirgi qoldiqlardagi ma‘lumotlar bosh kitobga ko‘chiriladi va balansga o‘rnatilgan tartibda aks ettirib chiqiladi.

Balansning aktiv va passiv tomonlari o‘z moddalariga ega hamda ularda xo‘jalik mablag‘lari va xo‘jalik mablag‘lari keladigan manbalarning oxirgi qoldig‘i ko‘rsatiladi.

Balansga asosan korxonaning to‘lov qobiliyati va boshqa bir qancha sifat ko‘rsatkichlarini hisoblab tahlil qilish mumkin.

Balans ma‘lumotlariga asosan korxonaning mutlaq to‘lov qobiliyati quyidagicha aniqlanadi:

Pul mablag‘lari

Korxona mutlaq to‘lov qobiliyati = Korxona qisqa muddatli majburiyatlari

1-amaliy mashg‘ulot

1-masala.

Maqsad – hisobotning tarkibiy tuzilishini o‘rganish.

Vazifa – hisobotlarning foydalanish darajasiga qarab guruhlash.

Vzifani bajarish uchun ma'lumotlar

Hisobot turlari:

1. Kassirning hisoboti.
2. Omborchining hisoboti.
3. Hisobdor shaxsning hisoboti.
4. Sex boshlig'ining hisoboti.
5. Buxgalteriya bo'limlarining oylik hisoboti.
6. Korxona rahbarining hisoboti.
7. Korxona balansi.
8. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.
9. Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot.
10. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

Topshiriq. Hisobotlarni quyida ketirilgan jadval yordamida guruhlang.

Ichki foydalanuvchilar uchun	Tashqi foydalanuvchilar uchun

2-masala. Maqsad – moliyaviy (buxgalteriya) hisobot tarkibiy tuzilishini o'rganish.

Vazifa – buxgalteriya balansidagi o'zgarishlar tartibini aks ettirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

“FAYZ” korxonasining 2020-yil 30-sentabrdagi aktiv va passivlarining holati keltirilgan:

Aktiv	Summa (ming so'mda)	Passiv	Summa (ming so'mda)
1. Asosiy vositalar	35000	1. Ustav kapitali	40000
2. Materiallar	10000	2. Foyda	3000
3. Kassa	100	3. Bankning qisqa muddatli krediti	2000
4. Hisob-kitob schyoti	15000	4. Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar	500
5. Ombordagi tayyor mahsulot	900	5. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob- kitoblar	4500
6. Kelgusi davr xarajatlari	500		2500
7. Qisqa muddatli	3500		

moliyaviy qo'yilmalar	5000	6. Zaxira kapitali	15000
8. Tugallanmagan ishlab chiqarish	5600	7. Uzoq muddatli bank kreditlari	8100
9. Tashkiliy xarajatlar		8. Tekinga olingan mulk	
Balans	75600	Balans	75600

Korxona oktabr oyida quyidagi xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirgan:

1. Xaridorlarga pul o'tkazib berdi – 2600000 so'm.
2. Kassaga pul olib kelindi – 5600000 so'm.
3. Ishchilarga ish haqi hisoblandi – 4200000 so'm.
4. Ustav kapitaliga ta'sischi larning ulushi asosiy vosita tariqasida kiritildi – 8900 ming so'm.
5. Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarga eskirish hisoblandi – 1500000 so'm.
6. Qisqa muddatli bank kreditlari to'landi – 1000000 so'm.
7. Ishchilarga ish haqi berildi – 4700000 so'm.
8. Materiallar xarid qilindi – 2500000 so'm.

1-topshiriq. “FAYZ” korxonasining oktabr oyida amalga oshirilgan xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettiring.

2-topshiriq. 2020-yil 1-noyabr holatiga buxgalteriya balansini tuzing.

3-masala.

Maqsad – moliyaviy (buxgalteriya) hisobot tarkibiy tuzilishini o'rganish.

Vazifa – buxgalteriya balansidagi o'zgarishlar tartibini aks ettirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

“Xolis” mas'uliyati cheklangan jamiyatning 2020-yil 30-noyabr holatidagi balansi quyidagi ko'rinishga ega:

Aktiv	Summa (ming so'm)	Passiv	Summa (ming so'm)
Asosiy vositalar	413000	Ustav kapitali	629341
Nomoddiy aktivlar	660	Taqsimlanmagan	100

		foyda	
Hisob-kitob schyoti	22000	To‘lanadigan qarzlari	3 361
Kassa	1695	To‘lanadigan schyotlar	229 453
Ombordagi materiallar	231695	Boshqa majburiyatlar	100 847
Olinadigan schyotlar	139798	Bankning uzoq muddatli krediti	13 661
Tayyor mahsulotlar	68115		
Boshqa aktivlar	99800		
Jami	976763	Jami	976763

Dekabr oyida korxonada quyidagi xo‘jalik jarayonlari sodir bo‘ldi:

- mas’uliyati cheklangan jamiyat kassasidan ish xaqi berildi – 1695000 so‘m;
- mol yetkazib beruvchilardan TMZ sotib olindi – 9000000 so‘m;
- kreditor qarzlari o‘tkazib berildi – 5400000 so‘m;
- ombordan tayyor mahsulotlar xaridorlarga jo‘natildi – 11400000 so‘m;

– taqsimlanmagan foyda ustav kapitaliga o‘tkazildi.

1-topshiriq. “Xolis” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2020-yil dekabr oyida sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettiring.

2-topshiriq. 2020-yil 30-noyabr holatidagi balansiga dekabr oyida sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlari tufayli o‘zgarishlarni kiriting.

4-masala.

Maqsad – moliyaviy (buxgalteriya) hisobot tarkibiy tuzilishini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

“Chinor” nomli ishlab chiqarish korxonasi bo‘yicha hisobot davri oxiriga daromad va xarajatlar quyida keltirilgan. Foyda solig‘i – 10 foiz.

№	Daromad va xarajatlar tarkibi	Summa (ming so‘mda)
1.	Mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum	77020
2.	Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqlari	9700
3.	Boshqaruv xodimlarining ish haqlari	2200

4.	Boshqaruv xodimlarining safar xarajatlari (belgilangan me'yor bo'yicha)	74
5.	Boshqaruv xodimlarining safar xarajatlari (belgilangan me'yordan oshiq qismi)	32
6.	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transportlarga yoqilg'i sarfi	140
7.	Ishlab chiqarish ishchilarining ish haqlari va tarif stavkalariga tungi ishlaganligi uchun qo'shimchalar	820
8.	Ma'muriyat binosining amortizatsiya ajratmalari	1200
9.	Belgilangan me'yordan oshiqcha bo'lgan boshqa xarajatlar	340
10	Mutaxassis kadrlar tayyorlash xarajatlari	120
11	Reklama xarajatlari	538
12	Boshqaruv ishlarini tashkil qilish va takomillashtirish xarajatlari	1240
13	Korxona ta'sischilarining talabi bo'yicha auditorlik xizmati uchun to'lovlar	5212
14	Hukumat qarorlari bo'yicha baholar oshishi munosabati bilan xodimlarga berilgan kompensatsiya to'lovlari	2180
15	Boshqaruv xodimlarining ta'tillari uchun qo'shimcha ish haqi	908
16	Asosiy ishlab chiqarish vositalari amortizatsiyasi	2100
17	Sarflangan idish (tara) qiymati	1149
18	To'lovlar kechiktirganligi uchun shtraflar	714
19	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasidagi to'lovlar	2120
20	Muddati o'tgan ssudalar bo'yicha to'lovlar	1855
21	Asosiy mol-mulkni sotishdan olingan daromad	9140
22	Debitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan zarar	330
23	Ishlab chiqarish ehtiyojlariga xizmat ko'rsatishda sarflangan materiallar	400
24	Umidsiz qarzlarni bo'yicha zaxira	1300

25	Da'vo muddati o'tgan kreditorlik qarzlari	607
26	Sotib olingan aksiyalar bo'yicha dividendlar	1280
27	Ishlab chiqarish jihozlarini ta'mirlash bo'yicha boshqa korxonalarning xizmatlari uchun to'lovlar	2120
28	Telegraf-telefon tashkilotlarining xizmatlari uchun to'lovlar	880
29	Bekor qilingan buyurtmalar bo'yicha xarajatlar	1680
30	Ishlab chiqarishga sarflangan xomashyo va materiallar	36762
31	Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha me'yordagi tabiiy yo'qotishlar	614

1-topshiriq. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, korxonaning moliyaviy natijalarini aniqlang, ular hisobini yuritishning o'ziga xos tomonlarini aytib, hamda ularni tegishli hisobotlarda aks ettiring va operatsiyalarning hisob registrlarida tegishli buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring.

2-topshiriq. Keltirilgan ma'lumotlar asosida sotishdan olingan yalpi daromad, operatsion foyda, moliyaviy faoliyat bo'yicha natijalar, soliq to'lagunga qadar bo'lgan foydani aniqlang.

5-masala. Nestle kompaniyasida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Nestle kompaniyasi Ishchi jadvali 2020-yil 31-dekabr yakunlangan yil uchun

Schyot nomi	Schyot raqami	Yil boshiga qoldiq		Aylanma		Yil oxiriga qoldiq		Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	
		Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt
	0100	25000							
	0200		4200						
	0400	5800							
	0500		1200						
	0600	5000							
	0800	3600							
	1000	5500							
	2000	4500							
	2300	2100							
	2800	8600							
	3100	1200							
	4000	3200							
	4220	500							
	4600	6100							
	4800	2300							
	5000	1300							
	5100	16500							
	5200	6400							
	5500	1400							
	6000		6200						
	6100		3100						

	6300		3500						
	6400		4100						
	6600		3100						
	6700		4200						
	6800		12600						
	6900		14600						
	8300		25100						
	8500		8300						
	8700		8800						
	9000								
	9100								
	9300								
	9400								
	9500								
	9600								
	9720								
	9810								
Solliqqacha bo'lgan foyda									
Daromad solig'i									
Sof foyda									
Jami		99000	99000						

Nestle kompaniyasida yil davomida quyidagi operatsiyalar sodir bo'lgan:

№	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summa	Debit	Kredit
1	Mebel va uskunalar foydalanishga topshirildi	1200		
2	Mol yetkazib beruvchilardan materiallar sotib olindi	15000		
3	Mol yetkazib beruvchilardan asosiy vositalar sotib olindi	14000		
4	Xomashyo va materiallar ishlab chiqarishga berildi	1200		
5	Mol yetkazib beruvchilardan nomoddiy aktivlar sotib olindi	1800		
6	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblandi	1200		
7	Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi	3100		
8	Ta'sischilar qarzini pul o'tkazish yo'li bilan to'ladi	2500		
9	Yordamchi ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi	800		
10	Hisob-kitob schyotidan kassaga pul olindi	1900		
11	Hisob-kitob schyotidan kassaga pul olindi	3500		
12	Kassadan ishchilarga ish haqi berildi	2200		
13	Kassadan korxona rahbariga ish haqi berildi	600		
14	Hisob-kitob schyotidan oldindan ijara xarajatlari to'landi	500		
15	Kassadan xizmat safariga avans berildi	1200		
16	Ta'sischilar qarzini asosiy vositalar bilan to'ladi	1000		
17	Asosiy ishlab chiqarishga xomashyo va materiallar berildi	14200		
18	Asosiy ishlab chiqarishdan omborga tayyor mahsulot kirim qilindi	17500		
19	Xaridorlarga tayyor mahsulot sotildi	25400		
20	Sotilgan mahsulot tannarxi hisobdan chiqarildi	15200		
21	Bankdan olingan kreditga foiz hisoblandi	2100		
22	Korxona rahbariga ish haqi hisoblandi	1300		

23	Mahsulotni sotish bo'yicha reklama xarajatlari qilindi	500		
24	Korxona ustav kapitali shakllantirildi	8800		
25	Ta'sischi qarzlarni pul o'tkazish yo'li bilan to'ladi	1800		
26	Kassadagi ortiqcha pul hisob-kitob schyotiga qaytarildi	650		
27	Taqsimlanmagan foyda hisobidan zaxira kapitaliga ajratma ajratildi	5200		
28	Zaxira kapitali hisobidan dividend hisoblandi	2700		
29	Kassadan hisoblangan dividend to'landi	2000		
30	Mulkni qisqa muddatli ijaraga berishdan daromad hisoblandi	2200		
31	Foiz ko'rinishidagi daromad hisoblandi	2500		
32	Bankdan qisqa muddatli kredit olindi	11000		
33	Olingan kreditga foiz hisoblandi	1900		
34	Xaridorlar qarzini chet el valutasida to'ladi	9900		
35	Foydadan budjetga daromad solig'i hisoblandi			

Topshiriq

1. Buxgalteriya o'tkazmalarini bering.
2. Ishchi javdalni tayyorlang.
3. Buxgalteriya balansini tayyorlang
4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzing.

BUXGALTERIYA BALANSI
1-sonli shakl

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200)	011		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)	012		
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymati (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500)	021		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)	022		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:	030		
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040		
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo'yilmalar (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo'lim bo'yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+120)	130		
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan:	140		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800)	170		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		

Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (satr.220+240+250+260+270+280+290+300+310)	210		
Shundan: muddati o'tgan	211		
Xaridor va buyurtmachilar qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220		
Ajratilgan bo'linmalar qarzi (4110)	230		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120)	240		
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4220)	250		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260		
Budjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270		
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280		
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310		
Pul mablag'lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan:	320		
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari (5100)	340		
Chet el valutasidagi pul mablag'lari (5200)	350		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo'lim bo'yicha jami (satr.140+190+200+210+320+370+380)	390		
Balans aktivi bo'yicha jami (satr.130+390)	400		

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	hisobot davri boshiga	hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Passiv			
I. O'z mablag'lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410		
Qo'shilgan kapital (8400)	420		
Zaxira kapitali (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450		
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	470		
I bo'lim bo'yicha jami (satr.410+420+430+440+450+460+470)	480		
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.500+520+530+540+550+560+570+580+590)	490		
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr.500+520+540+560+590)	491		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (satr.610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600		

shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr.610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601		
Shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610		
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6100)	620		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bo'naklar (6300)	670		
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680		
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690		
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700		
Ta'sischi'larga bo'lgan qarzlari (6600)	710		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlari (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	760		
II bo'lim bo'yicha jami (satr.490+600)	770		
Balans passivi bo'yicha jami (satr. 480+770)	780		

**Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
2-sonli shakl**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		daromad (foyda)	xarajat (zarar)	daromad (foyda)	xarajat (zarar)
Mahsulot (tovar, ish xizmat)larni sotishdan sof tushum	010		X		X
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	020	X		X	
Mahsulot (tovar, ish xizmat)larni sotishdan yalpi foyda (sitr 010 -020)	030				
Davr xarajatlari, jami (sitr 050+060+070+080) shu jumladan:	040	X			
Sotish xarajatlari	050	X			
Ma'muriy xarajatlar	060	X			
Boshqa operatsion xarajatlar	070	X		X	
Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	080	X		X	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090		X		X
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (sitr 030-040+090)	100				
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (sitr 120+130+140+150+160), shu jumladan	110		X		X
Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar	120		X		
Foizlar ko'rinishidagi daromadlar	130		X		X
Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar	140		X		X
Valuta kursi farqi daromadlari	150		X		X
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160		X		X

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari, jami (sitr 180+190+200+210), shu jumladan	170	X		X	
Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	180	X		X	
Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar xarajatlar	190	X		X	
Valuta kursi farqidan zararlar	200	X		X	
Moliyaviy faoliyatning boshqa zararlar	210	X		X	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (sitr 100q110-170)	220				
Favqulodda foyda va zararlar	230			X	
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (sitr 220q/-230)	240				
Daromad (foyda) solig'i	250				
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260				
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (sitr 240-250-260)	270				X

Tayanch iboralar: moliyaviy hisobot, korxona balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, aktiv, passiv, kirish balansi, moliyaviy natija, sof foyda.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Moliyaviy hisobotning qanday shakllari mavjud?
2. Balans nima?
3. Balans tarkibiga nimalarni kiritish mumkin?
4. Moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar kimlar hisoblanadi?
5. Moliyaviy hisobotning o'z oldiga qo'yilgan qanday talablari mavjud?
6. Moliyaviy hisobotning qanday turlari mavjud?
7. Moliyaviy hisobotning tarkibiga nimalar kiradi?

12-MAVZU. BOSHQARUV HISOBINING NAZARIY ASOSLARI

«Boshqaruv hisobi» fanining predmeti xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish, budjetlashtirish, istiqbolda korxona taraqqiyotini belgilovchi loyihalar tahlili, segmentlar bo'yicha hisobot tuzish, samarali transfert baholarini shakllantirishning nazariy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini yuritish hisoblanadi.

Boshqaruv hisobi bozor munosabatlari zarurati bilan paydo bo'lgan va uning turli bo'g'inlaridagi tarkibiy tuzilmalarining faoliyat yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborotni taqdim etuvchidir.

Boshqaruv hisobida hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, schyotlar va ikkiyoqlama yozuv, balansda umumlashtirish va hisobot kabi moliyaviy hisob usullarining barcha elementlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, unda iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik va statistik usullar ham keng qo'llaniladi.

Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobi tarkibida mustaqil fan sifatida rasman 1972-yilda tan olindi. Bu paytda buxgalterlarning Amerika assotsiatsiyasi tomonidan boshqaruv hisobi bo'yicha bitiruvchilarga buxgalter-tahlilchi malakasini beradigan diplomli dastur ishlab chiqilgan edi.

Kalkulyatsiya hisobi xo'jalik hisobi paydo bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida kelib chiqqan va tovar almashuv muomalalari natijasi hisoblangan. "Kalkulyatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjimada «calcul» – toshcha, ya'ni "toshchalar bilan sanash" ma'nosini anglatadi. Ikkiyoqlama yozuvning paydo bo'lishi kalkulyatsiya hisobi rivojlanishini yanada yuqoriroq pog'onaga qo'ydi. Korxonaning umumiy buxgalteriyasi tarkibida kalkulyatsiya hisobining ajratib ko'rsatilishi buxgalteriya hisobini yanada ommalashtirish imkonini berdi.

XX asrning 40-yillari oxirida AQSH va G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlarida "ishlab chiqarish hisobi" atamasi asta-sekin "boshqaruv hisobi" atamasiga almashina boshladi. Bu davrda buxgalteriya hisobi boshqaruv siyosatining shakllanishi va amalga oshirilishida faol ishtirok eta boshladi, buxgalterlar esa taxminlash,

rejalashtirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish va korxona boshqaruv xizmatlarini axborot bilan ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish sohasida faoliyat yurita boshladilar.

Boshqaruv hisobi faqatgina xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bilan shug'ullanibgina qolmay, balki korxona rahbariga joriy va istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilishda ko'maklashishi zarur. Boshqaruv hisobi korxonaning ichki vazifalarini hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning "nou-xau"sidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobining boshqaruvchilarni iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlashdagi roli quyidagilardan iborat:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish borasida istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur axborotlar manbasini shakllantirish va rahbarlarni ular bilan ta'minlash;

- korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarishda menejerlarga ishonchli, yuqori samarador axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish;

- mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini to'g'ri aniqlash, belgilangan me'yorlardan chetlanishlar va ularning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatib berish va h.k.

Boshqaruv hisobining mohiyatini chuqurroq anglash u bilan ishlab chiqarish hisobi orasidagi bog'lanish va farqli jihatlarni ajratishga bevosita bog'liq.

Ishlab chiqarish hisobi ishlab chiqarish xarajatlari va korxona daromadini boshqarish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashda namoyon bo'ladi. U korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha jarayonlarni batafsil aks ettirishi lozim.

Ishlab chiqarish faoliyatini boshqaruv hisobi boshqaruv hisobi tizimining markaziy bo'g'imi hisoblanadi. Bu yerda maqsadlar, funksiyalar va ularning fe'l-atvorlari bo'yicha xarajatlar haqida ma'lumot guruhlashtirilgan. Ishlab chiqarish hisobida ma'lum o'rin moddiy, mehnat va ustama xarajatlarni me'yorlashtirishga ajratilgan, shuningdek, haqiqiy va me'yoriy xarajatlarni aks ettirish usullariga ham

e'tibor beriladi. Bunda ishlab chiqarish hisobi xarajatlar hisobi va kalkulyatsiyaning yagona jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Xo'jalik faoliyatini boshqarish murakkab va kompleks jarayon hisoblanadi. Boshqaruv talablariga javob beruvchi hisob tizimi xuddi shunday murakkab va ko'pgina tartibotlardan tashkil topgan. Undan tashqari, boshqaruv hisobi tizimi elementlari tarkibini boshqaruv maqsadlariga ko'ra o'rganish mumkin. Lekin aniq bir subyektda tashkil etilgan hisobning har bir tizimi umumqabul qilingan tamoyillarga javob beradi.

Boshqaruv hisobi tamoyillariga quyidagilar kiradi: subyekt faoliyatining uzluksizligi; rejalashtirish va hisob (reja-hisob) uchun yagona o'lchov birliklarini qo'llash va subyekt bo'linmalari faoliyatining natijalarini baholash; boshqaruv maqsadida birlamchi va oraliq ma'lumotni keyinga qoldirish va ko'p marta ishlatilishi; boshqaruv pog'onalari o'rtasida ichki hisobot ko'rsatkichlarini kommunikatsion aloqalar asosi sifatida shakllantirish; turli xil moliyalar, tijorat faoliyatini boshqarishning budjet (smeta)li uslubini qo'llash; hisob obyekti haqida to'liq ma'lumot bilan ta'minlovchi to'liqlik va analitiklik; hisob siyosati tomonidan o'rnatilgan subyektning ishlab chiqarish va tijorat siklini aks ettiruvchi davriylik va hokazolar. Keltirilgan prinsiplarning yig'imi boshqaruv hisobi usulining harakatchanligini ta'minlaydi, lekin hisob jarayonini unifikatsiya qilmaydi.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: boshqaruv hisobining mazmuni va vazifalari haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi.

1-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering: korxonani boshqarish; boshqarish uchun axborot; moliyaviy hisob; boshqaruv hisobi; axborotdan foydalanuvchilar; axborot etkazib beruvchilar; chetga chiqish (og'ish)lar bo'yicha boshqarish; boshqaruv hisobi tamoyillari; boshqarish uchun hisob yuritish maqsadlari va vazifalari.

2-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Vaziyatlar va fikrlar:

1. O‘quv yurtini tugatganingizdan so‘ng siz firmaga ishga keldingiz va uning rahbariyatiga boshqaruv hisobi bo‘limini ochish taklifini bildirmoqchisiz.

a) Sizningcha, ushbu bo‘lim qanday ishlarni bajarishi kerak?

b) Mazkur taklifni asoslash uchun siz qanday dalillarni keltirasiz?

d) Qanday e‘tirozlarni kutishingiz mumkin?

2. Korxona uchun hisob yuritishning qaysi turi muhimroq: a) moliyaviy hisob yoki boshqaruv hisobimi? b) Sizning fikringizcha, kimga ko‘proq maosh to‘lash kerak – moliyaviy buxgalteriya rahbarigami yoki boshqaruv (ishlab chiqarish) buxgalteriyasi rahbarigami? v) O‘z fikringizni dalillar keltirib asoslab bering.

3. Turli mamlakatlarda boshqaruv hisobi turlicha nomlanadi. Qaysi nomni to‘g‘riroq, deb hisoblaysiz va nima uchun?

4. Chetga chiqishlar (og‘ish)lar bo‘yicha boshqarishga misollar keltiring:

a) sanoat korxonasida;

b) qurilish tashkilotida;

d) «Supermarket» tizimi do‘konida;

c) o‘quv muassasasida.

3-masala

Vazifani bajarish uchun ma‘lumotlar:

Ishlab chiqarish uchastkasida o‘tgan o‘nta hisobot davri mobaynida ish o‘rinlariga yuklamaning turli darajalarida quyidagi haqiqiy xarajatlar amalga oshirilgan:

Hisobot davri	Mahsulot hajmi, birl.	Haqiqiy xarajatlar, ming, p. b.
1	980	4150
2	920	3810
3	1060	4020
4	1290	5070
5	1570	5430
6	1780	5960
7	1820	6890
8	1040	4050
9	1120	4420
10	1080	4350

a) Xarajatlarni o'zgaruvchanlik darajasiga ko'ra yuqori va quyi nuqtalar usuli bo'yicha bo'lishni amalga oshiring.

b) Xarajatlarning mini-, maksifunksiyalarini aniqlang va 2000 birlik hajmida ularning rejalashtirilayotgan miqdorini toping.

4-masala

Quyidagi holatlarda firma ishlab chiqarish hajmini oshirishi yoki qisqartirishi kerakmi:

a) agar A mahsulotning bozor narxi – 1 kg uchun 120 pul birligi (p.b.)ni tashkil qilib, ishlab chiqarish hajmi 1 kg.ga oshirilganda ishlab chiqaruvchining xarajatlari 70 p.b.; 100 p.b.; 200 p.b.ga oshsa;

b) B mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari bir birlikka 300 p.b.ga oshsa, bozor narxi esa 150 p.b.; 300 p.b.; 360 p.b. darajasida belgilansa?

5-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Korxona tomonidan mahsulotning uchta turi ishlab chiqariladi: A, B va D. Korxonaning eng yuqori ishlab chiqarish quvvati 10000 dona A mahsulotini, 5000 dona B mahsulotini va 5000 dona D mahsulotini ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Hisobot davrida mahsulot birligining o'zgaruvchan xarajatlari va narxi quyidagilarni tashkil qildi:

(p.b./dona)

Mahsulot	Mahsulot birligi uchun o'zgaruvchan xarajatlar	Mahsulot birligining to'liq tannarxi	Mahsulot birligi narxi
A	20,09	27,36	27
B	33,04	45,16	50
D	20,64	31,01	32

Qoplash summalarini tahlil qilish asosida shuni aniqlangki, korxona rahbariyati ishlab chiqarish dasturini o'zgartirishi (unga mahsulotning qandaydir boshqa turlarini kiritishi va eski turlaridan voz kechishi)dan ma'no bormi yoki uni o'zgartirmasdan qoldirgani ma'qulmi?

2-amaliy mashg'ulot

1-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

X korxona mahsulotning bir turini ishlab chiqaradi. Korxonaning doimiy xarajatlari hisobot oyida – 25000 p.b., o'zgaruvchan xarajatlar xarajatlari esa – 18 p.b./dona. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati bir oyda 2500 donani tashkil qiladi. Mahsulot birligining erishiladigan narxi – 32 p.b.

Nol darajali foyda nuqtasini tahlil qilish asosida to'liq xarajatlar miqdorini, sotishdan tushgan tushumni, sotishning moliyaviy natijasini, sotuvlar hajmining unda korxonaning foyda ko'rib ishlashi saqlanib qolinadigan eng kam miqdorini aniqlang.

2-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Bundan avvalgi topshiriqning shartiga ko'ra mahsulotni sotishning eng kam hajmi 1786 donani tashkil qildi. Biroq korxona faqatgina 1500 dona uchun buyurtma oldi, bu nol darajali foyda nuqtasiga erishish uchun yetarli emas. Foydani optimallashtirish doimiy xarajatlarni pasaytirish (ijara to'lovini va uskunalar amortizatsiyasini kamaytirish) hisobiga amalga oshirilishi kerak. Foydani optimallashtirish doimiy xarajatlarni pasaytirish (ijara haqi va uskunalar amortizatsiyasini kamaytirish) hisobidan amalga oshirilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ushbu holatda doimiy xarajatlarning eng kam miqdorini aniqlang.

3-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Korxonaning eng yuqori quvvati (u haqida 14-topshiriqda gap boradi) bir oyda 2500 dona mahsulotni tashkil qiladi. Doimiy xarajatlar o'zgarmasdan qoladi – 25 000 p.b./oy, mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar esa – 18 p.b./dona

Bunday sharoitda:

- a) bankrot bo'lish xavfiga duch kelmaslik;
- b) to'liq yalpi xarajatlarni qoplash uchun sotuvlar narxini qanchaga pasaytirish mumkin.

4-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Biz tahlil qilayotgan X korxonada mehnatga haq to‘lash tariflarining o‘zgarishi oqibatida hisobot oyida doimiy xarajatlar oshdi va 28 000 so‘m, o‘zgaruvchan xarajatlar esa 19 p.b./donani tashkil qildi. Mahsulot o‘zgarmasdan qoldi – 32 p.b./dona.

Bunday sharoitda tushumning eng kam miqdorini aniqlang.

5-masala

Vazifani bajarish uchun ma’lumotlar:

Korxona mahsulotning bir turini ishlab chiqaradi. Hisobot oyida doimiy xarajatlar 60 000 p.b.ni, o‘zgaruvchan xarajatlar esa – mahsulot birligiga 20 p.b.ni tashkil qildi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati – bir oyda 2500 dona mahsulot. Mahsulot birligining erishiladigan narxi – 50 p.b.

a) Korxonaning to‘liq xarajatlari miqdorini, mahsulotni sotishdan tushadigan eng yuqori tushumni aniqlang; b) sotishdan ko‘rish mumkin bo‘lgan eng yuqori foydani hisoblang; d) miqdoriy va qiymat ifodasida nol darajali foyda nuqtasini aniqlang; c) sotuvlar hajmining kamayishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik koeffitsiyentini hisoblab chiqing. Agar korxona faqatgina 1500 dona mahsulot uchun buyurtma olgan bo‘lsa, zarar ko‘rmasdan ishlash uchun doimiy xarajatlarni qanchaga qisqartirish zarur? Agar korxona to‘liq quvvat bilan ishlasa, mahsulotning sotilish narxini qanchagacha pasaytirish mumkin?

6-masala.

Vazifani bajarish uchun ma’lumotlar:

Kompaniya X va V mahsulotlarni ishlab chiqaradi

	X	V
Sotilish narxi, p.b.	6	12
O‘zgaruvchan xarajatlar, p.b.	2	4
Sotilgan mahsulot miqdori, dona	70 000	30 000

Agar doimiy xarajatlar 300 000 p.b.ni tashkil qilsa, umuman firma uchun zarar ko‘rmay ishlash nuqtasini toping.

7-masala

Ustama xarajatlarni ishlab chiqarish markazlari bo‘yicha ikkilamchi taqsimlash.

Kompaniya xarajatlari uchta ishlab chiqarish markazlarida va ikkita servis xarajatlari markazlarida yig'ilgan.

1. Ishlab chiqarish markazida – 20000
2. Ishlab chiqarish markazida – 24000
3. Ishlab chiqarish markazida – 36000
- «S» servis xarajatlari markazida – 13500
- «T» servis xarajatlari markazida – 9500

Servis xarajatlari xususiyatlarini o'rganib chiqqandan so'ng ularni quyidagicha taqsimlashga qaror qilindi:

	Ishlab chiqarish xarajat markazlari, % hisobida			Servis xarajat markazlari, % hisob	
	1	2	3	«S»	«T»
«S» xarajatlar markazi	-	55	35	-	10
«T» xarajatlar markazi	45	35	15	5	-

Vazifa:

Har bir ishlab chiqarish markaziga o'tkaziladigan servis xarajatlari topilsin. Buning uchun quyidagi hisob-kitob qilinsin:

Ustama xarajatlarni ikkilamchi taqsimlash usuli

Ko'rsatkichlar	Ishlab chiqarish xarajatlari			Servis xarajatlari	
	1	2	3	«S»	«T»
Yig'ilgan xarajatlar					
Servis xarajatlarni taqsimlash:					
«T»					
«S»					
«T»					
«S»					
«T»					
Jami					

Test savollari

1. Boshqaruv hisobotini tuzish tartibini kim belgilaydi?

- a. moliya vazirligi.
- b. soliq qo'mitasi.

- b) yuqori tashkilot.
- c) subyektning boshqaruv hay'ati.

2. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning “Direkt-kosting“ usulidan:

- a) Tashqi iste'molchilar uchun hisobot tuzish va soliqlarni to'lash
- b) subyektning investitsiya siyosatini ishlab chiqish
- b) qisqa muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilish
- c) marjinal daromadni aniqlash uchun foydalaniladi.

3. “Direkt-kosting“ tizimini joriy qilganda doimiy xarajat hisoblangan umumishlab chiqarish xarajati quyidagi tartibda tannarxga qo'shiladi:

- a) debit 2010 va kredit 2510
- b) debit 2840 va kredit 2510
- c) debit 2910 va kredit 2510
- d) debit 9420 va kredit 2510

4. Xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish obyekti quyidagi hollarda bir-biriga to'g'ri keladi:

- a) xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilishning jarayonlar bo'yicha usulini
- b) xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilishning buyurtma usulini
- c) xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilishning ishlov berish usulini
- d) xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilishning me'yoriy usulini qo'llaganda.

Tayanch iboralar: boshqaruv hisobi, xarajatlarni va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari, kalkulyatsiya hisobi, tannarx ishlab chiqarish hisobi, foydani optimallashtirish, zararsizlik nuqtasi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Boshqaruv hisobining ishlab chiqarish, moliya, soliq va statistika hisobi bilan o'zaro aloqalarini yoriting.
2. Boshqaruv va moliyaviy hisobning umumiylik va bir-biridan farqini yoriting.
3. Boshqaruv hisobining konseptual asoslarini yoriting.
4. Boshqaruv hisobini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni keltiring va izohlang.

13-MAVZU. BUDJETLASHTIRISH VA XARAJATLARNI NAZORAT QILISH

«Budjet» atamasi keng ma'noda, davlat miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida hukumat ixtiyorida markazlashgan pul fondlarining, korxonalar ixtiyorida esa markazlashmagan pul fondlarining shakllanishi va ulardan oqilona foydalanishni anglatadi.

Tor ma'noda esa, «budjetlashtirish» atamasi hali bizning iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritilmagan, chunki korxonaning doimiy asosga qo'yilgan kompleks rejalashtirish, nazorat va xo'jalik faoliyati tahlili tizimi shu paytgacha faqatgina biznes-rejalashtirish bilan cheklangan edi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruv hisobida rejalashtirish jarayonini ta'riflash uchun «budjetlashtirish» atamasidan keng foydalaniladi. Budjetlashtirish korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi.

Budjetlashtirishning afzalligi korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talablarini o'rganishda o'z ifodasini topadi. Budjetlashtirishda asosiy e'tibor mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatlarini tashkil etishda turli xil texnologik jarayonlardan foydalanadi. Ushbu jarayonlarning har birida budjetlashtirishning amalga oshirilishi quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi, hamda uni amalga oshirishda quyidagilarni nazarda tutadi:

- ☐ korxona maqsadlariga erishishini ta'minlovchi xo'jalik muomalalarini rejalashtirish;
- ☐ barcha darajadagi rahbarlarni o'zlari javobgar markazlar maqsadiga erishishlarida rag'batlantirish;

□ turli xil bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bo‘linmalar xodimlarining manfaatlari e‘tiborga olinadi;

□ korxona joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini ta‘minlash;

□ javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo‘yilgan rejalar bajarilishini baholashda asos vazifasini o‘tash; menejerlar malakasini oshirishda ko‘maklashish.

Bosh budjetni tuzish investitsiya qilingan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ta‘minlashda korxona mulkdorlari uchun ham zarur hisoblanadi.

Budjetlarni tayyorlashda quyidagi smetalar tuziladi:

a) moddiy xarajatlar smetasi;

b) asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqi xarajatlari smetasi;

d) ishlab chiqarish xususiyatiga ega ustama xarajatlar smetasi;

e) ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari smetasi.

Ishlab chiqarish va savdo korxonalarining bosh budjetini tuzishning yakuniy bosqichi kutilayotgan foyda yoki zarar to‘g‘risidagi umumlashtirilgan smetani tuzib chiqish hisoblanadi. Mazkur smeta quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettiradi:

a) mahsulotlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar;

b) ishlab chiqarishga sarflanadigan xomashyo va materiallar xarajatlari;

d) asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarning mehnat haqi xarajatlari;

e) ishlab chiqarish xususiyatidagi ustama xarajatlar;

f) sotilgan mahsulotlar tannarxi;

g) sotish va ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari;

h) ishlab chiqarishdan kutilayotgan foyda yoki zarar.

Bosh budjet korxonaning rahbarlari uchun muhim bo‘lib, rejalashtirilgan hisobot davrida ular oldida turgan maqsad va vazifalarni

aniq belgilash hamda ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, daromadlar va xarajatlarning shakllanish jarayoni, hisob-kitob va to'lovlar holatini doimiy ravishda kuzatib borishga imkon beradi.

Bosh budjetni tuzish investitsiya qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligini ta'minlashda korxona mulkdorlari uchun ham zarur hisoblanadi.

Operatsion budjetning asosiy maqsadi moliyaviy mablag'larning taxminiy manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilab berishdir.

Sotish xarajatlari budjeti strategik rejalashtirish asosida xaridorlar imkoniyati va mahsulotlar hajmini e'tiborga olib vertikal hamda gorizontal tartibda tuziladi.

Investitsiya budjeti korxonaning budjet davridagi kapital xarajatlari va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari rejasi hisoblanadi.

Budjetlar oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq, moslashuvchan va statik turlarga ajratiladi.

Statik budjet korxonaning ishchan faolligini muayyan darajasida hisob-kitob qilinadi. Unda daromad va xarajatlar sotishlar darajasidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi.

Statik budjet korxona moliyaviy natijalarining haqiqiyligini ifodalaydi hamda pul va foiz nisbatlaridagi ko'rsatkichlarning mutlaq raqamlarini taqqoslashga imkon beradi.

Moslashuvchan budjetda ishlab chiqarishning rejalashtirilgan hajmi tuzatish yo'li bilan hisob-kitob qilinadi. Unda sotish hajmini hisoblashning bir qancha muqobil variantlaridan foydalaniladi.

Korxonada javobgarlik markazlari bo'yicha moslashuvchan budjetlar tuzish xarajatlar va daromadlarni samarali boshqarishga, chetlanishlar bo'yicha tezkor choralar qabul qilishga, ijobiy va salbiy chetlanishlarni rejalashtirilgan foyda summasiga mos ravishda tuzatib borishga imkon yaratadi.

1-amaliy mashg'ulot

Darsning maqsadi: budjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish mohiyatini o'rganish.

1-masala

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

Xarajatlar budjeti va korxona faoliyati natijalarini shakllantirishning asosiy tamoyillarini ayting. Budjetlashtirishning mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Budjet prognozdan nimasi bilan farq qiladi? Korxona xarajatlarining umumiy smetasini tuzishda qo'llaniladigan usullar. "Moslashuvchan" budjet nima? Moddiy resurslar sarfi, mehnat sarflari, qo'shimcha xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan qismlari bo'yicha smetaning bajarilishidan chetga chiqishlarni aniqlash usullari. Budjetning qaysi ko'rsatkichlari tavakkalchilikni kamaytirish nuqtai nazaridan boshqaruvchilarda qiziqish uyg'otadi? Budjetlashtirish smetalaridan tashkilot xarajatlarini nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qanday foydalanish mumkin?

Darsning maqsadi: korxonaning ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish.

2-masala.

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

a) Korxonada javobgarlik markazlarini shakllantirish uchun qanday asosiy sharoitlar zarur.

b) Mahsulot ishlab chiqarish, ta'minot va sotish sohalaridagi asosiy javobgarlik markazlarini ayting.

d) Siz yangi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun; korxonani yanada rivojlantirish uchun budjetlarni tayyorlashda va ulardan foydalanishda qanday muammolarga duch kelishingiz mumkin? Buxgalteriya hisobida hech narsani tushunmaydigan begona kishiga "chetga chiqishlarni tahlil qilish" nima va u nima uchun kerakligini tushuntiring. Qo'shimcha xarajatlarning qat'iy belgilangan va moslashuvchan smetalaridan foydalanish maqsadi va o'ziga xos xususiyatlari. "Ichki hisobotlar ko'rsatkichlari, men busiz ham biladigan narsalarni hikoya qilish uchun tuzish va tahlil qilishga juda ko'p vaqt talab qiladi",– deydi boshqaruvchi. Bu arzu holga qanday e'tiroz bildirish mumkin?

3-masala

Darsning maqsadi: xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo‘yicha xarajatlarni turkumlash.

Vazifani bajarish uchun ma’lumotlar:

“Delta” korxonasi mart oyida sotuvlar hajmi 1400 dona mahsulot bo‘lgani holda 14 400 p.b. miqdorida umumiy xarajatlarga, shu jumladan 6000 p.b. doimiy xarajatlarga qo‘l urishni rejalashtirgan edi. Mart oyida sotuvlar hajmi 1500 dona mahsulot bo‘lgani holda haqiqiy xarajatlar 15 200 p.b.ni, shu jumladan o‘zgaruvchan xarajatlar 8800 p.b.ni, doimiy xarajatlar 6000 p.b.ni tashkil qildi. 800 p.b. miqdoridagi chetga chiqish nima hisobiga hosil bo‘lganligini tushuntiring.

2-amaliy mashg‘ulot

1-masala

Dars maqsadi: korxona faoliyatini budjetlashtirish va xarajatlarni turkumlash.

Vazifani bajarish uchun ma’lumotlar:

“Gamma” korxonasi 35 000 p.b. miqdoridagi o‘zgaruvchan xarajatlarni amalga oshirish evaziga 360 000 p.b. miqdorida yillik daromad olishni rejalashtirgan edi. Mahsulot rejadagiga qaraganda 10 foizga yuqori narxda sotilib, bunda sotishdan tushgan haqiqiy tushum 295 000 p.b.ni tashkil qildi.

1. Bir yil mobaynida xarajatlarning o‘zgarishini hisobga olgan holda korxonaning tuzatishlar kiritilgan budjetini hisoblab chiqing.

2. Olingan ma’lumotlardan boshqarish uchun qanday foydalanish mumkin?

2-masala

Darsning maqsadi: korxona faoliyatini budjetlashtirish va xarajatlarni turkumlash.

Vazifani bajarish uchun ma’lumotlar:

Tadbirkor A.S. Belyayev o‘z korxonasining faoliyatini 1-yanvardan boshlaydi. Ustav kapitali sifatida u hisob-kitob raqamiga 20 000 p.b. kiritdi. Savdoning dastlabki olti oyi mobaynida u quyidagi natijalarga erishishni kutmoqda:

	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun
Sotuvlar	10 000	10 000	15 000	20 000	20 000	24 000
Tovarlarni xarid qilish	8 000	7 500	10 000	10 000	12 000	14 000

Sotuvlarning 20 foizini zudlik bilan to'lov evaziga, qolgan 80 foizini esa xaridorlarga ikki oylik tovar krediti berish yo'li bilan amalga oshirish rejalashtirilgan. Yetkazib beruvchilar barcha xaridlar bo'yicha bir oy muddatli kreditni taklif etishmoqda. A. Belyayev har biriga bir oyda 600 p.b. ish haqi belgilagan holda ikkita yordamchi olishni ko'zlamqda.

Xonalar ijarasi bo'yicha xarajatlarni to'lash (bir yilda 5 000 p.b.) yilning har choragida, bir chorak oldindan amalga oshiriladi.

Faoliyatni yuritish bilan bog'liq, bir oyda 4000 p.b.ni tashkil qiluvchi boshqa xarajatlarni har oyda o'tgan oy uchun to'lash rejalashtirilgan.

Yanvarda 10 000 p.b. qiymatidagi avtomobil va 8000 p.b. qiymatidagi arzon jihozlar uchun to'lov amalga oshiriladi.

O'zining shaxsiy ehtiyojlari uchun tadbirkor korxonaning aylanmasidan har oyda 600 p.b. olishni ko'zlamqda. Davr oxiriga kelib (30 iyunda) tovarlar zaxirasi tannarxi bo'yicha 2400 p.b.ga baholanishi kutilmoqda. Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya dastlabki qiymatdan bir yilda avtomobil uchun – 20 %, jihozlar – 10 % miqdorida hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida:

a) oldinda turgan olti oy uchun pul mablag'lari harakatining prognozi (daromadlar va xarajatlar smetasi)ni tayyorlang;

b) oldinda turgan olti oy uchun foyda va zararlar hisob-kitobi hamda balansni tuzing.

3-masala

Darsning maqsadi: korxona faoliyatini budjetlashtirish va xarajatlarni turkumlash.

Vazifani bajarish uchun ma'lumotlar:

“Polimer” aksiyadorlik jamiyati butilkadagi mahsulotni upakovka qilish uchun standart qutilarni ishlab chiqarib sotadi. Korxona Qozon shahrida joylashgan, lekin Arskda o'z filialiga ega. Ikkala bo'linmada ham 100 nafardan ishchi, shuningdek, Qozonda 20 nafar va Arskda 10

nafar ma'muriy-boshqaruv va xizmat ko'rsatuvchi xodim mavjud. Ishchilar 1 soat ish uchun 10 p.b. miqdorida maosh olgani holda bir oyda 150 soat ishlaydi. Ish kuni normalanmagan, lekin ularning o'rtacha bandligi bir oyda 170 soatni tashkil qiladi. Ma'muriy-boshqaruv va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maoshi o'tgan oyda Qozonda 60 000 p.b.ni, Arskda 20 000 p.b.ni, boshqarish uchun boshqa xarajatlar Qozonda 200 000 p.b.ni va Arskda 80 000 p.b.ni tashkil qildi.

Har bir ishchi bir soatda o'rtacha 5 ta quti tayyorlaydi, materiallar uchun xarajatlar bir quti uchun 16 p.b.ni tashkil qiladi. Bir oyda 145 000 ta quti har biri 30 p.b. narx bo'yicha sotiladi. Firmaning doimiy xarajatlari – 240 000 p.b.

Ish haqini to'lashdagi muntazam kechikishlar tufayli keyingi oyning boshida xodimlarning bir qismi ishdan bo'shab ketdi. Biroq korxonaning doimiy xarajatlari bor-yo'g'i 12 000 p.b.ga qisqardi. Qozondagi asosiy korxona ishchilarining mehnat unumdorligi bir oyda 8000 ta qutigacha oshdi, lekin mahsulotning narxi deyarli o'zgarishsiz qoldi. Mehnat unumdorligining oshirilishi hisoblangan ish haqining 25 foizi miqdorida mukofotlandi. Ta'minot bo'limi rejadagi oyda boshlang'ich xomashyoni odatdagiga qaraganda 20 foizga arzon narxda sotib olishga erishdi.

1. "Polimer" aksiyadorlik jamiyati faoliyatining kelgusi oydagi moliyaviy natijasini aniqlang.

2. Ushbu oydagi haqiqiy natija, marjinal daromadning dastlabki miqdori va foyda o'rtasidagi farqni hisoblang.

3. Haqiqiy natijani sotuvlar haqiqiy hajmining o'zgarishini aks ettiruvchi tuzatishlar kiritilgan budjet bilan taqqoslang.

4. Bir oy uchun mehnat unumdorligining o'sishi (miqdoriy omil) va mehnat haqining ortishi (narx-navo omili) bilan shartlangan mehnatiga haq to'lash bo'yicha chetga chiqishlar umumiy summasini taqsimlang. Omillar bo'yicha umumiy summani aniqlang va AJning dastlabki foydasi bilan erishilgan moliyaviy natija o'rtasidagi farqning sababini tushuntiring.

Test savollari

1. Budjetni tayyorlashda qanday smetalar tuziladi?

a) asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi xarajatlari smetasi, ishlab chiqarish xususiyatiga ega ustama xarajatlar smetasi, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari smetasi.

b) asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqi xarajatlari smetasi, daromadlar smetasi, xarajatlar smetasi.

c) xarajatlar smetasi, ishlab chiqarish smetasi, kassa smetasi.

d) kassa smetasi, daromadlar smetasi

2) budjetlarni tuzishga qanday talablar qo‘yiladi?

a) ehtiyotkorlik, aniqlik

b) muvozanatlangan holda tuzish

c) moddiy, texnik pul birliklarida baholash.

d) javobgar xodimning mas’uliyat bilan yondashishi

3. Bosh budjetning tarkibiy qismlarini aniqlang

a) statik budjet, operatsion budjet, investitsiya budjeti

b) operatsion budjet, investitsiya budjeti, moliyaviy budjet

c) statik budjet, tayyor mahsulotlar budjeti

4. Budjetlashtirish bosqichlari qaysi qatorda to‘g‘ri ifodalangan?

a) budjetni ishlab chiqish, budjetni tasdiqlash, budjetni boshqarish, budjetni nazorat qilish

b) budjetni tahlil qilish, budjetni boshqarish, budjetni nazorat qilish

c) budjetni baholash, budjetni tasdiqlash

d) budjetni tasniflash, budjetni tahlil qilish, budjetni tasdiqlash

5. budjet oldiga qo‘yilgan vazifalarga muvofiq qanday turlarga ajratiladi?

a) Investitsiya budjeti, moliyaviy budjet

b) davr xarajatlari budjeti, investitsiya budjeti, investitsiya budjeti, moliyaviy budjet

c) statik budjet, moslashuvchan budjet

d) operatsion budjet, statik budjet, moslashuvchan budjet

Tayanch iboralar: budjet, budjetlashtirish, korxona faoliyatini nazorat qilish, javobgarlik markazlari, menejerlar malakasini oshirishda ko‘maklashish, bosh budjet, moddiy xarajatlar smetasi, ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari smetasi, operatsion budjet, statik budjet, javobgarlik markazlari.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Budjet atamasi deb nimaga aytiladi?

2. Bosh budjet tarkibiga nimalar kiradi?

3. Statik budjet deb nimaga aytiladi?

4. Javobgarlik markazlari deb nimaga aytiladi?

“Buxgalteriya hisobi” fani bo‘yicha atamalarning

GLOSSARIYSI

Aktiv – buxgalteriya balansining bir qismi bo‘lib, ma’lum bir muddatga subyekt mablag‘larining tarkibi va joylanishini pul ko‘rinishida aks ettiradi. Bundan tashqari, balansning passiv qismi ham mavjud bo‘lib, aktiv va passiv tomonlar bo‘lim va moddalardan iborat. Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo‘lishi lozim, ya’ni aktiv tomonidagi mablag‘larning manbalari balansning passiv tomonida joylashgan.

Asosiy xodimlar – qurilish tashkilotlarining shtat jadvalida belgilangan lavozimlarni egallab turgan xodimlar tushuniladi. Bunday xodimlar tarkibiga muhandis-loyihachilar, muhandis-quruvchilar, prorablar, masterlar, mexaniklar, elektriklar, payvandchilar, ganchkorlar, pardoziylikchilar, taxtaga ishlov beruvchi va ulardan turli tayyor moslamalar yasovchi ustalar, g‘isht teruvchilar, ombor mudirlari, ta’minotchilar va shu kabi boshqa xodimlar kiradi.

Asosiy bo‘lmagan xodimlar – individual mehnat shartnomasiga ko‘ra alohida ishlarni bajarish uchun vaqtinchalik ishga olingan xodimlar tushuniladi.

Aksiyadorlar – aksiyadorlik jamiyatining a’zosi bo‘lib, bunga bir yoki bir necha aksiyalarni sotib olish orqali erishadi. Aksiyadorlarning huquq va burchlari mavjud. Uning huquqlariga quyidagilar kiradi: umumiy yig‘ilishlarda qatnashish, aksiyadorlik jamiyati rahbariyatini saqlash va saqlanish, dividend ko‘rinishida jamiyat foydasidan olish, aksiyadorlik jamiyati tugatilsa, aksiya qiymati hajmida mulkning bir qismini olish. Aksiyadorlar burchi – aksiya qiymati hajmida o‘z hissasini jamiyat kapitaliga qo‘shishidir.

Aksiyadorlar jamiyati – ishlab chiqarish fondlari aksiyadorlarning aksiyalarni sotib olish yo‘li bilan qo‘shgan ulushlari hisobiga tashkil topadigan korxonadir. Aksiyalarni chiqarish va sotish orqali individual (yakka) kapitallar birlashadi. AJ foydasi uning qatnashchilari o‘rtasida olgan aksiyalarining summalariga mos ravishda taqsimlanadi. AJ nizom asosida tashkil topadi va faoliyat yuritadi, davlat ro‘yxatidan o‘tgandan boshlab esa, yuridik shaxs huquqiga ega bo‘ladi.

Asosiy vositalar – ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga taalluqli mehnat vositalari (bino, imorat, mashina, dastgoh va h.k.). Buxgalteriya hisobida asosiy vositalar guruhlariga ajratiladi va hisob olib boriladi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ko‘p davr mobaynida ishtirok etib (bir necha ishlab chiqarish bosqichida), o‘zining dastlabki ko‘rinishi va shaklini o‘zgartirmaydi, qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o‘tkazadi.

Audit – lotincha «audio» so‘zidan olingan «u eshitadi» degan ma’noni bildiradi. Audit mustaqil tashqi moliyaviy nazorat bo‘lib, ushbu korxonada ishlamaydigan mustaqil hamda diplomli auditorlar tomonidan olib boriladi.

Balansdagi schyotlar – buxgalteriya ko‘rsatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schyotlaridir. Bunda balans moddasi nomi balansdagi schyotlar nomi bilan mos kelishi shart degan ma’no kelib chiqadi. Birgina balans schyotining ko‘rsatkichi balans moddalarining bir nechtasida aks ettirilishi mumkin.

Balansdan tashqari schyotlar – shunday schyotlarki, ularning qoldiqlari buxgalteriya balansida aks ettirilmaydi. Bu schyotlar boshqa korxonalarga tegishli va korxonada mavjud bo‘lgan tovar-moddiy boyliklarni vaqtincha hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Balansdan tashqari schyotlarda hisob oddiy, ya’ni ikki yoqlama yozuvsiz amalga oshiriladi. Bu schyotlar o‘zaro hamda balans schyotlari bilan ham korrespondensiyaga kirishmaydi.

Baho – tovar qiymatining pul ko‘rinishida ifodalanishi. Tovarning bahosini belgilash uchun asos ushbu tovarning ishlab chiqarish tannarxi hisoblanadi. Tovarning bahosi qiymatdan farq qilishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho tovar uchun talab va taklifdan kelib chiqib belgilanadi.

Birlamchi hujjatlar – buxgalteriya hujjatlari bo‘lib, xo‘jalik jarayoni sodir bo‘lgan vaqtda tuziladi va ularning sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi. To‘ldirilgan birlamchi hujjatlar xo‘jalik jarayonlarini hisobda aks ettirishning boshlanishidir. Birlamchi hujjatlarga kassaning kirim va chiqim orderlari, yuk xatlari, qabul qilish va topshirish dalolatnomalari, naryadlar, pattalar va boshqalar misol bo‘ladi.

Blanka (fr. Blanc–varaqaalar) – zaruriy belgilari mavjud bo‘lgan bosma ko‘rinishidagi hujjat shakli. Blankalardan buxgalteriya

hujjatlarini to'ldirishda foydalaniladi. Bunda bosma ko'rinishidagi namunada yoki qo'l yozuvida hujjatlar to'ldiriladi. Blankalardan foydalanish hujjatlarni to'ldirishni osonlashtiradi va tezlashtiradi, ularni yagona ko'rinishga olib keladi. Ma'lum bir blankalar isrof qilinishining oldini olish maqsadida qat'iy hisobga olinadi va har biriga tartib raqamlari qo'yib chiqiladi. Masalan, kassa kitobi, Bosh kitob shunday blankalardan hisoblanadi.

Bosh pudratchi tashkilot – buyurtmachi bilan qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni olib borish bo'yicha asosiy shartnomani tuzgan hamda uning bajarilishini to'liq o'z zimmasiga olgan qurilish tashkiloti.

Brutto (ital. brutto–sopol) – tovarlarning idishi yoki o'rovi bilan birgalikdagi og'irligi. Tovarlarning bunday og'irligi ba'zi hollarda zarur bo'lsa-da, lekin tovarning sof og'irligi haqida aniq ma'lumot berolmaydi. Buning uchun tovarning sof og'irligi (netto)ni aniqlash lozim.

Buxgalter – buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassis, «buxgalter» so'zi birinchi marta XV asrda paydo bo'lgan. Buxgalter mutaxassisligiga birinchi marta «Insbrug» hisob palatasi ish yurituvchisi Kristofor Shtexer ega bo'lgan. Umuman, buxgalter ma'lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan xodim hisoblanadi. Buxgalter aniq bir ish va ma'lum xo'jalik faoliyatining hisobi va nazoratini olib boradi. Lavozimi va bajarayotgan ishiga ko'ra, buxgalter katta va bosh buxgalter bo'lishi mumkin. Katta buxgalter buxgalteriyaning bir bo'limini boshqarsa, bosh buxgalter xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriyasi faoliyatini boshqaradi.

Buxgalteriya – buxgalteriya hisobini tashkil etadigan va olib boruvchi apparat. Buxgalteriya mustaqil bo'lim bo'lib, korxonaning boshqa bo'limlari tarkibiga kirmaydi. Buxgalteriyani bosh buxgalter, agar bosh buxgalter lavozimi belgilanmagan bo'lsa, katta buxgalter boshqaradi. Buxgalteriya bo'limi buxgalteriya hisobini tashkil etishi va olib borishi lozim, xo'jalik jarayonlarining qonuniyligi va maqsadliligini nazorat qilish, hisobot tuzish, moliyaviy qonunlarga bo'ysunishini ta'minlashi va boshqa vazifalarni bajarishi lozim.

Buxgalteriya hisobi – xo'jalik hisobining hisob turlaridan biridir. Buxgalteriya korxona, tashkilot, muassasa va birlashmalar xo'jalik faoliyatini to'liq, hamma jarayonlarini uzluksiz hujjatlashtirish va

nazorat qilishdir. Buxgalteriya hisobi korxona, tashkilot, muassasa, vazirlik va boshqarmalarning faoliyat ko'rsatish vaqtidan tugatilish vaqtigacha bo'lgan faoliyatini hujjatlarda aks ettirib boradi. Buxgalteriya hisobi yozuvlari har tomondan tekshirilgan hujjatlar asosida olib boriladi, bu buxgalteriya hisobining nazorat ahamiyatini, ma'lumotlar to'g'riligini, hisob ko'rsatkichlari aniqligini ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobi schyotlari – xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining alohida moddalar bo'yicha ko'rsatkichlarni olish usuli. Xo'jalik jarayoni natijasida mablag'lar va ularning tashkil topish manbalarida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlarni o'rganish, hisobda aks ettirish uchun buxgalteriya hisobining schyotlaridan foydalaniladi. Schyotlar soni va nomlanishi buxgalteriya schyotlarining rejasida belgilanadi. Buxgalteriya hisobi qanday tashkil etilganligi, qaysi usuldan foydalanilayotganligi va obyektning turiga qarab, schyotning tuzilishi va tashqi ko'rinishi turlicha bo'ladi.

Valuta schyotlari – mamlakat hududida va chet el valutarining holati va ularning harakati uchun mo'ljallangan. Valuta hisobi bo'yicha jarayonlarni amalga oshirish va hujjatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nizomlari asosida olib boriladi.

Da'vo – da'vo qo'zg'atuvchining talabi. Korxonalar ularga qarzdorlarga (debitorlarga) o'z vaqtida to'lanmagan qarzlik summalar uchun da'vo qo'zg'atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli ravishda qo'zg'atilishi zarur.

Debit (lot. debit – u majbur) – buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schyotlarning debitiga summalarining ko'payishi yozilsa, passiv schyotlarda esa, summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schyotlarining debitida esa, boshqa korxona va shaxslarning shu korxonaga qarzlari aks ettiriladi va debitorlik qarzlari deyiladi. Debit qoldiqlari esa, aktiv va aktiv-passiv schyotlarda bo'ladi.

Debitorlar (lot. debitor – qarzdor) – ushbu subyektga qarzdor bo'lgan boshqa korxona, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo'lib, ular debitorlik qarzlarni to'lashlari lozim.

Dividend – aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi bo'lib, aksiyadorlar o'rtasida soliqlarni, ishlab chiqarishni kengaytirishga

ajratmalarni, zaxiralarni tashkil etish, obligatsiyalar bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni amalga oshirilganidan so'ngina taqsimlanadi.

Ijara (polyak. – arenda va lat. arrendare – qarzga foydalanishga berish) – Shartnoma asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi to'lovi asosida berilishi.

Investitsiya – so'zi nemischa investitsion, lotincha investio so'zlaridan olingan bo'lib, u kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar summasidir.

Investor – mablag'ini moliyaviy qo'yilma sifatida foyda olish maqsadida sarflovchi shaxs.

Inflyasiya – haqiqatda taklif etilayotgan tovarlarga nisbatan ancha ko'p miqdorda qog'oz pullarning muomalaga chiqarilishi. Baholarning umumiy uzoq vaqt oshib borishi va haqiqiy mehnat haqining oshib borishi bilan kuzatiladi. Oltin bozor bahosini oshishi, hayot qiymati, valuta kursining o'zgarishlari ham inflyatsiya oqibatidir.

Inventarizatsiya – korxonaga tegishli bo'lgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablag'lar va boshqa moddiy boyliklarning haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini solishtirish va tekshirish usuli. Inventarizatsiya o'tkazilishidan asosiy maqsad buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarining haqqoniyligi va mulkning saqlanishini ta'minlashdir.

Kalkulyatsiya (lot. calculatio – hisoblash) – bajarilgan ish, tayyorlangan mahsulot, qabul qilingan moddiy boyliklar qiymatini aniqlash, xarajatlarini guruhlash usuli. Kalkulyatsiya yordamida rejalangan va haqiqiy qiymat solishtiriladi, uning natijasida iqtisodiy tejamkorlik ishlari maqsadli amalga oshiriladi. Kalkulyatsiya o'tkazilishi va maqsadligiga qarab rejali, me'yoriy va hisobot turlariga bo'linadi. Rejali kalkulyatsiya reja davrining boshidagi xarajatlar me'yori va boshqa rejali ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda tuziladi. Bu kalkulyatsiyaning vazifasi qiymat bo'yicha reja topshiriqlarini belgilash hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalar – xo'jalikning takror ishlab chiqarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan xarajatlar majmuidir. Kapital qo'yilmalar hajmi korxonalarni qurish, kengaytirish, texnik qayta jihozlash va uning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash, shuningdek, ishlab chiqarish maqsadlaridagi asbob-uskuna, transport

vositalari va boshqa asosiy fondlarni xarid qilishning barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga qilingan xarajatlarning umumiy summasiga nisbatan belgilanadi.

Kassa limiti – korxona kassasida doim bo‘lishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlatiladi. Uni bank korxona bilan kelishgan holda shu korxona sharoitini hisobga olib belgilaydi. Limitdan ortiq summadagi mehnat haqini to‘lash uchun bankdan olingan kundan tashqari uch kungacha bo‘lgan muddatda bo‘lishi mumkin. Nazorat vaqtida kassada sababsiz limitdan ortiqcha pul mablag‘i aniqlansa, 80-schyotning kreditiga yoziladi va kassir qoidani buzgan hisoblanadi.

Kassir – kassa pulni qabul qilish, saqlash va berish majburiyati yuklatilgan javobgar shaxs. Kassir yozma ravishda moddiy javobgarlik haqidagi majburiyatni o‘z bo‘yniga oladi. Kassir o‘z ishi jarayonida kassa jarayonlari haqidagi nizomga amal qilishi zarur. Pulni qabul qilish va berishda kassir korxona rahbari va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlangan hujjatlarga asoslanadi. Kassadagi pul mablag‘lari hisobini kassir kassaning kitobida olib boradi.

Kredit (lot. creditum–qarz) – pul mablag‘lari yoki tovarni qarzga berish. Korxona va tashkilotlar mablag‘larining aylanma harakatining bir xilda emasligi natijasida vujudga kelgan kreditga bo‘lgan sharoit va talabini banklar qondiradi. Asosiy tamoyillari esa, o‘z vaqtida qaytarilishi, maqsadli mo‘ljallanganligi, moddiy boylik bilan ta‘minlanganligidir. Kredit qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga bo‘linadi (qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga qarang). Korxona olgan kreditlar 90, 92 schyotlarda hisobga olinadi. Bu schyotlarning kreditida olingan kredit summasi, debitida esa shu summaning qaytarilishi aks ettiriladi.

Kreditorlik qarzlari – ma‘lum bir korxonaning boshqa bir korxona (tashkilot, muassasa)ga va alohida jismoniy shaxslarga bo‘lgan qarz summalari. Bu korxona va shaxslar kreditor hisoblanadi. Kreditorlik qarzlarning vujudga kelishi sababi xaridor va mol yetkazib beruvchi o‘rtasidagi hisob-kitoblar usuliga (xaridor tomonidan to‘lov tovarlar kelib tushgandan so‘ng amalga oshirilganda) yoki korxona tomonidan to‘lov majburiyatlari o‘z vaqtida bajarilmasligidir. Korxonada bir vaqtning o‘zida ham kreditorlik, ham debitorlik qarzlari

uchun kelishi mumkin. Biroq kreditorlik qarzlari debitorlik qarzlaridan oshib ketmasligi lozim.

Qishloq xo‘jaligi – xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xomashyo bilan ta‘minlash vazifasini bajaruvchi agrosanoat kompleksining asosidir.

Lizing – lizing beruvchi bilan lizing oluvchi o‘rtasida lizing oluvchiga xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish maqsadida ko‘char va ko‘chmas mulkni vaqtinchalik foydalanish uchun berish to‘g‘risida lizing bitimi (shartnomasi, kontrakt)ni tuzish natijasida vujudga kelgan xo‘jalik qarz munosabatlari.

Litsenziya (lotinchadan – uchun, ruxsat) – rasmiy ruxsat. Tijorat amaliyotida uning ikki asosiy turi uchraydi: eksport va importga litsenziya, hamda patentli litsenziya. Ma‘lum bir miqdordagi u yoki bu tovar guruhlarining eksport yoki importiga litsenziya davlat boshqaruvi tashkilotlari tomonidan berilib, tashqi savdo faoliyatini nazorat qilish shartlaridan biri hisoblanadi.

Materiallar – shunday buyumlarki, ularga inson mehnati sarflanib, tayyor mahsulot olinadi. Ishlab chiqarishda o‘z shaklini saqlab, qiymatini tayyor mahsulotga asta-sekinlik bilan o‘tkazuvchi mehnat vositalaridan farqli o‘laroq, mehnat buyumlari o‘z qiymatini mahsulotga to‘liq o‘tkazib, ishlab chiqarishda to‘la iste‘mol qilinadi va har bir ishlab chiqarish davridan so‘ng boshqa mehnat buyumlari – materiallar ishlatiladi. 1000–«Materiallarni hisobga oluvchi» schyotlar korxonaga tegishli mavjud xomashyo, yoqilg‘i, ehtiyot qismlari, idishlar, sotib olingan yarimtayyor mahsulotlar va shunga o‘xshash boyliklar va ularning harakati haqidagi ma‘lumotlarni aks ettirish uchun mo‘ljallangan.

Mehnat haqi – ishchi xizmatchilar shaxsiy iste‘moli uchun mo‘ljallangan milliy daromadning bir qismidir. Har bir ishchi va xizmatchining mehnat haqi uning sarflagan mehnatining hajmi va sifatiga bog‘liq. Mamlakatimizda ro‘y berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida turli mulkchilikka asoslangan qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda. Albatta, bu korxonalarda ishchi - xizmatchilar ishlaydi, ularning oladigan daromadlari bajaradigan ish faoliyatlarining sifat darajasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi.

Muomala xarajatlari – tovar ayirboshlanish jarayoni bilan bog‘liq xarajatlar bo‘lib, uning quyidagi turlari mavjud: oldi-sotdi jarayonidagi xarajatlar va muomala jarayonida ishlab chiqarish sohasini davom ettirish bilan bog‘liq xarajatlar.

Nou-xau – (inglizchadan «bilaman qandayligini») ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun zarur ilmiy-texnikaviy, tijorat, tashkiliy bo‘limlar yoki «Nou-xau» – yangi g‘oya, fikr, texnologiyalar yoki muammolarni o‘ziga xos hal qilish. Uning tarkibiga tijorat sirlari, patent qilinmagan texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish hamda savdoga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlar kiradi.

Sertifikat – kredit muassasi pul mablag‘larining deponentlashtirilganligi haqidagi yozma guvohnomasi bo‘lib, jamg‘aruvchiga deponent muddati tugagach, pul mablag‘i va unga belgilangan foizni olish usulini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

To‘lov talabnomasi – hisob-kitob hujjati bo‘lib, mol yetkazib beruvchi (eksporter)ning yoki boshqa to‘lov oluvchining bank orqali aniq bir summani to‘lovchidan olish haqidagi talabi aks ettiriladi. Mol yetkazib beruvchi xaridorga bank orqali to‘lov talabnomasini yuboradi. Mol yetkazib beruvchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank to‘lov talabnomasini xaridor korxonaga xizmat qiluvchi bankka yuboradi. To‘lov hisob-kitob qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

To‘lov topshiriqnomasi – to‘lovchining bankka yozma topshirig‘i bo‘lib, unda to‘lovchining hisobidan oluvchining hisobiga ma’lum bir pul mablag‘i summasini o‘tkazish yuzasidan topshirig‘idir.

Pul mablag‘lari – korxonaning kassasi, bankdagi hisob-kitobi, akkreditiv, boshqa maxsus schyotlardagi, moddiy javobgar shaxslardagi pul ko‘rinishidagi mablag‘lar. Korxonaning ortiqcha pul mablag‘lari bankdagi schyotlarda saqlanishi shart.

Rekonstruksiya – pudrat shartnomasiga ko‘ra buyurtmachilarning harakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi obyektlarining dastlabki holatini kengaytirmasdan qayta o‘zgartirib chiqish tushuniladi.

Rentabellik – ishlab chiqarish samaradorligining ko‘rsatkichi bo‘lib, foydaning asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Subpudratchi tashkilot – bosh pudratchining buyurtmachiga bajarib berishi lozim bo‘lgan qurilish, qurilish-montaj va boshqa

ishlarning bir qismini bosh pudratchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan bajarib beruvchi tashkilot.

Fifo – tovar-moddiy zaxiralarini birinchi kirim qilingani yoki birinchi tayyorlangani uchun bahosi bo'yicha hisobga olish usuli, bankdan ba'zi turdagi hissalarining (vklad) anchagina qismini olishda foiz hisoblash usuli, qaysiki, olinayotgan summa dastlabki qabul qilingan hissa hisoblanadi.

SCHYOTLAR REJASI

Schyotlar tartib raqami	Schyotlar nomi	Schyotlar turi
I. QISM. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR		
1-BO‘LIM. ASOSIY VOSITALAR, NOMODDIY VA BOSHQA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR		
0100	ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0110	Yer	
0111	Yerni obodonlashtirish	
0112	Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish	
0120	Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalar	
0130	Mashina va asbob-uskunalar	
0140	Mebel va ofis jihozlari	
0150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	
0160	Transport vositalari	
0170	Ishchi va kaspdor hayvonlar	
0180	Ko‘p yillik o‘simliklar	
0190	Boshqa asosiy vositalar	
0199	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar	
0200	ASOSIY VOSITALAR ESKIRISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	KA
0211	Yerni obodonlashtirishning eskirishi	
0212	Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV Buyrug‘i tahriridagi satr)	
0220	Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi	
0230	Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi	
0240	Mebel va ofis jihozlarining eskirishi	
0250	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi	
0260	Transport vositalarining eskirishi	

0270	Ishchi hayvonlarning eskirishi	
0280	Ko'p yillik o'simliklarning eskirishi	
0290	Boshqa asosiy vositalarning eskirishi	
0299	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i tahriridagi satr)	
0300	MOLIYAVIY IJARA SHARTNOMASI BO'YICHA OLINGAN ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0310	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i tahriridagi satr)	
0400	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0410	Patentlar, litsenziyalar va nou-xau	
0420	Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari	
0430	Dasturiy ta'minot	
0440	Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari	
0450	Tashkiliy xarajatlar	
0460	Franchayz	
0470	Mualliflik huquqlari	
0480	Gudvill	
0490	Boshqa nomoddiy aktivlar	
0500	NOMODDIY AKTIVLAR AMORTIZATSIYASINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	KA
0510	Patentlar, litsenziyalar va nou-xauning amortizatsiyasi	
0520	Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalarning amortizatsiyasi	
0530	Dasturiy ta'minotning amortizatsiyasi	
0540	Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi	
0550	Tashkiliy xarajatlarning amortizatsiyasi	
0560	Franchayzning amortizatsiyasi	
0570	Mualliflik huquqlarining amortizatsiyasi	
0590	Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	

0600	UZOQ MUDDATLI INVESTITSİYALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0610	Qimmatli qogʻozlar	
0620	Shoʻba xoʻjalik jamiyatlariga investitsiyalar	
0630	Qaram xoʻjalik jamiyatlariga investitsiyalar	
0640	Chet el kapitali mavjud boʻlgan korxonalarga investitsiyalar	
0690	Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar	
0700	OʻRNATILADIGAN ASBOB-USKUNALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0710	Oʻrnatiladigan asbob-uskunalar – mahalliy	
0720	Oʻrnatiladigan asbob-uskunalar – xorijiy	
0800	KAPITAL QOʻYILMALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0810	Tugallanmagan qurilish	
0820	Asosiy vositalarni xarid qilish	
0830	Nomoddiy aktivlarni xarid qilish	
0840	Asosiy podani tashkil qilish	
0850	Yerni obodonlashtirishga kapital qoʻyilmalar	
0860	Moliyaviy ijara shartnomasi boʻyicha olingan asosiy vositalarga kapital qoʻyilmalar (OʻzR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan roʻyxatga olingan OʻzR MV Buyrugʻi tahriridagi satr)	
0890	Boshqa kapital qoʻyilmalar	
0900	UZOQ MUDDATLI DEBITOR QARZLARI VA KECHIKTIRILGAN XARAJATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
0910	Olingan veksellar	
0920	Moliyaviy ijara boʻyicha olinadigan toʻlovlar (OʻzR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan roʻyxatga olingan OʻzR MV buyrugʻi tahriridagi satr)	
0930	Xodimlarning uzoq muddatli qarzlar	
0940	Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar	
0950	Vaqtinchalik farqlar boʻyicha kechiktirilgan foyda soligʻi (OʻzR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan roʻyxatga olingan OʻzR MV buyrugʻi tahriridagi satr)	

0960	Diskont (chegirma)lar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	
0990	Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	
II QISM. JORIY AKTIVLAR		
2-bo'lim. TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI		
1000	MATERIALLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
1010	Xomashyo va materiallar	
1020	Sotib olingan yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar	
1030	Yoqilg'ilar	
1040	Ehtiyot qismlari	
1050	Qurilish materiallari	
1060	Idish va idishbob materiallar	
1070	Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar	
1080	Inventar va xo'jalik jihozlari	
1090	Boshqa materiallar	
1100	O'STIRISHDAGI VA BOQUVDAGI HAYVONLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
1110	O'stirishdagi hayvonlar	
1120	Bo'rdoqidagi hayvonlar	
1200		
1300		
1400		
1500	MATERIALLARNI TAYYORLASH VA XARID QILISHNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
1510	Materiallarni tayyorlash va xarid qilish	
1600	MATERIALLAR QIYMATIDAGI FARQLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
1610	Materiallar qiymatidagi farqlar	
1700		
1800		
1900		
2000	ASOSIY ISHLAB CHIQRISHNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A

2010	Asosiy ishlab chiqarish	
2100	O‘ZIDA ISHLAB CHIQARILGAN YARIMTAYYOR MAHSULOTLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2110	O‘zida ishlab chiqarilgan yarimtayyor mahsulotlar	
2200		
2300	YORDAMCHI ISHLAB CHIQARISHNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2310	Yordamchi ishlab chiqarish	
2400		
2500	UMUMISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2510	Umumishlab chiqarish xarajatlari	
2600	ISHLAB CHIQARISHDAGI YAROQSIZ MAHSULOTLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2610	Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar	
2700	XIZMAT KO‘RSATUVCHI XO‘JALIKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2710	Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar	
2800	TAYYOR MAHSULOTLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2810	Ombordagi tayyor mahsulotlar	
2820	Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar	
2830	Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar	
2900	TOVARLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
2910	Ombordagi tovarlar	
2920	Chakana savdodagi tovarlar	
2930	Ko‘rgazmadagi tovarlar	
2940	Ijaradagi buyumlar	
2950	Tovarlar bilan band va bo‘sh idishlar	
2960	Komissiyaga berilgan tovarlar	
2970	Yo‘ldagi tovarlar	
2980	Savdo ustamasi	KA
2990	Boshqa tovarlar	

3000		
3100	KELGUSI DAVR XARAJATLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
3110	Oldindan to‘langan operativ ijara haqi (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
3120	Oldindan to‘langan xizmat haqi	
3190	Boshqa kelgusi davr xarajatlari (O‘zR AV 12.11.2003-y. 1181-1-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi band)	
3200	KECHIKTIRILGAN XARAJATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
3210	Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
3220	Diskont (chegirma)lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar	
3290	Boshqa kechiktirilgan xarajatlar	
3300		
3400		
3500		
3600		
3700		
3800		
3900		
4-bo‘lim. OLINADIGAN SCHYOTLAR JORIY QISMI		
4000	OLINADIGAN SCHYOTLAR	A
4010	Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar	
4020	Olingan veksellar	
4100	AJRATILGAN BO‘LINMALAR, SHO‘BA VA QARAM XO‘JALIK JAMIYATLARIDAN OLINADIGAN SCHYOTLAR	A
4110	Ajratilgan bo‘linmalardan olinadigan schyotlar	
4120	Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar	

4200	XODIMLARGA BERILGAN BO‘NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
4210	Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar	
4220	Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar	
4230	Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar	
4290	Xodimlarga berilgan boshqa bo‘naklar	
4300	MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA PUDRATCHILARGA BERILGAN BO‘NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
4310	TMQlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	
4320	Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	
4330	Boshqa berilgan bo‘naklar	
4400	BUDJETGA BO‘NAK TO‘LOVLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
4410	Budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha) (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
4500	MAQSADLI DAVLAT JAMG‘ARMALARIGA VA SUG‘URTALAR BO‘YICHA BO‘NAK TO‘LOVLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
4510	Sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari	
4520	Maqsadli davlat jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari	
4600	USTAV KAPITALIGA TA‘SISCHILARNING ULUSHLARI BO‘YICHA QARZINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
4610	Ustav kapitaliga ta‘sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi	
4700	XODIMLARNING BOSHQA OPERATSIYALAR BO‘YICHA QARZINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A

4710	Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi	
4720	Berilgan qarzlar bo'yicha xodimlarning qarzi	
4730	Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi	
4790	Xodimlarning boshqa qarzlari	
4800	TURLI DEB ITORLAR QARZLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
4810	Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qism (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr), (oldingi tahririga qarang)	
4820	Operativ ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	
4830	Olinadigan foizlar	
4840	Olinadigan dividendlar	
4850	Olinadigan royalti	
4860	Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar	
4890	Boshqa debitorlar qarzlari	
4900	DARGUMON QARZLAR BO'YICHA ZAXIRANI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	KA
4910	Dargumon qarzlar bo'yicha zaxira	
5-bo'lim. PUL MABLAG'LARI, QISQA MUDDATLI INVESTITSİYALAR VA BOSHQA JORIY AKTIVLAR		
5000	KASSADAGI PUL MABLAG'LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5010	Milliy valutadagi pul mablag'lari	
5020	Chet el valutasidagi pul mablag'lari	
5100	HISOB-KITOB SCHYOTIDAGI PUL MABLAG'LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5110	Hisob-kitob schyoti	
5200	CHET EL VALUTASIDAGI PUL MABLAG'LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5210	Mamlakat ichidagi valuta schyotlari	
5220	Chet eldagi valuta schyotlari	

5300		
5400		
5500	BANKDAGI MAXSUS SCHYOTLARDAGI PUL MABLAG‘LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5510	Akkreditivlar	
5520	CHek daftarchalari	
5530	Boshqa maxsus schyotlar	
5600	PUL EKVIVALENTLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5610	Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)	
5700	YO‘LDAGI PUL MABLAG‘ (O‘TKAZMA)-LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5710	Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari	
5800	QISQA MUDDATLI INVESTITSİYALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5810	Qimmatli qog‘ozlar	
5820	Berilgan qisqa muddatli qarzlar	
5890	Boshqa joriy investitsiyalar	
5900	KAMOMADLAR VA QIYMATLIKLARNING BUZILISHIDAN YO‘QOTISHLAR VA BOSHQA JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	A
5910	Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar	
5920	Boshqa joriy aktivlar	
II. qism. MAJBURIYATLAR		
6- BO‘LIM. JORIY MAJBURIYATLAR		
6000	MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA PUDRATCHILARGA TO‘LANADIGAN SCHYOTLAR	P
6010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar	
6020	Berilgan veksellar	

6100	AJRATILGAN BO‘LINMALAR, SHO‘BA VA QARAM XO‘JALIK JAMIYATLARIGA TO‘LANADIGAN SCHYOTLAR	P
6110	Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar	
6120	Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar	
6200	KECHIKTIRILGAN MAJBURIYATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6210	Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar	
6220	Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar	
6230	Boshqa kechiktirilgan daromadlar	
6240	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
6250	Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
6290	Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar	
6300	OLINGAN BO‘NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar	
6320	Aksiyaga obunachilardan olingan bo‘naklar	
6390	Boshqa olingan bo‘naklar	
6400	BUDJETGA TO‘LOVLAR BO‘YICHA QARZNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6410	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)	
6500	SUG‘URTA VA MAQSADLI DAVLAT JAMG‘ARMALARIGA TO‘LOVLAR BO‘YICHA QARZNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6510	Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar	
6520	Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar	

6600	TA'SISCHILARGA BO'LGAN QARZNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6610	To'lanadigan dividendlar	
6620	Chiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarz	
6700	MEHNAT HAQI BO'YICHA XODIM BILAN HISOBLASHISHLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6710	Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar	
6720	Deponentlangan ish haqi	
6800	QISQA MUDDATLI KREDITLAR VA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6810	Qisqa muddatli bank kreditlari	
6820	Qisqa muddatli qarzlar	
6830	To'lanadigan obligatsiyalar	
6840	To'lanadigan veksellar	
6900	TURLI KREDITORLARGA BO'LGAN QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6910	To'lanadigan operativ ijara (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	
6920	Hisoblangan foizlar	
6930	Royalti bo'yicha qarz	
6940	Kafolatlar bo'yicha qarz	
6950	Uzoq muddatli majburiyatlar-joriy qismi	
6960	Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar	
6970	Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarz	
6990	Boshqa majburiyatlar	
7-bo'lim. UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLAR		
7000	MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA PUDRATCHILARGA TO'LANADIGAN UZOQ MUDDATLI SCHYOTLAR	P
7010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar	

7020	Berilgan veksellar	
7100	AJRATILGAN BO‘LINMALAR, SHO‘BA VA QARAM XO‘JALIK JAMIYATLARIGA BO‘LGAN UZOQ MUDDATLI QARZ	P
7110	Ajratilgan bo‘linmalarga bo‘lgan uzoq muddatli qarz	
7120	Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz	
7200	KECHIKTIRILGAN UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
7210	Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar	
7220	Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar	
7230	Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar	
7240	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
7250	Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar (O‘zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV buyrug‘i tahriridagi satr)	
7290	Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar	
7300	XARIDORLAR VA BUYURTMACHILARDAN OLINGAN BO‘NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
7310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar	
7500		
7600		
7800	UZOQ MUDDATLI KREDITLAR VA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
7810	Uzoq muddatli bank kreditlari	
7820	Uzoq muddatli qarzlari	
7830	To‘lanadigan obligatsiyalar	

7840	To'lanadigan vekselar	
7900	TURLI KREDITORLARGA BO'LGAN UZOQ MUDDATLI QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
7910	To'lanadigan moliyaviy ijara (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i taxriridagi satr)	
7920	Turli kreditorlarga bo'lgan boshqa uzoq muddatli qarzar	
IV QISM. XUSUSIY KAPITAL		
8-bo'lim. KAPITAL, TAQSIMLANMAGAN FOYDA VA ZAXIRALAR		
8100		
8200		
8300	USTAV KAPITALINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
8310	Oddiy aksiyalar	
8320	Imtiyozli aksiyalar	
8330	Pay va ulushlar	
8400	QO'SHILGAN KAPITALNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
8410	Emissiya daromadi	
8420	Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi	
8500	ZAXIRA KAPITALINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
8510	Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV, yerug'i tahriridagi satr)	
8520	Zaxira kapitali (fondi) (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	
8530	Tekinga olingan mulk	
8600	SOTIB OLINGAN XUSUSIY AKSIYALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	KP
8610	Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy	

8620	Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli	
8700	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schyotlar	
8710	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)	
8720	Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)	
8800	Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar	
8810	Grantlar	
8820	Subsidiyalar	
8830	A'zolik badallari	
8840	Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari	
8890	Boshqa maqsadli tushumlar	
8900	Kelgusi xarajatlar va to'lovlar zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar	
8910	Kelgusi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari	
V QISM. MOLIVAVIY NATIJALARNING SHAKLLANISHI VA ISHLATILISHI		
9-bo'lim. DAROMADLAR VA XARAJATLAR		
9000	ASOSIY (OPERATION) FAOLIYATNING DAROMADLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9010	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar	
9020	Tovarlarni sotishdan daromadlar	
9030	Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar	
9040	Sotilgan tovarlarning qaytishi	
9050	Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar	
9100	SOTILGAN MAHSULOT (TOVAR, ISH, XIZMAT)LARNING TANNARXINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9110	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi	
9120	Sotilgan tovarlarning tannarxi	
9130	Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi	
9140	Davriy hisobda TMZ sotib olish (xarid) qilish	
9150	Davriy hisobda TMZ bo'yicha tuzatishlar	

9200	ASOSIY VOSITALAR VA BOSHQA AKTIVLARNING CHIQIB KETISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9210	Asosiy vositalarning chiqib ketishi	
9220	Boshqa aktivlarning chiqib ketishi	
9300	ASOSIY FAOLIYATNING BOSHQA DAROMADLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9310	Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda	
9320	Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda	
9330	Undirilgan jarima, penya va ustamalar	
9340	O'tgan yillar foydalari	
9350	Operativ ijaradan daromadlar (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i taxriridagi satr)	
9360	Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar	
9370	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari	
9380	Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam	
9390	Boshqa operatsion daromadlar	
9400	DAVR XARAJATLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9410	Sotish xarajatlari	
9420	Ma'muriy xarajatlar	
9430	Boshqa operatsion xarajatlar	
9440	Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	
9500	MOLIYAVIY FAOLIYAT DAROMADLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9510	Royalti ko'rinishidagi daromadlar	
9520	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar	
9530	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar	
9540	Valutalar kurslari farqidan daromadlar	
9550	Moliyaviy ijaradan daromadlar (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	

9560	Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar	
9590	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	
9600	MOLIYAVIY FAOLIYAT BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9610	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	
9620	Valutalar kurslari farqidan zararlar	
9630	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar	
9690	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	
9700	FAVQULODDAGI FOYDA (ZARAR)LARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	T
9710	Favquloddagi foydalar	
9720	Favquloddagi zararlar	
9800	SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASH UCHUN FOYDANING ISHLATILISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	T
9810	Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar (O'zR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	
9820	Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha xarajatlar (O'zR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	
9900	Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar	
9910	Yakuniy moliyaviy natija	
VI QISM. BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR		
001	Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar (O'zR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi satr)	BT
002	Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar	BT
003	Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar	BT

004	Komissiyaga qabul qilingan tovarlar	BT
005	Oʻrnatish uchun qabul qilingan uskunalar	BT
006	Qatʼiy hisobot varaqlari	BT
007	Toʻlashga qobiliyatsiz debitorlarning zararga oʻtkazilib hisobdan chiqarilgan qarzi	BT
008	Majburiyatlar va toʻlovlarni taʼminlash – olingan	BT
009	Majburiyatlar va toʻlovlarni taʼminlash – berilgan	BT
010	Moliyaviy ijara shartnomasi boʻyicha berilgan asosiy vositalar (OʻzR AV 25.05.2009-y. 1181-2-son bilan roʻyxatga olingan OʻzR MV buyrugʻi tahriridagi satr)	BT
011	Ssuda shartnomasi boʻyicha olingan mulk	BT
012	Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar	BT
013	Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari boʻyicha)	BT
014	Foydalanishdagi inventar va xoʻjalik jihozlari	BT

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2012.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni. –T., 1996.

3. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-fevraldagi PF-4191-sonli Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 9 son, 2010-yil 9-mart.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod turmush yili” davlat dasturi to‘g‘risidagi qarori. PQ-1920-sonli 14.02.2013-yilgi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori. PQ-1041-sonli 2009-yil 20-yanvar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi farmoni // Xalq so‘zi, 2005-yil 15-iyun.

II. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me‘yoriy hujjatlari

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to‘g‘risida 54-sonli qarori. 1999-yil 9-fevral.

8. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «1-yanvar holati bo‘yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizom. O‘Z AV tomonidan 1192-son bilan ro‘yxatga olingan –T., 2002.

9. O‘zbekiston Respublikasining 20-sonli «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida hisob yuritishning soddalashtirilgan shakli va hisobot tuzish to‘g‘risida»gi BHMS. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 24-yanvarda ro‘yxatga olindi.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

10. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasini 2020-yilning 1-choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to‘g‘risida. //Xalq so‘zi 2020-yil 1-may, № 93-84 (5757-5758) 6-bet.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” nomli ma‘ruzasi. //Xalq so‘zi, 2013-yil 19-yanvar, № 13 (5687)).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2020-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2020-yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” nomli ma‘ruzasi. 2020-yil 18-yanvar, 19-b.

13. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zi. – T.: O‘zbekiston, Xalq so‘zi gazetasi. 2011-yil 1-sentabr, № 171 (5338).

14. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza), //Xalq so‘zi, 2010-yil 13-noyabr (№ 220).

IV. Darsliklar

15. Jo‘rayev N., Abduvaxidov F., Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2012, 481 b.

16. Бреславсева Н.А., Михайлова Н.В., Гончаренко О.Н. Бухгалтерский учет. Учебник. – Ростов н/Д: Феликс, 2012, 318 с.

17. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Yangi nashr, 2011, 312 b.

18. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. –Т.: Cho‘lpon, 2011, 200 b.
19. Нечитайло А.И. Теория бухгалтерского учета: учеб. Россия. –М.: Проспект, 2010. – 272 с.
20. Кондраков Н.П. Бухгалтерский (финансовый, управленческий) учет: учеб. – М.: Проспект, 2009. – 448 с.
21. Шиленко С.И. и др. Основы аудита: учебник.– М.: КНОРУС, 2009.–152 с.
22. Кутер М.И. Теория бухгалтерского учета: Учебник. 3-э изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2008.- 592 с.
23. Соколова Э.С. Бухгалтерское дело: учебник. – М.: Высшее образование, 2008.- 328 с
24. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов. / Под ред. проф Ю.А. Бабаева. –М.: Вузовский учебник, 2006.–525 с.
25. Sotivoldiyev A. S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. Darslik. –Т.: ВАМА, 2005.
26. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik –Т.: Sharq, 2004.-592 b.

V. O‘quv qo‘llanmalar

- 27.Эргашева Ш.Т. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. / – Т.: Иқтисод-молия, 2011. -520 с.
28. O‘razov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. –Т.: Adib, 2011, 488 b.
29. Каспина Р.Г., Плотникова Л.А. Бухгалтерский учет внешнеэкономической деятельности: учеб. пособ. Россия. –М.: Эксмо, 2010. – 432 с.
30. Эндовитский Д.А., Ишкова Н.А. Учет сенных бумаг: учеб. пособ. Россия. –М.: КНОРУС, 2010. – 384 с.
31. Каспина Р.Г., Плотникова Л.А. Бухгалтерский учет внешнеэкономической деятельности: учеб. пособ. Россия. –М.: Эксмо, 2010. – 432 с.
32. Зонова А.В. и др. Бухгалтерский учет и анализ: учеб. пособ. /Под ред. А.В. Зоновой. – М.: Эксмо, 2009. – 512 с.
33. Каморджанова Н.А., Карташова И.В. Бухгалтерский финансовый учет. 4-э изд., доп. – СПб.: Питер, 2009. – 288 с.

34. Захарин В.Р. Учет основных средств и нематериальных активов: справочник бухгалтера: практ. руководство. -М.: Эксмо, 2008.- 320 с.

35. Константинова Э.П. Международные стандарты финансовой отчетности: учеб. пособ. – М.: Дашков и К., 2008. – 288 с.

36. Петрова В.И. и др. Бухгалтерский учет, анализ и аудит деятельности страховых организаций. – М.: ФиС, 2008. – 400 с.

VI. Statistika to‘plamlari ma’lumotlari

37. //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. –Т., 2020–2015-yillar.

38. Bozor, pul va kredit. –Т., 2020–2015-yillar.

39. Bank axborotnomasi. Gazetasi. 2020–2015-yillar.

VII. Internet saytlari.

40. «Norma” 2015.

41. “Pravo” 2015.

ERGASHEVA SHAXLO TURG‘UNOVNA,
MAVLYANOVA DILOBAR MAHKAMOVNA,
TEMIROV FURQAT TURSOATOVICH

BUXGALTERIYA HISOBI

O‘quv qo‘llanma

*Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021*

<i>Muharrir:</i>	<i>N. Abdullayeva</i>
<i>Tex. muharrir:</i>	<i>A. Moydinov</i>
<i>Musavvir:</i>	<i>A. Shushunov</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>L. Ibragimov</i>
<i>Kompyuterda sahifalovchi:</i>	<i>M. Zoyirova</i>

*E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.*

Bosishga ruxsat etildi 8.09.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 18,5. Nashriyot bosma tabog‘i 18,0.

Tiraji: 5. Buyurtma № 168

*«INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi, 7-uy.*



ISBN 978-9943-7423-3-8

